**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN**
**VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

**O‘ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI**

**RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI**
**IJTIMOIY-MA’NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

# “YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA MA’RIFATPARVARLIK G’OYALARINING AHAMIYATI”

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman to’plami**
***(2025-yil 22-may)***

**Toshkent - 2025**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida o‘z ahamiyatini topgan V bob – “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” masalasi ijrosi yuzasidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 490-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining 2025-yil 29-yanvardagi “Universitetda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar to‘g‘risida”gi 4/D-sonli buyrug’i asosida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida “Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish jarayonida ma’rifatparvarlik g’oyalarining ahamiyati” mavzusida o’tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.


**Mas’ul muharrir:**
Zamonov Zokir Turg’inovich –
siyosiy fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Narshrga tayyorlovchilar:**
Xushmatova Gulnoza,
Xayrullayeva Aziza,
Shokirova Mubina


© **O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

# HISTORICAL SIGNIFICANCE OF ABDURAUF FITRAT'S CONCEPT OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN EDUCATION OF YOUTH

***Vahob Kuchkorov,***
*Doctor of Political Sciences,*
*Professor of the Department of Philosophy at TSUE*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning milliy o‘zlikni anglash konsepsiyasining yoshlar tarbiyasidagi tarixiy ahamiyatiga urg‘u qaratilgan.Unga asosan bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblangan milliy o‘zlikni anglash masalalariga e’tibor qaratilgan. Tabiiyki, maqolada jadidchilarning ilg‘or vakillaridan hisoblangan Abduraf Fitratning asarlari orqali Vatanga sadoqat, tilga mehr muhabbat kabi jihatlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, yozuvchi fikricha Vatanning oldingiday taraqqiy etishi, gullab yashnashining yagona va birdan bir yo‘li uning farzandlarini birlashtirishdir degan fikrlari o‘zlikni anglash orqali tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar**: o‘zlikni anglash, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, Vatan, til, madaniyat, yoshlar.

From the first days of independence, Uzbekistan put the issues of understanding the national self-consciousness, feeling of national pride, restoring and developing our spirituality among the main issues on the agenda. However, it would be wrong to agree that the perception of the national self-consciousness started only after independence.

In fact, the issue of national self-consciousness has been a major issue since ancient times. The ancient Greek philosopher Phales said on this issue: “Understanding your own self is the most difficult thing here." From this it follows that the issue of national self-consciousness is an extremely complex and very important issue. Its importance is manifested in solving such vital tasks as forming devotion to the motherland and the state in each individual member of society, explaining who our ancestors were and who we should be, forming continuity to their scientific heritage.

Speaking about the phenomenon of national self-consciousness, it should be noted that when the communist ideology was formed, without contributing to the national uplift (prosperity) of the peoples, the system aimed at destroying their national wealth, traditions of these nations, thus seeking to turn them into a subordinate nation. Although the programmes of the ideology that existed at that

time contained such concepts as "homeland", "state", "country" and "culture", these programmes, in their essence and content, did not take into account the desires, goals and aspirations of indigenous peoples and did not serve their development. On the contrary, it led the indigenous people to the crisis of their national culture.

But having realised in time that such problems could destroy the society, Munavvar Kari Abdurashidkhanov pointed out that the Bolsheviks understood the essence and meaning of such words as "nation, motherland, culture..." differently, and implemented their nefarious intentions through these words (masked by them). The reason is that already at the time of the October Revolution there were many obstacles to national self-consciousness. To remove such obstacles, the mature scholars of their time, representatives of the doctrine of Jadidism, whose aim was the liberation of the motherland and the elevation of the national consciousness of the people, took the idea of enlightenment to greater heights during the colonial period.

These were Mahmudxuja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir and others. In their activity they were determined to uplift the people, to make the nation realise itself.

From ancient times to the present day, the issue of national self-consciousness has been treated as one of the main issues in the focus of the writers and scholars.

So the question arises, "what is to be understood by self-consciousness?"

Self-consciousness means knowing one's homeland and the past of the people, nation living in that homeland, its culture, traditions, and values.

Self-consciousness is the realisation of one's people's contribution to the development of the world community since time immemorial.

Self-consciousness means perfect knowledge of the history of bygone ancestors, respect for their memory. In addition, self-consciousness is also a desire to serve a bright future by defining the rich cultural and material heritage in the territory of the homeland, to contribute for the benefit of future generations. Self-consciousness does not mean limiting oneself to knowing only one's own history. It is also to raise the fame and name of one's nation and homeland taking into account its modern opportunities.

The above definitions show that the process of self-consciousness of a nation is treated differently in different scientific literature. But essentially, they are close to each other.

Doctor of Political Sciences, Professor V. Kuchkorov analyses the meanings of the concepts "self-consciousness" and "national self-consciousness" and gives the following explanation: "self-consciousness is considered as a person's cognition of his or her place in objective reality, perception of his/her individual aspects in social relations, manifested in the relation of his/her own "self" and life goals to other "selves" and their life goals. National self-consciousness is a certain level of self-consciousness. National self-consciousness is the perception of the belonging of a nation and each member of that nation to a common cultural foundation, language, culture, historical heritage, spirit, customs and traditions, and of his or her place in them"[1].

The thesaurus of philosophy gives the following definition to the concept of national consciousness. "National self-consciousness is the perception by each people (nation) of itself as a really existing subject, which expresses certain material and spiritual values, and has a common language, belongs to common customs, traditions, values and state, and, of common interests and needs"[2].

The beginning of the 20th century was a period of increasing colonial pressure on our country, and it was during this period that the issue of national self-consciousness became extremely relevant. It was Abdurauf Fitrat, a true defender of the nation, whose heart burned for his motherland in such difficult times, who strove for the nation to finally achieve its national consciousness, who strove to elevate its national pride. In his treatise "The issue of Oriental world", in his drama "The Tragedy of Abulfayzkhan", in his poetic works "Ruined Graves" Fitrat shows that the people suffer from the existing vices of social life, and emphasises that it is necessary to raise their national consciousness, and promote national self-consciousness.

Also, most of Fitrat's poems fervently raise the issue of national self-consciousness. Among these, we can name such poems as "Sorrow for the native land", "Instruction", "East", "To the Land of Teachers". Every stanza of these poems is imbued with a sense of love for the Motherland and national consciousness, and it would not be an exaggeration to say that Fitrat's these works and poems have served and continue to serve as programme material in understanding the national consciousness of the Uzbek people.

In the poem "Sorrow for the native land" Fitrat refers to the Motherland as "my mother", addresses her with the words: "...is my life needed to save you?

My mother! Is my life needed to save you?

Maybe my honour, conscience and faith is needed?

Through these stanzas: "Native land, do you need my life to save you, or your "children", who hid seeing this state of yours, need my honour, faith, conscience to save you? - the poet expresses his sorrow, remorse.

The Land of Turan, look, your lads, look at them all, are on their feet,

Maybe it takes a lion to guard the native land.

With these verses the poet completes the idea that the country needs lion-like lads to be the guards, that is, the shield of the native land. It can be seen from this that the Fitrat's thoughts, expressed in this poem are given in the spirit of not only appealing to the youth of the motherland, but also calling them to the freedom of the motherland, peace in the country, and to realise their national self-consciousness. Even living in such a dangerous time, Fitrat cared about his native land and could express his dissatisfaction with the politics and regime of the time. In a word, he was able to show spiritual courage, and this spiritual courage will serve to educate the youth of our country into patriots.

Any citizen tries to find an answer to the question, "Since I am a child of this nation, where is the beginning of our nation?" [3]. Fitrat did a lot of work for the nation and its prosperity, linked each of his poems with the life of the nation and worked hard to develop the spirituality of the people.

In his black verse "Sadness about the native land" Fitrat is deeply saddened by this state of the motherland and gives the following thoughts:

“Hey, you great Turan, the land of lions!

What has happened to you? What is your state? What dark days are you in now?!

Hey, the great cradles of Genghis Khan, Timur, Uguz and Otil! Where are those victorious high positions? Why have you fallen into the pits of slavery?!

Where are your lion-hearted sons, who had scared the world with their "punch-and-blow" Where are your mountain figured sons, who could raise the soil to the heavens? Why are their voices silent?

Where are your courageous turks, who were but a few wrestlers of the world? Why have the retreated? Why have they gone? Why have they left the battlefield to strangers? Why… Why… Why...? What has happened to you?!

Was it not you to build the great kingdoms of the earth? Was it not you to send governors of India, Iran and Europe? Hey, you the cradle of governors! Hey, you the mother of heroes! Where are your governors, who fought as lightning?

Where are your horse mounted local beks, who were fast as bullets? Why do we not hear you "punch-and-blow" shouts? Why have your kingdoms, who

had conquered the people of the world? Why has your kingdom, which took the humanity under its arms, lost its power? Have you lost your force? Is there no one around now?

No…No …for God's sake. no! ...You are not weak; you are not alone! You have eighty million children in the world. Their blood carries Genghis Khan's, Timur's blood. Their power is your power!

Hey, you great Turan, the land of lions!

Do not be sad! Your old state, your old kingdom, your old lads, your old lions are all here, none has been lost.

Alone…Oh, have spread… alone" [4].

In this blank verse, Fitrat tries to show that the only reason Turkestan was in this position was because its children could not unite and each acted in a scattered way in their own interests. The one and only way in which the Motherland can develop, prosper as it once did, is for its children to unite. The poet shows again and again that the restoration of the former position of the Turkestan region is possible only if every man puts the interests of the motherland above his own, works first of all not for himself, but for the good of the motherland.

In the poem "To the Star Mars," Fitrat expresses his hatred for the "traitors" who destroy the homeland from within, acting solely for their own benefit: Meanness, humiliation, what goes on in our home, Tell me, star, will the same thing happen in your bosom?

Do you have the people like ours,
Two-faced destroyers of affairs, devils.
Leeches who drank their neighbour's blood without getting satisfied,
Leopards, who ate the relative's flesh and didn't get fed?
Do you have those, you drank the poor's blood
By talking intrigues like beasts?
Do you have those, who put fire in one land,
And prepare food in their own ovens.
For the purpose of filling their bellies?
Who had betrayed and sold their people, motherland and all? [5]

In this poem Fitrat curses the rulers who put their own interests above the interests of the nation, of their country, who cannot understand what national consciousness, honour, pride are, who drink the blood of their friends like leeches, who insatiably eat the flesh of brother nations, drink the blood of the

poor like wolves, who live exposing the country to misery, and emphasises that they are the main causes of the destruction of the motherland.

In his poem “Advice”, Fitrat challenges every member of society, in particular men-youth, to act for the motherland, for the nation, to love the native land:

Heavy guy, in your beautiful, radiant eye
I've read the happiness, blessing of this nation.
In your thinking, in your standing and in your own self
I saw the salvation for this land.
Do not stand still - run, do not stop – endeavour, do not get stooped - rise high,
Do not scare - get involved, do not be afraid –go and grasp, do not lie lazily –get agitated.
Old clouds that are blocking the way of the native land
Burn, tear away, destroy all.
If you can't do these things,
It will be humiliation for you…
Fall, disappear, go away! [6]

In this poem, Fitrat appeals to the young man to run without remaining still, to endeavour constantly, to rise without stooping, to take up the struggle for the freedom of the motherland without flinching, to endeavour to act for the good of the motherland at all costs, and inspires the lad by telling him that: "because in your shining eyes I read the happiness, blessing of this nation, the deliverance of the nation from humiliation in your thoughts, in your stand, and also in you yourself." Here the poet tests, awakens youthful pride, urging:" if you do not remove the clouds blocking the way of the fatherland, it will be a humiliation for you, it is better not to live in this universe; fall, disappear, go away", and as a result endeavours to awaken national consciousness. It would not be wrong to say that this was a call that Fitrat made not only to the lads of the day, but to himself. Because the poet considers every child, including himself, responsible for the fate, the fate of the Motherland, the people. It will not be an exaggeration to say that Fitrat was a brave son who lived with a sense of national pride and honour.

Fitrat also emphasised the place of language in the question of national identity and made the following points: 'Which language is the richest, most miserable in the world? You know? It is Turkish. I don't want to be a poet, that is the truth. The richest language in the world is Turkish, and the most unfortunate

language is Turkish. The unhappiness of languages is what happened under the Soviet rule, and those who say that they were happy before are speaking without knowing the state of our language. The wealth of a language is understood by the plurality of a word, the breadth of a word, the utter completed meaning of a word. The Turkish language is unfortunate. It has been under pressure and tyranny for a thousand years, but not finished. It is inexhaustible, it is eternal - and it lives. For it is rich. It still lives, but will it be able to salvage itself from Arabic, Persian?” [7].

Fitrat did not mention these points in vain, for of the components necessary for the existence of a nation, the most important is, above all, the mother tongue. Because every nation feels proud of its language, realises and expresses itself. For a nation to be independent, it is necessary for its language to exist, to be independent. Fitrat also recognised the seriousness of the problem and outlined how deeply concerned he was about whether our language could free itself from the evils of Arabic and Persian.

We Are all aware that Alisher Navoiy proved that Turkic is the richest language in the world. Nevertheless, by the nineteenth and twentieth centuries, the position of the Uzbek language had declined greatly, and the enlighteners of the time suffered greatly from this. They tried hard to restore the position of the Uzbek language. They tried to awaken in the hearts of the younger generation a sense of love for their nation and homeland, as well as to cultivate in them a sense of love for their language.

Fitrat was also well aware that upbringing plays an important role in inculcating national consciousness in the minds of the youth. In fact, unless a person receives a good upbringing from a young age, raising them later will be a very difficult task.

Fitrat's idea of national self-consciousness has a great positive influence on public life, especially on the education of young people. This influence is manifested in the formation of young people's sense of belonging to the progress of their country, the prosperity of their homeland, and the struggle for independence. Self-consciousness is important in the future with self-determination; it increases the sense of responsibility.

National self-consciousness is a process that comprehension of its content, understanding of its essence serves to form in a person a sense of inexhaustible kindness, compassion, improvement of moral qualities inherent in man as a whole.

Self-consciousness of the nation changes the feelings, will, psyche, moods of the nation, has a certain effect on people's lifestyle. It should be noted that self-consciousness is not limited only to the fact that the nation knows how to protect its own goals and interests. It also has a positive effect on the development of the social, economic, spiritual, cultural development of the country.

National self-consciousness also positively resolves social problems, initiates operation of internal moral and material resources, helps movement of the society towards progress. In this sense, the self-consciousness of a nation is an important sign for the nation, it finds a wider expression in national pride.

When it comes to national pride, it is important that we never lose sight of the sensitivity of the issue. National pride should not be exalted by envy, but by admiration. Most scholars who have expressed an opinion on pride have weighed the pros and cons of the phenomenon on the scales of reason. As can be seen from the above points, pride, as noted, is an extremely unique and delicate process. For this reason, each propagandist is obliged to approach the issue from his or her own point of view, based on his or her common sense, and put it into practice by drawing the appropriate conclusions from thoughts about national pride.

Based on the above ideas and considerations, we can identify a number of criteria of national self-consciousness: a person's awareness of the unity and value of the land where he or she was born and reached adulthood; a person's deep knowledge of his or her national language and careful preservation of it; a person's deep study and preservation of the national-spiritual heritage and culture of the nation; a person's continuous study of the history of his or her state and nationality. Also, as a result national self-consciousness, an individual learns who his or her ancestors were, their contribution to world science and culture, and strives to become a worthy successor to them.

At present, one of the highest tasks of national consciousness is to help overcome the vices of personality, localism and nepotism. Promotes and serves in ensuring the prosperity and co-operation of the people who have long lived as one body, one soul, and of this country.

**REFERENCES:**

1. Қўчқоров В. “Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётининг демократиялашиши жараёнида миллий ўзликни англаш муаммоси” сиёсий-фалсафий таҳлил. Сиёс.фан.док. ...дисс.автореф. – Т.: 2009. 12-б.

2. Фалсафа қисқача изоҳли луғат / Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У.Абилов ва бошқ.: Масъул муҳаррир: А.Жалолов. -Т.: «Шарқ», 2004. -204 бет. 384.
3. Ўзбекистон тарихи 1-сон 2002-йил. Матбобоев. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси.
4. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/ Abdurauf%20 Fitrat.%20Yurt%20qayg'usi.pdf.
5. Фитрат. Чин севиш. Шеърлар, драмалар, мақолалар. Маъсул муҳаррирлар. Б.Қосимов С.Эркинов. –Т: Ғ.Ғулом нашриёти. 1996. 26-бет.
6. Фитрат. Чин севиш. Шеърлар, драмалар, мақолалар. Маъсул муҳаррирлар. Б.Қосимов С.Эркинов. –Т: Ғ.Ғулом нашриёти. 1996. 36-бет.
7. «Иштирокиюн» рўзномасининг 1919 йил 12 июндаги 32 сони.

## XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O‘LKASIDAGI MA’NAVIY-AXLOQIY JAMIYATLAR

***Zamonov Zokir Turg’inovich,***
*O’zDJTU kafedra mudiri,*
*siyosiy fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Har qanday islohotning samarasi avvalo xalqning ma’naviy-ruhiy yangilanishi, tafakkurining yuksalishi, yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga va taqdiriga daxldor ekanligi bilan belgilanadi.

Biz asoslab o‘tmoqchi bo‘lgan, ma’naviy-axloqiy muassasalarning jamiyat uchun zarurligi shunda ko‘rinadiki, davlat qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ma’naviy salohiyat va yuksak axloqiy fazilatga ega bo‘lgandagina haqiqiy demokratiya yuzaga keladi. Buni shunday tushunish mumkinki, avvalo, mustaqillik sharofati bilan manaviyat yagona mafkura zug‘umlaridan ozod qilinib, hur fikrga, milliy tafakkurga keng yo‘l ochildi. Sobiq mustabid tuzum davridagi mafkuraning yakka hokimligidan voz kechildi, endi jamiyat a’zolarining qarashlari o‘zgardi, hurfikrlilik qaror topmoqda. Xalqning, millatning ma’naviy saviyasi o‘sdi, rivojlandi. Demak, jamiyat a’zolarining har biri mustaqillik tafakkuriga ega bo‘lsa, ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy-siyosiy tamoyillar uyg‘unlashsagina, jamiyat rivoj topadi – jamiyatda faoliyat yuritayotgan institutlarning maqsadi ro‘yobga chiqadi. Professor U.Idirov “Demokratiya institutlarining samarali faoliyat yurgiza olmasligi oqibatida jamiyatda demokratiyaga qarshi bo‘lgan kuchlar jonlanib qolishi ham mumkin bo‘ladi. Demak, demokratik institutlarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash,

legitimligini ta'minlash uchun, avvalambor, ularning samaradorligiga erishish bilan bog'liq muammolar o'z yechimini topishi lozim [1]", deya uqtiradi.

O'tgan asrga nazar tashlsaydigan bo'lsak, "Milliy uyg'onish" kitobining Abdulla Avloniy tarjimai holida shunday jumlalarni o'qiymiz: ...1904 yillardan ish boshlagan milliy "uyushma" haqidagi gapga hech qanday mubolag'a yo'q... "Turkiston jadidlari siyosiy jamiyatlar jadid partiyasi tuzishga harakat qildilar", deb yozadi A.V.Pyaskovskiy va "Туркестанские ведомости"ning 1906 yil sonlarida "Asxabod" gazetasining o'sha yili 24 sentabr sonidan ko'chirib bosilgan "Hozirgi Eski Toshkentning tub-joy xalqi orasida musulmonlarning Nijegoroddagi so'nggi sezdi ishlab chiqqan yangi tipdagi maktablar ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan "Hurriyat jamiyati" ("Общество свободы") tuzilmoqda [2], deb qayd etiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, jadidlar davrida jamiyatning milliy ruhini uyg'otuvchi, jamiyatda xurlik va erkni qaror toptirishga birlashuvchi Hurriyat jamiyatlari (ma'naviy-axloqiy jamiyatlar – *Z.Z.*) tuzilgan edi.

Bu singari jadidchilik uyushmalarining tashkilot, institut sifatidagi maqomga ega ekanligi ularning o'z dasturlari, nizomlari va talablari ham ishlab chiqilganligidan yaqqol ko'zga tashlanadi[3]. Xususan, yuqoridagi fikrimizni tasdig'i sifatida bunday Hurriyat jamiyatini boshqa hududlarda ham borligi, ularning o'z nizomlari ham borligi haqida A.Avloniy Samarqandda ham shunday jamiyatlar bo'lganligini, hatto A.V.Pyaskovskiy jadid to'garaklarining hatto Semireche va Verniyda ham bo'lganligi, ularning joriy nizomlari ham mavjudligi haqida dalillar keltiradi.

Sovet hukumati davridagi ijtimoiy muassasalarning deyarli barchasi millatning erki, hurlik bayrog'i ostida jamiyatdagi barcha fuqarolarning manfaatlarini bir yoqlamalikdan qutqarish, yagona mafkuradan holi etish bo'lgan. Ular tom ma'noda, oldiga qo'ygan maqsadlariga erishmagan bo'lsa-da, lekin ularning ishlab chiqqan nizom va talablari hurlik jamiyati a'zolarining erkin nafas olishga bo'lgan ishtiyoqini namoyon etib bergan.

XX asrning 30-40 yillaridagi sovet madaniy siyosatining umumiy yo'nalishi ma'naviy hayotning milliy asoslariga putur yetkazishdan iborat bo'ldi. Ma'naviy sohada sinfiy soflikni qaror toptirish niqobi ostida milliy madaniyat mazmuni jadallik bilan bema'nilashtirib borildi, xalqni uning boy ma'naviy merosidan ajratib qo'yish jarayoni keng miqyosda avj oldirildi. "Inqilob"dan oldingi yaratilgan barcha narsalarni sinfiy jihatdan shubhali deb hisoblash yo'li rasman qaror toptirildi[4].

Sovet tuzumidagi yakka mafkuraga bo‘lgan harakatlar milliy uyushmalar, jamiyatlarning tashkil etilishiga, ularning to‘la qonli faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilib keldi. XX asrning 90-yillariga qadar bu harakatlar, qolaversa, liberalizm (erkinlashtirish) bo‘g‘ildi.

Millatni hukmron totalitar jamiyatga bo‘ysundirish mashinasi shiddat bilan yurib, o‘sha davrda davlatdan mustaqil faoliyat yuritadigan, ijtimoiy-ma’naviy hayotni erkinlashtiruvchi demokratik-axloqiy muassasalar yo‘q qilindi. Bor bo‘lgani ham bosh ko‘tarib o‘z g‘oyalarini ilgari surib chiqa olmadi. Kommunistik partiya hukmronligi to‘la qaror topib, boshqa barcha ijtimoiy harakatlar, jamoat birlashmalari hamda bong urib chiqqan partiyalarning boshi egildi.

Iqtisodiy dunyoqarash sohasida ma’lum darajada erkin fikrlashga yo‘l qo‘ygan chor idora usulidan, demokratik institutlarni joriy etishga intilgan muvaqqat hukumatdan farqli o‘laroq, Rossiyada bolsheviklar hokimiyatni qo‘lga olgan dastlabki kunlardan boshlab mustabid jamiyatni barpo etish yo‘lini tutdilar, uning o‘ziga xos belgilari shaxsga, aholi va butun-butun xalqlarning xilma-xil qatlamlariga nisbatan zo‘ravonlik va siyosiy genotsidni tatbiq etish edi[5].

1917-yillarda jamiyat siyosiy-ijtimoiy, va qolaversa, ma’naviy-madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan “Ittifoq” jamiyati [6] faoliyat yuritgan bo‘lib, mazkur Jamiyatning sho‘balari Farg‘ona, Samarqand, Andijon shaharlarida ham faoliyat ko‘rsata boshladi. Jamiyat 1917 yilning 25 aprelidan boshlab o‘zining “Ulug‘ Turkiston” gazetasini chop qila boshladi va mahalliy aholining milliy istiqbolga erishish harakatiga, ya’ni milliy ozodlik harakati davrida yonma-yon kurashdi[7].

Soha olimi B.Qosimov: Ismoilbek 1908 yilda “Ilm va ma’rifat davri” maqolasida “bir millatning quvvat va matonati uning saodati va farog‘ati ahlining oz-ko‘pligi bilan emas, a’zolaridagi madaniyat va taraqqiyotga omil hayotiy xususiyatlarining darajasi bilan o‘lchanadi”[8], degan fikrni aytib o’tishini ta’diklaydi.

An’anaviy fikrlash tarzidan yangicha fikrlash tarziga o‘tish oson kechmaydi, negaki bu – mafkuraviy transformatsiya jarayonining muhim belgisidir. Shaxs o‘zi uchun odatiy bo‘lib qolgan fikrlash tarzidan osonlikcha voz kecholmagani singari mafkuradan xalos bo‘lish ham yengil kechmaydi. Bunga mustahkam iroda, qat’iy intizom va keng dunyoqarash, tarixiy xotiraga ega bo‘lish kerak bo‘ladi. Jamiyatimizda uzoq davr davomida tarkib topgan

madaniy va tarixiy qadriyatlarni qayta tiklash mafkuraviy tranformatsiyaning jadallashtirishni talab qiladi.

Sovet hukumati davridagi ma’naviy bo‘hronlarni supurib tashlash uchun yetarlicha kuch yo‘q edi va bu jarayon xalqning millat hurriyatini yoqlab chiqishi uchun har qanday ko‘rinishdagi bosh ko‘tarishlarni keltirib chiqardi.

O‘zbekiston istiqlolga erishganidan so‘ng mamlakatni yanada modernizatsiyalash, demokratik islohotlarni tizimli amal oshirish uchun mashaqqatli va uzoq davom etadigan davri turganligi, bu boradagi ishlarni kengaytirishda, tamal toshini qo‘yishda bir qancha zarur ijtimoiy muassasalar, madaniy, ma’naviy institutlar, tuzilmalarni ishlab chiqish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarur edi. Natijada, ko‘pmillatli bo‘lgan bizning mamlakatimizda barcha millatlarning hamjihatligiga ko‘makdosh, ularning manfaatlarini ta’minlovchi, millatimizning o‘tmishdan qadrlangan an’analari, boy tarixiy merosi va urf-odatlarini bus-butunligicha kelajak avlodlarga yetkazishga mas’ul, umuman olib qaraganda, ijtimoiy-madaniy dinamikaga to‘la amal qiladigan institut tizimini rivojlantirish va uning amal qilishini tizimlashtirish ehtiyoji tug‘ildi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda ma’naviy-axloqiy jamiyatlarga, muassasalarga bo‘lgan talabni kuchaytirdi.

Ma’naviy-axloqiy muassasalar jamoani muayyan g‘oya – milliy g‘oya va mafkuraga sadoqatli va shu asosda jamiyatda faol ishtirok etishni ta’minlash, fuqarolarning manfaatlari uyg‘unlashuvini yuzaga chiqarishda institutlashuv talabidan kelib chiqishi lozim.

Ma’naviy-axloqiy institutlar tom ma’noda xalq xohishi va intilishlarini ifodalovchi ijtimoiy uyushmalarning sistemalashgan tizimi hisoblanadi. Bu muassasalar substansional kelib chiqishi jihatidan fuqarolarning ma’naviy saviyasini oshirishga, o‘zligini anglashga qaratilgan, ixtiyoriy tarzda birlashishga, fuqarolarning axloqiy sifatlariga ega bo‘lishga undovchi institutlashuv jarayoni sifatida tushuniladi.

Shu jihatdan, ma’naviy-axloqiy institutlar jamiyat a’zolarining axloqiy-meyoriy xarakterini yuksaltiruvchi, ma’naviy-ruhiy o‘zligini namoyon etishiga xizmat qiluvchi muassasa – tashkilot, deyish mumkin.

Ma’naviy-axloqiy institutlarning fuqarolarning jamiyatdagi faolligi, ma’naviy-mafkuraviy erkinligini ko‘rsatib o‘tuvchi, bunga sharoit yaratib beruvchi tizim sifatida harakatlantiruvchi kuchi ularning quyidagi transkripsiyasini belgilab beradi: aniq maqsad va vazifalarga ega bo‘lishi; erkin ravishda tashkil etilishi; ma’naviy-ma’rifiy – konstruktiv faoliyatga yo‘naltirilganligi; meyoriy-huquqiy jihatdan qonunlashtirilganligi;

hokimiyatning madaniy-ma’rifiy muassasalari, insonlarning axloqiy qarashlarini rivojlantiruvchi, ijtimoiy nazorat olib boruvchi, ma’naviyat targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi uyushmalar steriotipini tashkil etuvchi tashkilot hisoblanadi.

Zotan, Ma’naviy-axloqiy institutlar ijtimoiy hayotni yuksaltirishga munosib hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratlashtirish siyosiy jihatdan demokratik, huquqiy davlatni to‘la qaror toptirishga asoslansa, ijtimoiy jihatdan, barcha uchun bir xil kuchga va ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy masalalarni qonuniy prinsip asosida mustahkamlab turgan fuqarolik jamiyatining shakllanishini ko‘rsatib beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

[1] Идиров У.Ю. Ҳозирги замон демократлашув жараёнларининг концептуал асослари ва мустақил Ўзбекистон тажрибаси. Сиё.фан.док. ...дисс. –Т.: 2006. –В. 175.

[2] Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. -Т.: “Маънавият”, 2002. –Б. 103.

[3] 1924-1925 yillarda O‘zbekistonda komsomol, kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo‘mitasi kabi sanoqli jamoat tashkilotlari yuzaga kelgan bo‘lib, ularning maqsad va vazifalari o‘sha davr mafkurasi bilan yo‘g‘rilgan edi.

[4] *Qarang:* Мустабид тузумнинг ЎЗбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар)/ Лойиҳа раҳбари ва масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. –Т.: Шарқ, 2000. –Б. 91.

[5] O’sha joyda.. –Б. 44.

[6]Мингноров А. Т. Туркистон миллий озодлик ҳаракати масалалари давр миллий матбуотида (1917 йил февраль – 1918 йил ўрталари)./ Тарих фан.ном. ...дисс. –Т.: 2000. –Б. 77.

[7] O’sha joyda. -Б. 78.

[8] Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: “Маънавият”, 2002. –Б. 66.

## BEHBUDIY FALSAFASIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA MA’RIFATPARVARLIK

***Ilhom Dilmurodov,***
*O’zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti*

**Tayanch so‘z va iboralar:** jamiyat, sivilizatsiya, madaniyat, o‘zllikni anglash, odob, ezgulik, yovuzlik, yaxshlik, or-nomus, halollik, millatparvarlik, insonparvarlik, adolat, qadriyat, ma’naviy qadriyat, vatanparvarlik, erkparvarlik, vijdon, burch.

Malumki milliy o‘zlikni anglash har bir millatning o‘zini real subyekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklar egasi, yagona til, urf-odatlar, an’analar, kadriyatlar va davlatta mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishidir. Milliy shakllanish jarayoning yuqori boskichi millatni davlat atrofiga birlashishi hisoblanadi. Bu jarayon millat vakillari milliy manfaatlarini ustuvor qo‘ya bilish bilan bog‘liqdir chunki xar qanday milliy manfaat asosida subyekt yoki ijtimoiy birlikning ular yashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa vaziyatlaridan kelib chiqqan obyektiv ehtiyojlari yotadi. Ijtimoiy ehtiyojlarni bilish bu kishilar manfaatlarining shakllanish jarayonida milliy uzligini anglashi milliy manfaatlarni himoya kilishda ichki turtki beruvchi ma’naviy ruxiy salohiyatdir.

Milliy o‘zligini anglashi real kuch sifatida, millat sha’ni, qadr-qimmati, obro‘-e’tibori, or-nomusi poymol etilganda yoki millat moddiy va ma’naviy manfaatlariga zid harakatlar yuzaga kelganda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Aynan shunday jarayonda mamlakatimizda jadidlar xarakati shakllandi. Chunki ular XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi siyosiy kuchlar murakkab bir tarzda chigallashib ketgan Turkiston jamiyatining eng ilg‘or yo‘nalishi qarashlarini o‘zida aks ettirdi. U dunyo ahamiyatiga molik insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyat taraqqiyotining yetilgan ehtiyojlari va o‘lkaning tub aholisi manfaatlariga javob berdi. M.Behbudiy, A.Fitrat, U.Asadullaxo‘jayev, Munavvar Qori, A.Avloniy, S.Ayniy, F.Xo‘jayev, T.Norbo‘tayev va boshqa nomlar ushbu harakat bilan bog‘liq.

Maxmudxuja Behbudiy - ma’rifatparvar, jadidchilik harakati asoschilaridan biri. Taqvodor oilada tavallud topgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik bo‘lib, imomxatiblik bilan shug‘ullangan. 1894 yilda yosh Behbudiy otasidan ayriladi va tog‘asi qozi Muhammad Siddiq qaramog‘ida voyaga yetadi. Tog‘asi Mulla Odildan arab ilmini o‘rganadi. 18 yoshida qozixonada mirzolik qila boshlaydi. O‘z tirishqoqligi tufayli qozi, keyinchalik, muftiy darajasigacha ko‘tariladi. 1893 yilda dastlabki yangi usul maktabini ochishga muvaffaq bo‘ldi. 1899–1900 yillarda Beruniy haj safariga bordi. U tashabbus va g‘ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloklarida yangi maktablar tashkil toddi. Adib bu maktablar uchun «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiya Rusiy» (1905 y.), «Kitobat ulatorol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908) kabi darsliklar yozadi. Behbudiy 1903–1904 yilllarda xizmat safari bilan Moskva va Peterburgda, 1907 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Xususan, u Nijniy Novgorodda 1907 yil 23 avgustida musulmonlari turmush va madaniyati muammolariga

bag‘ishlangan qurultoyda turkistonliklar guruxini boshqardi va katta nutq so‘zlaydi. Behbudiy nafaqat maorif borasida betinim xizmat qilibgina qolmasdan, balki dramaturgiya sohasida ham ijod qilardi. «Padarkush» (1913) dramasi Behbudiy iste’dodi yorqin namunasidir.

Muallif «Milliy fojea» deb atagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n edi. Bu asarni o‘qimagan bola buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani, nodonlik va jaholat yo‘liga kirgani haqida hikoya qiladi. Behbudiy teatrtruppasi bu spektaklni Toshkentda 1914 yil 27 fevralida namoyish qildi. Bosh rolni A.Avloniy ijro etdi. 1913 yildan Behbudiy matbuot ishlari bn shug‘ullanishga kirishdi va «Samarkand» gazetasini chiqara boshladi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. Shu yil 30 avgustida Behbudiy «Oyna» jurnalini chiqara boshlaydi. 1914 yil 29 mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlari bo‘ylab sayohat qiladi.

Sayohat xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, «Oyna» jurnali 1914-yilgi sonlarida chop etiladi. «Oyna» jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va u haqhuquklari, tarixiga, tiladabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borildi. Behbudiy publitsist sifatidagi faoliyati adib iste’dodi juda yorqin bir kirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zi millat, vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini maqola va chiqishlarida teran ifoda etgan.

Behbudiyning ijtimoiy falsafiy qarashlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. U ilmu ma’rifat xalq ommasi tomonidan o‘zlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi. Chunki ma’rifatparvarlik harakati jamiyat ma’naviy ma’rifiy sohalarida o‘rnatilgan ijtimoiy siyosiy zulmkorlik siyosatiga qarama qarshi shakllangan ijtimoiy falsafiy va ommaviy – demokratik harakatlar sifatida amal qiladi. Uning maqsadi muayyan jamiyat hayotini falsafiy g‘oyaviy va ma’naviy ma’rifiy zo‘ravonlikdan, jaholatparastlikdan ozod etib, erkin tafakkur, ilg‘or ma’naviy ma’rifiy tizim orqali taraqkiyot barcha zarur moddiy va ma’naviy jabhalariga tadbiq etishdir.

Ma’rifatparvaplik harakati Fransiyada boshlanishi jamiyat tub o‘zgarishlar uchun yetilganligidan dalolat berar edi. «Ma’rifatparvarlik» atamasi birinchi bor buyuk ingliz shoiri J.Milton «Yo‘qotilgan jannat» dostonida qo‘llangan bo‘lsa ham, uni feodal – mutlaq podsholik tartibotlari be’manilik cho‘qqisiga ko‘tarilgan Fransiya zaminida amaliyotga kiritdi. Ma’rifatparvaplik g‘oyasi falsafiy asosi xistuyg‘u (sensualizm) va ikkiasllik (dualizm) qarashlaridan iborat

bo‘lib, birinchisi ma’rifatparvarlik. harakatini boshlanish davrida, ikkinchisi keyingi yillardagi rivojlanish jarayonlarida ko‘proq ahamiyat kasb etgan. Ma’rifatparvaplik harakatiga De Sent Evremon, A.Bulenvile, Beyl, Melye kabi taniqli ma’naviyat arboblari asos solgan bo‘lib, keyingi yillarda Volter, Monteskye, Kondilyak, Lametri, Golbax, Didro, Gelvetsii, Russo, Byuffon kabi zabardast tafakkur egalari keng ko‘lamda davom ettirdilar va ma’rifatparvarlik tamoyillarini butun Ovrupo bo‘ylab keng tarqalishiga va ommalashuviga muvaffaq bo‘ldilar. Ma’rifatparvaplik g‘oyalari «ma’rifat asri»dan keyin ham keng tarqalib, ijtimoiy siyosiy, milliy ozodlik xarakatlari muxim omili bo‘lib xizmat kildi.

Markaziy Osiyo xalklari milliy ozodlik harakatlarini g‘oyaviy ma’rifiy tayyorlab bergan va ularni milliy mustakillikka ruxdantirib turgan ma’rifatparvarlar orasida Mukimiy, Furkat, Avaz O‘tar, Ahmad Donish, M.Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Cho‘lpon, Hamza, Abdulla Avloniy kabi siymolarni e’tirof etish lozim. O‘zbekistonda ma’rifatparvaplik g‘oyaviy asoslarini yaratgan, millat ozodligi va yurt farovonligi yo‘lida mardona kurashgan, bu yo‘lda ko‘p qurbonlar bergan jadidlar harakati ozod va obod vatan kurish, erkin va farovon hayot barpo etish orzu umidlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi milliy ozodlik kurashi yorqin ifodasi edi. Bunig uchun esa dunyoviy va diniy bilimlarni o‘rgatish dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda edi. Shu sababli xam Behbudiy odamlardan dunyoviy fanlar yutuqlarini o‘zlashtirib olishni, o‘z davri ijtimoiy talablari, asosan, shakllangan axloq meyorlariga amal qilishni hamda insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishni hamda islom dini ta’limoti bilan tanish bo‘lishni talab qilgan. U millat ozodligini ma’rifatparvarlik darajasi bilan bog‘lab, ma’rifatni ozodlikka erishish yagona omili, deb ishongan.

Sobiq ittifoqdavrida Behbudiy merosini o‘rganish ta’qiqlangan edi. Istiklol bu borada ham keng imkoniyatlar yaratdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) – Turkiston ma’rifatchiligi va jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, uning falsafiy qarashlari ma’rifatparvarlik, taraqqiyot, xalqni o‘qitish va madaniy yuksalishga erishish g‘oyalari asosida shakllangan. Behbudiy xalqni savodsizlik va qoloqlikdan olib chiqishni, zamonaviy ilmlarni o‘rgatish orqali milliy o‘zlikni anglash va milliy qadriyatlarni rivojlantirish muhim deb ta’kidlabydi. Uning fikricha, xalqni o‘z tarixi, madaniyatini o‘rgpnishi va tilini bilishi o‘zligini anglashi orqali mustahkamlanishi xamda taraqqiy etishi mumkin edi.

Behbudiy xalqni ma’rifat va o‘z madaniyatiga e’tibor berishga undar xamda milliy birlikni kuchaytirishga chaqirardi. Chunki ma’rifat va madaniyat

insonning jamiyatdagi oʻrnidan, uning diniy mansubligi yoki siyosiy qarashlaridan dalolat beruvchi ramzlarning tizimi hisoblanadi. Shuningdek ma’rifat va madaniyat vayronkor jarayonlarga qarshilik koʻrsatadi, chunki u qadriyatlarni saralash mexanizmlariga ega. Natijada sivilizatsiyaning tor tarixiy ahamiyatni kasb etuvchi hodisalar yoʻqlikka chekinadi. Tarix uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan madaniy hodisalar esa umuminsoniy madaniyat xazinasidan oʻrin oladi. Bunyodkor hodisalarni ham, vayronkor hodisalarni ham oʻz ichiga oluvchi sivilizatsiyadan farqli oʻlaroq, ma’rifat va madaniyat oʻzining insoniyligi, ijobiyligi bilan tavsiflanadi. U inson faoliyati ijodiy asosining manbai hisoblanadi..

Ma’rifat va madaniyat inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy kichik tizimlarini birlashtiradi. Ammo madaniy jarayon chegarasi sivilizatsiya, uning meyorlari bilan belgilanadi. Madaniyat sivilizatsiyada chuqur ildiz otgan boʻlib, u bilan bir jon va bir tan hisoblanadi. Madaniyat va sivilizatsiyaning oʻzaro aloqasi shu darajada kuchliki, aksariyat faylasuf va olimlar bu tushunchalarni aynanlik deb hisoblaydilar. Bu bejiz emas: jamiyatning normal holatida ularni deyarli farqlab boʻlmaydi. Sivilizatsiya va madaniyat birdir: oʻz madaniyatisiz sivilizatsiya boʻlmaganidek, sivilizatsiyasiz madaniyat ham boʻlmaydi. Madaniyat ham, sivilizatsiya ham normativ tabiatga ega. Ularning oʻrtasidagi farq shundaki, sivilizatsiya madaniy jarayonga shart-sharoit yaratadi, uni tartibga soladi. Oʻz navbatida, madaniyat yangilik ijodkori sifatida sivilizatsiyaning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. U sivilizatsiya belgilagan ijtimoiy meyorlarni amalda mujassamlashtirishni nazarda tutuvchi erkin faoliyatdir. Madaniyat jamiyat qadriyatlari, moddiy va ma’naviy boyliklari majmuidir.

Demak xulosa sifati shuni ta’kidlash joizki birinchidan Behbudiy falsafasida taraqqiyot va zamonaviylikka intilish, xalqning madaniy va axloqiy rivojlanishi orqali amalga oshish ishonarlidir. Ikkinchidan zamonaviy bilimlarni oʻrganish orqali jamiyatini rivojlantirish, boshqa ilgʻor davlatlar bilan tenglashish hisoblanadi Uchinchidan diniy va dunyoviy bilimlarni uygʻunlashtirish xalqning diniy bilimlarini saqlab qolgan holda, ilm-fan va dunyoviy bilimlarga ham zga boʻlishiga asos boʻladi.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDA JADIDCHILIK HARAKATINING IJTIMOIY-FALSAFIY VA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING AHAMIYATI

***Isomov Muxammad Qurontoyevich***
*O‘zDJTU dotsenti, f.f.n.*

**Kalit so‘zlar:** jadid, eski maktab, qadim, qadimchilar, ma’rifat parvar, jadid tarbiyashunosligi uslubi, jadid maktabi, madrasa, yosh buxoroliklar, qadim uslubiyoti, musulmon maktabi, madrasa, muddaris, yangicha ta’lim, jadidchilik harakati, Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari, ma’naviyat, maorif, matbaa, ma’rifatparvarlik, taraqqiyotparvarlik, o‘zliksiz ta’lim.

Hammamizga ma’lumki, insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga bir tarixiy ikkinchi tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvalikdan boshlanadi. Chunki zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan fidoyi, elim, yurtim, deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kishilari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullangan[1]. Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o‘zbeklar jahondagi eng qadimiy xalqlar sirasiga kirib, ular jahon fani, ilmiy-ma’rifiy va madaniy rivojjlanishiga bebaho hissa qo‘shganlar[2]. Ma’rifatning lug‘aviy ma’nosi esa-bilish, bilim demakdir. U atama sifatida-tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma’lumotlar majmuasini bildiradi. Jamiyatda ma’rifat, ya’ni bilim ma’rifatparvarlar orqali yoyiladi. Demak, ma’rifatparvar-ma’rifat uchun kurashuvchi, ilm, bilim, chirog‘ini yoquvchi, ma’rifat tarafdori demakdir. Ma’rifatparvarlar davr uchun, jamiyatning mamlakatning halqining buguni va kelajagi uchun muhim g‘oyalarni ilgari suradilar, shu g‘oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar. Ma’rifat ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi.

Jadidchilik, ma’rifatchilik ham millatni ma’rifatli qilish, ma’naviyatini yuksaltirish maqsadlarida XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmida Turkistonda yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir. Jadidlik – yangilanish, yangi usul ma’nosini anglatadi. U zamonaviy maktab, matbaa, umumiy taraqqiyot usullari ishllari tarafdorlarinin umumiy nomi[3].

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, davlatlarda, shu jumlada, Markaziy Osiyoda ham aholining ilg‘or qismi hisoblangan musulmon ziyolilari esa eski usuldagi va madrasalar davr talabiga javob bermay qolgani, aksincha ular ilm-fan tararqqiyotiga ma’lum

darajada tusqinlik qilayotganini anglab o‘quv tarbiya ishlarini, o‘qitish usullarini isloh qilish g‘oyasini kutarib chiqdilar. Bu harakat eski tuzum, eski turmish eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga uchradi. Bu qarshilik tarafdorlari asosan n taraqqiyotni ko‘ra olmaydigan islom aqidaparastlari, jaholatparastlar bo‘lib, ular payg‘ambarimiz Muhammad alayhu salomning ilm-hunar, dunyoviy fanlarni rivojlantirish haqidagi vasiyatlaridan ham yuz o‘girgan edilar. O‘sha paytda yangi g‘oya va islohot tarafdorlari “jadid” (“yangi” yoki (yangilik tarafdorlari), ularga qarshi kuchlar esa “qadim” yoki qadimchilar deb ataldi.

Shuni ham ta’kidlash joyizki, jadidchilik harakati Turkistonda milliy-ozodlik kurashish jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik taraqqiyparvarlik kabi hoyalar yetakchik qilgan. Eng muhimi, o‘lkani mustamlika zulmidan ozod qilishni hamma narsadan ustun qo‘ydilar va shu orqali milliy o‘yg‘onish yasamoqchi bo‘ldilar. Buni esa ta’lim-tarbiya, va ma’rifat sohalarning rivojlantirishi bilan o‘zviy bog‘ladilar.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasining Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo‘qon, To‘qmoq va boshqa shahar, tuman hududlarida avj olib, jadid maktablar soni kupayib bordi. Jadidchilik ijtimoiy harakat sifatida shakllandi. Jadidchilik harakatining a’zolari soni toboro kupayib bordi, ular tomonidan matbaa va tag‘ibot ishlariga katta e’tibor qaratildi. Jadidlar harakati tizimli ravishda olib borildi. Shu davrda jadidchilik harakatining asosiy g‘oya va maqsadlari qo‘yidagicha belgilangan edi:

Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofatlardan ozod qilish,”usuli qadim”ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy qo‘shin tuzish va boshqalardan iborat[4]. Agar biz har bir jadidchi ma’rifatparvar, yoki tashkilotchi targ‘ibotchilarga nazar tashlasak, ular naqadar vatanpavar, hayotini qurbon qilishga ham tayyor, mard, millatni ma’rifatli qilish yo‘lidagi buyuk kurashchilar bo‘lganlar. Ular tanlagan yo‘l tamoman yangi yo‘l bo‘lib, milliy ta’limni va ma’naviyatni yuksak cho‘qqilarga olib chiqishga qodir ma’naviy-ma’rifiy faoliyat usullari edi.

Lekin jadidlar chor hukumati davrida ham, bolsheviklar davrida ham ro‘shnolik ko‘rmadilar. Ularga millatchi, jamiyatga unsurlar sifatida munosabatda bo‘lindi. Aslida ular milliy mustaqillik, tarafdorlari, milliy

qahramonlar bo‘lib mustaqillikka erishuvning bosh yo‘li halqni o‘qitib ilmli, ma’rifatli qilishda deb hisoblovchi chinakam el farzandlari edilar.

давно замечают общую деградацию нынешнего поколения студентов по самым элементарным, общеобразовательным вопросам. Отмечают неспособность сегодняшних студентов самостоятельно анализировать, сопоставлять информацию и даже сносно ее пересказывать. Всю эту работу за них выполняют информационные сети, программы и базы. Нужны только навыки поиска информации. Но это несложно. Несколько кликов, несколько нажатий клавиш и вот уже готов ответ на семинар, написан реферат, курсовая работа и даже дипломная. Отслеживать плагиат у сотен студентов, чтобы с ним бороться выше сил и способностей наших преподавателей. На это физически не хватает времени, даже если преподаватель все свое свободное время посвятит этому неблагодарному труду. Даже, если такое случится, вы не заставите студентов что-то сносное написать самостоятельно. Нет навыков написания текстов. От слова совсем. Даже под диктовку пишут с трудом, переспрашивая по несколько раз каждое слово. Поэтому слово «деградация» здесь в самый раз. Не уменьшение, не снижение, а прямо обвал и провал. Связан ли этот процесс деградации образования, как среднего, так и высшего с увеличением пользования интернетом и разными информационными сетями? На мой взгляд, несомненно. За студентов сейчас учатся и выполняют домашние задания нейронные сети и искусственный интеллект. Задаешь задачу, вбиваешь вопрос и через считанные секунды появляется ответ, готовая статья, куча рефератов и прочих текстов. Жми клавишу «копировать», потом «вставить», потом «отправить» и оценка по предмету гарантирована. Телефоны становятся продолжением руки. Лишите студентов телефонов и ноутбуков и вы получите 95 процентов неуспевающих студентов. Исчезают всякое самостоятельное, критическое, креативное мышление у школьников и студентов. Эту проблему обсуждают сейчас все преподаватели, вспоминая свои студенческие годы, где вся надежда хорошо сдать сессию была на свои мозги, память, усидчивость, упорство, трудолюбие и любовь к получению и усвоению знаний. По новой образовательной программе самостоятельному обучению студентов отводится более 60% учебного времени. И как это время используют подавляющее большинство стдентов? Явно не на обучение. Интернет здесь выполняет роль больше отвлекающего от учебы фактора, чем помогающего. Интернет ведь еще является источником развлечений и увлечений для учащихся, предлагая им доступ к играм, фильмам, музыке и другим развлекательным контентам. И, к сожалению, это негативно сказывается на успеваемости и

академической производительности. Существует множество примеров, когда молодые люди «с головой» погружаются в компьютерные игры и для них перестает существовать реальность, социальные коммуникации, представление об ответственности и дисциплине. В данной статье приводятся всем известные факты. Но вопрос в другом. Что с этим делать? Может уже поздно предпринимать какие то попытки наладить образовательный процес, который бы приводил к появлению высококвалифицированных специалистов в разных областях действительности? А может, если брать шире, и не нужны будут такие специалисты в будущем? Ведь компьютерные программы уже могут лучше, чем люди ставить диагнозы болезней, переводить с разных языков, писать статьи, рисовать, сочинять музыку и много чего еще. Это ведь проблема не только Узбекистана, об этом сейчас говорят на всех мировых площадках, где обсуждаются процессы влияния нейронных сетей и искусственного интеллекта на образование и социальную жизнь в целом. Вопросы эти не простые и нерешенность их приведет к коллапсу и образования, и искусства, и даже экономики.

Каков самый простой выход из ситуации? Взять, да и запретить? Уже невозможно, не получится. А если и получится, то откатимся еще дальше. Вернуть студентов к книгам, библиотекам, чтению и запоминанию? Нереально. Можно предложить вводить некоторые ограничения на ношение гаджетов на территории университетов. Хотя бы во время сессий. Но здесь тоже кроется проблема. Студенты уже взрослые, полноправные граждане страны. Их нельзя обыскивать и отнимать у них телефоны. Это нарушение их прав собственности. Надеятся на то, что они перестанут пользоваться телефонами и интернетом добровольно - бессмысленно.

Как же достигнуть баланса между широким внедрением Интернетом и его ограничением? Вот самый актуальный и злободневный вопрос современности. И начинать решать эту проблему нужно со средней школы. Где еще можно что-то запретить и ограничить. Запретить пользоваться телефонами во время уроков, во время выполнения домашних заданий. В этой связи и учителя и родители должны все свои силы отдать на то, чтобы дети учились самостоятельно думать, читать, анализировать, иметь собственные взгляды и доверять своим суждениям. Научить их пользоваться своим сознанием, мышлением, логикой, смекалкой, а не залезать мгновенно в телефон, чтобы получить готовую информацию. Старшие классы могут использовать Интернет в основном для образовательных целей, устанавливая ограничения на время, проведенное в онлайне для самостоятельного обучения.

Можно посоветовать устраивать или устанавливать регулярные перерывы от Интернета. Необходимо мотивировать детей проводить время в реальном мире, занимаясь спортом, чтением, встречами с друзьями или другими офлайн-активностями.

Если не начинать этого делать сегодня, обучая и воспитывая школьников в разумном ограничении пользования Интернетом, то будучи студентами они уже не будут способны к обучению. В отсутствии элементарных, базовых, школьных знаний невозможно получение высшего образования.

Эта тема открывает множество возможностей для дискуссии о положительных и отрицательных аспектах влияния Интернета на образование. Важно объективно рассмотреть оба аспекта и найти баланс в использовании Интернета для достижения академических, социальных и развлекательных целей.

## WHAT ARE THE LEGAL FOUNDATIONS OF PUBLIC CONTROL IN UZBEKISTAN?

***Nishonov Zokhidbek Tursunalievich****,*
*Director of the Aviation Security Department*
*of "Tashkent-Sharqiy Airport"*

The President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, emphasized:

*"Until today, no clear legal mechanisms have been created to effectively implement public control over the activities of state bodies. This hinders non-governmental non-profit organizations from objectively assessing the activities of state bodies and officials."*

From this perspective, public control is becoming increasingly important in ensuring the effective operation of public administration bodies. It plays a key role in addressing the most pressing issues in state and social life, solving problems that await resolution, and representing the interests, dignity, and rights of the people. Considering this, it is necessary to apply effective mechanisms for public participation and control under the conditions of the New Uzbekistan.

At the new stage of Uzbekistan's development, organizational and legal foundations are being created to ensure public participation in governance, based on national experience and with distinctive local features.

In particular, in the framework of the **2017–2021 Action Strategy on Five Priority Directions for the Development of the Republic of Uzbekistan**, tasks

were set to enhance the effectiveness of ongoing reforms, ensure the rule of law, raise legal awareness and culture in society, and promote the development of civil society. As part of this, it was planned to introduce effective forms of public control and expand the participation of mass media in this process.

To this end, the Program of Measures to Ensure Constitutional and Legal Supremacy, as well as the State Program for the "Year of Active Entrepreneurship, Support for Innovative Ideas and Technologies", specifically in paragraph 33, included the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan **“On Public Control”** on April 12, 2018. This law aims to establish impactful and practical mechanisms for implementing public control in state and public administration [1].

After the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan No. 474 “On Public Control”, the legal basis was established for organizing and implementing public control over the activities of state bodies and institutions (hereinafter referred to as “state bodies”). This law regulates the relations and activities in the field of public oversight of state bodies.

According to the law, the subjects of public control include: Citizens of the Republic of Uzbekistan (hereinafter referred to as “citizens”), Citizens’ self-governing bodies, Non-governmental non-profit organizations registered in accordance with the law, Mass media.

Under this law, the objects of public control include: The activities of state bodies and their officials, particularly the consideration of public interests and opinions in the adoption of normative legal acts, decisions, as well as in national, sectoral, and regional development programs; Ensuring the implementation of legal requirements for the protection of the rights and legitimate interests of citizens, legal entities, and society as a whole; The execution of functions and duties assigned to state bodies that relate to public and social interests; The provision of public services; The fulfillment of agreements, contracts, projects, and programs implemented within the framework of social partnership.

Another important aspect to consider is that public control has its own specific forms, which are outlined and given significance in the above-mentioned legal document. These forms include:

- Submitting appeals and inquiries to state bodies;
- Participating in open meetings of state bodies;
- Public discussion of issues and decisions;
- Holding public hearings;
- Conducting public monitoring;

- Carrying out public expert evaluations;
- Studying public opinion;
- Hearing reports and receiving information from officials of state bodies by citizens' self-governing bodies.

In addition, public control can also be carried out in other forms in accordance with legislation [2].

In addition, Goal 12 of Priority Area 1 of the *"Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"* is specifically aimed at "Improving the organizational and legal foundations for implementing effective public control." In line with this goal, the following measures have been outlined:

- Developing modern forms of public control, including introducing practices for reviewing the quality of implementation of regional, sectoral, and national programs based on collective appeals;
- Actively involving subjects of public control in the execution of certain state functions, conducting sociological surveys to study the performance of state bodies, and organizing open discussions on identified shortcomings;
- Increasing social and political engagement of the population, enhancing electoral culture, and continuing the implementation of international electoral standards into national legislation;
- Strengthening the role of mass media and the protection of journalists' professional activities, ensuring their effective involvement in studying pressing public issues and the implementation of reforms;
- Enhancing the effectiveness of social partnerships, doubling state support (in the form of subsidies, grants, and social orders) to non-governmental non-profit organizations and other civil society institutions;
- Increasing by seven times the funding allocated to public foundations that support NGOs and civil society institutions under the Councils of People's Deputies**.**

Indeed, thanks to the transparency-based new reforms being implemented in the renewed Uzbekistan, the influence and scope of public control in society is significantly expanding. The Law "On Public Control"**,** the Presidential Decree on the Establishment of the Public Chamber under the President of the Republic of Uzbekistan, as well as resolutions of the Cabinet of Ministers — such as those on fundamentally improving the activities of the *"Mahalla Posboni"* public structure and on organizing the activities of assistants to internal affairs officers responsible for public order — are all aimed at introducing effective and practical mechanisms for public control in state and public administration.

The ultimate goal is to strengthen the unity among citizens, public organizations, and the state — thereby preventing the alienation of the government from the people, and the people from the government [3].

As a result of the pragmatic policies and a new stage of reforms based on openness and transparency currently being implemented in Uzbekistan, the influence and scope of public control has significantly expanded.

In particular, **Article 36 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan** states:

*“Citizens of the Republic of Uzbekistan have the right to participate in the management of society and the state, both directly and through their representatives. Such participation is carried out through self-governance, referendums, the democratic formation of state bodies, as well as through public control over the activities of state bodies.”*

Furthermore, the procedure for exercising public control over the activities of state bodies is defined by law, which further underscores its importance and legitimacy [4].

In addition, **paragraphs three and four of Article 148** of the Constitution of the Republic of Uzbekistan provide that:

*Citizens and civil society institutions shall exercise public control over the formation and execution of the State Budget of the Republic of Uzbekistan. The procedure and forms of participation of citizens and civil society institutions in the budgetary process shall be established by law.* This constitutional provision reinforces the legal foundation for public involvement in fiscal transparency and accountability, ensuring that citizens and civil society play an active role in overseeing how public funds are planned and spent [5].

It is also important to emphasize that the constitutional enshrinement of citizens’ participation in the management of society and state affairs — through the development and improvement of public control over the activities of state bodies — is a clear indication of how much importance is attached to public oversight in our country.

Public control develops in close connection with the formation and growth of civil society institutions. As civil society progresses, new opportunities and prospects emerge for the effective implementation of public control. Likewise, the development of public control contributes to the advancement of civic institutions.

Just as a robust and wide-reaching system of public control is unimaginable without civil society, the development of civil society itself is inconceivable without public oversight.

The reason civil society creates favorable conditions for the growth of public control is that truly effective, independent, and impartial public control can only be exercised by economically and politically free citizens and their associations [6].

Today, state bodies have the right to request information from subjects of public control regarding the implementation and results of public oversight, as well as to publish information related to public control over their activities on their official websites and through mass media. Furthermore, they have the right to initiate public control activities themselves. This indicates that government administrative bodies are legally empowered with certain rights in this regard.

The full implementation of public control serves as a practical manifestation of a mutual trust and legitimacy mechanism between members of society and state bodies.

*"In short, public control serves the cause of social justice by ensuring balance, equality, mutual responsibility, and accountability in the relationships between individuals, society, and the state. This institution demonstrates that in Uzbekistan, human rights and freedoms are not only guaranteed by the state but are also a top priority in the activities of state bodies. The existence of public control is a clear indication that political power truly lies in the hands of the people"* [7].

Indeed, the strength, scale, and scope of civil society, as well as its distinctive features, are also defined by the establishment of public control in the social-economic, cultural-humanitarian, and educational sectors and directions of the state. This contributes to the consolidation of democratic principles in the country.

After all, when people unite within the public sphere and influence ongoing reforms, democracy truly gains practical significance.

## REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5635-sonli Farmoni. // Қонун

ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.01.2018 й., 06/18/5308/0610-сон.

2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон; *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.*

3. Ф.Усарова. Жамоатчилик назорати: тарихи, замонавий қарашлар ва ёндашувлар. Elektron manba: https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik-nazorati-tarixi-zamonaviy-qarashlar-va-yondashuvlar_391305.

4. *Qarang:* https://lex.uz/docs/6445145.

5. *Qarang: Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.*

6. Норқулов Ҳ. Ўзбекистонда жамоатчилик назоратини такомиллаштириш масалалари. Elektron manba: https://api.moiti.uz/media/book.pdf.

7. Ш.Деҳқонов. Жамоатчилик назорати — жамиятнинг ўзини ўзи бошқариш усули. "Ўзбекистон Стратегияси" журнали. №02 (2020). -B. 27.

## AVAZ O'TAR IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARIDA JADIDCHILIK G'OYALARI

***Salayev Dilshodbek Jumanazarovich***
*PhD, Ma'mun Universiteti dotsenti*
***Bekchanov Doniyor Bahromovich***
*Ma'mun Universiteti dotsenti*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada XIX asrning so'nggi choragi – XX asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Xorazm tarixiy, adabiy, falsafiy muhitining taniqli namoyandalaridan biri, Xorazm jadidchilik harakatiga o'zining ijtimoiy, siyosiy g'oyalari bilan ta'sir o'tkazgan ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar qarashlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Avaz O'tar, Muhammad Rahimxoni soniy (Feruz), Tabibiy, jadid maktablari, matbuot, Xorazm adabiy muhiti, "Til", "Maktab", "Hurriyat", "Sipohiylarga", "Xalq", "Topar ekan qachon?", "Fidoyi xalqim", "Ulamolarga" she'rlari.

**Kirish.** XIX asrning so'nggi choragi – XX asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Xorazm adabiy-falsafiy muhitining taniqli namoyandalaridan biri ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar o'g'lidir. U 1884-yilda poytaxt Xiva shahrida tavallud topgan. Shoirning otasi Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li xalq orasida "usta" nomi bilan mashhur bo'lib, sartaroshlik faoliyati bilan

shug‘ullangan. Garchi oddiy bir kasb bo‘lib ko‘rinsa-da, sartaroshlik O‘rta Osiyo mintaqasida anchayin hurmat-e’tiborga loyiq, qadrlanadigan soha hisoblanardi.

Avaz O‘tar dastlab boshlang‘ich maktabga borib, tez orada xat-savod chiqaradi hamda maktabni tugatgach, taxsilni Xivadagi Muhammad Amin Inoq madrasasida davom ettiradi. Avazning tarixga, adabiyotga havasi juda erta uyg‘onib, otasining shoir do‘stlari ta’sirida dastlabki she’rlarini mashq qila boshlaganligi ma’lum. Madrasada o‘qib yurgan davrida Sharq adabiyoti mumtoz vakillaridan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiylarning ijodi bilan yakindan tanishdi ularga ergashib o‘z ijodiyotini takomiliga yetkaza boradi.

Mutafakkir 18 yoshlarida shoir sifatida xalq o’rtasida tanildi. Muhammad Rahim Soniy (Feruz) Avaz O’tar iste’dodiga katta e’tibor bergan, uni saroyga taklif qilib Tabibiyni unga ustoz tayin etgan. Ammo, Avaz O’tar saroy hayoti bilan chiqisholmay, uni tark etadi. Adabiyotlarda shoirning ustozlari Bayoniy, Tabibiy, zamondoshi Jumaniyoz Xivaqiy, do‘sti Hasanmurod Qori – Laffasiy va boshqalar uning iste’dodiga yuksak baho berganliklari qayd etiladi.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1864-1910) ham shoh, ham shoir bo‘lganligi bois ijod ahliga ixlosi balandligi bilan ajralib turganligi va iste’dod egalarini saroyda jamlab, ularga har tomonlama sharoit yaratib berishga katta e’tibor qaratganligi tarixdan ma’lum. Ana shunday marhamatdan Avaz ham benasib qolmaydi. Yosh shoirning yuksak iste’dodidan xabar topgan hukmdor uni saroyga taklif qilib Tabibiyni unga ustoz etib tayinlaganligi manba va adabiyotlarda o‘z tasdig‘ini topgan.

Mutaxassislar ta’biri bilan aytganda, Tabibiy juda ko‘p ilm ahliga g‘amxo‘rlik qilganidek Avazga ham axloq, ilm va she’riyat bobida ko‘p narsa o‘rgatadi.

XX asr boshlarida ko‘zga tashlanayotgan milliy uyg‘onish, istiqlol g‘oyalari Avaz O‘tar ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligi shubhasiz. Garchi jadidchilik g‘oyalari ruhida oshkora faoliyat olib bormagan bo‘lsada, uning ma’rifatga yo‘g‘rilgan she’rlarida ilgari surilgan fikrlar jadidchilik g‘oyalari bilan hamohanglik kasb etishini kuzatish mumkin. Shoir ijodida shu davrda bo‘y ko‘rsatgan erkparvarlik, ozodlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, turmush illatlariga qarshi qaratilgan hajvlar shunga dalolat qiladi. Bu davrda shoir ilm-ma’rifatga da’vat etuvchi she’rlari bilan bir qatorda yuksak insoniy fazilatlarni, chinakam insoniy muhabbatni tarannum etuvchi lirik she’rlar, qit’alar, ruboiylar ham yozganligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish Avaz O‘tar ijodiga xos xarakterli xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bu davrga kelib bir paytlar butun dunyoni ilm-ma’rifat va ko‘plab kashfiyotlar bilan lol qoldirgan islom sharqi mamlakatlari, ayniqsa, O‘rta Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar qoloqlikka yuz tutgan edi. Bu qoloqlik ko‘plab sabab va omillar bilan izohlanadi. Lekin asosiylaridan biri Yevropadagi Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qotib, mintaqa hududlari xalqaro savdo va madaniy yutuqlar almashinuvidan chetda qolib ketganligi bilan bog‘liq edi. Boz ustiga kechagina dunyoviy va aniq fanlar o‘qitilishiga katta o‘rin ajratgan madrasalar, endilikda adabiyot va sxolastikadan nariga o‘tolmay qolgan edi. To‘g‘ri, islom sharqi madrasalari uchun diniy fanlar o‘qitilishi shart ekanligi isbot talab qilmaydigan hodisa. Lekin dunyoviy va aniq fanlarga urg‘u bermasdan zamon bilan bo‘ylashish imkondan tashqari ekanligi hukmron sulola vakillari va ulamolarni bu paytga kelib ko‘pam qiziqtirmay qo‘ygan edi desak, bu ham adolatdan bo‘ladi. Bularning bari ilm-ma’rifatdan uzoqlashish, jaholatning avj olishi bilan bevosita bog‘liq edi.

Jahondagi o‘zgarish va taraqqiyotdan qisman bo‘lsa-da xabardor bo‘lgan ijodkor ziyolining bu masalaga shunchaki tomoshabin bo‘lib, qo‘l qovushtirib turishi mumkin emasdi. Ilm-ma’rifatga oshnolikka, xorijiy tillarni o‘rganishga da’vat uning “Til”, “Maktab” singari turkum she’rlarida yaqqol ko‘rinadi.

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.
G‘ayri tilini sa’y qiling bilgali, yoshlar,
Kim ilmu hunarlar rivoji andin ayondur.
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka ani g‘ayrat eting, foydali kondur.
Ilmu fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o‘quganlar bori yaktoyi jahondur [1]

Ilm-fanga oid zamonaviy ma’lumotlar rus va yevropa tillarida bitilgan bo‘lib, ularni o‘rganish uchun o‘sha kezlarda ham shu tillarni bilish talab etilardi. Mahmudxo‘ja Behbudiy singari aksariyat dunyodan xabardor mutafakkirlar, ayniqsa, yangi davrda aholi farzandlarini til o‘rganishga da’vat etib kelganligi shundan. Bu hali-hanuz davom etib kelayotgan va o‘z dolzarbligini sira yo‘qotmaydigan mangu mavzu ekanligi eng yangi davrda ham o‘zini namoyon etayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Avaz O‘tar ning bu boradagi kuyunchakligini tushunish mumkin. Uning talqinida xorijiy tillarni

egallash jahon bilan tillashuv, muloqot vositasidir. Xorijiy tillarni ona tilidek erkin bilishga undar ekan, shoir ota-onalarni farzandlarini ilm-fan uyiga yuborishga da’vat etib, unda o‘qiganlar jahonda ilg‘or shaxslar bo‘lib yetishishini bashorat qiladi hamda o‘zining til bilmasligidan o‘kinib, shundan bag‘ri mudom qon ekanligini, yosh avlod ham shunday kuyga tushib qolmasligi lozimligini ta’sirchan misralar orqali nazmda ifoda etadi.

Shoir qoloqlikdan, jaholatdan qutilishning birdan bir chorasi zamonaviy ta’lim, maktab-maorif ekanligiga qattiq ishonadi. Bunga nafaqat ishonadi, balki ilg‘or matbuot orqali bilganidan tashqari, zaruriy sayohati davomida bunday maktablar qanday natija berishi mumkinligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, guvohi ham bo‘lgan. Shoirning “Maktab” deb ataluvchi she’ri ushbu fikrni to‘la tasdiqlaydi.

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O‘qusin yoshlarimiz, ko‘nglini shod etgusi maktab.
Dilu jon birla el maktab ocharga ijtihod eting,
Nedinkim bizni g‘am, qayg‘udin ozod etgusi maktab [2].

Shoir o‘z millati jaholat botqog‘iga botib tanazzulga yuz tutganligini e’tirof etar ekan, jon-u dil bilan maktab ochishga bel bog‘lashga da’vat etadi. Bu paytda maktablar xususiy bo‘lgan va ularni ochish va yuritishni davlat o‘z zimmasiga olmagan. Shunday ekan, shoirning bu da’vati qalbi ziyodan xoli bo‘lmagan millat boylari, kayvonilariga qaratilganligini anglash qiyin emas.

Zero, oddiy xalq istagan taqdirda ham bu murakkab vazifaning uddasidan chiqa olmasdi. Shoir ko‘ngillar sururi va ko‘zlarning nuri farzand ekanligini ta’kidlab, maktab shaksiz ularning umrini obod etishini uqtiradi. Qaysiki bir millatga xuddi bizdagi kabi inqiroz shamoli yetsa, maktab albatta unga mustahkamlik bino etishiga shoirning ishonchi komil. She’r oxirida shoir o‘ziga da’vat etib, oliy maktab ochish yo‘lida himmat kamarini bog‘lashni aytar ekan, maktab tufayli johillik va nodonlik barham topishini uqtiradi. Bu asli o‘z timsolida shoirning millat akobirlariga da’vati edi hamda bu da’vat, ayniqsa, Xorazm misolida izsiz ketmaganligini keyingi voqealar rivoji tasdiqlaganligiga tarix guvohlik berib turibdi.

Avaz O‘tar bir qator asarlarida ijtimoiy tengsizlikni va uning keskinlashib borayotganligini haqqoniy tasvirlab, ijtimoiy ruhdagi she’rlarida o‘zining ozodlik, baxtli hayot haqidagi qarashlarini bayon qilganligi, “Hurriyat”, “Sipohiylarga”, “Xalq”, “Topar ekan qachon?”, “Fidoyi xalqim”, “Ulamolarga” kabi qator asarlarida ijodkorning kelajak xususidagi fikrlari o‘z aksini topganligi soha mutaxasislari tomonidan qayd etiladi.

Avaz O‘tar merosi o‘zining rang-barangligi, janrlar xilma-xilligi, ijtimoiy muammolarning xalq qalbiga yetib boradigan sodda va ravon uslubda nazmga solinishi, umuman ijodiyotining xalqqa yaqinligi va manzurligi bilan ajralib turadi. U o‘zining falsafiy qarashlarida axloqiy-antropologik g‘oyalarni ilgari surib, ayni paytda saroy muhitida xonning rasmiy siyosatini maqtash, maddohdik qilish, bir-birini ko‘rolmaslik, jamiyatdagi adolatsizliklar, halol, pok odamlarni, mehnat ahlini kamsitish, kalondimog‘lik, xo‘rlash kabi illatlar kuzatilayotganini afsus bilan ko‘rsatib, hayot, inson qadri masalasini bosh masala sifatida qarashni, kishilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish lozimligini uqtiradi. Yuqoridagi kabi illatlarga qarshi faqatgina axloqiy fazilatlarni shaklantirish orqali kurashish mumkin.

**Xulosa.** Avaz O‘tar o‘g‘lining zamondoshlari Qalandar Qurbonov, Matyoqub Otajanov, shoir Chokarlarning hikoya qilishlaricha, Xorazmdagi inqilobiy kayfiyatdagi kishilar va ilg‘or fikrli ziyolilar, ya’ni jadidlar “Xivada mehnatkash xalq vakillaridan iborat “ijtimoiychilar” guruhuni tashkil etishdi. “Ijtimoiychilar” 1905-yil inqilobidan keyin Xivada xon va uning amaldorlariga qarshi tuzilgan kichik tashkilot bo‘lib, u avvalo adolat, erk, tenglik uchun kurashishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi” [3].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қобулов Н., Мўминова В., Ҳаққулов И. Аваз ва унинг адабий муҳити. –Т:. Фан, 1987. -Б. 53.
2. Аваз. Сайланма. –Т:. Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. Нашрга тайёрловчи, тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ю.Юсупов ва Раҳмонов В. -Б. 21.
3. Расулова Ф.Аваз Ўтар ўғлининг маърифий-педагогик қарашлари. Пед.фан.ном. ...дисс.– Т.: 1993. -Б. 23.

# MUSTAFO CHO‘QAY, “SOVETLAR HUKMRONLIGIDA TURKISTON” ASARI VA JADIDCHILIK G‘OYALARI

***Inomova Dilfuza***
*O’zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi*

**Kirish**. Mustafo Cho‘qay (1890–1941) – Turkistonning taniqli siyosiy arbobi, milliy ozodlik va mustaqillik g‘oyalarining ifodachisi, jadidchilik harakatining siyosiy davomchisi hisoblanadi. Uning “Sovetlar hukmronligida Turkiston: proletar diktaturasiga tavsif” nomli asari Turkistondagi sovet siyosatiga qarshi tanqidiy munosabatni aks ettiradi va xalq ozodligi uchun

kurash g‘oyalarini yoritib beradi. Bu asar jadidchilik g‘oyalari bilan chuqur bog‘liq bo‘lib, milliy uyg‘onish, ta’lim, ozodlik va madaniy mustaqillik uchun olib borilgan kurashni asosla...

*Mustafo Cho‘qay haqida qisqacha ma’lumot.* Mustafo Cho‘qay 1890 yilda Qozog‘istonning Sirdaryo viloyatida tug‘ilgan. U avval madrasada, keyin Peterburg universitetida tahsil olgan. Rossiyadagi siyosiy o‘zgarishlar davrida u Turkistonning siyosiy mustaqilligi uchun faol harakat qilgan. 1917 yilda Turkiston Muxtoriyati tashkil etilganda u hukumatda faol ishtirok etdi. Oktabr to‘ntarishidan so‘ng, sovetlar tomonidan ta’qib qilingan Mustafo Cho‘qay Yevropaga chiqib ketdi va u yerda Turkiston mustaqilligi uchun kurashni davom ettirdi.

Asarning tarixi va yaratilish sharoiti. “Sovetlar hukmronligida Turkiston” asari Mustafo Cho‘qay tomonidan 1920-yillar boshlarida Fransiyada yozilgan. Bu asar Turkistondagi Sovet hokimiyatining siyosatini keskin tanqid qiladi va u mustamlakachilikning yangi shakli sifatida baholanadi. Asar muxojiratda yozilgan bo‘lib, undagi materiallar Mustafo Cho‘qayning shaxsiy kuzatuvlari, Sovet matbuoti va boshqa manbalarga asoslangan.

Cho‘qay bu asar orqali Turkistonning xalqaro jamoatchilikka qanday ahvolda ekanini yetkazishga harakat qilgan. U Sovet hokimiyatining “ozodlik” va “tenglik” shiorlari ortidagi haqiqiy zulmni ochib beradi. U yozadi: "Proletar diktaturasi deb atalmish tuzum aslida Turkiston xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga nisbatan jinoiy zo‘ravonlikdan boshqa narsa emas."

*Asar mazmuni. Asarda Turkistondagi sovet siyosati bir necha asosiy yo‘nalishda tahlil qilinadi:*

-Siyosiy mustamlakachilik: Cho‘qayning ta’kidlashicha, sovetlar Turkistonda mustaqil hokimiyat emas, markazdan boshqariladigan koloniya siyosati yuritmoqda: "Kommunistik partiya Turkiston xalqini ozod qilishni emas, balki uning boyliklarini talash va o‘z manfaatlariga xizmat qildirishni maqsad qilgan."

-Iqtisodiy ekspluatatsiya: Asarda mahalliy boyliklar markazga olib ketilishi, xalq mehnatining qimmatsizlanishi haqida misollar keltiriladi. U yozadi: "Bag‘rikeng va mehnatkash Turkiston dehqoni o‘zi yetishtirgan paxtadan emas, unga berilgan normalari orqali jazolanmoqda."

-Madaniy zo‘ravonlik: Ruslashtirish, diniy ta’limning taqiqlanishi, milliy kadrlarning chetlatilishi haqida tanqidlar bor: "Ular maktablarda rus tilini asos qilib, mahalliy tillarni yo‘q qilishga harakat qilmoqdalar."

-Proletar diktaturasining soxtaligi: Kommunistik shiorlar xalq uchun amaliy foyda bermagani, faqat partiya manfaatlariga xizmat qilgani ko‘rsatiladi.

Jadidchilik g‘oyalari bilan bog‘liqlik. Mustafo Cho‘qayning siyosiy kurashi va asarlarida jadidchilik g‘oyalari ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. U jadidlar singari quyidagi g‘oyalarni amalga oshirishni maqsad qilgan:

- Milliy ong va xudlikni saqlash: Cho‘qay milliy qadriyatlar, til, madaniyat va tarixni saqlab qolishni millatning asosiy vazifasi deb biladi.

-Maorif va ma’rifat: U jadidlar kabi ta’limni yangi usulda tashkil etish, ona tilda o‘qitish va ilm-fanni milliy taraqqiyot omili deb hisoblaydi.

-Islomiy qadriyatlarni himoya qilish: Sovetlar tomonidan diniy ta’lim yo‘q qilinganini tanqid qilib, jadidlar g‘oyasidagi islomiy ma’rifatni qaytarishni talab qiladi.

U asarida jadidlar harakatiga ishora qilib shunday yozadi: "Bugungi kunda ma’rifat va ma’naviyat yo‘li bilan harakat qilgan jadidlar g‘oyasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sovet hokimiyati esa aynan shu yo‘lni to‘sishga harakat qilmoqda."

*Mustafo Cho‘qay g‘oyalarining bugungi ahamiyati (aktualizatsiya).* Mustafo Cho‘qayning fikrlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Uning milliy ozodlik, ta’lim va madaniy mustaqillikka oid qarashlari mustaqil O‘zbekiston va Turkiston xalqlari uchun muhim saboqdir. Xususan:

-Mustaqillik g‘oyasi: Cho‘qayning fikrlarida mustaqil davlat qurish, uni milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida barpo etish g‘oyasi yotadi.

-Yoshlar ta’lim-tarbiyasi: U ta’limning millat taqdiridagi o‘rnini tushungan, bugungi kunda ham uning ta’limga oid qarashlari dolzarbligini yo‘qotmagan.

-Milliy tarixni anglash: Cho‘qayning asarlari tarixni qayta ko‘rib chiqish, mustamlakachilik davrini xolis baholashga yordam beradi.

Mustafo Cho‘qay yozadi: "Agar biz o‘z milliy tarixi va qadriyatlarimizni saqlamasak, ertangi kun ham biz uchun mustamlakachilikning yangi bir shaklida qayta takrorlanishi mumkin."

Mustafo Cho‘qay – jadidlar harakati g‘oyalarini siyosiy kurash va xalqaro diplomatiya maydoniga olib chiqqan siymo. Uning “Sovetlar hukmronligida Turkiston” asari tarixiy hujjat bo‘lib, milliy ozodlik va xudlik g‘oyasini asoslaydi. Bu asar nafaqat tarixiy manba, balki milliy g‘oyani mustahkamlovchi, ma’naviy uyg‘onishga xizmat qiluvchi yo‘llanma sifatida ham ahamiyatga ega.

Mustafo Cho‘qay fikrlari bizning zamonimizda ham yuksak ma’naviyat, milliy birlik va mustaqillik sari intilishimizda dasturilamal bo‘la oladi.

Sovet hokimiyati esa aynan shu yo‘lni to‘sishga harakat qilmoqda” (Cho‘qay, 1920). Jadidchilik g‘oyalari – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Movarounnahr va Turkiston hududlarida yuzaga kelgan islohotchi harakatlardan biri bo‘lib, u diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyaviy fanlarni o‘rgatish, milliy ongni uyg‘otish va mustaqillik sari harakat qilishni maqsad qilgan. Mustafo Cho‘qay ham ana shu an’ananing davomchisi sifatida yangi fikr va g‘oyalarni siyosiy kurash vositasiga aylantirgan. Uning ta’limga oid qarashlari jadid maktablarining maqsadlari bilan to‘liq uyg‘un: ona tilda o‘qitish, zamonaviy fanlar va tarixni o‘qitish, ayniqsa yoshlarni milliy g‘oyalar asosida tarbiyalash. Shu ma’noda, Mustafo Cho‘qayning faoliyati jadidchilikning siyosiy va ilmiy-ma’rifiy bosqichini belgilab berdi.

**Xulosa:** Mustafo Cho‘qay – o‘z xalqi uchun o‘z jonini fido qilgan, mustamlakachilikka qarshi ma’naviy va siyosiy kurashni yuritgan vatanparvar arbobdir. Uning “Sovetlar hukmronligida Turkiston” asari tarixiy hujjat sifatida ham, milliy uyg‘onish va ma’rifat g‘oyasini yorituvchi manba sifatida ham o‘ta muhim ahamiyatga ega. Jadidchilik harakatining g‘oyaviy davomchisi sifatida u nafaqat o‘z zamonasining, balki bugungi kunning ham qahramonidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Чўқай, Мустафо. "Советлар ҳукмронлигида Туркистон: пролетар диктатурасига тавсиф." Париж, 1920-йиллар.
2. А.Раҳимов. Мустафо Чўқай ва Туркистон мухторияти. -Т.: Маънавият, 2015.
3. С.Абдуллаев. Жадидчилик ҳаракати тарихи. -Т.: Фан, 2010.

# JADIDCHILIK LAR VA DEMOKRATIK DAVLATCHILIK G‘OYALARI

***Yusupova Sabohat,***
*O‘zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadidlar harakatining mohiyati, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, demokratik davlatchilik borasidagi g‘oyalari tahlil qilinadi. Jadidlarning ma’rifiy faoliyati bilan birga, milliy uyg‘onish, xalqni siyosiy ongli qilish, boshqaruvda xalq ishtirokini ta’minlash kabi demokratik tamoyillarga urg‘u berganliklari ochib beriladi. Shuningdek, ular ilgari surgan fikr-mulohazalar bugungi O‘zbekistonning siyosiy-fikriy asoslariga qanday ta’sir etgani haqida ham mulohaza yuritiladi. Maqolada tarixiy jarayonlar orqali

jadidlarning demokratik g‘oyalari qanday shakllangani va qanday to‘siqlarga uchragani haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidlar, demokratik davlatchilik, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, siyosiy tafakkur, muxtoriyat, parlamentarizm, erkinlik, xalq ishtiroki, matbuot erkinligi, Turkiston, tarixiy meros.

Jadidlar va demokratik davlatchilik g‘oyalari o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining eng muhim jihatlaridan biridir. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati diniy islohotlar bilan birga ijtimoiy, siyosiy va ma'rifiy sohalarda chuqur o‘zgarishlar qilishni maqsad qilgan edi. Ular zamonaviy dunyoqarashni, ilm-fanni, huquqiy ongni, milliy o‘zlikni anglashni va eng muhimi, xalqni uyg‘otishni istaganlar.

Jadidlar demokratik g‘oyalarni o‘z faoliyatlarining markaziga qo‘yganlar. Ular mustabid chor tuzumiga qarshi chiqqan, xalqning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, xalq vakillari orqali boshqaruvga erishish, tenglik, adolat, so‘z erkinligi, ayollarning ta’lim olish huquqi kabi prinsiplarga e’tibor berganlar. Ular uchun demokratik davlat degani – xalqni ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtira oladigan, xalqning taqdirini o‘zi belgilashiga imkon beradigan tuzum degan edi.

Ularning g‘oyalarida parlament tizimi, qonun ustuvorligi, mustaqil sud hokimiyati, matbuot erkinligi kabi tamoyillar o‘z ifodasini topgan. Jadidlar milliy mustaqillik g‘oyasini ilgari surganlar, bu esa kelajakda Turkiston muxtoriyatining shakllanishi bilan bog‘liq harakatlarga zamin yaratdi. Masalan, 1917-yilda Qozon va Petrograddagi inqilobiy harakatlar fonida jadidlar Farg‘ona vodiysi, Buxoro, Xiva kabi joylarda muxtoriy davlatlarni tashkil etishga urinishgan.

Ular uchun eng muhim qadriyat bu – ma’rifat edi. Ma’rifat orqali xalqni jaholatdan xalos qilish, uni mustaqil fikrlaydigan, huquqlarini anglaydigan, siyosiy jarayonlarga befarq bo‘lmagan fuqaro darajasiga ko‘tarish – ularning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan. Jadid maktablari, matbuot nashrlari, teatr va publitsistikasi orqali ular jamiyat tafakkurini uyg‘otishga xizmat qilganlar.

Jadidlarning demokratik davlatchilik haqidagi qarashlari quyidagilarga asoslanardi:

Milliy uyg‘onish - Jadidlar o‘zbek xalqining o‘zligiga, tili, madaniyati va tarixiy xotirasiga asoslangan mustaqil va ongli jamiyatni qurishni istaganlar. Ular jamiyatni savodsizlik, qoloqlikdan qutqarishni ko‘zlaganlar.

Hokimiyat va qonun ustuvorligi - ular mustabid (avtokratik) boshqaruvga qarshi bo‘lib, xalq vakillari ishtirok etadigan qonuniy hokimiyat tizimini

yaratishni maqsad qilganlar. Bu esa konstitutsiyaviy boshqaruv, parlament, sud mustaqilligi kabi g‘oyalarga yaqin edi.

Erk va tenglik – jadidlar inson huquqlari, so‘z erkinligi, diniy bag‘rikenglik va erkak-ayol tengligi g‘oyalarini ilgari surganlar. Bu tamoyillar zamonaviy demokratik jamiyatlar asosini tashkil etadi.

Ta’lim orqali islohot - ular xalq ongini o‘zgartirish, zamonaviy tafakkurni shakllantirish orqali ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishni ko‘zlagan. “Yangi maktab”lar orqali dunyoviy fanlar o‘rgatilib, milliy uyg‘onishga yo‘l ochilgan.

Dunyoqarashdagi ochiqlik - jadidlar turli yevropacha boshqaruv shakllari, demokratiya va huquqiy davlat g‘oyalarini o‘rganib, ular asosida mahalliy sharoitga mos modelni ishlab chiqishga harakat qilishgan.

Adabiyotning kuch-qudratini to‘g‘ri anglagan ziyolilar undan samarali foydalanish, xalq ichiga kirib ta’sir o‘tkazish yo‘llarini izlaganlar. Har bir davrning yirik adabiyot vakillari borki, ular ijodida o‘sha davr nafasi, o‘sha davr ijtimoiy, iqtisodiy va albatta siyosiy holati ko‘z o‘ngimizda beixtiyor gavdalanadi. Yurtimiz tarixida ma’rifatparvar, ilmga chanqoq va kelajak avlodni ham ilmli qilib voyaga yetkazishni niyat qilgan ziyolilar salmog‘i ko‘p. Ular o‘zlari eng avvalo ilm olib, so‘ngra atrofidagi insonlarga ayniqsa, bolalarga ziyo tarqatish, ta’lim jarayonlarini takomillashtirib, mukammal darsliklar yaratish ishtiyoqida bo‘ldilar. Ayniqsa vatanimizga bostirib kelishgan va boyliklarini talon-taroj qilishayotgan bir davrda yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, zamonasining eng ilg‘or bilimlarini egallashga bo‘lgan da’vatlari bilan yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdilar. Xususan bolalarga maktab ochish, yangi pedagogik usullarni ishlab chiqib, amalda qo‘llash borasida yaxshi meros qoldirganlar.

Zero, ta’lim va tarbiya kelajakning asl poydevoridir. Jahon va diyorimiz hayotida ro‘y berayotgan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ziyolilar qatlamini befarq qoldirmadi. Ular bir g‘oya ostida birlashib, xalqimizning ma’naviy boyliklarini tiklash, zamonaviy ta’lim dasturlarini qabul qilib, ta’lim jarayonlariga tatbiq etish ishlarini boshlab berishdi. Bu harakat namoyondalari jadidchilik harakati deb tarixga kirdilar.

Siyosiy faoliyatda esa ular o‘z davrining eng zamonaviy g‘oyalarini ilgari surganlar. Turkiy xalqlarning birligi, o‘z madaniyatini, tilini, urf-odatlarini asrash va zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish, ichki mustaqillik, tashqi bosimlarga qarshi turish – bularning barchasi ularning demokratik davlatchilik haqidagi tasavvurlarini shakllantirgan.

Afsuski, sovet davlati bu harakatni “millatchilik”, “reaksion kuchlar” sifatida baholab, jadidlarning ko‘pchiligini qatag‘on qildi. Ammo ularning g‘oyalari mustaqil O‘zbekistonning davlat boshqaruvi va siyosiy falsafasida, ayniqsa, milliy tiklanish jarayonlarida chuqur iz qoldirdi. Bugungi kunda jadidlar o‘zbek davlatchiligi tarixida faqatgina ma’rifatparvarlar emas, balki ilg‘or siyosiy va huquqiy tafakkur egalari sifatida qadrlanmoqda. Ularning demokratik jamiyat haqidagi orzu-umidlari mustaqillik davridagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot bilan uyg‘unlashmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar nafaqat ma’rifat sohasida, balki siyosiy va davlat boshqaruvi yo‘nalishida ham chuqur iz qoldirgan millat fidoyilaridir. Ularning demokratik davlatchilik haqidagi g‘oyalari xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, huquqiy ongli, erkin va teng jamiyat barpo etish istagini ifoda etgan. Sovet tuzumining qatag‘on siyosati ularning orzularini vaqtincha to‘xtatgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ularning g‘oyalari mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lida g‘oyaviy manba sifatida qayta tiklanmoqda. Jadidlarning ilm, adolat va siyosiy faollikka asoslangan qarashlari zamonaviy demokratik jamiyat qurilishida muhim rol o‘ynaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Sh.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. Toshkent: 11.12.2023.
2. Abdirashidov Z. Mahmudxo`ja Behbudiy. Jadidlar to`plami. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
3. Avloniy A. “Tarjimai xol”. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T., “Ma’naviyat”, 1998 yil 288- bet.

# MAHMUDXO’JA BEHBUDIYNING GAZETACHILIK FAOLIYATI XUSUSIDA

***Ismoiljon Ikromov Ibrohimjon o’g’li,***
*Andijon davlat pedagogika instituti tarix fani o’qituvchisi*
*ikromov6691@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-3094-1472*

**Annotatsiya**: Maqolada XX asr boshlarida Turkistondagi matbuot targ‘iboti va jadidchilik harakati o‘rtasidagi aloqa tahlil qilingan. Aniq misol sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiya tahrirligida chop etilgan “Samarqand” gazetasi

va “Oyna” jurnali yoritilgan. Ushbu nashrlar orqali jadidlar xalqqa ma’rifatli bo‘lish, siyosiy ongni shakllantirish va dunyo voqealari bilan tanishtirishga intilishganligi yoritiladi.

**Kalit so’zlar**: Turkiston, jadidchilik, matbuot, “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, ma’rifat, siyosiy ong, modern harakat.

Turkiston tarixining XX asr boshlaridagi jarayonlari haqida so’z borganda, jadidchilik harakati vakillarining matbuot va nashr ishlari alohida tadqiqotlar mavzusidir. Xalqni ma’rifatli qilish, dunyoda bo’layotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlardan boxabar qilish, va eng muhimi – siyosiy ongni shakllantirish yo’lida gazetachilik, matbuot ishi asosiy jabha bo’ldi. Jadidlar matbuot orqali Turkiston xalqini ham o’lka hayotiga oid muhim voqealar,Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmonlarning haq-huquqlari uchun kurashda o’z fikrlarini bildirdilar, tortishmalar yaratdilar. Ayniqsa, “Turkiston jadidlarining otasi” o’laroq bilingan Mahmudxo’ja Behbudiy «Samarqand» gazetasi, «Oyna» jurnali va «Nashriyoti Behbudiya» nashriyoti bilan chinakamiga jadidlarning peshqadami bo’ldi [1]. Matbuotda nafaqat Turkiston yoinki Rossiya imperiyasidagi vaziyat, dunyo musulmonlarining o’z zamonasidagi hol-ahvoli, dunyo siyosatidagi o’rni haqida ham chiqishlar qildi.

Manbalarda, Turkiston o’lkasida vaqtli matbuot, gazeta ishining dastlabki namunasi sifatida Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri bo’lmish «Туркестанские ведемости» gazetasi tilga olinadi. Shu bilan birga, general-gubernatorlikdagi viloyat harbiy rahbarlari ham joylarda vaqtli nashrlar ishini yo’lga qo’yishga ehtiyoj borligini yuqori turuvchi organlarga bildirishgani ma’lum [3]. «Туркестанские ведемости» va uning o’zbek tilidagi ilovasi «Turkiston viloyatining gazeti» O’rta Osiyodagi davriy matbuotning to’ng’ich namunasi hisoblanib, ulaning har ikkisi 1917-yilga qadar nashr qilingan. Turkiston matbuoti tarixida bu ikki gazeta kabi uzoq muddat davomida uzluksiz chiqqan boshqa davriy nashr bo’lgan emas [5]. Bu gazetalar chorizmning Turkiston mablag’i hisobidan nashr qilinib, shu ma’muriyatning rus va o’zbek tilidagi rasmiy matbuot nashri vazifasini o’tagan va o’lkada mustamlakachilik siyosatini yuritish vositasi bo’lib xizmat qilgan.

Rossiyada 1905-yil voqealari va berilgan nisbatan erkinlik Turkiston o’lkasi mahalliy ziyolilari uchun ham haq-huquqlari, tenglik uchun kurashlarida yangi bosqich bo’ldi. Bu kurash yo’lida vaqtli nashrlarning kuchini, xalqning fikriga ta’siri to’g’ri anglab, yirik shaharlarda bir qancha gazeta-jurnal, bosmaxonalar ochildi. Dastlab, Ismoil Obidiy “Taraqqiy” (1906), Behbudiy

“Samarqand” (1913) gazetasi va “Oyna” (1913-1915) jurnalini chiqardi. Toshkentda 1914-yil “Sadoyi Turkiston”, Farg’onada “Sadoyi Farg’ona”, “Tirik so’z”, Buxoroda “Turon” kabi gazetalar, “Al-isoh” jurnali ham ularning davomchisi bo’ldi. Lekin, jadid ma’rifatparvarlari tomonidan nashr qilingan bu gazetalarning barchasi o’lkadagi imperiya ma’muriyatining doimiy bosimi va moddiy yetishmovchiliklar tufayli qisqa muddat nashr qilinib borildi [6].

Ko’rib o’tilganidek, matbuot ishidagi ko’plab qiyinchiliklarga qaramasdan jadidlar yopilgan bir gazetaning o’rniga boshqa birisini nashr qilish bilan bu sohada ma’lum bir faollar guruhi, o’quvchi jamoasini yaratishga muvaffaq bo’ldi. Bu o’rinda 1913-yil aprel oyidan Behbudiyning mas’ul muharrirligida chiqa boshlagan “Samarqand” gazetasi alohida o’rinda turadi. Gazetaning tepasiga “mahalliy turkiy va forsiy o’rta shevada ilm-fan, adabiyot, tijorat, hunar va ziroatdan, Rusiya ahvoli va madaniyati va horijiya mamlakatlari holidan va olami islom tirikligidan yozg’uvchi madaniyat musavvir jaridadir” [4], deb yozilgan ushbu gazeta haftada ikki marta, 400-600 dona orasida bosilib turgan. Ammo, gazetaning 45 ta sonidan so’ng moddiy qiyinchiliklar tufayli yopilgan [1]. Ziyo Saidning yozishicha, Mirzohid Mirqoilov, Akobir Shomansurovlar 200 mushtariy, 500 so’m to’plab, yana nashr qilinishini so’rab, muharrirga telegramma bergan bo’lsalar ham qaytarib nashr qilish mumkin bo’lmagan, ammo Said Rizo, Hoji Muin, Rojiy, Siddiqiy, Nusratulla Milliy, Mulla Ibrohim Saidkamol o’g’li va boshqalar yozishib turganlar [4].

Behbudiy va izoshlari bu bilan to’xtab qolmasdan 1913-yil 20-avgustda “Oyna” jurnalining nashrini yo’lga qo’yadilar. Qayd etilishicha, jurnalning yuzaga kelishida Behbudiyning ruhlantirgan omil dastlabki tatar jurnali “Mir’ot” bo’lgan [3]. U jurnalni “Mir’ot” – “Ko’zgu” – “Zerkalo” – “Oyina” deb to’rt tilda nomladi va u forscha nom bilan shuhrat topdi. Jurnalning ayna “Oyina” deb nomlanishi haqida Behbudiyning o’zi shunday yozadi: “Oyina…Unda odam nazar tashlasa o’zini ko’radi va qiyofasining qandayligidan ogoh bo’ladi. Qizil, sariq, qora yo oq bo’lsa, bu omillar ta’sirida uning moddiy va ma’naviy holatining hosili bo’lgan.. kishi ilojini qidira boshlaydi. Odamzotning oynasi odamdir. Do’stlar bir-birining oynasi va faqat odamzotga oyna yasash va yaratish mahorati berilgandir” [2]. Ushbu vaqtli nashr o’zining ilk sonlaridan e’tiboran Behbudiyning “Jug’rofiya nima”, Fitratning “Hayot va g’oyayi hayot” va “Manfaat”, Mirzodaning “ilm va taraqqiyot”, Hoji Muinning “Maktab masalasiga javob” nomli maqolalari bilan Turkiston o’lkasidagi muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarni olib chiqishga harakat qildi.

Shuningdek jurnalda "*dohiliya*" ruknida Turkiston ijtimoiy-maishiy, ma'rifiy hayotiga, "*xorijiy*" ruknida xorijda bo'layotgan voqealar, "adabiyot" ruknida adabiy-tanqidiy maqola va parchalar, taqriz va she'riy asarlar, "*ilmiy maqolalar*" qismida Behbudiy va uning zamondoshlari hamda xorij sharqshunoslarining fan sohalariga oid maqola, kuzatishlari, "e'lonlar" ruknida jurnal va mushtariylar uchun manfaatli xabarlar berib borilgan. Tadqiqotchilarning yozishicha [3], Behbudiyning o'zi ham muntazam ravishda tashqi davriy nashrlar bilan tanishib borganidek, "Oyina" uchun ulardagi eng ahamiyatli xabarlardan iqtiboslar olgan. "Tarjimon", "Vaqt", "Yulduz", "Saboh", "Quyosh", "Chehranamo", "al-Hilol", "Sho'ro", "Mulla Nasriddin", "Islom majmuasi", "Siroj ul-axbor" kabi vaqtli matbuot nashrlaridan keltirilgan iqtiboslarni jurnalning deyarli hamma sonida kuzatish mumkin bo'lgan.

So'nggi yillarda Behbudiyning gazetachilik faoliyatini o'rganishda uning sayohatnomalari – turli o'lkalarga qilgan sayohat xotiralari alohida qiziqish bilan tadqiq qilinmoqdadir. Behbudiyning 1914-yil 29-mayidan arab mamlakatlariga sayohat esdaliklari "Oyina"ning shu yilgi sonlarida bardavom berib borilgan. Unda muallifning islom olamida yangicha rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj va dunyo davlatlarining bugungi kundagi ahvoli va unda Turkiston xalqlarining o'rni haqida qiyosiy fikrlar yozib borilgan. Behbudiyning ushbu safari bilan bugungi kun orasida qariyb bir asrlik masofa o'tganiga qaramay, "Xotiralar"dagi ma'rifiy ruh, iztirob to'la fikr-mulohazalar, muallifning tashna nigohi bugungi kun o'quvchisini ham befarq qoldirmasligi aniq. Xususan, Vatan tuyg'usi bugun siz bilan biz uchun aytilgandek tuyuladi. U Quddusi sharifdagi maqbaralarni ziyorat qilar ekan, toshkentlik yosh bir attorga duch keladi. «Do'konig'a bir oz o'lturdik,— yozadi Behbudiy, — mamlakatdan so'radi. Qo'lig'a bir necha nusxa «Oyna» va Turkiston xaritasini berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shaxrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'zig'a surtdi. («Hubbul vatani min al-iymon».) Xususan, vatan va axdi diyorni qadri musofiratga ma'lum bo'lur. Haqiqatan vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak» [3].

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda XIX-XX asr boshlaridagi matbuot taraqqiyoti avvaliga chor Rossiyasi tomonidan chiqarilgan Turkistanskie Vedomosti gazetasi va uning o'zbekcha ilovasi orqali boshlangan bo'lsa-da, 1905-yilgi inqilobdan keyingi erkinliklar mahalliy ziyolilar uchun o'z nashrlarini yaratishga imkon berdi. Ismoil Obidiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat kabi jadidlar tomonidan "Taraqqiy", "Samarqand", "Oyina", "Sadoyi Turkiston", "Turon" kabi ko'plab gazeta va jurnallar nashr qilindi. Ularning aksariyati

moliyaviy va siyosiy bosimlar sababli qisqa muddat faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, o‘quvchilar orasida kuchli ijtimoiy-ma’rifiy harakatni yuzaga keltirdi. Xususan, Behbudiy tahriridagi “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali jadid matbuotining yorqin namunasi bo‘lib, ilm-fan, adabiyot, siyosat, islom dunyosi holati kabi dolzarb mavzularni yoritishga xizmat qildi. Oyna jurnali orqali Behbudiy va zamondoshlari xalqni yangicha fikrlashga undagan, chet el nashrlaridan iqtiboslar keltirib, dunyo bilan bog‘lay olgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar (tuzatilgan to’ldirilgan 3-nashri) // nashrga tayyorlovchi, to’plovchi, so’zboshi va izohlar muallifi prof. B.Qosimov. -T.: «Ma’naviyat», 2006.

2. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. -T.: «Akademiya» - 1999.

3. Abdirashidov Z., Egamqulova N. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning «Oyina» jurnali. -T.: «Muharrir», 2019.

3. Boboxonov A. O’zbek matbaasi tarixidan. // mas’ul muharrir R.N.Hakimov. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

4. Ziyo Said. Tanlangan asarlar. // to’plovchi Sh.Turdiyev. -T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

5. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). // tuzuvchi N.Abduazizova. -T.: «Akademiya», 2000.

6. Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot (1870-1924). -T.: O’zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1959.

# JADID MATBUOTI VA “TIL MASALASI”: BEHBUDIY MEROSINING ZAMONAVIY TALQINI

***Pardayeva Iqbol,***
*O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti*
*Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar*
*kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik davri matbuoti misolida o‘zbek tilining matbuotdagi o‘rni, undagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Til masalasi” maqolasi asosida tarixiy tahlil berilib, sheva tafovutlari, arab va fors tillarining ta’siri, til birligini ta’minlash masalalari muhokama qilinadi. Muallif bugungi zamonaviy matbuotda ham o‘zbek tilining rivojiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni ko‘rsatadi va ularni

bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suradi. Maqola jadidchilik merosi bilan zamonaviy til siyosatini bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Til masalasi, O‘zbek tili tarixi, Matbuot va til, Sheva farqlari, Arab-fors tillari ta’siri.

O‘zbek tili milliy identifikatsiya va madaniy merosning asosiy ustuni bo‘lib, uning rivojlanishi tarixida turli muammolar bilan birga keladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy matbuot o‘zbek tilini shakllantirish va uni xalq orasida targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning “Til masalasi” (“Til masalasi”. *Oyna* jurnali, 1915 yil, 11–12-sonlar, 274–277, 306–311-betlar.) maqolasi matbuot orqali tilni adabiylashtirish va muammolarni hal qilishga qaratilgan fikrlarni kuzatish imkonini beradi. Ushbu maqola milliy matbuotda o‘zbek tiliga oid maqolalardagi asosiy muammolar (sheva farqlari, xorijiy tillar ta’siri va til birligi masalalari)ni tahlil qilib, muolaja yo‘llarini taklif qiladi. Maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikrlariga asoslanib, zamonaviy kontekstdagi imkoniyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

*Matbuotda o‘zbek tiliga oid muammolar*

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek tilini o‘zbek-chig‘atoy lahjasi sifatida, turkiy tillar oilasiga kiradigan boshqa lahjalar (tatar, ozarbayjon, qozoq, turkman) bilan bog‘lab, matbuotdagi asosiy muammolardan biri sifatida sheva va imlo masalalarini ko‘taradi. Uning tahliliga ko‘ra, fors va arab tillari o‘zbek tiliga asrlar davomida ta’sir qilib, lug‘at va iboralarda o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Masalan, hafta kunlari nomlari (shanba, yakshanba, dushanba) forsiy kelib chiqishga ega bo‘lib, ularni chiqarib tashlash imkonsizdir. Bu esa tilni soflashtirishga to‘siq bo‘ladi.

Usmonli tili misolida turkiy, forsiy va arab tillarining qo‘shmasi matbuotdagi tushunarlilikka ta’sir etgan. Behbudiy Qrim va Qavqozdagi turkiy lahjalarda arab va forsiy iboralar Usmonli tiliga nisbatan kam bo‘lishiga qaramay, ularning turkiy tilning boshqa shevalariga yaqinligini ta’kidlaydi. Tatarcha (no‘g‘aycha) shevasida ham arab va forsiy lug‘atlardan to‘liq ozod bo‘lish mumkin emasligi, hatto “sodda til” tarafdorlari tomonidan ham bu ta’sirni rad qilish imkonsizligi aytiladi.

Turkistondagi o‘zbek-chig‘atoy lahjasiga kelsak, Behbudiy uni Navoiy asarlari bilan bog‘lab, madaniyatning to‘xtashi sababli xalq tomonidan bu lahjaning buzilib ketishini ko‘rsatadi. U mintaqa boshqa shaharlaridagi sheva farqlari (masalan, “anda”, “munda” o‘rniga “u yerda”, “bu yerda”) va geografik joylashuvga bog‘liq holda forsiy va arab tillarining ta’sirini ko‘rsatadi. Buxoro

va Samarqandda forsiy va arab lug‘atlari ko‘p bo‘lsa, Toshkentda forsiy tilini biluvchilar kam. Farg‘onada forsiy tili rivojlanib, joyli shoirlar tomonidan forsiy she’rlar yaza boshlangan. Bu matbuotda til birligini ta’minlashda muammo tug‘dirib, turkiy tilni oddiy va ilmiy shakli orasidagi munosabatlarni qiyinlashtirgan.

*Matbuotda o‘zbek tilini rivojlantirish yo‘llari*

Behbudiy matbuotni tilni rivojlantirish va adabiylashtirish vositasi sifatida ko‘radi. U Rossiya musulmonlari matbuoti misolida “Vaqt”, “Shu‘ro” va “Yulduz” gazetalarining vaqt o‘tishi bilan oddiydan oddiyga o‘tishini ko‘rsatadi. Qavqoz matbuoti avvaldan oddiy bo‘lib, xalq tiliga ta’sir etgan. Biroq avom tili matbuotga to‘liq kirishi mumkin emasligi, ilmiy kitoblarga asoslanishi zarurligi aytiladi.

Behbudiy matbuotda tilni soddalashtirish orzusini qo‘llab-quvvatlaydi, lekin amalda buning qiyinligiga ishora qiladi. “Sadoi Turkiston” gazetasi misolida arab va forsiy lug‘atlarni chiqarib tashlash orzusi “oson”, ammo imkonsiz deb baholanadi. “Qunoq” o‘rniga “mehmon” so‘zi turkiy xalqlar bilan forsiy musulmonlarning tushunishiga yarasharli bo‘lishi ko‘rsatilgan. Ushbu sabablarga asoslanib tilni birlashtirish uchun quyidagi yo‘llar taklif qilinadi:

- Geografik nomlarni va tarixiy voqealarni turkiy ismlar bilan almashtirish;
- Yangi lug‘atlar tayyorlash va tizimli kiritish;
- Matbuotda arab va forsiy lug‘atlarni imkon qadar kamaytirish.

Ushbu jarayon yuzlab yillarni talab qilishi mumkin, lekin zamonaviy til rivojlanishiga xalaqit bermaydi.

*Zamonaviy kontekstda muammolar va yechimlar*

Bugungi kunda O‘zbekistonda matbuotda o‘zbek tili rivojlanishi hali ham aktualdir. Lotin alifbosiga o‘tish (1993 yil) tilni uniformalashtirishga imkon berdi, ammo sheva farqlari, til savodxonligi darajasi va xorijiy tillar (ingliz, rus) ta’siri yangi muammolarni keltirdi. Matbuotda o‘zbek tilini rivojlantirish uchun:

1. Til birligi: Sheva farqlarini hisobga olib, yagona oddiy standartni shakllantirish.
2. Ta’lim: Til savodxonligini oshirish uchun mahalla kurslarini tashkil etish.
3. Lug‘at integratsiyasi: Arab va forsiy lug‘atlarni moslashtirish, zarurat bo‘lsa ingliz yoki rus lug‘atlarini adaptatsiya qilish.
4. Istilohlar: Yangi fanlarga muvofiq turkiy istilohlar ishlab chiqish.

Elektron matbuot va ijtimoiy media orqali tilni zamonga moslashtirish muhimdir.

**Xulosa.** Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Til masalasi” maqolasi matbuotda o‘zbek tiliga oid muammolar (sheva farqlari, xorijiy tillar ta’siri) va uni rivojlantirish yo‘llarini kuzatish imkonini beradi. Zamonaviy kontekstdagi lotin alifbosi, ta’lim va istilohlar rivojlantirish orqali bu muammolar hal qilinadi. Matbuot orqali o‘zbek tilini mukammallashtirish madaniy merosni saqlash va jahon miqyosida raqobatbardosh tilga aylantirishning kalitidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Behbudiy, Mahmudxo‘ja. “Til masalasi”. *Oyna* jurnali, 1915 yil, 11–12-sonlar, 274–277, 306–311-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti. *O‘zbek tilining tarixi va rivojlanishi*. -Toshkent, 2020.
3. Xudoyberdiyev, A. *Milliy matbuot va til masalalari*. -Toshkent, 2015.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY MEXANIZMLARI VA OMILLARI

***Sevara G‘ayratovna Raximova,***
*O‘zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedrasi*
*stajyor o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson, uning qadri va huquqlari turadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, jamiyatda ma’naviy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Ma’naviy tarbiya nafaqat yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazishda, balki milliy g‘oya va qadriyatlarni mustahkamlashda ham asosiy vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ishlatilayotgan mexanizmlar va ta’sirchan omillar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O‘zbekiston, ma’naviy tarbiya, ta’lim, fuqarolik jamiyati, OAV, mahalla.

**Kirish.**"Ma’naviy tarbiya – bu jamiyatning yuragi, insonning esa qalbidir. Agar qalbni poklab, ongni to‘g‘ri yo‘lga solmasak, hech qanday islohot kutilgan natijani bermaydi." Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishga oid qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, hukumat dasturlari mavjud. Jumladan, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazining faoliyati[1], “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat sari”[2] tamoyillari asosida olib borilayotgan ishlar, bu boradagi huquqiy asosni mustahkamlab bermoqda. Shuningdek maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ma’naviy

tarbiya asosiy komponent sifatida qaralmoqda. Darslik va o‘quv dasturlariga milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik g‘oyalari singdirilmoqda. O‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali ham tarbiya jarayonining samaradorligi oshirilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ongiga sog‘lom g‘oya va fikrlarni singdirishda ommaviy axborot vositalari va internet tarmog‘i muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki zamonaviy axborot texnologiyalari yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan, ular kundalik hayotda internet orqali yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va turli onlayn platformalar orqali ma’lumot oladilar. Shunday ekan, sog‘lom g‘oyalarni keng targ‘ib qilish, yoshlarni vatanparvarlik, ma’naviyat, madaniyat va ilmga qiziqishini oshirishda aynan shu vositalardan oqilona foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari – televideniye, radio, gazeta va internetdagi axborot portallari orqali ijtimoiy-ma’naviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, yoshlarni yot g‘oyalardan, zararli axborotlardan himoya qilish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda sog‘lom fikrli, bilimli va faol blogerlar, jurnalistlar va kontent yaratuvchilarning mavjudligi yoshlar orasida ijobiy kayfiyat va to‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda eng muhim jihat – axborotlarning ishonchli, hayotiy va yoshlarning qiziqishlariga mos bo‘lishidir. Chunki noto‘g‘ri, asossiz yoki zararli kontentlar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli sog‘lom g‘oyalarni ilgari surishda davlat siyosati, ta’lim muassasalari, OAV va ota-onalar hamkorlikda ishlashi zarur.

Yoshlarning ongini sog‘lom shakllantirishda OAV va internet vositalaridan foydalanishning samarali yo‘llaridan biri bu – interaktiv ta’lim, onlayn vebinarlar, vloglar, tanlovlar, ma’naviy-ma’rifiy loyihalarni yo‘lga qo‘yishdir.

Ayni damda televideniye, radio, internet platformalari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlari kuchaytirilayotgani, shu bilan birga, salbiy axborotlardan himoyalash mexanizmlari ham takomillashtirilayotganligi yoshlar ongiga sog‘lom g‘oya va ijobiy fikrlarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Davlat siyosati doirasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarni yot g‘oyalar, ekstremizm, axloqsizlik va befarqlikdan himoya qilish bo‘yicha tizimli yondashuvlar shakllanmoqda. Internet platformalarida filtrlar, nazorat tizimlari va axborot xavfsizligini ta’minlovchi dasturlar yordamida zararli kontentlarning tarqalishini cheklashga qaratilgan ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shu bilan birga, foydalanuvchilarning axborot madaniyatini oshirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularni mustaqil ravishda foydali va zararli ma’lumotlarni ajrata olishga o‘rgatish ham dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi targ‘ibot-tashviqot ishlari nafaqat axborot berish, balki yoshlarning tafakkurini, ma’naviyatini va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy, interaktiv va ta’sirchan uslublarga asoslangan. Masalan, vloglar, podkastlar, onlayn kurslar, ma’rifiy seriallar va ijtimoiy loyihalar orqali yoshlar bilan samarali muloqot o‘rnatilmoqda..

Mahalla – jamiyatning eng quyi bo‘g‘ini sifatida ma’naviy tarbiyada muhim o‘rin egallaydi. Aynan mahalla tizimi orqali fuqarolar bilan bevosita muloqot o‘rnatilib, yoshlar tarbiyasi, oilaviy muammolar, ma’naviy-ma’rifiy masalalar joyida o‘rganiladi va hal etiladi. Mahallalarda o‘tkazilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, yoshlar va ota-onalar bilan olib borilayotgan suhbatlar, uchrashuvlar ijtimoiy muhitni barqarorlashtirish, hamjihatlik va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi tashabbuslar orqali muammoli holatlar aniqlanib, ular yuzasidan mahalla raislari, yoshlar yetakchilari, profilaktika inspektorlari, psixologlar va boshqa mutaxassislar ishtirokida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu orqali nafaqat muammolar aniqlanmoqda, balki ularni mahalla doirasida hal qilish, yoshlarni noto‘g‘ri yo‘ldan qaytarish va ularning jamiyatga foydali inson bo‘lib shakllanishiga ko‘maklashilmoqda. Shuningdek, mahalla – bu an’analar, urf-odatlar, odob-axloq qoidalari asrlar davomida saqlanib kelayotgan makon sifatida, yosh avlodga sog‘lom hayot tarzini singdirishda o‘ziga xos tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Mahalla faollarining tashabbusi bilan sport musobaqalari, madaniy-ma’rifiy kechalar, ustoz-shogird an’analari asosidagi uchrashuvlar muntazam o‘tkazilib, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida istiqomat qiluvchi 19 yoshli Muhammadali bir vaqtlar internetda ko‘p vaqtini bekorchi mashg‘ulotlarga sarflab, hayotda yo‘nalishini topolmay yurgan edi. Mahalla yoshlar yetakchisi tomonidan u "Yoshlar markazi"ga taklif etildi. Bu yerda u dasturlash bo‘yicha bepul treninglarda qatnashdi, shaxsiy rivojlanish haqida ma’ruzalarda ishtirok etdi va o‘z qiziqishini topdi. Muhammadali bugungi kunga kelib IT bo‘yicha onlayn freelance ishlarda faoliyat yuritmoqda. U o‘zining yutuqlari haqida shunday deydi: “Agar mahallamizdagi yoshlar yetakchisi va markazdagi ustozlar bo‘lmaganida, balki men hali ham telefonda bekor o‘yinlar o‘ynab yurgan bo‘lardim. Endi esa maqsadim aniq, hayotimda ma’naviy burilish

bo‘ldi.” Uning hikoyasi Yangi O‘zbekistonda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning amaldagi samarasini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bunday misollar bugungi kunda ko‘plab hududlarda uchramoqda va bu islohotlarning real hayotdagi ifodasidir.

Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda faol qatnashmoqda. Ular yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani kuchaytirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan turli loyihalarni amalga oshirish orqali jamiyat hayotida muhim rol o‘ynamoqda. Xususan, NNTlar tomonidan amalga oshirilayotgan grant loyihalari, seminar-treninglar, mahorat darslari, davra suhbatlari orqali yoshlarning dunyoqarashi kengaymoqda, ularning ijtimoiy faolligi oshmoqda, yetakchilik salohiyati rivojlanmoqda. Bunday tadbirlar nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ogohlikka, vatanparvarlikka, sog‘lom fikrlashga yo‘naltirish, ularni turli xavf-xatarlardan himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari yoshlar bilan ishlovchi davlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, OAV va boshqa ijtimoiy tuzilmalar bilan hamkorlikda keng qamrovli ijtimoiy-ma’naviy loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu orqali yoshlarga oid davlat siyosatining amaliy samaradorligi ta’minlanmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda faol qatnashmoqda. Turli grant loyihalari, seminar-treninglar orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi kengaytirilmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ma’naviy tarbiya ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu borada davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV, ta’lim muassasalari va mahalla tizimi o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Xususan, quyidagi asosiy mexanizmlar samarali ishlamoqda: Mahalla institutining faollashuvi – Mahallalarda yoshlar yetakchilari, ijtimoiy psixologlar va profilaktika inspektorlari orqali bevosita joylarda suhbatlar, uchrashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bu yondashuv “muammoni joyida hal qilish” tamoyiliga asoslanadi va o‘z natijasini bermoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining qo‘shilishi – Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) tomonidan yoshlarga mo‘ljallangan grant loyihalari, treninglar va ma’naviy ko‘rik-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Ular davlatning rasmiy yondashuvini ijtimoiy tashabbuslar bilan to‘ldirib, har tomonlama yondashuvni shakllantirmoqda. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot – Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda sog‘lom fikrli blogerlar,

vatanparvarlik g‘oyalari, ilm-ma’rifatni targ‘ib qiluvchi kontentlar ko‘paymoqda. Bu esa yoshlar ongiga zamonaviy va oson yetadigan shaklda ma’naviy g‘oyalarni singdirish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud: Ba’zi hududlarda mahalla va NNTlar faoliyati sust yuritilmoqda; Internetda zararli, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kontentlar hanuz mavjud; Trening va seminarlar ayrim hollarda faqat rasmiy tadbir sifatida o‘tkazilib, real ta’sir kuchiga ega bo‘lmayapti.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy tarbiya bo‘yicha samarali mexanizmlar shakllangan bo‘lsa-da, ularni mukammallashtirish, ayniqsa, ularning sifat va ta’sirchanlik darajasini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Har bir institutning faol ishtiroki, tahliliy yondashuv va innovatsion uslublarni qo‘llash orqali bu boradagi natijalar yanada yuqori darajaga chiqishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviy tarbiya muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu jarayonda mahalla, ta’lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va internet platformalari kabi mexanizmlarning uyg‘un faoliyati orqali yosh avlodda sog‘lom fikr, vatanparvarlik, ma’rifatga intilish va yot g‘oyalarga nisbatan immunitet shakllantirilmoqda. Ammo ma’naviy tarbiya doimiy e’tibor va yangilanishni talab qiluvchi jarayondir. Shu bois, mavjud tizimni faqat rasmiy tadbirlar bilan emas, balki mazmunli, yoshlar ruhiyatiga yaqin yondashuvlar asosida olib borish, joylardagi muammolarga individual yondashish, real ta’sirchanlikni oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda har bir fuqaroning, ayniqsa oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi orqali jamiyatimizda kuchli ma’naviyatli, ongli va faol yoshlar shakllanadi. Aynan shunday avlod Yangi O‘zbekistonning buguni va ertangi kunini barpo etadi.

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida /https://www.lex.uz/docs/-5443067.

2. “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi amalga oshiriladi /https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--marifatli-jamiyat-kontseptsiyasi-amalga-oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida / https://lex.uz/docs/-3333797.

## BEHBUDIY QARASHLARIDA IJTIMOIY-SIYOSIY TARAQQIYOT MASALALARI

***Salayev Dilshodbek,***
*PhD, Ma’mun Universiteti dotsenti,*
***Bekchanov Doniyor,***
*PhD, Ma’mun Universiteti dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tahlil qilinadi. Behbudiyning asosiy g‘oyalari, ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonida tutgan o‘rni va bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.
**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, ma’rifatchilik, mustaqillik, ijtimoiy g‘oyalar, siyosiy g‘oyalar.

Mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikrlar taraqqiyotida jadidchilik xarakatining o‘rni kattadir. Bunda, ayniqsa o‘lkada jadidchilik harakatining g‘oyaviy yetakchilaridan, uning nazariy asoschilaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875-1919) qarashlari alohida o‘rin tutadi.

Behbudiy fikrlarining teranligi, siyosiy ongining yuksakligi bilan jadidlar orasida ajralib turardi. Ma’lumki, XX asrning boshlarida Rossiyada keskin ijtimoiy harakatlar, to‘polonlar va o‘zgarishlar yuzaga keladi. Behbudiy mazkur jarayonlarga o‘zining munosabatini bildirar ekan, sotsial-demokratik va eserlar partiyalarining dasturlari va faoliyatini salbiy baholaydi. Biz musulmonlar uchun, deydi Behbudiy, bu partiyalarga qo‘shilish zararlidir. Ularning mulkchilik xaqidagi talablari xato va shariatga mutloq ziddir. Shaxs erkinligi, oila haqidagi fikrlari ham biz uchun mutloq to‘g‘ri kelmaydi. Siyosiy partiyalar ichida, deydi Behbudiy, biz uchun to‘g‘ri keladigan kadetlar partiyasidir, chunki bu partiya podshohning xalq bilan muloqotda bo‘lishiga imkoniyat yaratuvchi Davlat Dumasi tarafdoridir (1.19).

Mahmudho‘ja Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullari haqida fikr yuritib, ularni uchga bo‘ladi.

1. Idorai mustaqalla (idorai mutlaqa – monarxiya).
2. Idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat).
3. Idorai jumhuriyat (Respublika).

Bularning har birini ta'riflar ekan, "hukumat, ilm va daroyat, qonun, musovot (tenglik), mashvarat (maslahat) va tadbirdur" degan xulosaga keladi.

Behbudiy Turkistonda musulmonlarning diniy va fuqarolik ishlari bilan shug'ullanadigan mahalliy boshqarma tuzish zarurligini ta'kidlaydi. Turkiston mahalliy boshqarmasi qozilar sudi, vaqf mulkini taqsimlash, maktab va madrasa masalalari va boshqa diniy va milliy muammolarni o'z qaramog'iga olishi kerak. Biz Turkiston musulmonlari uchun, deydi Behbudiy, diniy fuqarolik boshqarmasi suv va non kabi zarurdir, chunki busiz biz iymonimizni yo'qotamiz va falokatga giriftor bo'lamiz.

Ko'rinib turibdiki, Behbudiy ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot masalalarida mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, aholining asrlar mobaynida shakllangan urf-odatlari, madaniyati, diniy e'tiqodi asosida taraqqiy etish tarafdori bo'lgan. Bu yo'l dunyoning eng ilg'or davlatlari iqtisodiy va siyosiy qurilish dasturlari bilan birgalikda taraqqiyotga xizmat qilishi mumkin bo'lgan mahalliy o'ziga xosliklarni ham saqlab qolish, hamda uyg'unlashtirishni nazarda tutar edi. Behbudiy o'z davrining ijtimoiy illatlari – to'y va marosimlardagi dabdababozlik, dunyoviy ilm olishga e'tiborsizlik kabi illatlarni keskin qoralaydi. "Bu ketishni oxiri yamondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun" (2).

Behbudiy maqolalari va isloh loyixalarida bayon qilingan g'oyalar jadidlar harakatining asosiy dastur xujjatlari, xarakat ko'llanmasi sifatida xizmat qildi. 1917 yil fevral burjua demokratik inqilobi jadidlar tasavvurida dasturlarni amalga oshirish uchun imkoniyat paydo bo'lganligiga ishonch hosil qildi, milliy-ozodlik tuyg'ularining kuchayishiga olib keldi. O'lkadagi tub aholining siyosiy ongida va kurashida keskin o'zgarishlar sodir bo'lib, "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo" singari partiyalar tashkil topdi.

Behbudiy boshchiligidagi jadidlar Turkistonda Muxtoriyat ta'sis etilishini, moliya, adliya, boshqaruv, maorif va boshqa sohalarda mustaqillikni, matbuot erkinligini talab qildilar. Behbudiy Turkiston muxtoriyati qanday bo'lishini shunday tushuntiradi: "Muxtoriyat, biz Turkiston musulmonlari istaymizkim, Rossiya mamlakatiga yopishib turib, xorijiy va ishlarga aning ila bir bulib turib, daxil ishlar va tirikchiliklarimizni o'zimiz idora etsak. Besh viloyatdan iborat Turkistonning har bir shahar va uyezdidan bir necha nafardan-kishi saylanib Toshkentda katta markaz bir majlisimiz bulurki, barcha olur-soliq va minbad joriy bo'laturg'on qonun va nizomnomalarni alar tuzib Turkistonda joriy qiladilar. Rusiya xukumati ila musulmonlar orasinda shul majlis vosita bulur. O'zimizning muxofazatimiz uchun milliy jandarma, askarimiz bulur. Mamlakat

xazinasidan boshqa milliy va madaniy ishlarimizning masrafi uchun o‘zimizning alohida xazinamiz bo‘lur. Maktab va madrasalarimiz, vaqf va doril kazolarimiz o‘z qaramog‘imizda bo‘lur. Xulosa kalom davlat va siyosat ishlaridan boshqa barcha ishlarimiz o‘z ixtiyorimizda bo‘lur va buning uchun zamonaviy va madaniy nizomnoma va qonunnomalarni tahrir etmoq lozimdur. Turkistonda rus, yaxudiy, armani va boshqalar bo‘lib, alar ila muomalamiz to‘g‘risida yana yangi va zamonaviy qonunlar kerakdur”. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun Ta’sis majlisi oldida talablarni qat’iy qo‘yish zarur. Ta’sis majlisi ham o‘z ixtiyori bilan mustaqillikni bizga bermaydi. Biz, Turkiston musulmonlari, birlashib muxtoriyatni ta’sis majlisidan olmog‘imiz kerakdur. Biz jonsizlik ko‘rsatganda muxtoriyat agarda yuz sana so‘ngra bulsun, bizga berishmaydur. Afsuski, “Haq olinur, berilmas!”. 1917 yil avgust oyida “Kengash” gazetasida muxtoriyat loyixasi e’lon qilindi. Bu loyixani tuzishda Mahmudxo‘ja Behbudiy faol ishtirok qildi.

1917 yil, 26-28 noyabrda Qo‘qon shahrida Butunturkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi o‘tkazildi. Qurultoyda “Turkiston muxtoriyati” e’lon qilindi. Bu Turkiston mustaqilligini tiklashga qaratilgan kurashning dastlabki ifodasi edi.

Jadidlar qurultoyda faol ishtirok qildilar. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishiga o‘z xissasini qo‘shdilar. Maqola va murojaatnomalarda ular muxtoriyatni himoya qilishga chaqirdilar. Behbudiy Turkiston xalqiga murojaat qilib yozgan edi: “Turkiston xalqi ittifoq etsa qon to‘kilmas. Yeri va amloq ham taqsimlanmay qolur. Din ham rivoj topur. Butun Turkiston ittifoq 15 millionlik bir quvvat imloga kelurki, munga yer titraydur. Agar so‘zimni faximlata olgan bo‘lsam o‘zumni baxtlik hisoblardim”.

Shunday kilib, jadidlar o‘lkada milliy-ozodlik xarakatining kuchayishiga va uning mafkurasini yaratish ishiga o‘zlarinnng munosib ulushlarini qo‘shdilar. Jadidlar harakati xalqimizning milliy o‘zligini o‘sishiga ko‘maklashdi, milliy qoloqlik va mustamlakachilikdan qutulish muammolariga jamoatchilik diqqatini jalb qildi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. -T.: Ma’naviyat, 2006.
2. Maxmudxo‘ja Behbudiy. Ehtiyoji millat. “Samarqand” gazetasi, 1913-yil 12-iyul.

# JADIDLAR FALSAFASIDA BILISH NAZARIYASI VA MADANIY MEROS

***Ilhom Dilmurodov,***
*O'zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti*

**Tayanch so'z va iboralar:** gnoseologiya, epistemologiya, empirizm, ratsionalizm, persepsiya, apersepsiya, optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm, subyekt, obyekt, sezgi, idrok, tasavvur, tushuncha, hukm, xulosa, nisbiy haqiqat, mutlaq haqiqat, intuitsiya

Ma'lumki bilish nazariyasi falsafaning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyat va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uning amalga oshirishning eng samarali usullari tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi – "Gnoseologiya" vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo'yyadi. Xususan, XVII asr o'rtalarida yevropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy ilmdir, degan g'oyani olg'a surdilar.

XVII-XX asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida e'tibor berilgan bo'lsa jadid Munavvarqori Abdurashidxonovning falsafadagi bilish nazariyasi insonning bilim olish jarayonini, tafakkurini, va idrokini o'rganishga qaratilgan. Uning qarashlarida, bilish jarayoni insonning fikrlash va tushunish qobiliyati asosida rivojlanadi, va bilim faqat tashqi olamni idrok etish orqali emas, balki ichki aql va tafakkur yordamida ham shakllanadi. Bilim olishning ikki asosiy manbasi sifatida Munavvarqori: Hissiy tajriba – tashqi olam bilan bevosita muloqot qilish, uni idrok etish va o'zlashtirish; Aqliy tahlil va tafakkur – inson tafakkuri yordamida olamni tushunish va u haqida bilim hosil qilishni ajratib ko'rsatgan.

Munavvarqori inson aql-idroki orqali ilm olishni ma'naviy rivojlanishning muhim qismi deb biladi. U bilish jarayonini chuqurroq idrok etish uchun inson o'z tafakkurini va ruhiyatini rivojlantirishi kerak, deb hisoblagan. Shu tariqa,

bilim va ma’rifat insonni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi, deb ishonadi. Bu qarashlari bilan u o‘z davridagi o‘zbek ilm-fan va falsafasiga muhim hissa qo‘shgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z davrining ma’rifatparvar va islohotchi olimi bo‘lib, o‘zbek xalqini jaholat va qashshoqlikdan qutqarish, ularni ma’rifatga chorlash g‘oyalarini olg‘a surgan. Uning falsafasi xalqni ilm-ma’rifat bilan yuksaltirish, ma’naviy va madaniy rivojlanishga undash asosida qurilgan. Munavvarqori jadidchilik harakati yetakchilaridan biri sifatida ko‘plab islohotlar amalga oshirishga intilib, yangi usuldagi maktablar ochish, yangi darsliklar va adabiyotlar yaratishga katta e’tibor bergan. Munavvarqori inson ozodligi, erkin fikr va bilimning ahamiyatini ta’kidlagan. Uning fikricha, insonlar faqat ta’lim va tarbiya orqali ruhan va ma’nan yuksalishi mumkin. Shu sababli, u insonning bilim olishi va uning hayotini yaxshilash uchun ilm-ma’rifatni keng targ‘ib qilishni o‘ziga maqsad qilgan.

Munavvarqori o‘z falsafasida milliylik va ma’rifatparvarlikni uyg‘unlashtirgan holda xalqni ilg‘or fikrlashga undashga harakat qilgan. Uning fikricha, har bir millatning madaniy va ma’naviy boyliklari uning kelajagi uchun asos bo‘lishi kerak, shu bilan birga, global bilimlardan ham bahramand bo‘lish lozim. Shu tariqa Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z xalqini uyg‘onishga, o‘zini va o‘z madaniyatini qadrlashga chorlagan. Shuning uchun xam bu mutafakkirning madaniy merosi xozirgi kunda muxim axamiyatga egadir.

Jadidlar xarakatining namoyondalaridan biri hisoblangan Ismoilbek G‘aspirali borliq va mantiq masalalarini turkiy jamiyatlarda ilm va aql bilan rivojlanish g‘oyasi asosida tushuntirgan. U turkiy xalqlar zamonaviy dunyoda mustahkam o‘rin egallashi uchun diniy va an’anaviy cheklovlardan chiqib, ilm-fan yutuqlariga asoslangan aqlidrok va mantiqqa e’tibor berishlari zarurligiga ishongan.

G‘aspiralining borliq va mantiq haqidagi qarashlari quyidagicha ifodalangan: 1. Ilm-fanga asoslangan borliqni anglash: G‘aspirali jamiyat rivojida ilm-fan va texnologiyaning ahamiyatini kuchli e’tirof etgan va dunyoqarashni kengaytirish uchun ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga chorlardi. G‘aspirali zamonaviy ilm-fan orqali borliqni anglash, voqelikni tan olish, va undan oqilona foydalanish tarafdori edi.

Mantiqqa asoslangan jamiyat qurish: G‘aspirali mantiqiy fikrlash orqali insonlar orasida tushunish va hamjihatlikni kuchaytirish mumkin deb hisoblagan. U ta’limda mantiq va tafakkur metodlarini targ‘ib qilib, yosh avlodning ilmiy va mustaqil fikrlashiga katta ahamiyat bergan. Shunday qilib,

G‘aspirali borliq va mantiqni jamiyatni yangilashda asosiy vosita sifatida ko‘rgan. Madaniy va milliy qadriyatlarni ilmiy mantiq bilan uyg‘unlashtirish: U milliy va madaniy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy ilmlar orqali rivojlanishni qo‘llabquvvatlagan.

G‘aspirali qadimgi qadriyatlarni saqlash muhimligini ta’kidlash bilan birga, ularni zamon talablari va mantiqiy asoslar bilan uyg‘unlashtirishni taklif qilgan. U turkiy xalqlarga milliy o‘zligini saqlab qolgan holda, ilm va mantiq orqali yangicha dunyoqarash bilan rivojlanishni ta’lim bergan.

Aql-idrokni milliy uyg‘onish vositasi sifatida ko‘rish: G‘aspiralining falsafasida aqlidrok va ta’lim milliy uyg‘onishning asosiy poydevori edi. U borliqni anglash va uni mantiqiy tahlil qilish orqali milliy ong va o‘zlikni rivojlantirish mumkinligiga ishonchbildirgan. Shu sababli, uning falsafasi borliq va mantiqni milliy uyg‘onish, taraqqiyot va o‘zlikni mustahkamlashning markaziy tamoyillari sifatida ko‘rsatadi.

Ismoilbek G‘aspiralining borliq va mantiq haqidagi qarashlari jadidchilik harakatining falsafiy asosini tashkil etib, butun turkiy dunyoda ilm-fan, mantiqiy fikrlash va milliy o‘zlikni uyg‘otish uchun ulkan ahamiyat kasb etgan.Falsafaning fidoyilari yangi qaror topgan siyosiy tizimda yashash, ishlash va juda ko‘p sinovlardan o‘tishlari lozim bo‘ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko‘pchilikda esa marksizm g‘oyasining haqiqiy insonparvarligiga qat’iy ishonch shakllandi va shu bois, shu yo‘nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasi ta’siri bo‘lsada, o‘tgan asrda o‘zbek falsafasi to‘rt yo‘nalishda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o‘quv yurtlari falsafa bo‘limlari, O‘zbekiston falsafa jamiyati va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyatida namoyon bo‘ldi va olimlar o‘z falsafiy qarashlarida inson omilining ma’naviy ruhini ifoda eta oldilar.

Madaniy merosni o‘zlashtirish va xalqning milliy o‘zini o‘zi anglashini kuchaytirish – jadidlarning diqqat-markazida turgan eng muhim masalalardan edi. Ular o‘zlari nashr qilgan gazeta va jurnallarida o‘quvchilarga Turkiston xalqi qanday ulkan madaniy va ilmiy merosning vorisi ekanligini eslatdilar. Forobiy, Ibn Sino, Ulug‘bek - bular axir Markaziy Osiyodagi ijtimoiy va ilmiy islohotlarning asoschilaridir. Jadidlarning fikricha, ularning asarlarini o‘rganish o‘lka taraqqiyotini yuksaltiradi, xalqning o‘zini o‘zi anglashini kuchaytiradi. «Sharq va G‘arb» mavzusi - jadidlarning dunyoqarashini aniqlash bilan bog‘liq muhim masala hisoblanadi.

Jadidlar O‘rta Osiyoning G‘arbiy Yevropa bilan tarixiy aloqalarining bugungi kun bilan bog‘lab xulosalar chiqarishga moyil edilar. Ular haqli ravishda aynan islom madaniyati Yevropa uchun Aflotun va Arastuni qutqarib qoldi deb hisoblardilar, o‘zlarini esa ular falsafiy g‘oyalarining muxlislarigina emas, balki muayyan darajada ularning targ‘ibotchilari deb bilardilar. Chunonchi, M.Behbudiy - O.Kant, A.Fitrat - Sh.Senyobos, A.Avloniy - Aflotun, Suqrot va Arastularning merosi bilan qiziqdilar, ularning ma’rifat, ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qarashlariga asosiy e’tiborni qaratdilar. Shu bilan birga, ular marksistik falsafani xayoliy va turkistonliklar uchun yaroqsiz hisoblab, mutlaqo qabul qilmadilar.

M.Behbudiy o‘zining «Xayr - ul umuri avsatuho» maqolasida birinchi navbatda, xususiy mulkchilikni inkor qilgani va dinsizlikni targ‘ib etgani uchun marksizm va sotsializmga salbiy ta’rif beradi.

Taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan sabablar qatoriga jadidlar turkistonliklarning kundalik turmushida keng tarqalgan, aslida esa musulmonchilik qonun-qoidalariga yot, odamlarning shundoq ham yengil bo‘lmagan hayotini battar og‘irlashtiradigan keraksiz va zararli an’analar (ortiqcha rasm-rusumlar, dabdabali to‘y va dafn marosimlari)ni ham kiritadilar.

Demak xulosa sifatida kayd kiladigan bulsak jadid Munavvarqori Abdurashidxonovning falsafadagi bilish nazariyasi insonning bilim olish jarayonini, tafakkurini, va idrokini o‘rganishga qaratilgan. Uning qarashlarida, bilish jarayoni insonning fikrlash va tushunish qobiliyati asosida rivojlanadi, va bilim faqat tashqi olamni idrok etish orqali emas, balki ichki aql va tafakkur yordamida ham shakllanishini kayd etgan.

Shuningdek Munavvarqori: Hissiy tajriba – tashqi olam bilan bevosita muloqot qilish, uni idrok etish va o‘zlashtirish; Aqliy tahlil va tafakkur – inson tafakkuri yordamida olamni tushunish va u haqida bilim hosil qilishni ajratib ko‘rsatgan.

Uning xarakatdoshi Gaspirali mantiqiy fikrlash orqali insonlar orasida tushunish va hamjihatlikni kuchaytirish mumkin deb hisoblagan. U ta’limda mantiq va tafakkur metodlarini targ‘ib qilib, yosh avlodning ilmiy va mustaqil fikrlashiga katta ahamiyat bergan.

# СОВРЕМЕННОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ИДЕЙ В КОНТЕКСТЕ ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

***Ахмедова Шахризода Анваровна***
*Преподаватель-стажёр кафедры Политических наук*
*УзГУМ*

**Аннотация:** в статье рассматривается роль идей просветительства как значимого ресурса духовно-просветительского развития в условиях формирования «Нового Узбекистана». Проанализированы истоки просветительской традиции в западной и восточной философской мысли, а также её влияние на формирование ценностей, ориентированных на разум, образование и гуманизм. Особое внимание уделено актуализации просветительских идей в государственной идеологии, институциональной практике и образовательных инициативах. Отмечены ключевые вызовы – формализация, цифровое неравенство и разрыв между официальным дискурсом и общественным восприятием. Подчёркивается значимость синтеза национального наследия и универсальных ценностей, а также роль молодёжи и гражданского общества в продвижении культуры просвещения. Статья опирается на междисциплинарный подход, сочетающий политологический, культурологический и институциональный анализ.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, просветительство, духовно-просветительская деятельность, гуманизм, гражданская идентичность, национальное самосознание, государственная идеология, молодежь, цифровое неравенство, культурная политика.

Историко-философская традиция просветительства, оформившаяся как в западноевропейском, так и в восточном интеллектуальном пространстве, является важным ресурсом духовного развития общества. Классические идеи просветительства, основанные на признании разума, образования и гуманизма в качестве основ общественного прогресса, находят глубокие аналогии в трудах выдающихся мыслителей Востока.

Так, аль-Фараби рассматривал идеальное государство как форму реализации этических и рациональных начал, подчёркивая роль знания в достижении общественного блага [1]. Ибн Сина (Авиценна), опираясь на интеграцию философии и теологии, развивал представление о человеке как разумном и нравственном существе, способном к самосовершенствованию [2]. Улугбек и Беруни демонстрировали, как научное знание может стать основой культурного и политического развития [3].

В традиции Центральной Азии особенно значима фигура Алишера Навои, который сочетал суфийскую духовность с гуманистическим

идеалом служения обществу. Его творчество является не только литературным, но и просветительским наследием, сформировавшим представление о высоких нравственных ценностях как стержне общественного устройства [4].

В западной мысли XVIII века идеи Вольтера, Руссо, Дидро и Канта, как и восточное просвещение, были направлены на освобождение сознания от догматизма, утверждение свободы мысли и просвещения масс. Несмотря на различие культурных контекстов, как европейское, так и восточное просветительство исходили из стремления к формированию автономной, ответственной и морально развитой личности.

В новейшей истории Узбекистана просветительская традиция получила новое прочтение в рамках государственной идеологии обновления. Переосмысление духовного наследия стало важным элементом национального строительства, что особенно ярко проявляется в программных документах и научных инициативах, направленных на актуализацию наследия великих мыслителей Востока. В контексте стратегии «Новый Узбекистан» идеи просветительства стали не только предметом исторического анализа, но и инструментом формирования гражданской идентичности, духовной устойчивости и социального согласия [5].

В условиях формирования социально ориентированного государства, ориентированного на принципы справедливости, инклюзии и устойчивого развития, идеи просветительства в Узбекистане приобретают новое политико-культурное звучание. Просветительское наследие включается в стратегические рамки духовного обновления, где оно выступает не только как историко-культурный ресурс, но и как основа формирования современного мышления, гражданской зрелости и национального самосознания.

На уровне государственной идеологии инициативы, озвученные в концепции «Новый Узбекистан», отражают акцент на формирование нового поколения с высоким уровнем правовой, нравственной и культурной компетентности. Важным направлением стало развитие идеи «xalq ma’rifati» – народного просвещения, основанного на духовной преемственности и открытости к современным вызовам. Просветительская составляющая проявляется в таких приоритетах, как укрепление образовательной системы, развитие культуры чтения, воспитание

молодежи в духе уважения к национальной идентичности и универсальным гуманистическим ценностям [6].

Программные документы, такие как Государственная программа по реализации Стратегии развития «Узбекистан – 2030» [7], подчеркивают необходимость воспитания личности, способной к критическому мышлению, диалогу и гражданскому участию. Особенно важно, что в фокусе внимания находятся не только образовательные учреждения, но и институты духовности, культуры и средств массовой информации.

В этом контексте важную роль играют институциональные инициативы, направленные на интеграцию просветительской миссии в современную государственную и общественную систему. Среди них можно выделить деятельность Центра исламской цивилизации в Ташкенте, который занимается переосмыслением духовного наследия с опорой на научный подход и межкультурный диалог [8]. Академия наук Республики Узбекистан, Агентство по делам просвещения, Комитет по делам религий при Кабинете Министров активно участвуют в продвижении интеллектуальных ценностей, отвечающих задачам национального развития.

Особое внимание уделяется медийным и образовательным кампаниям, таким как движение «Kitobxonlik harakati», стимулирующее интерес молодежи к чтению и духовному саморазвитию. Поддержка проектов, ориентированных на распространение книг, популяризацию научного знания и повышение правовой культуры, свидетельствует о политической воле к формированию общества просвещённого выбора [9].

Таким образом, идеи просветительства в Новом Узбекистане обретают конкретные формы через институциональные усилия, культурные инициативы и образовательные реформы. Они служат фундаментом для укрепления национального самосознания, развития гражданской идентичности и устойчивого межкультурного взаимодействия.

Несмотря на позитивную динамику в сфере духовно-просветительской деятельности, сохраняются определённые вызовы, препятствующие полноценной реализации идей просветительства в современном Узбекистане. Прежде всего, это риск формализации и инструментализации просветительских инициатив, при котором духовное развитие подменяется декларативными мероприятиями без глубокой интеллектуальной проработки [10].

Наблюдается также разрыв между официальным дискурсом и восприятием просветительских ценностей в общественной среде, особенно среди молодёжи. В условиях стремительного развития цифровых технологий возникает новая проблема – цифровое неравенство, ограничивающее доступ к качественному гуманитарному знанию в отдельных регионах страны [11].

Однако данные вызовы могут быть преодолены при условии системного подхода к развитию гуманитарного образования, популяризации научного мышления и поддержке новых форм духовного лидерства – основанных на компетентности, открытости и социальной ответственности.

Особую роль в этом процессе играют молодёжные организации, гражданское общество и медиа. Их вовлечённость в распространение просветительских идей способствует формированию культуры осознанного гражданства, укреплению межпоколенческого диалога и обеспечению устойчивости национального духовного пространства [12].

**Заключение.** Таким образом, просветительские идеи продолжают играть ключевую роль в стратегии устойчивого духовного развития Узбекистана. Их современное осмысление в условиях «Нового Узбекистана» связано не только с возвращением к великому интеллектуальному наследию, но и с интеграцией этих ценностей в систему образования, культуры и гражданского участия.

Важным становится синтез национальных традиций с универсальными гуманистическими принципами – разум, справедливость, свобода мысли и социальная ответственность. Такая интеграция формирует базу для укрепления гражданской идентичности и развития диалога в поликультурном обществе.

В перспективе требуется дальнейшее расширение научной и общественной дискуссии, поддержка инициатив в области гуманитарных наук, а также активное участие молодёжи в продвижении культуры просвещения. Это позволит не только сохранить духовные ориентиры, но и придать устойчивость политико-культурным реформам в долгосрочной перспективе.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Аль-Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетельного города / Пер. с араб. М. Д. Дыннич. – Алматы: Ғылым, 1993. – 210 с.

2. Авиценна (Ибн Сина). Книга о душе / Пер. с араб. Е. Э. Бертельса. – М.: Наука, 1980. – 152 с.
3. Беруни Абу Райхан. Памятники минувших поколений. –Т.: Фан, 1998. – 528 с.
4. Навои А. Сборник избранных произведений. – Ташкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Т. 1. – 350 с.
5. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития нового Узбекистана. – Ташкент: «Uzbekiston», 2022. – 448 с.
6. Мирзиёев Ш.М. Новый Узбекистан – страна великой цели и великого будущего. – Ташкент: «Uzbekiston», 2021. – 400 с.
7. Oʻzbekiston – 2030 strategiyasini “Yil uchun yil” tamoyili asosida amalga oshirish boʻyicha 2023-yilga moʻljallangan Davlat dasturi. – T.: Adliya vazirligi nashriyoti, 2023. – 96 b.
8. Center for Islamic Civilization in Uzbekistan. Rasmiy sayt: https://islom.uz.
9. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va targʻib qilish choralari toʻgʻrisida. Prezident qarori PQ–5117-son, 2021-yil 14-may. // Lex.uz.
10. Мамасидиков Ш. Просвещение как ценность: вызовы и риски в эпоху глобализации // Журнал «Фалсафа ва ҳаёт». – 2022. – №1. – С. 45–49.
11. Каримов А.Ц. Информационное неравенство и цифровое отчуждение: вызовы для устойчивого развития // Журнал «Сиёсатшунослик илми». – 2023. – №2. – С. 27–33.
12. Исмаилова Г.Н. Гражданское общество и молодёжь в реализации духовно-просветительской политики // Общество и управление. – 2023. – №4. – С. 88–92.

## MA’RIFATCHILIK G‘OYALARI – YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH OMILI

***Dilafro‘z Eshankulova Alisherovna***
*O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika*
*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi*
***Abduraimova Charos Akramjon qizi***
*O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti,*
*Xalqaro munosabatlar*
*yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi Oʻzbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish va bu yoʻlda ma’rifatparvarlik g’oyalari, yuksak ma’naviyat egasi boʻlgan jadidlarimizning faoliyatlari nechogʻlik muhim ekanligi tahlil qilingan. Jumladan, bugungi kunda, rivojlanib borayotgan mustaqil davlatda yashar ekanmiz, asosiy e’tiborimizni ta’limni kuchaytirishga

qaratishimiz zarur. Zamonaviy raqobatda eng kuchli qurol bilimdir. Shuningdek, Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi biz uchun poydevor bo‘lishi lozim.

**Kalit so‘zlar:** Ma’rifat, Milliy ziyolilar, Turkiston, chor Rossiyasi, jadidchilik harakati, feodal tarqoqlik, yangi usul maktablari, sho‘ro hukumati, mustamlakachi davlat,

*“Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan uyg‘un va hamohangdir”*
Sh.M.Mirziyoyev.

Bugungi kunga kelib ma’naviy sohadagi voqelik, jarayonlarni yangi bosqichga ko‘tarish va yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevorini qo‘yish zarurati muhim hisoblanadi. Biz qaltis ma’naviy tahdidlar zamonida yashamoqdamiz, hamma zamonlarda ham bunday harakatlar bo‘lgan, lekin butun dunyo hali ma’naviy tahdid borasida bu qadar katta ko‘lamli bosqinni guvohi bo‘lmagan. Shuningdek, ta’limda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish jarayoni mustaqil O‘zbekistonning milliy shart-sharoitlarini to‘la aks ettirishi muhim deb qaralmoqda. Aholiga mustaqillik bergan imkoniyatlarni, Ajdodlarimizning bir umrlik orzularini ro‘yobga chiqarish, oldimizda paydo bo‘layotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, Ajdodlarimizning ma’rifat yo‘lida bekorga fidoyi ketmaganligini isbotlash va ularning davomchisi bo‘lishimiz uchun ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish jarayonida ma’rifatparvarlik muhimdir.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi davlatni barpo etishda birga bel bog‘lar ekanmiz, avvalo bu yo‘lda bizga meros bo‘lgan milliy g‘oyalarni keng targ‘ib qilishimiz lozim.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida shunday deydilar: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”[1].

Jumladan, Insoniyatning bir jamiyatdan, ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan, ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kishilari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadilar.

Ma’rifat – ma’naviy qaramlik, qo‘rquvni bartaraf etadi, insonga ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxshida etadi. Ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini, xalqning ma’rifiy uyg‘oqligida deb biladilar va ma’rifat uchun kurashadilar.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni ta’lim muassasalarida tashkil etish tizimi faqatgina mustaqillik davri bilan yuzaga kelgan emas. Buning tarixi yaqin o‘tmishga borib taqaladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ma’rifiy ishlarda keskin yangilanish joriy etilishi zaruriyatga aylandi. Bir tomondan chor Rossiyasi bosqini, ikkinchi tomondan samarasiz eski ta’lim yangi jadid maktablarini yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Jadidchilik ma’rifatparvarlik g‘oyalarining yuqori bosqichi bo‘lib, uning namoyondalari mamlakatni feodal tarqoqlikdan chiqarish, mustaqillikka erishish, yangi usul maktablarini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, gazeta va jurnallar chop etish, o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish kabi ulkan g‘oyalarni o‘z oldiga masad qilib olgan edi. Milliy ziyolilarning o‘zagini tashkil etuvchi jadidchilikning ko‘zga ko‘ringan namoyondalari – Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Ishoqxonto‘ra Ibrat kabilar harakatning yetakchilari edilar[2].

Yana bir muhim jihat shuki, Jadid namoyondalarining asosiy qismini talaba yoshlar tashkil etgan. Ular ham Sharq, ham G‘arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o‘qidilar va o‘zlarini ham shunga da’vat etdilar. Jadidlar xorijga chiqib turli mamlakatlardagi ta’lim va madaniyat taraqqiyoti darajasini ko‘ra oldilar, ularni solishtirdilar va yuragida shijoati bor ushbu talaba yoshlar jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish va birinchi bosqichda ta’limni isloh etish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib olishdi. Ular bu islohotlarni amalga oshirishda yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o‘quv zallar ochib, darsliklar yozib, o‘z g‘oyalarini haqiqiy maqsadga aylantirishda katta kuch sarfladilar. Ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki jadid maktablari 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Andijonda Shamsiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar tomonidan tashkil etilgan[3]. Jadidchilik harakatining yirik namoyondalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar, jumladan Abdulla Avloniyning “Birinchi Muallim” va “Ikkinchi Muallim” darsliklari alohida e’tiborga molikdir.

Shuningdek, Abdulla Avloniy o‘z asarlarida millatning turmush tarzi, uning dunyoqarashi hamda madaniyatining darajasini ifoda qilib, shu davrdagi milliy ruhiyatning nechog‘lik nochor bo‘lganligini ifodalab beradi. Jumladan u

shunday yozadi: "….Ehtimol, bizning xalq ilmu ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rar, deb o'ylaydurg'ondursan? Yo'q, bu fikring yonglish… Eshonlarimiz toat va ibodat, pandu nasihat, zikru tasbeh o'rniga to'ylarida to'n kiyub ko'p oshab, ko'p uxlashni yaxshi ko'rurlar. Ulamolarimiz darsu ta'lim o'rnig'a, bir-birilari ila o'rin talashib mukarrir va mudarris bo'lishni, o'zlari bo'lalmay qolsalar, eshikma-eshik yurub saylovlani buzushni yaxshi ko'rurlar. Boylarimiz orqa-o'nglariga qaramasdan, foyda va zararlarini oyirmasdan bir-birlarig'a raqobat qilaman, deb "bonka" va "kridit"larni ko'payturub, do'ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning bukib-sinishini yaxshi ko'rurlar. Ammo men bo'lsam, hozirgi zamonda indamasdan turushni yaxshi ko'rurman"[4].

Agar Abdulla Avloniyning aytganlarini tahlil qiladigan bo'lsak, o'sha davrda millatning g'ayriaxloqiy ruhiy holati bilan bog'liq barcha illatlar ochib berilgan va hozirgi zamonda bo'layotgan ayrim voqea hodisalar ham bundan mustasno emas.

Shuningdek, o'zbek romanchiligiga asos solgan Abdulla Qodiriyning ma'rifatparvarlik yo'lida o'z jonini o'rtaga tikib bo'lsada, xalqni bu qoloqlikdan olib chiqishga undagan sa'y-harakatlari, ayrim iymoniga pand bergan shaxslarning o'z tomiriga o'zi bolta urushiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, "Biz haqiqatni hayotdan oldik. Hammadan ilgari shaxs o'zini tanisin. Zero, o'zini bilmagan – o'zgani bilmas so'zi, turmush onasining dard chekib tug'gan to'ng'ich o'g'lidir" deydi Abdulla Qodiriy.

Shuningdek, Jadidlar o'z oldiga qo'ygan maqsadlari yo'lida jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, mustaqillik uchun kurash olib bordi. Ammo milliy istiqlol uchun kurash yo'llari va shu yo'ldagi maqsad mushtaraklikda bo'lgan emas. Birovning joni evaziga o'z jonini asrab qolishga uringan, bir yoqadan bosh chiqarmay, sho'ro hukumatiga og'ib ketgan shaxslarning savodsizligi, savodlilarining ham "och qornim - tinch qulog'im" deya harakat qilmaganligi ma'rifatparvarlik yo'lida millatni yuksaltirmoqchi bo'lgan Jadidlarimizning bu yo'lda fidoyi ketishiga sabab bo'lgan.

Bundan tashqari, millatning yuksalishini va bu millatdan ziyoli shaxslarning yetishib chiqishini istamagan mustamlakachi davlatning maqsadi xalqning milliy g'ururi, uning dunyoqarashini, ongini paymol qilish bilan belgilangan. Shuningdek, millat tarixida ulkan shaxsiyatlarning namoyon bo'lishi, zaminning va insoniyatning ulkan yutuqlaridan biridir. Biz bunday yutuqlarni qo'limizdan boy berdik, ammo bu kabi yutuqlarni shakllantirish o'z qo'limizdadir. Ta'limda ma'rifatparvarlikni kuchaytirish lozim bo'lsa, yuksak

ma’naviyat sohibi jadidlarimizning tutgan yo‘li va ularning faoliyatini davom ettirishimiz ahamiyatga molikdir. Qolaversa, ilm yo‘lida safarbar etilgan har bir qadamda katta natijalar, vatan taraqqiyotining yanada mustahkamlanishi, kelajagimiz uchun maqsadli harakatlar amalga oshadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir., 19-yanvar 2021. https://president.uz/oz/lists/view/4089.
2. Solieva Lobar Rasulovna (2023). Features of the use of innovative educational technologies in improving the modern education system of Uzbekistan. World Bulletin of Social Science. – pp.144-147.
3. Turkistonda usuli jadid maktablarini tashkil etish. https://cyberleninka.ru/article/n/turkistonda-usuli-jadid-maktablarini-tashkil-etish-masalalari/pdf.
4. Avloniy A. Tanlangan asarlar 1, 2 jildlar. –T.: Ma’naviyat, 1998.


# JADID ADABIYOTI ORQALI YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH


***Gulnoza Xushmatova Norqulovna,***
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*
*Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*



**Annotatsiya:** Jadidlar harakati o‘tgan asr boshlarida O‘rta Osiyoda milliy uyg‘onish, ta‘lim va ma‘naviy rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida namoyon bo‘ldi. Ularning ilg‘or g‘oyalari bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik, milliy ong va istiqlol g‘oyalarini ilgari surish borasidagi faoliyati hozirgi yosh avlodning ma’naviy kamolotini shakllantirishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada jadidlarning tarbiyaviy qarashlari, ularning yosh avlodga bo‘lgan ta’siri hamda bugungi kundagi dolzarbligi ilmiy tahlil qilinadi



**Kalit so‘z:** Jadidlar, vatanparvarlik, ma’naviyat, milliy uyg’onish ,ta’lim, milliy ong, ma’rifatparvarlik, istiqlol, yoshlar tarbiyasi


**Kirish:** Tarixiy taraqqiyot davomida har bir xalq o‘z yosh avlodini milliy ruhda, Vatanga sadoqatli, jonkuyar shaxslar etib tarbiyalashga intilgan. Turkiston hududida XX asr boshlarida paydo bo‘lgan jadidchilik harakati ham ana shu milliy uyg‘onish va ma’naviy tiklanish ehtiyojining mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Jadidlar tomonidan yaratilgan adabiy meros bugungi kunda ham o‘z

ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ulkan imkoniyatlarga egadir.

Jadidchilik harakati –Jadidchilik (arabcha: جديد *jadīd* – yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston bilimdonlari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Dastlabki jadidchilik harakatlari XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan.

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta’rif berilgan [1]. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. Turkiston tarixida ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy uyg‘onish davri sifatida alohida o‘rin tutadi. Bu harakat vakillarining adabiy merosi nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kunda ham yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, ma’rifat va erkin fikrlash ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar.

Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi:yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Jadidlar adabiyoti o‘z ichiga quyidagi asosiy tamoyillarni oladi:

- milliy uyg‘onish va mustaqil tafakkur;
- ilm-fan va ta’lim-tarbiyaga e’tibor;

- diniy-ekstremistik fikrlardan uzoqlashish;
- jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurash;
- vatan va xalqga sadoqat ruhini targ‘ib qilish.

Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho‘lpon, Fitrat kabi ijodkorlar o‘z asarlarida yoshlar qalbida vatan sevgisini uyg‘otish, ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishga chaqirganlar.

Jadid adabiyoti ijtimoiy uyg‘onish, milliy tafakkur va zamonaviylik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan. Jadidlar ijodida Vatanga muhabbat, xalq taqdiri, istiqlol, taraqqiyot va milliy o‘zlikka sadoqat asosiy motivlar sifatida ilgari suriladi. Jumladan**,** Abdulla Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday deydi:

*“Kimki vatan sevmagay, imon yo‘q anda”[2]* – bu satr yosh ongida vatanni sevish diniy, axloqiy va insoniy burch sifatida shakllantirilishini ko‘rsatadi. Jadidchilar ushbu misralar orqali xalq ogohligini, istiqlolga intilish va milliy ozodlik g‘oyalarini badiiy ifodalaganlar.

-Vatanni ona sifatida tasvirlash (Avloniy: “Kimki vatan sevmagay, imon yo‘q anda”).

-Xalq ogohligini uyg‘otishga qaratilgan dramatik sahnalar (Fitrat: “Hind ixtilolchilari”)

-Vatansiz hayotning ma’nosizligi haqidagi falsafiy mulohazalar (Cho‘lpon: “Kechayotgan kunlar”)

Bu asarlar orqali yoshlar vatan haqidagi badiiy obrazlar vositasida milliy g‘urur, fidoyilik va mas’uliyat tuyg‘usini anglaydilar. Jadid adabiyotini yoshlar tarbiyasida qo‘llash turli usullarda olib boriladi:

Badiiy tahlil orqali yoshlarni tarbiyalash asarlarni tahlil qilish orqali g‘oyaviy-estetik anglashni shakllantiriadi. O‘quvchilar bilan jadid asarlarining mazmuniy va g‘oyaviy jihatlarini tahlil qilish, asosiy obrazlar orqali g‘oya ochib beriladi.

Jadid asarlarini zamonaviy asarlar bilan solishtirib tahlil qilish zamonaviy yozuvchilar (masalan, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov) bilan taqqoslab o‘rganish orqali yoshlar tarixiy izchillikni anglaydilar. Rol o‘ynash (dramatizatsiya) jadid dramalarini sahnalashtirish orqali yoshlarda amaliy anglashni kuchaytiradi. Fitrat yoki Cho‘lponning dramalarini sahnalarda sahnalashtirish orqali yoshlar faol ishtirokchi sifatida vatanparvarlik ruhini amalda his etadilar. Insho va erkin fikr yozish bilan asar mazmunidan kelib chiqib, talabalarda vatan haqidagi shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish. Asarlar asosida “Vatan nima?”, “Mening fidoyiligim nimada?” kabi savollarga yoshlar

mustaqil munosabat bildiradilar. Bu usul o‘z fikrini erkin va asosli ifoda etish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida jadidlar merosi maktab va OTMlarda adabiyot, tarix, madaniyatshunoslik fanlari doirasida o‘rganiladi. Shu bilan birga, vatanparvarlik darslarini boyitishda jadid asarlaridan parcha o‘qish, ularni konseptual tahlil qilish va zamonaviy g‘oyalar bilan bog‘lash samarador hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar turli mafkuraviy oqimlar ta’siriga ochiq. Shunday sharoitda jadidlar asarlaridagi milliy ruh, tarixiy xotira va ma’naviy ustuvorlik g‘oyalari yoshlarni mafkuraviy immunitetli qilib tarbiyalashda muhim omil bo‘la oladi. Ayni vaqtda, davlat siyosatida ham yoshlar ma’naviy tarbiyasi masalasi ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Shunday sharoitda jadidlar merosi ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi – tarbiyaviy ishlarning samarasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyoti – bu nafaqat badiiy meros, balki yosh avlodni vatanparvarlik, milliy o‘zlik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida kamol toptirish vositasi hamdir.

Jadidlarning badiiy g‘oyalari o‘tmish va bugunni bog‘lovchi ma’naviy ko‘prik sifatida xizmat qiladi. Tarbiyaviy metodlar orqali bu merosdan zamonaviy sharoitda foydalanish – mustaqil tafakkurga ega, fidoyi va ongli yoshlarni tarbiyalashda muhim zamin yaratadi.Jadid adabiyoti bugungi kun yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun kuchli g‘oyaviy va estetik zamin yaratadi. Bu adabiy meros o‘tmishdagi ijtimoiy uyg‘onish ruhini zamonaviy ong bilan bog‘lab, yoshlarni faol fuqarolik, milliy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy mas’uliyat ruhida yetuk qilib tarbiyalash imkonini beradi. Maqsad – jadidlar kabi fikrlay oladigan, o‘z milliy ildizlariga sodiq, lekin zamonaviy tafakkurga ega yosh avlodni tarbiyalashdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik.
**2.** Avloniy, A. (1913). Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: Jadid nashriyoti.

# MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA IJODI, UNING ILMIY-SIYOSIY FAOLIYATI

***Humoyiddin Yoqubov***
*O’zDJTU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodi, uning ilmiy-siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo‘lib, O‘zbekistonda ma’rifatchilik g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Uning adabiy merosi, jurnalistika va noshirlik faoliyati, shuningdek, siyosiy qarashlari millat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Maqolada Behbudiyning ilg‘or g‘oyalari, ta’limda amalga oshirilgan islohotlari va ijtimoiy-siyosiy faolligi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ma’rifatchilik, milliy uyg‘onish, ta’lim islohoti, jurnalistika, noshirlik, siyosiy faoliyat, adabiy meros, O‘zbekiston tarixi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri kelgan milliy uyg‘onish davrining adabiy jarayonlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, shu davrda faoliyat yuritgan ma’rifatparvar ijodkorlar, xususan, Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlari orqali jamiyatni taraqqiyot, madaniyat va ilm-ma’rifat sari yetaklashga intilgan. Uning maqolalari keng qamrovli bo‘lib, unda ko‘tarilgan asosiy mavzular chuqur tahlilga loyiqdir [2].

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadid adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri bo‘lib, asarlarida diniy va milliy masalalarni atroflicha yoritgan. U atigi 24 yoshida Haj safariga borib, muftiylik maqomiga sazovor bo‘lgan. Bu muqaddas safar uning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatib, ilm va ma’rifatga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirgan. Safardan qaytgach, u kuzatishlari va orttirgan tajribalarini maqola tarzida matbuotda chop eta boshlaydi.

XX asr boshlarida eng e’tiborli publitsistlardan biriga aylangan Behbudiy nafaqat o‘z ijodi, balki “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini nashr etish orqali ham ijtimoiy fikrga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlari faqatgina O‘rta Osiyoda emas, balki Yevropaning ba’zi mamlakatlarida ham o‘qilgan. Behbudiy o‘z faoliyatida milliy ozodlik, Vatan taraqqiyoti va yoshlarga ta’lim berish masalalarini markaziy o‘ringa qo‘ygan. Rossiya imperiyasi tomonidan qo‘yilgan cheklovlarga qaramasdan, u o‘z g‘oyalarini jasorat bilan ilgari surgan. Uning yozgan maqolalari turli mavzularni qamrab olib, ayniqsa, diniy savodxonlikni

oshirishga qaratilgan asarlari jamiyatni ma’rifatga yetaklashda muhim rol o‘ynagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy qalamiga mansub muhim maqolalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yozilgan muhim maqolalardan biri “Qur’oni karim tarixiga bir nazar” deb nomlanadi. Unda Qur’oni karimning Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga qanday nozil qilingani hamda xalifalar davrida u qanday qilib kitob holiga keltirilgani batafsil yoritilgan. Ushbu maqola orqali Behbudiy nafaqat Qur’on ilmini chuqur bilganini, balki diniy masalalarga keng va chuqur yondashganini ham namoyon etadi. Jadidshunos olim Begali Qosimovning fikricha, Behbudiy o‘z davrida Turkiston xalqi orzu-umidlarining yorqin ifodachisi bo‘lgan. U ijtimoiy-siyosiy harakatlarda faol ishtirok etib, yangi davr o‘zbek madaniyatining poydevorini yaratgan arboblardan biri sifatida tarixda o‘z izini qoldirgan.

Behbudiy jadidchilik harakatining peshvosi, milliy mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi, yangi ta’lim tizimi bo‘yicha nazariy hamda amaliy ish olib borgan ilg‘or mutafakkir edi. Shuningdek, u o‘zbek sahna san’ati asoschilaridan biri, teatr ishlarini yo‘lga qo‘ygan tashkilotchi, nashriyotchi va jurnalist sifatida ham faoliyat yuritgan. Davlat arbobi Fayzulla Xo‘jaev ham Behbudiy haqida iliq fikr bildirgan bo‘lib, uni keng qamrovli publitsist, yozuvchi, pedagog va siyosiy arbob sifatida e’tirof etgan. Behbudiy butun faoliyatida milliy manfaatlarni doimo birinchi o‘ringa qo‘ygan [1].

Behbudiyning ustozlaridan biri bo‘lgan Ismoilbek Gasprinskiy 1895-yilda yozgan “G‘oya” deb maqolasida barcha buyuk tarixiy voqealar o‘z negizida muayyan g‘oyaga asoslanadi degan fi krni ilgari surdi. Masalan, islom g‘oyasi bir guruh arablarni dunyoning yarmini birlashtirgan qudratli kuchga aylantirdi, Moskva markaziga to‘plangan birlik g‘oyasi esa Rossiya imperiyasining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Xuddi shuningdek, tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuz millatini Yevropada yetakchi kuchga aylantirdi.

Behbudiy ham o‘z davrining fidoyi, ma’rifatparvar va jasoratli insoni edi. U o‘ta nozik va tahlikali sharoitda yashaganiga qaramay, o‘z fi krlarini ochiq bayon etishdan qo‘rqmagan. Ayniqsa, diniy va milliy masalalar bo‘yicha yozgan maqolalarida chor Rossiya hukumatining e’tiborini jalb etadigan keskin fi krlar bildirishdan cho‘chimagan. Uning publitsistik faoliyati Behbudiyning yorqin qirralaridan biri bo‘lib, u har qanday masalani aniq, tushunarli va ravon tilda bayon eta olgan. “Qur’oni karim tarixiga bir nazar” maqolasida esa u “Asl din mana shu edi”, “Dinimizning asosi Qur’oni karimdir” kabi iboralar orqali

islomning buyukligini va ahamiyatini ta’kidlagan, shu orqali o‘z qarashlarini ochiq-oydin bayon qilgan.

Behbudiy o‘z maqolalari orqali xalqning diniy dunyoqarashini kengaytirish va mustahkamlashga intilgan. U islomning mohiyatini ilmiy va mantiqiy asoslar bilan tushuntirib, jamiyatni ma’rifatga chorlagan. Uning diniy ilmlarni chuqur o‘rganib, o‘z qarashlarini dadil ifoda etishi tufayli bugungi kunda bizga juda ko‘plab qimmatli bilimlar yetib kelgan. Behbudiyning ma’rifatparvarlik ruhidagi bu jasorati milliy uyg‘onish davrining eng yuksak tamoyillaridan biri sifatida qadrlanadi [3].

Mahmudxo‘ja Behbudiy nihoyatda murakkab va sinovlarga to‘la davrda yashab, ijod qilgan yirik mutafakkirlardan biri sanaladi. U hayoti haqida shaxsiy tarjimai hol yozib qoldirmagan bo‘lsa-da, zamondoshlari va shogirdlari – Xoji Muyin, Said Rizo Alizoda, Sadriddin Ayniy hamda Vadud Mahmud kabi ziyolilar o‘z davrining matbuot nashrlarida va xotiralarida Behbudiyning hayoti haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirishgan. Ushbu manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, uning hayoti nihoyatda og‘ir va mashaqqatli kechgan. U turli tarafl ardan bosimga uchragan: bir tomondan, chor Rossiyasi ma’murlarining doimiy nazorati ostida bo‘lgan, boshqa tomondan, savodsiz diniy arboblar uning islohotchilik faoliyatini yoqtirmay, uni kofi rlikda ayblashgan.

Shuningdek, bolsheviklar hukumatining ta’siri ham unga qattiq zarba bergan, Buxoro amiri esa uni o‘zining shaxsiy dushmani deb e’lon qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ikki marotaba “o‘ldirilgan” deyish mumkin. Birinchi marta u 1919 yilda Buxoro amirining josuslari tomonidan qatl etilgan. O‘sha davr matbuoti bu hodisaga keng e’tibor qaratib, Behbudiy xotirasiga bag‘ishlangan ta’ziyalar e’lon qilgan, hatto Qarshi shahriga uning nomi berilgan edi. Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon va Vadud Mahmud singari adiblar unga bag‘ishlab marsiyalar yozgan. Ikkinchi bor esa sho‘ro davrida uni ruhan yo‘q qilishgan – Behbudiy “xalq dushmani” sifatida e’lon qilinib, bu tamg‘a deyarli 30-40 yil davomida uning nomini tilga olishni man etgan. O‘sha murakkab davrlarda ham jasoratli ma’rifatparvar olimlar va vatanparvar jadidlar uning hayoti va ijodini o‘rganishdan to‘xtamaganlar.

Ma’rifatparvar mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiyning jamiyat hayotidagi ulkan xizmatlarini ta’rifl ashda uni jahon ma’rifatparvarlari qatoriga qo‘shish mumkin. Xususan, Behbudiyni fransuz ma’rifatparvari Jan Jak Russo, rus olimlari Lomonosov, Fonvizin, Chernishevskiy, Kavkaz turklarining Fatali

va Najafbeklari, shuningdek, tatar ziyolilari Marjoniy va Nosiriy bilan teng qo‘yish mumkin [4].

Zamondoshlari Behbudiyni milliy uyg‘onish yo‘lida muhim qadam tashlagan shaxs sifatida e’tirof etishgan. Laziz Azizzoda unga “O‘zbek milliy adabiyotining yangi bosqichi Behbudiy bilan boshlanadi” deb baho bergan. Unga ko‘ra, Behbudiy Turkistonni, eng avvalo, chor hukumatining zulmidan ozod qilish g‘oyasini targ‘ib qilgan fi doyi jadidlardan edi. Akademik Naim Karimov ham uni milliy uyg‘onish harakatining asoschilaridan biri sifatida ta’riflab, “XX asr boshlarida millat taqdirini o‘ylagan eng fi doyi jadidlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy edi”, deydi.

Adabiyotshunos Xalim Saidning fikricha, Behbudiyning asosiy maqsadi Turkistonni mustamlakachilikdan ozod qilish va shu ozod yurtni boshqarishga qodir bo‘lgan siyosatchilar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, fidoyi olimlar va madaniyatli fuqarolarni yetishtirish edi. Uning Imperator vakili graf Pallenga taqdim etilgan talabnomasi ham Turkiston mustaqilligi g‘oyasiga sodiqligini ko‘rsatadi. Unda Behbudiy shunday deydi: “Bovurlar! Bilingki, Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e’lon qilindi va haq olinur - berilmas! Ya’ni, Turkiston farzandlari birlashib, g‘ayrat ila ozodlikni qo‘lga kiritishi lozim. Bu ularga kimdir tomonidan hadya qilinmaydi.” Bu so‘zlar uning Turkiston istiqloli va ma’rifati yo‘lida fi doyilik bilan xizmat qilgan ulug‘ siymolardan biri ekanligini yana bir bor isbotlaydi [5].

Jadid bobolarimiz, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning boy ma’naviy merosi biz uchun bebaho xazinadir. Quvonarlisi shundaki, bugungi yoshlar va olimlar ushbu merosni chuqur o‘rganishga qiziqish bildirmoqda. Ilmiy tadqiqotlar, diplom va doktorlik dissertatsiyalari natijasida jadidlarning hayoti va ijodiga oid yangi ma’lumotlar kashf etilmoqda. Ushbu tadqiqotlar jadidchilik harakatini ommalashtirish va uning ahamiyatini yoritishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, davlatimiz tomonidan ham jadidchilik harakatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev qaroriga binoan ma’rifatparvar jadidlar – Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidov va Mahmudxo‘ja Behbudiy “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida ularga bag‘ishlangan haykallar o‘rnatildi. Shuningdek, Samarqand shahrida “Mahmudxo‘ja Behbudiy” uy-muzeyi tashkil etildi.

Jadidchilik harakatining ahamiyatini keng targ‘ib qilish maqsadida xalqaro anjumanlar va badiiy kechalar muntazam ravishda o‘tkazilmoqda. Bularning

barchasi jadid bobolarimizning xalqimiz oldidagi beqiyos xizmatlariga ehtirom sifatida amalga oshirilmoqda.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Kholikova, N.D. (2020). The genesis and poetic evolution of the character Shirin. Alisher Navoi and the XXI century.
2. Qosimov B. (1990). Behbudiy va jadidchilik. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati (01.26).
3. Kholikova, N. (2020). Poetic features of Uzbek poetry of the national awakening period. Theoretical & Applied Science, (4), 615-623.
4. Behbudiy M. (2018). Tanlangan asarlar. II-jild. Akademnashr. -B. 49.
5. Sog‘uniy A. (2020). Tarixi Muxammadiy. Movarounnahr. -B. 350.


# SAKKOKIY G‘AZALIYOTIDA SHAM’ VA PARVONA OBRAZI


***Turdiyeva Shodiya Xusniddin qizi*,**
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti*
*kichik ilmiy xodim*



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mutafakkir shoir Sakkokiy asarida istifoda etilgan sham’ va parvona obrazlari, ularning mazmuni haqida bahs yuritiladi. Bu obrazlarning mohiyati, tasavvufiy ma’nolari tahlil qilinadi. Maqolada Sakkokiyning baytlari tahlilga tortiladi. Parvonaning sham’ga intilishi va bu o‘tda kuyishi chin oshiqning timsoli sifatida tahlil qilinadi. Sharq mumtoz adabiyotida parvonaning bulbuldan ustun qo‘yiladi. Shoir sham’ va parvona obrazlarini ma’noviy qatlamlarini yanada boyitgani va ulardan unumli foydalanganligi haqida mulohaza yuritiladi.



**Tayanch so‘zlar:** sham’, parvona, obraz, tasavvuf, oshiq, ishq, yor, raqib, timsol, tashbeh, mubolag‘a.


Sharq mumtoz adabiyotida poetik obraz alohida ahamiyatga ega. Badiiy obraz – adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. [1]

Shuning uchun ham shoirlar o‘zlari istifoda etgan obrazlarga alohida ahamiyat berganlar. Obrazning barcha qirralarini ochib berishga, ularni turli rakurslardan tasvirlashga harakat qilganlar. Obraz haqida Sayfiddin Rafiddinov ham o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida to‘xtalib o‘tadi: “Obraz san’at va adabiyotning o‘ziga xos bir kategoriyasi… Obraz va obrazlilik har bir badiiy asarning qoni, eng muhim xususiyati hisoblanadi.” [2] Har bir obraz muayyan fikrni ifodalash uchun xizmat qilgan. Xususan, gul, bulbul, oshiq, ma’shuq, yor, ag‘yor, raqib, sham’, parvona, murid, murshid, oy, quyosh kabi obrazlar ishqiy mavzularni tasvirlashda foydalanilgan. Bu obrazlardan sham’ va parvona

obrazlari ilohiy ishqni tasvirlash uchun foydalanilgan. Bu obrazlarning ma’noviy qatlamlari ko‘p bo‘lib, shoirlar ularni turli ma’nolarda qo‘llaganlar.

Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, tasavvuf adabiyotining muhim vakillaridan biri bo‘lgan Sakkokiy o‘zining asarlari bilan bu davr adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan.

Shoir ko‘plab obrazlar qatori sham’ va parvona obrazlarining ma’noviy qatlamlaridan unumli foydalangan. Ijodkor sham’, parvona obrazlarini go‘zal tashbehlar bilan ziynatlab, bebaho satrlar yaratadi. Shoirning salaflari ijodida bu obrazlar asosan oshiq va ma’shuq, mehr-muhabbat, murid, murshid, jism kabi qator ma’nolarda qo‘llanilgan. Sakkokiyning ijodida ham bunday ma’nolar mavjud. Qolaversa, uning ma’no qatlamlarini yanada boyitganini ham ko‘rish mumkin. Shoir ijodida bu obrazlar o‘zining ahamiyatiga ega. Ular juda faol qo‘llanilmagan bo‘lsa ham, Sakkokiy istifoda etgan obrazlar orasida o‘zining o‘rniga ega.

Shoir parvona obrazini o‘t bilan birga qo‘llab muhabbatning naqadar kuchli tuyg‘u ekanligini tasvirlashga harakat qiladi:

Yuzung xayoli ko‘ngulga tegurdi parvona,
Kim ul muhabbat o‘ti ichra jon bila yona.[3]

Sening yuzingning xayoli ko‘nglimga tekkan (kelgan) parvona, kim muhabbat o‘tida jon bilan birga yonadi. Oshiq muhabbat o‘tida misoli parvona kabi yonadi. U jonidan, butun borlig‘idan yor uchun voz kechadi. Hatto ko‘ngliga kelgan yor yuzining hayoli ham uni parvonaga aylantiradi.

Shoir boshqa bir g‘azalida esa sham’ obrazidan mahorat bilan foydalanadi. Shoir sham’, gul va oy obrazlari orqali yorning naqadar go‘zalligini tasvirlaydi:

Gul g‘uncha bo‘lur ko‘rsa yuzini chaman ichra,
Titrar ko‘rub oy elni sham’ anjuman ichra. [4]

Yorni chaman ichra ko‘rsa gul g‘uncha bo‘ladi. Misoli anjuman ichra sham’ni ko‘rib oy titragani kabi. Baytda sham’ va oy bir-biriga qarama-qarshi qo‘llaniladi. Yor sham’ga o‘xshatiladi va oydan ustun qo‘yiladi. Bu esa anjumanda sham’ni ko‘rib oy titrar tasviridan ham anglashiladi.

G‘azalning boshqa bir baytida ham sham’ obrazi qo‘llaniladi:

Yuzung bila lof urg‘ali kun lobda uyolg‘oy,
Sham’e erur ul g‘oyati (y)er-ko‘k lakan ichra. [5]

Sening yuzing haqida gapirishga kun ham ojiz, yuzing yeru ko‘kning sham’idir. Shoir yor yuzining go‘zalligi, nurliligini tasvirlashda kun va sham’ obrazlaridan foydalanadi. Yor yuzini kundan ustun qo‘ygan holda yeru ko‘kning sham’I deya ta’riflaydi.

Sakkokiyning g‘azallarida sham’ va parvona juftlik shaklda ham uchraydi. Xususan, quyidagi baytda yorning yuzini sham’ga, jahonni esa parvonaga o‘xshatadi:

Yuzi sham’indin oncha kim g‘urur ul oy boshinda bor,
Jahon parvonatek kuysa yo‘q ul bir zarra parvosi. [6]

Yor yuzining sham'i (nuri) kabi go'zallikdan g'urur faqat oyda bor. U ham atrofida parvonadek kuyayotgan jahonga zarra parvo qilmaydi. Ya'ni ma'shuqning oshiq chekayotgan azoblariga parvo qilmasligi, parvonaning yonishini sham' e'tiborsiz qoldirishi, oyning atrofida aylanayotgan jahonga parvo qilmasligiga o'xshatiladi.

Sakkokiy yorning tashqi ko'rinishini tasvirlashda ham sham' obrazidan unumli foydalanadi:

Bir sanavbartek qadingning soyasin ko'rsam vale,
Sham'sen bu ravshan ulkim sham'ning yo'q soyasi. [7]

U yorni tasvirlar ekan uning sanavbardek qaddini sham'ga o'xshatadi. Sham' shunday ravshanki, lekin uning soyasi yo'q. Sham' yorqin va barchaga barobar nur socha, shuning uchun ham uning soyasi bo'lmaydi. Yorning qaddining soyasi sham'ga o'xshatgan shoir yorning sham'danda ustunligiga ishora qiladi.

Shoirning boshqa g'azalida sham'ning erishi ko'z yoshlariga o'xshatiladi. Bu tasvir orqali yor yuzining naqadar nurafshon ekanligini ta'riflashga harakat qiladi:

Tun kecha majlista yuzing vaslidin kechti hadis,
Sham' g'ayrat o'tina yondi-yu so'zon yig'ladi. [8]

Tun kecha majlisda sening yuzing vaslidan suhbat bo'ldi. Sham' bundan rashk o'tida yondi-yu alamli yig'ladi. Yor yuzining naqadar go'zalligi haqidagi suhbatni eshigan sham' bundan rashk qiladi. Uning yonib erishi esa alamli yosh to'kishga o'xshatiladi. Shoir bu tasvir orqali yor chehrasidagi nurnung naqadar ravshanligini, uning g'oyatda go'zalligini tasvirlaydi.

Sakkokiy yorning yuzi, zulfi ta'rifini berish asnosida o'zining holatini sham'ga o'xshatadi:

Yuzung bila zulfung uchun gohe kula, goh yig'layu,
Doim kechurdim: Sham'tek umrimda subhi shomni. [9]

Sening yuzing va zulfing uchun goh kulib, goh yig'ladim. Doimo misoli sham' kabi umrimda subhi shomni kechirdim. Bunda hayotdagi yaxshi-yomon, past-baland, qorong'u va yorug' kunlarni ko'rganligi tasvirlanadi. U yorining yuzi, zulfi (chiroyi)ni ko'rish uchun goh yaxshi, goh yomon damlarni o'tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, Sakkokiy o'zining go'zal tashbehlari, obrazlardagi ma'noviy serqirralik, mubolag'a, so'z qo'llash mahorati bilan o'z davri adabiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U sham' va parvona obrazlaridan unumli foydalangan. Ulardan ilohiy ishqni tasvirlarda mahorat bilan qo'llagan. Shoir bu obrazlarni har tomonlama tasvirlashga harakat qilgan. Ularning ma'noviy qatlamlaridan unumli foydalangan. Sham' orqali yorning sifatlarini tasvirlasa, parvona orqali oshiqning holini tasvirlagan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати / ф.ф.д. Д.Куроновнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Akademnashr, 2010 йил. 44-б.

2. Рафиддинов С.С. Атойининг поэтик маҳорати. Фил.фан.ном. ...дисс. -Т: – 1993. 83-б.
3. Ўзбек классиклари кутубхонаси / Саккокий / Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи Муниров Қ./ ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти / Тошкент – 1958, 17-б.
4. Yuqoridagi asar 21-bet.
5. Yuqoridagi asar 21-bet.
6. Yuqoridagi asar 28-bet.
7. Yuqoridagi asar 29-bet.
8. Yuqoridagi asar 38-bet.
9. Yuqoridagi asar 56-bet.

## JADIDLARNING MILLIY YUKSALISH YO‘LIDA OLIB BORGAN SA’Y- HARAKATLARI VA UNING BUGUNGI GLOBALLASHUV DAVRIDAGI AHAMIYATI

***Xayrullayeva Aziza Yigitali qizi***,
*O‘zDJTU tayanch doktoranti*
*azizaxayrullayeva@uzswlu.uz*

Globallashuv – bu dunyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, axborot va madaniy aloqalarning keskin kuchayishi va integratsiyalashuvi jarayoni bo‘lib, u har bir millatning madaniy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, milliy o‘zlik, tili, dini, urf-odatlari bilan ajralib turuvchi xalqlar uchun bu jarayon ijobiy imkoniyatlar bilan birga, madaniy assimilyatsiya xavfini ham olib keladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek jadid ma’rifatparvarlarining XX asr boshlarida amalga oshirgan faoliyati – o‘sha davrdagi “mahalliy globallashuv”ga qarshi ijtimoiy-madaniy immunitet yaratish tajribasi sifatida qaralishi mumkin.

Jadidlar harakati – bu millatni uyg‘otishga, jaholatdan qutqarishga, ilm-ma’rifat orqali erkin jamiyat yaratishga qaratilgan g‘oyaviy-siyosiy va ma’naviy harakat edi[5]. Ular turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar orasida milliy o‘zlikni tiklash, zamonaviy ta’limni joriy etish va shu orqali milliy madaniyatni asrab qolishga intildilar. Maqolaning asosiy maqsadi – globallashuv sharoitida bu harakat vakillarining tajribasini o‘rganish va bugungi kun bilan bog‘lashdir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgan edi. Bu davrda ruslashtirish siyosati, mustamlakachilik bosimi va diniy-ma’naviy cheklovlar natijasida mahalliy xalqlar o‘z madaniyati va qadriyatlarini yo‘qotish xavfi ostida qolgan edi. Bunday sharoitda yangi zamon g‘oyalarini ilgari surgan, ammo o‘z milliylikni ham unutmagan bir guruh

ziyolilar – jadidlar maydonga chiqdi. Jadidlar – “yangi usul” tarafdorlari bo‘lib, ular eski maktab va madrasalarning samarasizligiga qarshi chiqdilar. Ular savodxonlikni, ayniqsa, ayollar ta’limini oshirish, milliy uyg‘onish, tarixiy xotirani tiklash va diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilishni asosiy vazifasi deb bildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon kabi arboblar bu harakatning yetakchi vakillari sifatida tarixda muhim iz qoldirgan Jadidlar milliy o‘zlikning asosiy poydevori – bu ona tilida fikrlash va yaratish ekanini anglab yetganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasi orqali milliy adabiyotda sahna san’atining yangi namunalarini yaratgan bo‘lsa[2], Fitrat “Hind ixtilochchilari”, “Sayha” kabi asarlarida erkinlik, millatparvarlik va ma’naviyat mavzularini yoritdi[3].

Jadidlar eski usulda emas, balki yangi usuldagi maktablarni tashkil etish orqali bolalarga ilm-fan, geografiya, matematika, tarix, adabiyot kabi fanlarni o‘rgatdilar. Munavvarqori Abdurashidxonov ilk yangi usul maktablaridan birini Toshkentda tashkil etdi va turkcha o‘quv dasturlarini mahalliy sharoitga moslab ishlab chiqdi. Jadidlar gazeta va jurnallar orqali xalq orasida ma’naviy uyg‘onish yaratishga harakat qildilar. “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Hurriyat”, “Oyna” kabi nashrlar orqali xalqni savodli, erkin, milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga chorladilar.

Jadidlar g‘arb ilm-fani va texnologiyasini rad etmadi, balki uni o‘z madaniyatimizga uyg‘unlashtirishni taklif qildi. Abdulla Avloniy*: “Millatning saodati – ilmda, tarbiyada, hunarda va ma’naviyatdadur”* – deb yozgan[1]. Bu fikrlar bugungi globallashuv davridagi “madaniy erkinlik va mustaqillik” muammolariga javob bo‘la oladi. Jadidlar islomiy axloq va insonparvarlik tamoyillarini zamonaviy jamiyat tamoyillari bilan muvofiqlashtirishga urindilar. Fitrat va Behbudiy asarlarida bu ruh ustuvor bo‘lib, ular “inson” tushunchasini millat va din doirasidan tashqarida ham qadrlaganlar.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy madaniyatlar o‘zining o‘zligini saqlab qolishga urinmoqda. Aynan shu nuqtada jadidlar tajribasi – tarixiy saboq sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda media, internet, ta’lim tizimida jadidlar yondashuvi – ya’ni milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi – muhim metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan: Ta’lim tizimida ona tilining ustuvorligi, ammo xorijiy tillarni o‘rganish zarurati; Ma’naviy tarbiya bilan birga texnik bilimlarni oshirish; Madaniy merosni raqamlashtirish va yoshlar orasida targ‘ib qilish – bu jadidlar orzusi bo‘lgan zamonaviy uyg‘onishning amaliy ko‘rinishidir Jadid ma’rifatparvarlari o‘z davrining ilg‘or

ziyolilari bo‘lib, ular ilm-ma’rifat, madaniyat va qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘z xalqini uyg‘otishga urindilar[7]. Ularning faoliyati, ayniqsa bugungi globallashuv sharoitida o‘z milliy o‘zligini yo‘qotmasdan taraqqiy etmoqchi bo‘lgan xalqlar uchun amaliy dastur bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan, biz jadidlar merosini o‘rganish, uni zamonaviy texnologiyalar, ta’lim, madaniyat siyosatida tatbiq etish orqali milliy o‘zligimizni mustahkamlashimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Behbudiy, M. (1990). Tanlangan asarlar. -Toshkent: Fan.
3. Fitrat, A. (2006). Saylanma. Toshkent: Sharq.
4. Cho‘lpon, A. (2017). Tanlangan asarlar (2 jildlik). -Toshkent: Yozuvchi.
5. Qosimova, M. (2019). Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-ma’naviy asoslari. -Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Salohiy, T. (2005). O‘zbek jadid adabiyoti. -Toshkent: Akademnashr.
7. Xoldorov, N. (2020). “Globallashuv jarayonida madaniy o‘zlik va uning himoyasi.” // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2-son, 45–50-betlar.
8. Rajabov, S. (2015). Jadidlar: milliy uyg‘onish va istiqlol g‘oyalari. -Toshkent: Istiqlol nashriyoti.
9. Axmedova, Z. (2021). “Globallashuv va madaniy meros: zamonaviy tahdidlar.” // O‘zbek tili va adabiyoti, 6-son, 32–37-betlar.
10. Karimov, I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat. 2008.


# MUTOLAA MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHDA IJTIMOIY INSTITUTLARNING O‘RNI


***Dulanbayeva Oygul,***
*Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti Sotsiologiya kafedrasi katta o’qituvchisi, Sotsiologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*



**Annatatsiya**: Mazkur maqolada mutoala madaniyatining yaxlid bir butun tizim sifatidagi axamiyati, uning mutoala texnologiyasi, subyekti kabi tarkibiy elementlarining taxlili turli konsepsiyalar nuqtaiy nazaridan taxlil etilgan. Ayniqsa, mutolaa fenomenining oila, ta’lim va kutubxonalar kabi ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro a’loqadorligining taxliliga aloxida diqqat qaratilgan. Qolaversa, mutoalaning jamiyatdagi stratifikatsion jixatlar bilan bog‘liqligiga ham, e’tibor berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mutoala, ijtimoiy institut, sotsial tizm, ijtimoiy funksiya, qadryat mo‘ljallari, mutoala texnologiyasi.

XXI asr fan texnologiyalarining g‘oyat tezkor rivojlanishi insonni o‘rab turgan ijtimoiy realikni tamomila o‘zgartirib yubordi. Natijada avval ustuvor bo‘lgan qadriyatlar tizimi, sotsial meorlar o‘zigaxos darajada transformatsiyaga uchradi.. Bu ma’noda, zamonaviy kitobxoning mutoala madaniyati, matinga nisbatan munosabati ham butunlay o‘zgacha axamiyat kasb eta boshladi. Shu bois mutoala fenomenini ilmiy nuqtaiy nazardan o‘rganish, uni bugungi kundagi ijtimoiy axamiyatini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Bunga erishish uchun esa, avvalo mutolaa madaniyati hodisasini, uning jamiyatda amal qilishi, ijtimoiy tuzilmada tutgan o‘rni, shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq o‘rganish zarur.

Hodisani tahlil qilishda uni tizimlarga bo‘lib tadqiq etish samarali usul hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda muayyan masalani «mavzuiy», «muammoviy», «yaxlit» va «tizimiy» ko‘rinishlarda o‘rganish tajribasi ma’lum. Tizimiy yondashuvda voqelikning «tizim yasovchi» eng muhim tarkibiy jihatlarini tadqiq etish orqali muammoning yechim yo‘llari aniqlab beriladi.

Mutolaa madaniyatini bir butun tizim sifatida tasavvur etish bu tizimning asosiy komponentlarini, ularning o‘zaro va tashqi muhit bilan aloqa qilish mexanizmini aniqlash, uning o‘zidan katta tizimdagi o‘rnini belgilash, oddiy tarkibiy elementining mazmuni, faoliyati, tizim taqozo qiluvchi aloqalarni ochib berishni talab qiladi. Tizimga xoslik ichki va tashqi yaxlitlikni taqozo etadi. Tizim tashkil qiluvchi biror bir element yetishmasa, butunlik hosil bo‘lmaydi. Jamlanma komponentlar, qismlar esa kutilmagan boshqa tizimlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shunga ko‘ra, mutolaa madaniyatining tarkibiy qismlariga, ya’ni mutolaa texnologiyasi, mutolaaning ijtimoiy-psixologik jihatlari hamda mutolaa subyektlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mutolaa texnologiyasi mutolaa jarayonining bevosita amalga oshishini ta’minlovchi obyektiv omillar, zaruriy vositalar, shart-sharoitlarni qamrab oladi. Bularga jamiyatning umumiy madaniyat darajasi hamda aholining mutolaaga ijobiy yoki salbiy munosabatlari darajasi, davlatning mutolaa madaniyatini shakllantirishga doir olib borayotgan siyosati, jamiyatning mazkur hodisaga yondashuvi, turli jamoat tashkilotlarining munosabati, ta’lim muassasalari, pedagoglar va tarbiyachilar soni hamda sifati, madaniy-ma’rifiy muassasalar, mavjud kutubxonalar va ularning ahvoli, kitob fondi va hokazolar kiradi. [1]

Mutolaa texnologiyasi tizimida aholining umumiy rivojlanganlik darajasi muhim o‘rin tutadi. Umumiy madaniyatga mutolaa madaniyati munosabatlari bevosita ta’sir ko‘rsatib, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib boradi. YA’ni, aholi umumiy madaniyatining o‘sishi natijasida mutolaaga qiziqish ortishi va mutolaa madaniyati rivojlanishi mumkin. Va aksincha, umumiy madaniyati past xalqlarda mutolaa madaniyatining holati ham shunga muvofiq bo‘lishi tabiiydir.

Ma’lumki, insoniyatning ongli tarixi moddiy va ma’naviy madaniyatlar uyg‘unligidan iborat bo‘lib, mutolaa ana shu ikki madaniy jihatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatib keladiShuningdek, mutolaa madaniyati moddiy madaniyat namunalari (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish jarayonida vujudga keltirilgan moddiy qadriyatlar ) bilan ham o‘zaro aloqada bo‘ladi. Masalan, mutolaa madaniyati mustaqil ta’limni shakllantirish orqali maorif tizimi rivojiga va aholining savodxonlik darajasini oshirishga yaqindan ko‘mak bersa, maorif tizimi fuqarolarda mutolaa madaniyatini shakllantirishning asosiy ijro institutlaridan biri vazifasini bajaradi [2].

Shu bilan birga, mutoala madaniyatini shakillantiruvchi institutlardan biri bu shubxasiz oila instituti hisoblanadi. Oila muhiti shaxsda mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, aynan oilada bolaning mutolaaga qiziqishi shakllanadi. Mutolaa madaniyatini shakllantiruvchi ijtimoiy institutlar orasida ham, oila barcha yoshdagilarda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi [3].

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda oilaning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda mutolaaga qiziqishni uyg‘otish;
2. Oila a’zolarida yoshga mos adabiyot tanlashni o‘rgatish;
3. Oila kutubxonasini tashkil etish va mazkur kutubxonadagi kitoblarning boy va turli-tuman bo‘lishini ta’minlab borish;
4. Bolalarda kitobdan foydalanish madaniyatini shakllantirish;
5. Bolalarda mutolaa vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qilish tajribasini shakllantirish.
6. Mutolaa madaniyatini shakllantirish muassasalari tizimida muhim ahamiyat kasb etadiganlaridan yana biri, shubhasiz bu kutubxonalardir. Ta’lim muassasalarining kutubxonalari, asosan, foydalanuvchilarni darslik va o‘quv qo‘llanmalari ta’minoti bilan shug‘ullansa, ommaviy kutubxonalar faoliyati aholini umumiy mutolaa manbalari bilan ta’minlashga yo‘naltiriladi. Shu o‘rinda aytish lozimki, o‘quv muassasalarining kutubxonalari ham, kitobxonlarni qo‘shimcha adabiyotlar, ayniqsa badiiy adabiyotlar bilan ta’minlashlari

maqsadga muvofiqdir. Biroq, bugungi kunda o‘quv muassasalari kutubxonalarining bu boradagi faoliyatlari qoniqarli emas [4].

1) Kutubxonalarning mutolaa madaniyatini shakllantirishdagi vazifasi quyidagilardan iborat:

2) dunyo bilimlarning keng ko‘lamini, xalq ma’naviy merosini aks ettiruvchi hujjatlarning universal fondini butlash, saqlash va uni jamoat foydalanishiga taqdim etish;

3) aholiga kutubxona va axborot xizmati, shu jumladan ma’lumotnoma-bibliografik xizmatlar ko‘rsatish;

4) xorijiy hamda milliy adabiyotlarning bibliografik to‘plamlarini yaratish, aholining bibliografik ma’lumotga bo‘lgan talabini qondirish;

5) xorijiy davlatlar bilan bibliografik ma’lumotlar almashish hamda mamlakat aholisini xorijda nashr etilgan axborotlar bilan ta’minlash borasida xalqaro hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish;

6) turli konferensiyalar, ilmiy va badiiy tadbirlar orqali aholida, ayniqsa yoshlarda mutolaaga qiziqishni shakllantirish, ularni kutubxonalarga hamda mutolaaga kengroq jalb etishni tashkil qilish [5]

7) Mutolaa madaniyatiga bevosita ta’sir etuvchi tarkibiy jihatlardan yana biri ijtimoiy-ruhiy omillar tizimidir.

8) Ma’lumki, ijtimoiy munosabatlar deganda, “jamiyatda turli mavqega ega bo‘lgan, uning iqtisodiy, siyosiy hamda ma’naviy hayotida turlicha ishtirok etayotgan, turmush tarzi, daromad manbalari va darajasi, shaxsiy ehtiyojlar tuzilmasi turlicha bo‘lgan kishilar guruhlari o‘rtasidagi munosabatlar” tushuniladi. Turli ijtimoiy uyushmalarning faol o‘zaro ta’siri natijasida, ularning hamkorlikdagi faoliyati shakllanishiga olib keluvchi jarayonlar ijtimoiy munosabatlarning subyektlaridir.

9) Mazkur jarayonning murakkab ichki tuzilmalari xususida maxsus tadqiqot olib borgan N.A.Rubakin bu haqda shunday fikr bildiradi: «Mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanayotgan har bir kitobxon, har bir inson, o‘ziga xos individuallikka, ya’ni faqat o‘zigagina xos bo‘lgan shaxsiy, ijtimoiy va tarixiy hayot sharoitlari ta’sirida doimo o‘zgarib turuvchi shaxsiy xususiyatlarga, qiziqishlarga, va nihoyat, kayfiyatga ega bo‘ladi. Mazkur xususiyatlarning barchasi har bir insonda o‘ziga xos tarzda amalga oshuvchi mustaqil ta’limning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qilishi to‘g‘risida gapirmasa ham bo‘ladi»

10) Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mutolaa psixologiyasida shaxs faolligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, boshqa ijtimoiy

hodisalar kabi, mutolaaning ham mazmunini birinchi navbatda anglangan ijtimoiy faollik omili tashkil etadi [6].

11) Ijtimoiy faollik «.insonning ongli, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, uning mazmuni obyektiv ijtimoiy shart-sharoitlarni o‘zgartirish hamda shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishdan iborat» [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mutolaa hodisasini ijtimoiy-ruhiy munosabatlar tizimi negizida tahlil etadigan bo‘lsak, uning quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

12) Mutolaa subyektlarining atrof-muhitga munosabati va atrofdagilarning unga ta’siri. Masalan, bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarda pragmatizm ruhi shakllanib, yuqorida aytganimizdek, ularda asosan bugungi kun ehtiyojlariga tez javob beruvchi “foydali” bilimlarga ega bo‘lishga intilish yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Katta yoshlilar esa, muammolar yechimini an’anaviy tarzda milliy qadriyatlardan izlamoqda va ularda milliy hamda an’anaviy qadriyatlarga intilish birmuncha kuchayganligi sezilmoqda;

13) Mutolaa subyektlarining o‘zaro munosabatlari. Bir kitobxonning ikkinchi kitobxon bilan munosabatlari, kitobxonning kutubxonachi yoki o‘qituvchi bilan munosabatlari mutolaa madaniyatini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yosh kitobxonlar o‘qigan kitoblari haqida asosan tengdosh do‘stlari, yoki oila a’zolari bilan, ayrimlari esa o‘qituvchilari yoki kutubxonachi bilan fikr almashadi.

Kitobxonning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati. Uning tarkib yasovchi xususiyatlari: ijtimoiy mo‘ljal, rejalilik, so‘z va ish birligi, maqsadga izchillik bilan yondashuv, iroda, mas’uliyat, qat’iyat, o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan muloxazalarni umumlashtirib quydagi xulosalarni bildirish mumkin:

1. Jamiyatning bozor munosabatlariga o‘tish davrida muayyan iqtisodiy muammolarning hal etilishi bilan bog‘liq masalalar mutolaa madaniyatini shakllantirish ishlarini yangi sharoit talablari darajasida tashkil etishni ifodalamoqda.

2. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda aholi qatlamlariga diferensial yondashish lozim. Chunki katta yoshdagi avlodning ijtimoiy-ma’rifiy mo‘ljallarida milliylikni anglash, takomillashtirish, yosh avlodga voris sifatida qoldirish kuchli bo‘lsa, yoshlarda zamonaviy yechimlar, jo‘shqin ritmlarga boy xorijiy madaniyatga intilish kuchli.

3. Mutolaa manbalaridan foydalanishda jinsiy farqlanishlar ham mavjud. Ayollarni ko‘proq sarguzasht hamda oilaviy majoralar, sevgi-muhabbatga bag‘ishlangan adabiyotlar qiziqtirsa, erkaklarni esa, detektiv, fantastik hamda tarixiy adabiyotlarga an’anaviy qiziqishi ustuvor.

4. Hozirda kitobxonlarda kitoblardan ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardagi malumotlarni o‘qishni afzal ko‘ruvchilar sonining oshishi, detektiv, dahshat, sentimetal adabiyotlarga qiziqishning ortishi kuzatilmoqda.

5. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda oila, ta’lim tizimi va kutubxonalar, davlatning mutolaa madaniyatini qo‘llab-quvvatlovchi siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Umarov A. Jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish va kutubxonachilik muammolari. «Fan, ta’lim madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish» mavzuidagi xalaaro konferensiya materiallari. -Toshkent – Samarqand., 2011.- Б. 4-10.

2. Умаров А.А. Библиотеки современного Узбекистана. Вестник Библиотечной Ассамблеи Евразии, 2003. -№3. -с.50-54.

3 Rasulov M., Ro‘ziboyeva N. Kutubxonachilik - jo‘shqin kuch G‘G‘ Iqtisod va hisobot. – 2012 . - № 4. - Б. 78-79.

4. Рашковский Е. Книжная культура в эпоху постмодерна: из записок российского книжника Е. Рашковский Общество и книга: от Гутенберга до Интернета.-Москва, 2017.-С. 164-168.

5. Прилищ И.А. Эстетическое воспитание белорусских школьников Сов.библиотековедение. – 2013.. - № 3. - С. 27-31.

6. Олзоева Г.К. О культуре чтения и массовой культуре: (К постановке проблемы) Олзоева Г.К. Библиотековедение. -2000. -№ 4.-С.67-68.

7. Мехиа М. Для справедливого и эгалитарного общества: Публичная библиотека как центр культурного развития. Библиотека. 2011. -№ 2. -С. 7-9.

8. Линдквист М.Г. Формирование библиотечных фондов в электронной среде. «Библиотеки и современное общество». Матер. межд-ной науч. конф., посв. 200-летию основания РНБ. -СПб., 2003. –С. 104.

9. Куно К. Молодежь и чтение во Франции сегодня Куно К. Что мы читаем? Какие мы?. -СПб., 2003. -Вып.3. -С. 90-96.

# SHAM’ VA PARVONA TIMSOLLARI TAVALLO BAYTLARIDA

***Turdiyeva Shodiya Xusniddin qizi,***
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti*
*kichik ilmiy xodim*
*shturdiyeva1306@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadid adabiyoti namoyandasi Tavallo ijodidi, xususan “Ravnaq ul-islom” asarida istifoda etilgan sham’ va parvona obrazlari, ularning mazmuni haqida bahs yuritiladi. Bu obrazlarning mohiyati, tasavvufiy ma’nolari tahlil qilinadi. Maqolada Tavalloning baytlari tahlilga tortiladi. Jadid adabiyotida sham’ va parvona obrazlarining ma’noviy qatlamlaridagi o‘zgarish va yangilanishlar, ulardan qay darajada foydalanganligi, bu obrazlarning jadid adabiyotidagi o‘rni haqida mulohaza yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** sham’, parvona, obraz, tasavvuf, jadid, timsol, yor, raqib, ag‘yor, oshiq, ma’shuqa.

Sharq mumtoz adabiyotida ishqu muhabbatni tarannum etish asosiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Uni tasvirlash uchun esa shoirlar tomonida qator timsollar istifoda etilgan. Oshiq, ma’shuqa, yor, ag‘yor, raqib, gul, bulbul, sham’ va parvona singari ko‘plab timsollar orqali ishq kuylangan.

Sham’ va parvona singari obrazlar jadidlarni ham ijodida muhim ahamiyatga egadir. Jadidlarimiz o‘z asarlarida ko‘plab poetik obrazlar qatorida sham’ va parvonadan ham foydalangan. Asarlarda turli ma’nolarda istifoda etilgan bu obrazlarning ma’noviy qatlamlari jadidlar davriga kelib biroz qisqaradi. Ko‘plab tasavvufiy obrazlar qatori sham’ va parvona obrazlari jadidlar davrida tor ma’nolarda istifoda etilgan. Xususan, Tavallo ham o‘zining salaflari qatori bu kabi timsollardan unumli foydalangan. Tavallo ijodida ko‘plab timsollar singari sham’ va parvona obrazlari ham muhim ahamiyatga ega. Garchi shoir bu obrazlardan faol foydalanmagan bo‘lsa ham ba’zi baytlarida ulardan mahorat bilan foydalanadi.

Shoir “Ravnaq ul-islom” asarida munojotlarining tarkibida parvona poetik obrazidan foydalanadi:

Hamisha bir juvon ko‘rganda yuz maktabni tark aylab,
Chunon biz o‘rgulub, xo‘b irshayub, parvonamiz, yo rab.[1]

Baytda parvona obrazi mehr-muhabbat, e’tibor ma’nolarida qo‘llanilgan. Obrazning bu ma’no istifoda etilishi xalq og‘zaki ijodi nabunalarida keng

tarqalgan uslub bo‘lib, shoir o‘z fikrlarini oddiy xalqqa tezva oson yetkazish uchun foydalanadi.

Boshqa bir g‘azalida esa ahvolini tasvirlash uchun sham’ obrazidan foydalanadi:

Yo‘q jahonda, voy, bizlardek badan afgor hech,
Dil qaro, baxt qaro, sham’ raxo zangor hech. [2]

Shoir baytlarda xalqning ilmsizligi va buning oqibatlari haqida mulohaza yuritadi. Xalq ilmsizligi uchun ham qalbi, baxti qaroligi, sham’ning ham yorug‘ligi darz ketganligi (sham’ yorug‘ligining darz ketishi ramziy ma’noda bo‘lib, xalq hayotining kemtikligi, zulmatga qarab ketayotgani, ularning hayotini yoritishi kerak bo‘lgan ilm ham egallanmayotganligi timsolidir) tasvirlanadi. Shoir o‘zining bu g‘azali bilan xalqni ilmli bo‘lishga, faqat ilm orqali yorqin kelajakka erishish mumkinligini tushinishga chorlaydi.

Shoirning boshqa bir she’rida ham parvona obrazi istifoda etiladi:

O‘n to‘qquz millyo‘n bu Turon elida ikki gazit,
Bari jurnol charchasa, bunlar na parvonasindadur.[3]

Bu baytda ham parvona o‘z ma’nosida yoki tasavvufiy ma’nolarda kelmaydi. U girdikapalak bo‘lish, e’tibor ma’nolarida qo‘llanilgan.

Xulosa qilib aytganda jadidlar, xususan, Tavallo sham’ va parvona obrazidan keng foydalanmagan. Chunki jadidlar xalqni ma’rifatli, ilmli qilishni, millatni ravnaq toptirishni, xalqning orasidagi illatlarni yo‘qotishni birlamchi vasifa sifatida ko‘rganlar.

Tasavvuf adabiyotining muhim obrazlaridan bo‘lgan sham’ va parvona obrazlari esa Tavallo singari ijodkorlarning ijodiy maqsadini o‘zida to‘la aks ettirmagan. Shu sababli ular bu obrazlarni tor ma’noda, asosan, oddiy xalq oson tushunadigan ma’nolarda istifoda etgan. Tavallo baytlarida qo‘llanilgan parvona e’tibor, girdi kapalak bo‘lish ma’nolarida kelgan bo‘lsa, sham’ yoritqich ma’nolarida istifoda etilgan.

Jadid adabiyotida mumtoz adabiyotga qaraganda obrazlar ma’nolarida torayishni kuzatish mumkin. Bu davr shoirlari obrazlarni tasavvufiy ma’nolarda qo‘llamagan. Chunki mumtoz adabiyot murakkab va asosan, xoslar uchun yozilganligi sabab ularni oddiy xalq tushunishi qiyin bo‘lgan.

Jadid adabiyoti namoyandalarining maqsadi esa oddiy xalqni ziyolilar qatlamiga qo‘shish, hamma sohaga yangilik kiritish bo‘lganligi uchun soddaroq va tushunarliroq yozishga harakat qilganlar. Ular murakkab tashbeh, istiora, mubolag‘a, talmeh kabi she’riy san’atlardan keng foydalanmaganlar. Bu davrda

tasavvufiy she’rlardan ko‘ra realistic she’rlar ko‘proq yozilgan. Yaratilgan har bir asar muayyan maqsadga xizmat qilgan.


**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Тавалло. Равнақ ул-ислом. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Бегали Қосимов. “Фан” нашрёти. – Т., 1993. 27-б.
2. O’sha manba. 40-б.
3. O’sha manba. 60-б.


## ABDULLA ORIPOV PUBLITSISTIKADA MA’NAVIYAT MASALASI


***Komiljon Payziyev,***
*NamDU O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,*
*O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Oripov publitsistikasida ma’naviyart, xususan, yoshlar tarbiyasi haqida bildirilgan fikr-mulohazalar va ulardan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.



**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, ma'rifat, kontseptsiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mafkura, vatanarrvarlik, burchga sadoqat, mas'uliyat, tadrijiylik, uzviylik.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil 22 dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida yoshlar tarbiyasi haqida shunday degan edi: “O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma'naviy-ma'rifiy sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda “o'zbek”, “O'zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi”

Davlatimiz rahbari shu o‘rinda yana Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari - uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanliklarini, jumladan, XX asr boshlarida jadid

bobolarimiz xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlaganliklarini, bugungi kunda ham ana shunday fidoyi ziyoliylarga katta ehtiyoj borligini ta’kidladi. Shu haqda fikr bidira turib Yurtboshimiz yaqinda “Milliy tiklanish” gazetasida O‘zbekiston xallq shoiri Iqbol Mirzoning “Jadidlar” nomli she’rini o‘qiganligiini va unda bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan savollarga javob izlaganligini, mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda milliy va umuninsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur ekanligini va bunday yoshlarni tarix saboqlari, zamon talablari asosida o‘zimiz tarbiyalashimiz lozimligiga e’tiborni qaratdi.

Darhaqiqat, Iqbol Mirzoning “Jadidlar” nomli ushbu she’rida bugungi kunda Ibrat, Fitrat, Tavallo, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi millat uchun fidoyi shoir va yozuvchilar yetishmayotganligi chuqur bir armon bilan aytiladi. Jumladan, uning bir bandida shunday satrlar bor:

*She’r avjida birdan qalam sekinlar,*
*Buyuk ustozlarim nima derkinlar?*
*So‘nggi jadid edi Abdulla, Erkinlar,*
*Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.[ 4]*

Yuqoridagi satrlarda e’tirof etilganidek, Ozbekiston Qahramoni, xalq shoiri degan yuksak nomga sazovor bo‘lgan Abdulla Oripov va Erkin Vohidov ham XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik yillarida jadid bobolarimizning xalqni ma’naviyatli, ma’rifatli qilish haqidagi g’oyalarini davom ettirdilar.

Har ikki ijodkorning vatan, vatanparvarlik,milliy istiqlol, komil inson tarbiyasi haqidagi she’rlari, publitsistik maqolalarida ilgari surilgan g’oyalar bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatlidir. Jumladan, Abdulla Oripov bundan roppa –rosa 44 yil oldin, aniqrog'I, 1981 yilda ommaviy axborot vositalaridan birida “Quyosh Sharqdan chiqadi” deb nomlangan publitsistik maqolasini e'lon qiladi. Unda shunday deyiladi: “Atrofimizga ko'z tashlasak, nigohimiz dastavval qudratli mashinalarga tushadi. Bu, albatta, davr belgisi. Lekin texnika asrida o'sha mashinalaru osmono'par binolar orasida inson qalbi yo'qolib ketmasligi lozim. Shundoq aziz bir tashvish butun Yer yuzi odamlari orasida mavjuddir. Inson bolasi uchun tabiat, uning go'zalligi, toza havo noyob bir ne'matga aylanib bormoqda. Yozuvchi o'z asarida tasvir etadigan turfa nomli chechaklarni, rassomlar sevib chizadigan rang - barang gullarni bugungi yosh bolalar tabiatda uchratsa, taniy oladilarmi? Bu borada nainki shahar, balki qishloq bolalari ham maqtana olmasalar kerak.” [3,44]

Bu gaplarning aytilganiga qariyb yarim asrga yaqin vaqt o‘tdi. Dunyoning manzarasi tubdan o‘zgardi.Bugun taraqqiyot keskin tezlasddi. Ayniqsa, internet tizimiing paydo bo‘lgani, axborot olish, tarqatish har bir fuqaro uchun kundalik hayot tarziga aylangani, shu jarayonda inson tafakkurini, dunyoqarashini o‘zgartirib yuboradigan yangiliklar tinimsiz ravishda ommalashib borayotgani va buning ta’sirida ayrim yoshlar milliy qadriyatlarimizni, jumladan, ota-onani, keksalarni, ustozlarni e’zozlash, tabiatni asrab-avaylash tuyg’ularini unutib qo‘yayotganlikri achinarlidir.

“Dunyoni go’zallik qutqaradi” deyishadi. Bugun adabiyot, san’at, bir so‘z bilan aytganda, go‘zallik insoniyatni bu muammolardan qutqara oladimi? Bu savol adabiyoat va san’at, madaniyat, ma’naviyat xodimlari zimmasiga yangi-yangi vazifalarni ko’ndalang qo‘ymoqda.

Darhaqiqat, dunyoga ko'z-ko'z qilishga arziydigan o'nlab qadriyatlarimiz bor. Lekin atoqli shoirimiz bong urganidek. bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan, ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan minglab axborotlar odamlarning. ayniqsa, yoshlarning ongiga, qalbiga, tafakkuriga birdek ta'sir etib turgan murakkab bir zamonda milliy qadriyatlarimizning o'rni va roli har qachongidan ham ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.

Endi haqli savol tug'iladi: Biz ajdodlarimizdan meros bo'lib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ana shu bebaho urf-odatlarimizni yoshlar qalbiga singdira olyapmizmi? Ularni tarbiyalash yo'lida ko'rilayotgan chora-tadbirlar kutilgan samarani beryaptimi? Bu borada qanday muammolarga duch kelmoqdamiz va ularni bartaraf etish uchun nima qilmog'imiz zarur?

Avvalo shuni e'tirof etish joizki, mamlakatimizda ma'naviyat maslasiga istiqlolning birinchi kunidan boshlaboq e'tibor qaratib kelinmoqda. Ona tilimizning maqomi, nufuzi tiklangani, Navro'z ummumxalq bayrami, Ramazon, Qurbon hayitlarini nishonlash odat tusiga kirganligi, ulug' bobolarimizning boy ma'naviy meroslarini o'rganish, ular nomlarini abadiylashtirish,yoshlarni milliy va umuminosniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, keyingi o'n yilning ichida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash,mehnatsevarlik kabi tayanch kompetentsiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotganligi e'tiborga loyiq.

Biroq bugungi taraqqiyot Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Uzluksiz ma'naviy tarbiya” konsepsiyasi 1-bobining 2-,3-,4-bandlarida ta'kidlanganidek, “O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda”. [2,1]

Va yana ushbu hujjatda “Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayotganligi, oqibatda ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'layotganligi, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirayotganligi, ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi, ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsli klar yetarli emasligi”[2,2] ko'rsatib o'tilgan.

Abdulla Oripovning “Ozbekiston”, “Men nechun sevaman O’zbekistonni?” va boshqa sherlarida ilgari surilgan vatav va vatanparvarlik haqidagi g’oyalarini bugungi avlod qalbiga ham singdirish shart va zarur. Buning uchun shoir asarlarini maktab va oily o‘quv yurtlarida oqitish bo‘yicha yangi metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, adibning “Ustozlar sabog’i”, “Taassurotlar” kabi adabiy-tanqidiy maqolalarida yoshlar she’riyatida davr muammolari ochib berilmayotgani, zamon qahramonlari obrazlari to’laqonli yaratilmayotganligi, mazmun sayozligi, vazn, qofiya, tildan foydalanish bo‘yicha mahorat yetishmayotganligi kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun Alisher Navoiy, Hamid Olimjon, G’afur G’ulom kabi ustozlardan saboq olishlari zarurligi haqidagi fikr-mulohazalari amaliy qimmatini yo‘qotmagan.

Bugun Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini qurish yo’lida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shu ma’noda atoqli shoir Abdulla Oripovning “Vatan –barchamizniki”, “Vatan katta yo‘lga chiqdi”, “Vatan oldidagi burch” kabi publitsistik maqolalarida mustaqillikning ulug’ ne’mat ekanligi, uning qadriga yetish, asrab-avaylash, mustahkamlash va bu

yo‘lida xalq bo‘lib birlashish haqidagi taklif-mulohazalaridan foydalanish davr talabidir.

Taniqli yozuvchi, adabiyotshunos olim, professor Ulug’bek Hamdam esa: “Dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Xuddi shunday evrilishlar maydonida qolgan “adabiyotning qo'lidan nima keladi?” U olam ravishiga ta'sir qila oladimi? Adabiyot oldinda yongan chiroq bo'la oladimi? Ayniqsa, yoshlar uchun? Bugungi dunyo – har qachongidan ham himoyaga muhtoj. Ayni paytda, undan ehtiyot bo'lishga insonning o'zi majbur va mahkum bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, bugun dunyo insondan, inson esa dunyodan muhofazalanmog'i shart. Umidbaxsh adabiyot, yorug' san'at bizga shuning uchun ham lozim” [7,272].

Olim bu fikrlarini davom ettirib, jahon adabiyotshunosligi oldida turgan vazifalarni quyidagicha izohlaydi: “Bas, sunday ekan, vaqti-vaqti bilan davr va uning ehtiyojidan kelib chiqqan holda qanday badiiy asarlarga ehtiyoj borligini munaqqidlar-u ziyolilar tadqiq etib topishlari, o'z navbatida, jamoatchilik ham aytilganlarni e'tiborga olishi, masalan, ko'proq nashr etish, darsliklarga kiritish, targ'ib -u tashviq qilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, mamlakat va jamiyatlar rivoji o'qilgan asarlarning sifat va saviyasidan tashqari o'sha vaqtdagi ruhiy-ma'naviy ehtiyojga ham bog'liq” [5].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Маънавият ҳаётимизда янги куч,янги ҳаракатга айланиши зарур. // Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг 2023 йил 22 декабрдаги кенгайтирилган йиғилишида сўзланган нутқ.

2. “Узлуксиз маънавий тарбия” концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сонли қарорига 1-илова.

3. Орипов А.Танланган асарлар. Тўрт жилдли. Тўртинчи жилд. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2001.

4. https://uz.tgstat.com/channe Iqbol_Mirzo_ijodi / 4724.

5. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Darslik. -T.: “Akademnashr”, 2024.

## DAVLAT XIZMATCHISI KASB AXLOQINING FALSAFIY TAHLILI

***Toshpolatova Shirin Muxiddinovna***
*O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot davlat xizmatchisining kasbiy axloqini falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida davlat xizmatchisi duch keladigan axloqiy dilemmalar, shaxsiy qadriyatlar va kasbiy burch o'rtasidagi ziddiyatlar, hokimiyat va mas'uliyat munosabatlarining axloqiy jihatlari falsafiy refleksiya predmeti sifatida o'rganiladi. Shuningdek, kasb axloqi kodekslarining me'yoriy mazmuni va ularning amaldagi axloqiy xatti-harakatlarga ta'siri falsafiy-tanqidiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Davlat xizmatchisi, kasb axloqi, burch, vijdon, ma'naviy yetuklik, qadriyat, axloqiy dilemma.

Bugungi kunda Vatanimizda yuz berayotgan barcha ijrimoiy iqtisodiy, siyosiy-hukukiy va ma'naviy-madaniy o'zgarishlar, bir tomondan, insonni o'zgartirish va rivojlantirish uchun obyektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qurilayotgan odil jamiyat uchun xar tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan, jismonan sog'lom, axloqan pok, ma'naviy yetuk insonlarga bo'lgan ulkan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda.

Mamlakat taraqqiyoti har tomonlama ham ma'nan ham axloqan yuksak fazilatlarga ega bo'lgan fuqarolarning say harakatlariga bog'liq ekan, ularning kundalik kasb faoliyatida yuzaga keladigan axloqiy masalalarga ham jiddiy e'tibor talab etiladi. Har bir inson voyaga yetgandan so'ng o'z qiziqishlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir kasbni egallaydi. Va shu kasb orqali jamiyatda o'z o'rnini topib boradi. Inson kasb faoliyat doirasida turli toifadagi odamlar bilan munosabatga kirishadi: xodimlar bilan muloqotda bo'ladi, uchrashuvlar uyushtiradi, majlislar o'tkazadi va ularda qatnashadi. Xuddi shu nuqtada biz xozir fikr yuritmoqchi bo'lgan kasb axloqi masalasi yuzaga keladi. Etikaga bag'ishlangan lug'atda "kasb axloqi" atamasiga "kishilar o'rtasidagi kasb faoliyati bilan bog'liq munosabatlarga ma'rifiy tus beradigan xulq-atvor kodekslaridir" deya ta'rif berilga[4]. Hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o'sadi, ulg'ayadi, hayot kechiradi, o'zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko'plab insonlar bilan, kattayu kichik mehnat jamoalari bilan muloqotda bo'ladi. Bu insonning o'z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Jamoa bo'lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf odat, an'ana va qonun qoidalarga amal qilishni talab etadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat

o‘rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik, ya’ni ijtimoiy munosabat - xulq-atvor, odob, xatti xarakat, prinsip va normalarning majmuasi axloqning mazmun mohiyatini tashkil etadi. Axloqning mazmunini jamiyatning tarkibiy tuzilishi, xususan, undagi mulkiy munosabatlar, mehnat taqsimoti, axolining yoshi, kishilarning extiyoj va manfaatlari belgilaydi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosini xilma xil shakllardagi mulklar tashkil etayotgan bir paytda uni rivojlantirishning manaviy-axloqiy negizlarini:

- umuminsoniy qadriyatlar;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustaxkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik tashkil etadi.

Shubhasiz, ana shu negizlar asosida O‘zbekiston xalqlarining yangicha mazmundagi ma’naviy-axloqiy dunyosi shakllanadi va qaror topadi. Bu esa, o‘z navbatida, xalqimiz axloqining negizini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatda mutloq va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy xodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan kasb axloqida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimoti paydo bo‘lishi mexnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhlarining kasb-xunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu esa har bir kishining qilayotran mehnat turiga, mehnatni tashkil etish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagi harakatlar va ruxiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan takrorlanmas, o‘ziga xos ko‘nikmalarni vujudga keltiradi. Okibatda bu ko‘nikmalar xar bir kasbda ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo‘lmagan ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa subyektiv tuyg‘ularni, axloqiy fikrlarini ularni bartaraf etishga jalb etadilar. Shu tariqa, kasb munosabatlardagi xilma xil xolatlar orasidan ixtisosning nisbatan mustaqilligini, xususiyatlarni ifodalovchi eng tipik holatlar ajralib chikdi. Ular, o‘z navbatida, mehnat jarayonida ishtirok etayotganlarning o‘ziga xos xatti xarakati, xulq-atvor normalarini keltirib chiqaradiki, oqibatda kasb munosabatlar sifat jihatdan barqarorlikka erishishi bilanoq, xar bir mexnat turining tabiatiga muvofiq keluvchi axloqiy dasturlarning yuzaga kelishiga, ya’ni kasb axloqining paydo bulishiga olib keladi. Yillar o‘tishi bilan ishlab chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mexnat taqsimoti yanada chuqurlashdi. Bu jarayonlarning uzluksiz davom etishi esa, o‘z navbatida, xar bir muayyan ijtimoiy funksiyani

bajaradigan yangidan-yangi faoliyat soxalari paydo bulishiga sabab buldi. Ularning soxiblari esa shunga ko‘ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar[5]. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy koidalar va xulq atvor normalarida o‘z aksini topdi . Shunday qilib, kasb axloqining paydo bo‘lishi uzluksiz mexnat taqsimotining mahsuli, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Jamiyatning har bir kasb-hunarga, ihtisosga beradigan axloqiy baxosi omil bilan birinchidan, mazkur kasb-hunar vakillarining jamiyat rivojlanishi uchun obyektiv ravishda nimalar berishi bilan; ikkinchidan, jamiyatning ma’naviy ta’sir ko‘rsatish ma’nosida ularga subyektiv ravishda nimalar berishi bilan belgilanadi. Ana shu axloqiy baho omillariga ko‘ra, kasb axloqini har bir kasb hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin: o‘qituvchining ixtisosiga qarab - pedagog axloqi; tibbiyot ixtisosiga qarab - shifokor axloqi; xuqukni muhofaza qilish ixtisosiga qarab - yurist axloqi; qurolli kuchlar ixtisosligiga qarab - xarbiylik va ofitserlik etikasi va h.k. Kasb axloqi umumiy axloqning nisbatan mustaqil qismidir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- qadriyatlar olamida jamiyat tomonidan yaratilayotgan kadriyatlar tizimining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi ko‘rsatkich ekanligi;
- jamiyat manfaati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda muayyan ijtimoiy qatlamlarning ehtiyojlarini qondiruvchi muayyan ozuqa ekanligi;
- o‘ta xavfli va qiyin , ziddiyatli sharoitlarda axloqiy tanlovni amalga oshirish vositasi ekanligi;
- davlat-ma’muriy idoralarining, jamoat tashkilotlarining aholining turli katlamlari o‘rtasida kundalik turmush munosabatlarini tartibga solib turuvchi omillaridan biri ekanligi va x,.k.

Shunga ko‘ra, kasb axloqi, jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalarni kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq kiluvchi aniq kasb, burch, sha’n, or-nomus, qadr-kimmat, kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishi.

Kasb ahloqi masalasi bundan ming yillar oldin xam mavjud bo‘lgan. Bunga biz qadimgi xind eposi bo‘lmish "Ramayana" dan shu masalaga oid vaziyatni misol qilishimiz mumkin. Bexush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shoxining xos tabibi oldida ikki yo‘l bor edi: biri - saltanat dushmanini tabib yordamiga muxtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo‘l davolashdan bosh tortish bilan uni o‘limga maxkum etish va saltanat dushmanidan o‘ch olish. Tabib uzoq mulohazadan so‘ng, tabiblik odobi qoidalariga bo‘ysunishni, Lakshmanni davolashni afzal ko‘radi.

Zero, kasb axloqi qonun-qoidalari, talabalariga ko‘ra bemor to‘shagi ustidagi tabib uchun do‘st yoki dushman degan tushunchalar o‘z ma’nosini yo‘qotadi uning qoshida faqat tibbiy yordamga muxtoj, zaif inson yotadi. Davolanib xayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tanazzuliga yo‘l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma’naviy jasoratiga, xalolligiga, kasb burchiga sodiqligiga xayrat bilan tasannolar o‘qiydi. Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, kasb axloqi har davrda birdek muxim ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.
2. N.Z. Muhammadiyev Ichki ishlar xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. -T., O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998 yil.
3. A.Temur. Temur tuzuklari. – T.: O‘zbekiston, 2019.
4. Muhammadjonova L.A. «Davlat xizmatchisi etikasi va imiji». O‘quv qo‘llanma. “Universitet”, 2017.
5. Маликова Г.Р. Проблемы и пути повышения престижа и эффективности системы профессиональной государственной службы в Узбекистане – Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. 2018, №5. С. 55 https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-i-puti-povysheniya-prestizha-i-effektivnosti-sistemy-professionalnoy-gosudarstvennoy-sluzhby-v-uzbekistane/viewer.


## RECONSTRUCTING JADID HERITAGE: SHAPING NATIONAL VALUES IN NEW UZBEKISTAN IN THE AGE OF GLOBALIZATION


***Ren Ruyi,***

*Master’s student, Shanghai International Studies University*

*renruyizr@icloud.com*



**Abstract:** The Jadid movement, which emerged in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries, has had a profound impact on contemporary society. In New Uzbekistan, the legacy of the Jadid movement is highly valued. Since assuming office, President Shavkat Mirziyoyev has initiated a reinterpretation of this heritage to align it with New Uzbekistan’s efforts to shape national values in the age of globalization.

**Keywords:** Jadid Movement; New Uzbekistan; Historical Narratives; Globalization

**1. Introduction.** In the late 19th and early 20th centuries, Jadidists in Central Asia under Russian imperial rule launched a reformist educational movement. Through writing, teaching, and cultural work, the Jadids articulated their pedagogical ideas with the central aim of modernizing Muslim society. By promoting education, culture, and technological innovation, they sought to liberate society from conservative traditions and adapt to the tides of modernity. This movement played a pivotal role in regional development and acted as a catalyst for numerous significant changes, the impact of which is still felt today.

In present-day Uzbekistan, the legacy of the Jadid movement has gained renewed attention. In the globalized era, local cultural values face increasing external challenges. Thus, forming a culturally distinct national value system—rooted in historical legacies while open to global interaction—has become crucial to constructing national identity and fostering collective belonging.

This article examines how New Uzbekistan engages in the reinterpretation of Jadid heritage to articulate and shape its national values in the context of globalization.

Previous scholarship on the Jadid movement has largely focused on tracing its historical origins, intellectual underpinnings, and sociopolitical impact in 20th-century Central Asia.

Some scholars have examined the movement's broader significance and its influence on Uzbekistan's contemporary national identity discourse. Others have explored how the state memorializes the Jadids through publications and press [1]. This study takes a different approach by investigating the Jadid legacy through the lens of historical narrative and state identity construction, analyzing its functional role in shaping national values in New Uzbekistan.

**2. Reconstructing Jadid Heritage in New Uzbekistan: Official Narratives and Historical Writing.** From the temporal standpoint of New Uzbekistan, the official representation of the Jadid movement can be traced through four key phases, each reflecting ideological shifts and changing state agendas.

(1) During the Tsarist period, the authorities' repressive stance failed to halt the emergence of national liberation movements in Central Asia. The Jadid movement, which aimed to cultivate an educated intelligentsia, conflicted with the Russian Empire's civilizational and political vision for the region. Thus, the imperial state's attitude toward the movement was initially cautious. As the

Jadids gained influence, the Tsarist authorities recognized their reformist potential but simultaneously deemed them a threat [2].

(2) In the Soviet period, Jadidism was framed as a "bourgeois liberal movement" and ideologically dismissed. Although the Jadids left a significant mark on Central Asian cultural awakening, they were marginalized in Soviet historiography and many perished during Stalin’s Great Purge [3].

(3) Following independence in 1991, Uzbekistan revisited the legacy of the Jadid movement. The state lifted historical stigmas and restored the memory of Jadid figures. Historians, literary critics, linguists, philosophers, legal scholars, and educators began exploring the scientific and literary contributions of the Jadids. More than 20 Jadid intellectuals' works were incorporated into textbooks and educational materials [4].

(4) Under President Shavkat Mirziyoyev’s leadership, Uzbekistan has redefined the Jadid movement as a heroic force in national awakening. Museums and monuments play a central role in shaping collective memory. On December 11–12, 2023, Tashkent hosted an international conference titled "Jadids: Ideas of National Identity, Independence and Statehood," aimed at multidimensional research of the movement. On January 18, 2024, the Uzbekistan State Art Museum opened an exhibition titled "Tunnel of Memory," dedicated to the Jadid movement’s role in shaping national identity and independence [5].

The heads of the Art Museum, the Institute of History of the Academy of Sciences, and the Public Foundation for Media Development all emphasized the exhibition's historical and scholarly importance [6]. On May 30, 2024, a presidential decree ordered the establishment of a National Museum of Ancient Heritage, aiming to collect, preserve, and promote historical materials related to the Jadids. The museum will engage youth with this heritage to cultivate national pride and awareness [7]. On July 18, 2024, the Art and Culture Development Foundation of Uzbekistan launched the exhibition "Jadids. Letters to Turkestan," further highlighting public interest in this legacy. At the opening, Odil Abdurakhmanov, Head of the Presidential Administration’s Department of Social Development, praised the Jadids’ heroic contributions to national freedom and enlightenment [8].

Between late 2023 and mid-2024, Uzbekistan has repeatedly emphasized the Jadid legacy through conferences, exhibitions, and monuments—reflecting the state’s ideological investment in the values of national freedom and intellectual awakening that the Jadids represent.

On the international level, Uzbekistan uses symbolic sites to reinforce the memory of the Jadids. For instance, foreign dignitaries visiting the country are often brought to New Uzbekistan Park and the Independence Monument. The monument features portraits of great scholars, warriors, and Jadid figures [9]. Leaders from Azerbaijan, Kyrgyzstan, Mongolia, Belarus, and the UN Secretary-General have visited and paid tribute at the site [10].

These memoryscapes project Uzbekistan's cultural values both domestically and internationally, allowing them to interact with global narratives and secure a visible place in the global cultural landscape.

**3. Conclusion.** In conclusion, this article argues that Jadid intellectual thought constitutes a foundational element of New Uzbekistan's national value system in the global era. The historiography of the Jadid movement has evolved from caution and suppression under the Russian Empire, to vilification during the Soviet period, to rehabilitation and celebration in the post-independence era. Today, the state frames the Jadids as national heroes linked to independence, enlightenment, and cultural identity.

Through museums, conferences, and exhibitions, Uzbekistan rewrites Jadid history and ideology, while monuments serve to communicate this legacy internationally. In the age of globalization, the Jadid heritage provides New Uzbekistan with a powerful resource for asserting its national identity and promoting its cultural values to the world.

## REFERENCES:

1. "Jadidchilik milliy harakatining yangi o'zbekistonni barpo etishdagi o'rni va roli". Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich J.: Central Asian Journal of Education and Innovation, vol. 3, no. 10, 2024, pp. 33-36.

2. "Ferghana Valley-The Heart of Central Asia". Frederick.S.Starr M: New York: M.E.Sharpe Perss, 2011, p. 86.

3. "A Study on the Jadid Educational Reform Movement in Central Asia during the Russian Imperial Period". Xue, G. (Master's thesis): Northwest Normal University, 2022.

5. "Джадиды". Университет общественной безопасности республики узбекистан. http://mgjxu.uz/ru/menu/dzhadidys.

6. "Tunnel of Memory" is another way to study Jadidism. https://uza.uz/en/posts/tunnel-of-memory-is-another-way-to-study-jadidism_557631.

7. The memory of those who dedicated themselves to their homeland, enlightenment, and humanism will always live, https://uza.uz/en/posts/the-

memory-of-those-who-dedicated-themselves-to-their-homeland-enlightenment-and-humanism-will-always-live_604149.

8. "Jadids. Letters to Turkestan" Exhibition. https://uza.uz/en/posts/jadids-letters-to-turkestan-exhibition_617919.

9. The President of the Republic of Azerbaijan laid flowers at the Independence Monument. https://uza.uz/en/posts/the-president-of-the-republic-of-azerbaijan-laid-flowers-at-the-independence-monument_627816.

10. UN Secretary-General lays flowers at the Independence Monument. https://uza.uz/en/posts/un-secretary-general-lays-flowers-at-the-independence-monument_612135.

## IJTIMOIY SHERIKLIKNING TA'LIM VA MADANIY SOHADA NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

***Axmadalieva Sevinchbonu Rustamjon qizi,***
*O'zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti,*
*sarahuzbek97.co@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ijtimoiy sheriklik – bu jamiyatdagi turli subyektlar, jumladan, davlat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning dinamik mexanizmidir. Ta'lim va madaniyat sohalarida u siyosat ishlab chiquvchilar, o'qituvchilar, madaniy muassasalar va jamoalarning umumiy maqsadlarini muvofiqlashtirishda strategik vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada ijtimoiy sheriklik tushunchasi asoslab beriladi va u ta'lim hamda madaniyat kontekstida qanday shakllarda namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Tadqiqot institutlararo hamkorlik, davlat-xususiy sherikliklar, xalqaro hamkorlik va jamoatchilik ishtiroki kabi shakllarni qamrab oladi. Maqolada misollar va amaliyotlar orqali ijtimoiy sheriklikning ta'lim va madaniyatda imkoniyatlarni kengaytirish, yangiliklar kiritish va inklyuzivlikni ta'minlashdagi o'rni yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy sheriklik, ta'lim, madaniyat, davlat-xususiy sheriklik, jamoatchilik ishtiroki, madaniy siyosat, institutlararo hamkorlik, ta'lim islohoti.

Zamonaviy jamiyatda murakkablashib borayotgan ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun o'zaro hamkorlik va umumiy mas'uliyat zarurati ortib bormoqda. Ijtimoiy sheriklik - bu davlat idoralari, xususiy tashkilotlar, nodavlat tuzilmalar va jamoalar o'rtasida tashkil etilgan hamkorlik shaklidir. Ayniqsa, ta'lim va madaniyat kabi ijtimoiy taraqqiyot va milliy o'zlikni shakllantirishda muhim bo'lgan sohalarda bunday sherikliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola ijtimoiy sheriklikning ta'lim va madaniyatda qanday shakllarda

namoyon bo’lishini o’rganadi. Shuningdek, ushbu sherikliklar qanday institutlar orqali amalga oshirilishi va qanday natijalarga olib kelishini aniqlash maqsad qilingan.

Ijtimoiy sheriklik turli manfaatdor tomonlar oʻrtasidagi hamkorlik tizimi sifatida ta’riflanadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ijtimoiy sheriklikni “davlat, ish beruvchilar va xodimlar oʻrtasida muhim ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni muhokama qilish va ularning yechimlarini kelishilgan holda amalga oshirish mexanizmi” deya ta’riflaydi (XMT, 2013).

Ta’lim va madaniyat sohalarida bu tushuncha keng qamrovli bo’lib, unda maktablar, oliy ta’lim muassasalari, madaniyat markazlari, NNTlar va xalqaro tashkilotlar ham faol ishtirok etadi. Bu konsepsiya koʻp tomonlama (plyuralistik) nazariyaga asoslangan boʻlib, unda jamiyatda turli manfaat guruhlarining mavjudligi e’tirof etiladi va ularning manfaatlari ijtimoiy dialog orqali uygʻunlashtiriladi. Korporativ model esa ushbu guruhlar va davlat o’rtasidagi rasmiy hamkorlik shakllarini yaratishga urg’u beradi.

Ta’lim sohasida eng koʻp uchraydigan ijtimoiy sheriklik shakllaridan biri bu davlat-xususiy sheriklik shaklidir. Ushbu model orqali davlat va xususiy sektor oʻrtasida quyidagi yoʻnalishlarda hamkorlik amalga oshiriladi:

-Maktab infratuzilmasini moliyalashtirish va barpo etish;

-Universitetlar bilan qo’shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish;

-Kasbiy ta’lim dasturlarini kompaniyalar bilan hamkorlikda amalga oshirish.

Bunday hamkorliklar ta’lim tizimida samaradorlik, innovatsiya va imkoniyatlarning kengayishiga xizmat qiladi. Jumladan, oliy ta’lim muassasalari sanoat tarmoqlari bilan hamkorlik qilib, mehnat bozorining ehtiyojlariga mos o’quv dasturlarini yaratadi. Stajirovkalar, ilmiy tadqiqotlar va texnologik loyihalarda hamkorlik qilish orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligi ortadi.
Xususan, qishloq hududlarida jamoatchilikning maktablar boshqaruvida ishtirok etishi ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o’ynaydi. NNTlar va ota-onalar jamiyatining faol ishtiroki orqali ta’lim mazmunining madaniy mosligi va demokratik boshqaruv kuchayadi. Muzeylar, teatrlar va kutubxonalar koʻpincha davlat, xususiy fondlar yoki xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu hamkorliklar orqali madaniy loyihalar moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlanadi va madaniy meros saqlanib qoladi.

YUNESKO yoki Yevropa Ittifoqining “Creative Europe” dasturi kabi loyihalar turli mamlakatlar oʻrtasida madaniy almashinuvni kuchaytiradi. Ushbu

sherikliklarda davlatlar, fuqarolik jamiyati, ijodkorlar va mahallalar ishtirok etadi.

Kompaniyalar va xayriya tashkilotlari madaniy tadbirlarga homiylik qilish yoki grantlar ajratish orqali muhim rol o'ynaydi. Bu orqali madaniyatga yangi texnologiyalar va innovatsiyalar kirib keladi. Xususan, O'zbekiston hukumati tomonidan tashkil etilgan "Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi" davlat, xususiy sektor va xalqaro mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik maydoniga aylangan. Muzeylarni modernizatsiya qilish va san'at sohasida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ushbu sheriklikning natijasi hisoblanadi. Xalqaro maydonga nazar tashlaydigan bo'lsak, Finlandiyada ta'lim tizimi maktablar, texnologik kompaniyalar, universitetlar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi kuchli hamkorlik asosida faoliyat yuritadi. Bu tizim o'zining moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi bilan dunyoda tan olingan.

Ijtimoiy sheriklikning faoliyat jarayonida bir qator o'ziga xos afzalliklari mavjuddir, xususan, resurslarni safarbar qilish orqali davlat budjeti yuki kamayadi, ko'p tomonlama yondashuv esa turli nuqtai nazarlar va qarorlar sifatini oshiradi. Innovatsiyalar orqali yangicha yondashuvlar paydo bo'ladi hamda jamoatchilikning faol ishtiroki oshadi. Shu bilan birga, yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan bir qator muammolar ham mavjud, ya'ni sheriklar o'rtasidagi kuch muvozanati ba'zan adolatsiz bo'lishi mumkin. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi ba'zi hollarda sheriklikni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Turli tomonlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyati esa hamkorlikni qiyinlashtirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy sheriklik ta'lim va madaniyat sohalarida ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik jamiyatning umumiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Ijtimoiy sheriklikning samarali shakllari orqali ijtimoiy tenglik, inklyuzivlik va madaniy xilma-xillikni kuchaytirish mumkin. Shuningdek, bu sherikliklar davlatning jamiyat oldida mas'uliyatini oshiradi va hamkorlik asosida ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati turli tomonlarning manfaatlarini muvozanatlashda va qarorlar qabul qilishda ularning o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslanishiga bog'liqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT). (2013). Ijtimoiy muloqotni ilgari surish. Jeneva.

2. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). (2015). Ta’lim siyosati istiqbollari 2015: Islohotlarni amalga oshirish. -Parij: OECD Nashriyoti.
3. Hargreaves, A. va Fullan, M. (2012). Kasbiy kapital: Har bir maktabda o‘qituvchilikni o‘zgartirish. Teachers College Press.
4. YUNESKO, (2022). Madaniyat: Barqaror rivojlanishning harakatlantiruvchisi va yordamchisi.
5. Yevropa Komissiyasi. (2020). Ijodiy Yevropa dasturi qo‘llanmasi 2021–2027.
6. Rizvi, F. va Lingard, B. (2010). Ta’lim siyosatining globallashuvi. Routledge.

## ABDUG‘ANI ABDUVALIYEVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

***Aliyeva Guljahon Abdullajon qizi***
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

**Anotatsiya:** O‘zbek adabiyotida obraz yaratish mahorati milliy adabiyotimizning eng muhim va o’ziga xos jihatlaridan biridir. Obraz – adabiy asarning yuragi, uning muvaffaqiyati ko‘p hollarda muallifning obrazlarni qanchalik muvaffaqiyatli yaratganinga bog‘liq. Ushbu maqolada Abdug‘ani Abduvaliyevning “Qarsaklar davom etadi” asaridagi obraz yaratish mahorati haqida so‘z boradi. Asar markazida san’at institutini tamomlagan Qodirjonning teatr muhitida o‘z o‘rnini topish jarayoni tasvirlanadi. Realistik uslub, psixologik chuqurlik, ramziy tuzilish va ijtimoiy tanqidiy yondashuv asarni o‘zbek adabiyotidagi muhim yutuq sifatida ko‘rsatadi. “Qarsaklar” ramzi orqali muallif jamiyatdagi soxta qadriyatlar va haqiqiy intilishlar o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.
**Kalit so‘zlar**: Abdug‘ani Abduvaliyev, “Qarsaklar davom etadi”, Qodirjon, o‘zbek adabiyoti, mustaqillik davri, ijtimoiy tanqid, psixologik realizm, ramziy tasvir, adolatsizlik, san’at muhiti.

“Qarsaklar davom etadi” asari o‘zbek jamiyatidagi ijtimoiy o‘zgarishlar, insonning o‘z o‘rnini topishga intilishi va ma’naviy qadriyatlarning sinovdan o‘tishi kabi mavzularni o‘rganadi. Asar syujeti Qodirjon ismli yosh ijodkorning san’at institutini tamomlab, teatrda faoliyat boshlashi va o‘z iqtidori bilan ko‘zga tashlanishi atrofida rivojlanadi. Asar bilan tanishar ekanmiz yuzimizda kulgu paydo bo’lsada, bu kulgu ortidagi haqiqatlar bizni yanada chuqurroq o‘ylashga undaydi. Biroq, Mansur ismli qahramonning hasad va g‘arazli niyatlari tufayli Qodirjon bir qator falokatlarga duch keladi. Bu ziddiyat orqali muallif jamiyatdagi raqobat, adolatsizlik va axloqiy tanazzul muammolarini ochib

beradi.Asardagi “qarsaklar” ramzi ikkiyoqlilik sifatida talqin qilinadi: bir tomondan, u insonning harakatlari va jamiyatning o‘zgarishlarga intilishini ifodalasa, boshqa tomondan, soxta e’tirof va yuzaki muvaffaqiyatlarni ramziy tarzda fosh qiladi. Bu ramz asarni postmodernistik adabiyotning ijtimoiy tanqidiy yo‘nalishiga yaqinlashtiradi.

“Badiiy obraz” adabiyotshunoslikda keng qo‘llanadigan terminlardan biridir. “Badiiy” arabcha so‘z bo‘lsa, “obraz” slavyan tillariga xos so‘zdir. Maks Fasmerning “Rus tilining etimologik lug‘ati”da “obraz” “rzit” so‘zidan yasalgani qayd qilinsa, Vladimir Dalning “Rus tilining izohli lug‘ati”da “obraz” “razit” so‘zidan hosil bo‘lgani ta’kidlanadi. “Rzit”, “obrezat” so‘zlari “kesmoq, qirqmoq, yo‘nmoq, chizmoq” ma’nosini bildirsa, “razit”, “obrazit” so‘zlari “paydo qilmoq, biror narsaning shaklini yaratmoq” ma’nosini anglatadi. Bundan “obraz” so‘zi asosida “razit”, “obrazit” fe’li turishi ayonlashadi. “Obraz” atamasi, keng ma’noda qo‘llanganda, obraz tushunchasi doirasiga inson tasviridan tashqari, peyzaj, detallar, buyumlar, predmetlar, jismlar, hayvonot dunyosi, asar tilidagi tasvir vositalari va hokazolar kiritiladi. “Obraz” atamasi, tor ma’noda qo‘llanganda esa faqat inson hayotining badiiy manzaralari nazarda tutiladi.

Abduvali Abdug’aniyevning ,,Qarsaklar davom etadi” asaridagi Qodirjon obrazi iqtidorli, mehnatkash qahramon sifatida tasvirlanadi. Uning professionalligi, ma’naviy pokligi va ijtimoiy zaifligi orqali muallif jamiyatdagi adolatsizlik, hasad va raqobatning nosog‘lom shakllarini tanqid qiladi. Qodirjonning psixologik chuqurligi va ramziy ma’nosi asarni o‘zbek adabiyotidagi psixologik realizm va ijtimoiy tanqid yo‘nalishlariga yaqinlashtiradi. Qodirjonning san’atga sadoqati, halolligi va ma’naviy pokligi o‘zbek milliy ruhiyatining muhim qadriyatlarini aks ettiradi ammo jamiyatdagi g‘arazli munosabatlar va raqobat oldida jim turmasligi ham qahramon xarakterini yanada aniqroq ochib beradi. Uning obrazi orqali muallif milliy o‘zlikni saqlash va zamonaviy muamm halolligi, san’atga sadoqati va mehnatkashligi uni ijobiy qahramon sifatida ko‘rsatadi. Qodirjonning sinovlari mustaqillik davri yoshlarining orzu-intilishlari va ijtimoiy to‘siqlar oldidagi kurashini aks ettiradi. Bu obraz orqali muallif san’at muhitidagi ijobiy o‘zgarishlar va ijtimoiy adolatsizlik o‘rtasidagi ziddiyatni muhokama qiladi.

Asardagi yana bir obraz Mansur esa Qodirjonning raqibi sifatida tasvirlanadi va uning g‘arazli harakatlari asarning dramatik ziddiyatini tashkil qiladi. Mansur obrazi orqali muallif jamiyatdagi hasad, raqobatning nosog‘lom shakllari va axloqiy tanazzulni tanqid qiladi. Mansur Qodirjonning

muvaffaqiyatini ko‘ra olmaydi va o‘zining pastkashligi tufayli g‘arazli harakatlarga yo‘l qo‘yadi. Uning xatti-harakatlarida nosog‘lom raqobatning ta’siri seziladi. Mansur soxta muvaffaqiyatlar va yuzaki qadriyatlarning ramzi sifatida talqin qilinadi, bu esa “qarsaklar” ramzi bilan uzviy bog‘liq. Mansurning Qodirjonning hayotiga salbiy ta’siri jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni fosh qiladi. Uning obrazi o‘zbek adabiyotidagi salbiy qahramonlar an’anasini davom ettiradi. Dramatik ziddiyat va falokatlar Mansurning g‘arazli niyatlari oqibatida Qodirjonning boshiga tushgan falokat asarning dramatik cho‘qqisini tashkil qiladi. Bu falokat nafaqat Qodirjonning shaxsiy fojiasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik va axloqiy muammolarni aks ettiradi. Qodirjonning sinovlari “qarsaklar” ramzi bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatdagi soxta e’tiroflar va haqiqiy qadriyatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvni ifodalaydi. Bu ziddiyatlar asarni psixologik realizm va ijtimoiy tanqid yo‘nalishiga yaqinlashtiradi, shu bilan birga uning ramziy tuzilishini mustahkamlaydi.

Badiiy-estetik xususiyatlar muallifning uslubi o‘zbek adabiyotidagi realistik an’analarni davom ettirgan holda, zamonaviy adabiyotning psixologik va ramziy elementlarini o‘zida mujassam etadi. Asarning badiiy xususiyatlari quyidagicha umumlashtiriladi: Teatr muhiti, qahramonlarning kundalik hayoti va ijtimoiy munosabatlari sinchkovlik bilan tasvirlanadi. Muallif asar orqali insonning muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik o‘rtasidagi ziddiyatini talqin qiladi. Muallifning tili sodda, lekin ta’sirchan bo‘lib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, maqol va hikmatlardan foydalanish asarga milliy kolorit bag‘ishlaydi. Asardagi “Dushman orttirma, dushmaning pashsha bol‘sa bir kun chaqadi”, “Qizim yeb qirga ketar, o‘g‘lim yeb ovga”, “Har bir inson – bir drama” kabi jumlalar fikrimiz dalilidir. Abduvaliyevning asarlarida ijtimoiy tanqid va hajviy elementlar o‘zbek jamiyatidagi muammolarni ochib berishda muhim vosita sifatida ishlatiladi.[1] Bu xususiyat “Qarsaklar davom etadi” asarida ham yaqqol namoyon bo‘lib, Mansur obrazi orqali soxta qadriyatlar va ijtimoiy adolatsizlik fosh qilinadi. Adabiy ahamiyat nuqtai nazaridan, asar mustaqillik davri o‘zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy muammolarini hujjatlashtiradi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlab o’tamizki, Abdug‘ani Abduvaliyevning “Qarsaklar davom etadi” asari orqali o‘zbek jamiyatining mustaqillik davridagi ijtimoiy, ma’naviy va psixologik muammolarini chuqur tahlil qiladi. Qodirjonning iqtidorli, mard- jasur, salohiyatli qahramon sifatidagi o‘rni va Mansurning hasad va g‘araz ramzi sifatidagi roli asarning dramatik ziddiyatini tashkil qiladi. “Qarsaklar davom etadi” o‘quvchilarni hayotning ma’nosi,

ijtimoiy adolat va insonning o‘z o‘rnini topish jarayoni haqida chuqur o‘ylashga undab, o‘zbek nasrining durdonalaridan biri sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Bahriddinova, M.F. (2022). Abdug‘ani Abduvaliyev hajviy hikoyalarining o‘ziga xosligi. Science and Innovation International Scientific Journal, 2, 7–10.
2. ‘‘Qarsaklar davom etadi’’ Abduvaliyev, A. -T.: Yosh gvardiya nashriyoti, 1988.
3. ‘‘Adabiyot nazariyasi’’ A.Ulug’ov. -T.: G’afur G’ulom. 2017.
4. ‘‘Psixologik realizm va ramziy tasvir o‘zbek adabiyotidagi zamonaviy nasrda’’ Sh.Yo‘ldoshev. -T.: 2018.


# O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARINI TADQIQ ETILISHI


***Urazov Abrorbek Mamirjonovich***

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Siyosatshunoslik kadedrasi mustaqil izlanuvchisi*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari, ularning huquqiy maqomi, Konstitutsiyada belgilangan erkinlik va huquqlar bilan o‘zaro aloqasi, amaldagi qonunchilik bazasi va mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi.



**Kalit so‘zlar:** fuqarolik jamiyati, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari, Konstitutsiya, qonunchilik, erkinlik, jamoat birlashmalari.


**Kirish.** Fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning ajralmas elementi bo‘lib, fuqarolarning o‘z ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan mustaqil institutlar tizimini ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini belgilab bergan bo‘lib, keyingi yillarda mazkur institutlarning faoliyati kengayib bormoqda. Fuqarolik jamiyati umumiy konsepsiyasining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini o‘rganayotganda, Sharq mutafakkirlarining ushbu hodisaga oid qarashlarini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi, ular sharqona tushunishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan qiziqish uyg‘otadi.

Abu Nasr Forobiy fikricha, har bir inson tabiatan shundaydirki, yashash va muvaffaqiyatga erishish uchun u fuqarolik jamiyatida boshqa shaxslar bilan birlashish zarurligini his qiladi va jamiyatning paydo bo‘lishi negizida aynan shu ehtiyoj yotadi[1]. Forobiyning falsafiy-siyosiy qarashlari tizimida adolatli jamiyat qurish konsepsiyasi katta o‘rin egallagan bo‘lib, u arab va Yaqin Sharq mutafakkirlarining keyingi avlodlari asarlarida ham tadqiqot obyekti bo‘lgan. Forobiy fikricha, bunday jamiyatda uning a’zolarining tengligi va erkinligi hukmron bo‘lib, shaxsiy hokimiyat ag‘dariladi. Fuqarolar davlat rahbarini saylash orqali siyosiy faollikni namoyon etadilar, u ideal tarzda Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan holda adolat va tenglik tamoyillariga amal qilishi, fuqarolar manfaatlarini unutmasligi lozim, aks holda u davlat rahbari lavozimidan chetlatilishi kerak bo‘ladi[2].

Abu Rayhon Beruniyning fuqarolik jamiyatining shakllanishi va uning ideal davlati uchun shart-sharoitlari haqidagi fikrlari yaqqol ahamiyat va qimmatlidir. Beruniy jamiyatning vujudga kelishining sabablarini kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ular o‘rtasida aloqalar o‘rnatilishi, birgalikda yashashga bo‘lgan tabiiy intilishlari, deb ta’kidlagan. Adolatli jamiyat qurishning zaruriy sharti, uning fikricha, axloqiy qadriyatlarga tayanishdir[3].

Shu bilan birga, bunday holatda ijtimoiy totuvlik muhitini shakllantirishga muhim o‘rin berilishi kerak. Xullas, Beruniy hukmdorning asosiy vazifasi sifatida aholining yuqori va quyi qatlamlari vakillari o‘rtasida adolat o‘rnatish, kuchlilar bilan kuchsizlar o‘rtasida tenglikni ta’minlashni alohida ko‘rsatdi. Beruniy bu vazifani amalga oshirishda ideal ijtimoiy tuzilishning asosiy shartlaridan birini ko‘rdi[4].

Yana bir nufuzli Sharq mutafakkiri – Abu Ali ibn Sinoning fikricha, ijtimoiy munosabatlar kishilar o‘rtasidagi mavjud tafovut va tengsizliklar natijasidir. Jumladan, olim “odamlar o‘rtasidagi mulkiy tengsizlik, burchlar, shaxsiy tafovutlar inson ijtimoiy faoliyatining asosiy sabablari hisoblanadi” degan fikrni beradi[5]. Ideal davlat qurish masalalariga keladigan bo‘lsak, Ibn Sino ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishni adolatli jamiyat shakllanishining asosiy kafolati deb biladi, uning yuksalishi jamiyatning har tomonlama farovonligi va barqarorligini ta’minlaydi[6]. Ibn Sino fikricha, jamiyat farovonligi davlatda tenglik o‘rnatilishi, adolatli hokimiyatning mavjudligi, har bir shaxsning ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirishi bilan ham bog‘liqdir.

Temur tuzuklarida serqirra va teran qarashlari bayon etilgan Sharq Sohibqironning buyuk davlat arbobi Amir Temur uchun fuqarolik huquqining

asosiy instituti mulk huquqidir. Muvaffaqiyatli boshqaruv tamoyillaridan biri va natijada xalq farovonligining sharti sifatida Amir Temur hukmdorning adolatga rahbarligi va yordamini ko‘rgan. Demak, uning fikricha: “Podshohning hamma narsada adolatga rioya qilishi muqarrar: u buzilmas va fazilatli vazirni saylashi kerak, chunki adolatli vazir zolim hukmdor tomonidan sodir etilgan adolatsizliklarni tuzatishga qodir bo‘ladi; lekin agar vazir zolimning o‘zi bo‘lsa, hokimiyat binosi sekinlik bilan qulab tushmaydi” [7].

Sohibqiron fikricha, davlat boshqaruvining ijtimoiy tuzilma tayanadigan yana bir muhim qoidasi qonun ustuvorligidir. “To‘g‘ri tartib va qonunlarga rioya qilish, – deb yozadi Amir Temur, – mening taqdirim, baxtimning poydevori va tayanchi bo‘lib xizmat qildi”. Amir Temur, eng avvalo, asosiy qonun-qoidalarga diniy tariqatlar hamda ular asosida o‘zi ishlab chiqqan qonun-qoidalar va qonun-qoidalarga ishora qildi. Shu munosabat bilan ulug‘ bobomiz: “Tajriba shuni ko‘rsatdiki, din va qonunlarga asoslanmagan davlat o‘z mavqei va kuchini uzoq vaqt saqlab qololmaydi”, deb ta’kidlagan. Qonun ustuvorligi, huquq va jamoat tartibini o‘rnatish haqidagi ta’limot Yaqin va O‘rta Sharqning mashhur faylasufi Jaloliddin Davoniy asarlarida davom ettirildi. Eron mutafakkirining fikricha, “qonunsiz jamiyatda tartib o‘rnatish mumkin emas”.

Alisher Navoiy o‘z adabiy asarlarida ham qonun ustuvorligiga, qonunga itoatkor fuqarolarga katta e’tibor beradi. Uning fikricha, “adolat va qonuniylik millat va davlat farovonligining asosidir”. Navoiy oliyjanob hukmdor shaxsi va ideali haqida atroflicha fikr yuritish jarayonida o‘ziga xos insonparvarlik nazariyasini shakllantiradi. U bir tomondan hukmdor va bog‘bon, ikkinchi tomondan davlat va bog‘ o‘rtasidagi qiyosiy parallellik katta qiziqish uyg‘otadi. Navoiy ta’biri bilan aytganda, bog‘bon aqlli, mehnatsevar bo‘lsa, bog‘i gullab-yashnaydi. Hukmdorning misolida ham shunday: u aqlli, ma’rifatli, adolatli, o‘z xalqiga g‘amxo‘rlik va mehr-muhabbatli bo‘lsa, mamlakat ham to‘g‘ri, obod bo‘ladi. Umuman, Navoiy adolat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik, qahramonlik kabi insoniy fazilatlarni adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omillari deb biladi.

Shunday qilib, o‘rta asr Sharqi olimlari, mutafakkirlari va davlat arboblari “fuqarolik jamiyati” tushunchasini alohida kategoriya sifatida ajratib ko‘rsatmaydilar. Biroq ularning qarashlarini tahlil qilish jamiyatni ijtimoiy faollik namoyon bo‘ladigan, qonun va qonun ustuvor bo‘lgan, xususiy mulk himoyalangan, adolat va odob-axloq tamoyillari ulug‘langan fuqarolik davlati deb tushunganligini aytishga imkon beradi. Ularning pozitsiyalarini ajratib

turadigan asosiy xususiyat - institutsional asos tushunchasi, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zaruriy shartlari va mavjudligi.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining umuman siyosiy va huquqiy ta’limotlarga, xususan, fuqarolik jamiyati konsepsiyasini shakllantirishga qo‘shgan hissasi beqiyos bo‘lib, jamiyatda axloqiy qadriyatlar va qonuniylikni qaror toptirishga ularning qarashlarining ta’siri beqiyosdir. hozirgi bosqichda seziladi. Chunonchi, O‘zbekistonda bu Amir Temurning “Kuch – adolatda” shioriga amal qilishda, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ma’naviyatni yuksaltirishning asosiy sharti sifatida e’tirof etishda o‘z ifodasini topmoqda. nafaqat siyosiy, balki o‘z xalqining farovonligi va farovonligi uchun ma’naviy mas’uliyatni va Sharq demokratiyasining boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini ham ta’kidlaydi.

Xulosa. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari konstitutsiyaviy va huquqiy jihatdan mustahkam asosga ega. Ammo ularning samaradorligini oshirish uchun huquqiy, ijtimoiy va institutsional islohotlar davom ettirilishi zarur. Fuqarolik jamiyati jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan muhim mexanizmdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari: O‘quv qo‘llanma / T. Do‘stjonov, M. Mirhamidov, S. Hasanov. – T.: Iqtisod – Moliya, 2006. – B. 12.

2. Falsafa: qomusiy lug‘at / Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov. –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. –B. 432.

3. Qirg‘izboyev M. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi: Siyos. fanl. dokt. … dis. avtoref. – T., 2007. – B. 18.

4. Falsafa: qomusiy lug‘at / Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004. – B. 52.

5. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari: O‘quv qo‘llanma / T. Do‘stjonov, M. Mirhamidov, S. Hasanov. – T.: Iqtisod – Moliya, 2006. – B. 13. (Per. avtora).

# TURKISTON MA'RIFATPARVARLARINING OILA HAQIDAGI QARASHLARI

***Jumanazarova Asal***
*O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola XIX asr ma'rifatparvar jadidlarining oila va oila vazifalari haqidagi qarashlarini yoritib beradi. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda vaziyat og'irlashadi. Bu holatda jadidlarimiz millat ravnaqi yo'lida harakatlanishadi. Millatni isloh qilish uchun birinchi qadamni oiladan boshlash kerakligini bilib, bor e'tiborligini oilaga qaratishadi. Jadidlarimiz o'z asarlarida oila, oilaning vazifasi, tarbiya turlari haqida yoritib berishadi. Bu bilan ota-onalarni farzand tarbiyasiga, uning ilm olishiga e'tiborli va mas'uliyatli bo'lishlarini targ'ib qilishadi. Abdulla Avloniy, Behbudiy, Abdurauf Fitrat oila va undagi axloq masalalari haqida alohida asarlar yozishadi, maqsad esa millatning ravnaq topishi bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** oila, ota-onalik mas'uliyati, millat, jadidlar, tarbiya, millat, axloq tarbiyasi, fikr tarbiyasi, jismoniy tarbiya, hadis, jamiyat.

Oila – bu insonni har tomonlama kamol toptiradigan jamiyatning muhim qismi. Oilaning qonuniyatlari necha asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib kelmoqda. Uning vazifasi faqatgina o'zidan nasl qoldirish bo'libgina qolmay, shaxsni ruhan, jismonan, ma'nan kamol toptirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Oila jamiyatning asosiy bog'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyiladi. Oila mavzusi necha asrlardan beri o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bu borada XIX asr Turkiston jadidlarining fikri ham oila mavzusini to'liq yoritib bergan.

Nega oila mavzusi hech zamonda o'z dolzarbligini yoqotmaydi? Chunki oila asoslarini to'g'ri barpo qilmay turib, jamiyat farovonligiga erishib bo'lmaydi. Jamiyat asosini oila, oila asosini esa yosh avlod tashkil qiladi. Mana shu o'sib kelayotgan yosh avlod kelajakdagi jamiyat taqdiriga, yurt farovonligiga ta'sir o'tkazadi. Bu borada jadidlarimizning ham fikr - qarashlari juda ahamiyatli.

A.Fitratning "Oila" asarida oilaviy hayotning dolzarb masalalari haqida bayon etilgan. Oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'gri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish mumkin emas. Bu g'oya mana shu fikrida ham o'z ifodasini topgan: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu

millat oilalalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham kuchli bo‘ladi”. Fitratning talqinida oila, uch muhim komponentdan iborat: er, xotin, farzandlar. Mana shu 3 komponentning har biri nozik, alohida jihatlarga ega. Farzand nafaqat, ota-ona hayotining davomi, balki millatning iqtidorini belgilaydigan zanjir halqasidir”[2].

Jadidlarimiz “otasi” deb atalmish Mahmudxo‘ja Behbudiyning oila haqida fikrlari ham juda e‘tiroflidir: “Oila isloh qilinmasa, millat isloh bo‘lmas”. Bundan tashqari Behbudiy oilada ayollarning o‘rniga alohida e‘tibor qaratganlar: “Taraqqiy etgan millatlarni onalar o‘qitar ekan, biz avvalo onalarimizni o‘qitib, ularga tilni o‘rgatmog‘imiz kerak. Chunki bizning ilmsiz va tilsizligimiz ular tufaylidir”[3]. Darhaqiqat, ayol millatni tarbiyalaydi. Rivoyatlarga ko‘ra, kunlarning birida bir kishi farzandiga ta‘lim berish maqsadida bir olim zotning huzuriga borgan ekan. “Mening ikki farzandim bor, biroq mablag‘im faqat bittasini o‘qitishga yetadi, o‘g‘limni o‘qitsammikin yo qizimni? deb so‘rabdi. Shunda olim zot “O‘g‘lingni o‘qitsang bir kishini o‘qitibsan, qizingni o‘qitsang millatga ta‘lim beribsan deya qiz farzandining ilm olishiga targ‘ib qilgan ekan”. Agar ayol ilmli bo‘lsa, o‘z aqlu farosati bilan oilasini gullatadi, farzandlarini go‘zal xulqda tarbiyalaydi. Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo (1802—1885)ning bu haqdagi quyidagi fikri juda o‘rinli bayon etilgan: ―Kimki ayol huquqini himoya qilsa, bola huquqini himoya qilgan bo‘ladi, boshqacharoq aytganda, u kelajakni himoya qilgan bo‘ladi [4]. Ayol ta‘limiga e‘tibor berish, uning huquqlarini himoya qilish va uni hurmat qilish undan tug‘iladigan farzandlar kelajak taqdiri uchun ham ahamiyatlidir. Chunki farzandni ona tarbiyalaydi, ilmli, farosatli, hurmatlangan ayoldan ziyrak va hur farzandlar tug‘ilajak.

Oilaning asosiy vazifalaridan biri bu uning tarbiyaviy vazifasidir. Ya‘ni ota-ona o‘z farzandlarini tarbiyalashi zarur. Tabiya bu hayotimizning asosi, kelajagimiz ravnaqini tashkil qiladi. Avloniyning ―Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot degan fikrlari ayni gapimiz dalilidir. Bolaga tarbiya berish orqali yo kelajak hayotimizni quramiz, yoki uni yomon tarbiya berish orqali vayron qilamiz. Jadidlarimizdan Abdurauf Fitrat ota-onaning vazifasi o‘z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligni uqtiradi. Bunda:

- jismoniy tarbiya – salomatlik;
- aqliy tarbiya – sog‘lom fikr;
- axloqiy tarbiya – go‘zal xulq ya‘ni axloqiy poklikka e‘tibor berish kerakligini ta‘kidlaydi. Jadidlarimiz millat ravnaqida asosiy omil - oila va

undagi tarbiya deb bilishgan. Shuning uchun ularning asarlarida tarbiya va uning klassifikatsiyasini uchratishimiz mumkin. Tarbiyaning bu uch turi haqida Abdulla Avloniyning fikrlari ham alohida e'tirofga loyiqdir. Jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida Avloniy shunday deydi: ―Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar[1].

Ota-onalar farzand tarbiyasida uning sihat-salomatligiga, sog'lom ovqatlanishiga, jismini pok tutishiga e'tibor berishlari va jism tarbiyasini berib borishlari kerak. Ota-ona farzandi kamolotida badan tarbiyasiga to'g'ri yondashuvi natijasida, kelajakda bu shaxs sog'lom rivojlanadi va ishlarida, ilmida halovat topadi. Xalqimizda "Sog' tanda sog'lom aql" degan fikr yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi. Avloniy fikr tarbiyasi haqida shunday deydilar: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi"[1]. Bu chorlov ota-onalarni va muallimlarni tarbiyada e'tiborli bo'lishlariga undaydi.

Tarbiyaning uchinchi turi axloq tarbiyasidir. Axloq tarbiyasi insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir[1]. Necha asrlardan beri mutaffakkirlarimiz o'z asarlarida komil inson tarbiyasi mavzusida axloqiy tarbiyaning dolzarbligini yoritib berishgan. Abu Nasr Farobiy bu haqida shunday deydi: "Axloqiy fazilatlar ilm orqali emas, balki odat orqali hosil bo'ladi. Demak ota-ona farzand tarbiyasida odatlantirish ya'ni intizom orqali yaxshi xulqlarga erishishi mumkin ekan.

Bola shakllanishida oilaning o'rni beqiyos. Oilaning asosini tashkil qiluvchi ota- ona farzand tarbiyasida mas'uliyatli bo'lishlari talab qilinadi. Tarbiyaning makoni va zamoni haqida Avloniy shunday deydilar: "Tarbiyani kimlar qilur? deganda, birinchi uy tarbiyasi, ikkinchi maktab tarbiyasidir. Uy tarbiyasi onaning vazifasidir, lekin qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, qo'li ishdan bo'shamaydigan onalarnimi? Ular o'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar!? Otasiga nima dersiz? To'ychi, bazmchi, ilm qadrini bilmaydigan, ilm uchun pulni ko'zi qiymaydigan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi tarbiya beruvchi deb" [1].

Oradan yillar o'tsa ham bu muammo o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Afsuski, bugungi kunda ham Avloniy tili bilan ta'riflangan oilalar yo'q emas. Farzandining kamolotini istagan har bir ota-ona eng avvalo o'z savodxonlik darajasini oshirishi, pedagogik bilimlarini mustahkamlashi zarur. Xalqimizdagi "Qush uyasida ko'rganini qiladi",- degan maqol bejiz emas.

Darhaqiqat, bolaga “Uni qil, buni qil!” desagu, lekin oʻzimiz buning aksini bajarsak, farzandlarimiz biz xohlagan ishni qilishmaydi. Farzandiga namuna boʻla olishi uchun oʻz xulqlari ustida ishlashlari zarur. Zero axloq doim birinchi oʻrindadir. Agar bir insonda bilim boʻlsa-yu, biroq odob-axloqi yomon boʻlsa, bu ilm unga faqat zarar keltiradi. Insondagi goʻzal xulq hamisha eʻtirof etilajak. Bu haqida Avloniy oʻz “Axloq” kitoblarida shunday hadis keltirganlar. Paygʻambar a.s. shunday deganlar: “Insonlarning karami dinidadir, muruvvati aqlindadir, hasabi esa axloqindadir”[1]. Insonning hasabi yaʻni mavqe-martabasi axloqiga qarab boʻlishi haqida aytganlar. Yana bir hadisda : “Orangizda kimning xulqi goʻzal boʻlsa, hasab (mavqe-martaba) jihatdan eng afzalingiz oʻshadir. Har bir binoning asosi boʻladi. Islomning asosi – goʻzal xulq”, - deya marhamat qilingan. Yaʻni insonning martabasi uning boyligiga, ish joyiga qarab baland boʻlmaydi, aksincha axloqiga qarab martabasi ziyoda boʻladi. Oilaning vazifasi oʻsib kelayotgan farzandlarini goʻzal xulqda tarbiyalab, jamiyatga yetuk shaxs sifatida qoʻshishdan iborat.

XIX asrning 2-yarmida Turkiston jadidlari millat ravnaqi yoʻlida harakatlana boshlashdi. Millatning ravnaq topishi esa bevosita oila va oiladagi tarbiyaga borib taqaladi. Avloniy, Behbudiy, Fitrat kabi jadidlarimiz oilada ota-onaning oʻrni, ota-onalik masʻuliyati haqida asarlar yozishdi. Mana shunday buyuk ma’rifatparlar jamiyatni, xalqni iqboli oilani isloh qilishda koʻrdi. Shunday ekan, oila muqaddas maskan. Oila qadri va mustahkamligini hozirgi trasformatsion jarayonlarda oʻzgarishlarga uchrashiga, jamiyatda bu ijtimoiy institutni oʻrnini kamayishiga yoʻl qoʻymasligimiz kerak. Yoshlar onggiga oila qadriyatlarini singdirish, ularni sogʻlom ma’naviy muhitda tarbiyalash bugungi jamiyatni har bir a’zosi burchi hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: Yoshlar matbuoti, 2024.- 112 bet.

2. B.S.Ahmadaliyev, Oʻ.NFarmonov. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. 247 bet.

3. F.Sulaymonqori qizi. Qizlar tarbiyasi. -T.: Sharq, 2021. –160 bet.

4. Ishanova M. Oila pedagogikasi – oʻquv qoʻllanma. -Andijon, 2019. – 151 bet.

# ABDULLA QODIRIYNING ASARLARI SOYASIDA YANGRAGAN JADID NIDOSI

***Muxtorjonova Durdona***
*O‘zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi obrazlar ortida yashiringan jadidlik ruhi va tarixiy ramzlarni tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Adibning badiiy mahorati orqali ifodalangan ayrim qahramonlar-aslida bir xalqning tanlovi, bir davrning fojeasi, bir kelajakning umidi sifatida talqin qilinadi. Asar voqealari zamirida milliy uyg‘onish va ozodlik istagining botiniy nidosi aks etgan. Qahramonlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar esa, aslida, mustaqillik va tobelik, ma’rifat va jaholat, jadidona tafakkur va mustamlakachilik o‘rtasidagi kurashni eslatadi. Maqola ana shu chuqur ramzlar, botiniy ma’nolar va Qodiriyning jadid sifatidagi qarashlarini yoritib, asarga yangicha nigoh bilan qarashga chorlaydi.

**Kalit so‘zlari:** Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar, jadidlik, jadid adabiyoti, botiniy ma’no, ramziy obraz, mustaqillik ramzi, mustamlakachilik timsoli, o‘zbek xalqi, Kumush va Zaynab qarama-qarshiligi, O‘zbek oyim – xalq timsoli, jadid g‘oyalari, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish.

XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida keskin o‘zgarishlar yuz berayotgan edi. Mustamlakachilik, jaholat, eski tuzumning qahridan azob chekayotgan xalqning ko‘nglida ozodlik, ma’rifat va taraqqiyot orzusi yashar edi. Ushbu jarayonlarda jadidchilik harakati muhim o‘rin tutdi. Jadidlar, eski an’analarga qarshi chiqib, yangi ta’lim tizimini yaratishga, xalqni jaholatdan xalos etishga harakat qildilar. Jadidlar, ya’ni yangicha fikrlovchilar, xalqni ilmga, ma’rifatga, ozodlikka chaqirdilar. Ammo davr taqazosi bilan, ular targ‘ibot ishlarini ochiqdan-ochiq amalga oshirish imkonsiz edi. Shu boisdan ham ularning bu g‘oyalari adabiyotlarida o‘z ifodasini topdi. Shu yo‘l orqali xalq ongiga singdirishga harakat qildilar.

- Jadidchilik harakati, Abdulla Qodiriy. O‘tgan davr jadidchilik faoliyatida katta ahamiyat kasb etuvchi ijodkorlar qatorida Abdulla Qodiriy nomining tilga olinishi bugungi kunda Abdulla Qodiriy ijodi uning shaxsiyatini o‘rganish bilan bog‘liqdir. Abdulla Qodiriy o‘sha davr muhiti va kayfiyatidan kelib chiqib o‘zining yaratgan asarlarida jadidchilikka oid g‘oyalarni ham ilgari suradi. Bunda o‘sha davr muhitida keng ommalashayotgan teatrlar, sahna asarlari, teatr truppalari bilan birgalikda badiiy asarlar ularning yaratilishi uslubi dunyo hamjamiyatida rivojlanayotgan adabiyot, san’at sohalari bilan birga mutanosiblikni tashkil etadi. “Birinchi Prrzidentimiz Islom Karimov qayd

etganidek: Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo‘lmasa kerak. U faqat O‘zbekistonning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqlol kuychisidir”. Haqiqatdan ham Abdulla Qodiriy bu borada haq bo‘lib, kishilik jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea hodisalarga munosabat bildirish yoki xalqqa yetkazishda so‘zga chechang‘ik bo‘lmog‘i kerak. Bunda asosan, Abdulla Qodiriyning she’riy asarlarida yoki adabiy-badiiy asarlarida jadidchilik g‘oyalarining keng talqin qilinishi va Abdulla Qodiriyning ularga bo‘lgan munosabati o‘ziga xoslikni tashkil etadi. Jumladan, Abdulla Qodiriy ijodkor sifatida o‘zining yaratgan she’rlarida, romanlarida yoki publitsistik asarlarida ma’lum bir mavzu yuzasidangina cheklanib qolmasdan, millat va vatan taraqqiyotiga oid qarashlarni har tomonlama bayon etadi. Bunda, Abdulla Qodiriyning “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror”, “To‘y” kabi she’rlari ham kishilarning e’tiborini tortadi. Bugungi kunda adabiy jamoatchilik Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishda nafaqat dunyo olimlarining qarashlari ya’ni o‘zbek adabiyotining o‘tgan asrda tutgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari keng tarzda muhokama qilinadi. Jadidchilik sohasi va jadidchilik ishlarida faoliyat yuritgan kishilarning qatorida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon Sulaymon o‘g‘li, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li va Abdulla Qodiriylarning vazifalari, bajargan ishlari keng tarzda e’tirof etiladi.

- “O‘tkan kunlar” asari yohud Jadid nidosi: “O‘tkan kunlar” asari Abdulla Qodiriy tomonidan 1919–1925-yillar oralig‘ida yozilgan. Roman ilk bor 1922-yilda "Inqilob" jurnalida qismlarga bo‘lib nashr etilgan, to‘liq holatda esa 1926-yilda kitob tarzida chop etilgan. Bu asar o‘zbek adabiyotida birinchi realistik roman sifatida e’tirof etiladi va Qodiriyning jadidchilik g‘oyalarini badiiy shaklda ifodalagan eng yirik asari hisoblanadi. Ushbu asar nafaqat oila masalasini, yurtning tarixini, nafaqat jadidlar nidosini o‘zida mujassam etgan. Kitobxon asarni o‘qir ekan, ilk mutoladayoq uning botiniy mazmunini anglab yeta olmaydi. Har safar qayta o‘qiganda yangi bir ta’surot, yangi xulosa oladi. Ilk o‘qiganda ikki ko‘ngil o‘rtasidagi ishqiy munosabat, oilaviy muammolar, farzandning ota-ona oldidagi burchi, kundoshlik munosabatlarinigina anglaydi. Ikkinchi bor qayta mutolaa qilganda esa tarixga nazar soladi. Tarixiy voqealar e’tiborini tortadi. Vanihoyat uchinchi bora qayta o‘qiganda asardagi qahramonlarning botinida yashiringan ramzlarni o‘zini oshkor etishni boshlaydi.

-Otabek va Yusuf Hoji obrazlari asarda ota va o‘g‘il tarzida gavdalantirilgan bo‘lsada, ularning botinida jadidlar harakati timsoli yoritiladi. Asarni o‘qigan kitobxon ularning naqadar ziyoli hamda yurt uchun jon

kuyduruvchi shaxs sifatida taniydi. Shunday hamki ular jadidlar timsolida chin ma’noni o‘zlarida saqlaydi.

-O‘zbek oyim obrazi muallif tomonidan kalta fikrlovchi shoshqaloq bo‘lsada farzandiga jon kuyduruvchi mehribon ona sifatida ta’riflab o‘tiladi. Lekin bu obrazga aynan O‘zbekoyim ismi tanlanganligi kitobxon e’tiborini tortar ekan, aslida bu timsol orqali o‘zbek xalqi nazarda tutilganligi ayon bo‘ladi.

-Kumush obrazi asar davomida juda mahorat bilan yoritiladi. Avvalo uning go‘zalligi, latofati, ochiq ko‘ngilligi qalamga olinsa, keyingi bo‘limlarda uning ayanchli qismati yoritiladi. Uning asardagi vazifasi aynan yurtning mustaqilligini yoritish hisoblanadi.

-Zaynab obrazi o‘zida kundoshlik , sevilmagan yor, suyilmaga kelin obrazini yoritgan bolsada botinida mustamlakalik, Sovet tizimini mujassamlashtirgan.

Xulosa o‘rnida yuqorida keltirlgan obrazlarning botinida yashiringan ma’nosini mujassamlashtirib o‘taman. Asar mazmuni ma’lumki O‘zbekoyim hoy-u havas ortidan shoshqaloqlik bilan qaror qabul qiladi. Otabekning uylanganini bilsada undan yana bir toshkentdan uylanishini talab qiladi. Otabek va Yusuf Hojining so‘zlarini inobatga olmay, gapida turib oladi va Zaynabni kelin qilib tushuradi. Bir nechta voqealar bo‘lib o‘tgach Kumush ham Toshkandga kelib, qayna-qaynotasining xizmatini qilishni boshlaydi. Shu yo‘sinda O‘zbekoyim ham Kumushni yaxshi ko‘rib qoladi va kelin qilib tushirgan Zaynabga e’tibor bermay qo‘yadi. Barchaning mehr va e’tiboridan mosuvo bo‘lgan Zaynab Kumushni zaxarlab o‘ldiradi. Ushbu mzmunda yashiringan ma’noga e’tibor qaratsak. Otabek va Yusuf Hoji O‘zbekoyimni ko‘pbora to‘g‘ri yo‘lga chaqirishga harakat qildi, huddiki jadidlar o‘zbek xalqini ilmga da’vat etib, mustaqillik sari chorlagani kabi. O‘zbekoyim ularning so‘zlariga quloq tutmaydi, o‘zbek xalqi jadidlarni tinglamagani kabi. Asar ohirida esa Zaynab Kumushni o‘ldiradi, Sovet Tuzimi mustaqilligimizni tortib olgani kabi. Ammo eng muhim jihat-Kumushdan farzand qoladi. Bu-mustaqillik to‘liq bo‘g‘ilgan bo‘lsa-da, umid tirik, kelajak bor, degan fikrdir. Bu farzand-o‘zbek xalqining yuragidagi erkinlik ishtiyoqi, kelajak avlodlar, mustaqillik orzusi yashayotganini anglatadi. Qodiriy Kumush orqali o‘z xalqiga: “Senga og‘ir bo‘ldi, lekin umid o‘lmaydi”, degandek bo‘ladi.

Qodiriy kelajak avlodga shuni demoqchi: o‘tmishni unutma, lekin unga berkinib qolma. Xalqingni uyg‘ot, ilmga yuzlan, mustaqillikni qadrlagin. Chunki sening kelajaging-sening ongli tanlovingdadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qodiriy, A. (1926). O‘tkan kunlar. -Toshkent: Inqilob nashriyoti.
2. Jadidchilik harakati va uning adabiyotga ta’siri. (2012). O‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixidan (2-jild). -T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Shamsiyev, R. (2005). Jadidchilik va o‘zbek adabiyotidagi yangiliklar. -Toshkent: Akademnashr.
4. Rahmonov, T. (1999). Abdulla Qodiriy va uning adabiy merosi. -T.: Fan.
5. Abduvahobov, S. (2018). Jadidchilik harakati: Yangi fikr va adabiyot. -Tashkent: O‘zbekistan Yozuvchilar Uyushmasi.
6. Beshimov, B. (2001). O‘zbek adabiyoti va tarixshunoslik. -T.: Sharq nashriyoti.

## "MILLIY TIKLANISHDAN - MILLIY YULSALISH SARI" G'OYASINI AMALGA OSHIRISHDA JADIDLAR ILMIY-MA'RIFIY MEROSINING AHAMIYATI

***Erkinboyeva Zilola***
*Andijon davlat pedagogika instituti*
*Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya**: "Milliy tiklanishdan-milliy yulsalish sari" g'oyasini amalga oshirishda jadidlar ilmiy-ma'rifiy merosining ahamiyati" mavzusi o'zida o'zbek milliy uyg'onishining tarixiy davrlarini, ayniqsa jadidchilik harakatining ilmiy, ma'rifiy va ma'naviy ahamiyatini aks ettiradi. Ushbu maqolada jadidlarning ilmiy va ma'rifiy faoliyatlarining milliy tiklanishga qo'shgan hissasi, ularning o'z zamonasining ilg'or g'oyalari va modernizmning o'ziga xos shakllari orqali milliy yuksalishga yo'l ochishdagi roli tahlil qilinadi. Jadidlar o'z merosini bugungi kunda ham to'liq anglab yetish, milliy ongni oshirish va taraqqiyot sari qadam tashlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Maqola, shu bilan birga, milliy ma'rifatning rivojlanishi uchun jadidlarning g'oyalarini yangi avlodga yetkazishning zarurligini ta'kidlaydi va ularning ilmiy yondashuvlari asosida zamonaviy O'zbekistonning ta'lim va madaniyat sohasidagi o'zgarishlarga tahliliy yondashishni taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** Milliy uyg‘onish merosi, jadid ma’rifatparvarligi, Ilmiy-ma’naviy uyg‘otuv, yuksalish g‘oyaviy asosi.

Abadiy bitilgan olim-u fuzallolarni yetishtirgan bu ko’xna zamin azal-azaldan insoniyat tamaddunining beshigi bo’lib kelgan.Milodiy IX va XII asrlarda birinchi renessans, XIV-XV asrlarda ikkinchi renessans kabi ikki muhim oltin davrlarni boshidan kechirib kelgan xalqimiz, bir necha asrlar davomida o’z sohalarning yorqin namoyondalari bo’lgan mutafakkir-u allomalarimizning sayi-

harakatlari evaziga jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga o’zining salmoqli hissalarini qo’shishgan.

O‘zbekiston tarixida milliy uyg‘onish jarayonlari bosqichma-bosqich kechgan bo‘lib, ularning har birida xalqimiz o‘zligini anglash, tafakkurni yangilash va ma’naviy tiklanishga intilgan. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida maydonga chiqqan jadidchilik harakati ushbu jarayonning muhim burilish nuqtasiga aylandi. Jadidlar o‘z zamonasining og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitida xalqni jaholatdan chiqarish, ma’rifat bilan uyg‘otish, ilm bilan yuksaltirishni o‘z hayotiy maqsadlariga aylantirgan. Jadidlarning ilmiy-ma’rifiy faoliyati o‘zbek milliy ongini shakllantirish, o‘zligini anglash va millat sifatida rivojlanish yo‘lidagi ilk qadamlardan biri bo‘ldi. Ular ta’lim-tarbiyani yangicha asosda tashkil etish, eski usul maktablar o‘rniga zamonaviy usullarni joriy etish orqali yosh avlod tafakkurini o‘zgartirishga intildilar. Bu yondashuv aslida bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan: milliy yuksalishga erishish uchun eng avvalo, ilm va ma’rifatga tayanuvchi jamiyat zarur."Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g‘oyasi zamirida aynan shu ruh, shu ildizlar yotadi. Jadidlar merosi — bu nafaqat tarixiy xotira, balki bugungi taraqqiyotga xizmat qiladigan amaliy tajriba maktabidir. Ularning fikrlari, yozgan asarlari va olib borgan islohotlari hozirgi O‘zbekiston ta’limi, madaniyati va ma’naviyatining zamonaviy asoslariga poydevor bo‘lmoqda. Demak, jadidlarning merosini chuqur o‘rganish va undan to‘g‘ri foydalanish — bu faqat o‘tmishni o‘rganish emas, balki kelajak sari qat’iy qadamdir. Jadidlarning ilmiy va ma’rifiy faoliyatlarining milliy tiklanishga qo‘shgan hissasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida faoliyat yuritgan jadidchilik harakati, o‘zining ilmiy va ma’rifiy islohotlari bilan milliy uyg‘onishning poydevorini yaratdi. Jadidlar, an’anaviy ta’lim tizimining cheklovlarini bartaraf etish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqni jaholatdan chiqarish va milliy tiklanishga erishishni maqsad qilishgan. Ularning bu yo‘ldagi sa’y-harakatlari, bugungi kunda ham milliy ta’lim tizimining asosiy tamoyillarini belgilab berdi.Jadidlarning ta’lim tizimidagi islohotlari, avvalo, yangi usuldagi maktablarning tashkil etilishi bilan boshlandi.

Ushbu maktablarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ilmiy darsliklar va metodik qo‘llanmalar joriy etildi. Masalan, Abdulla Avloniy tomonidan tashkil etilgan maktablarda, an’anaviy ta’lim uslublaridan farqli o‘laroq, ilm-fan va madaniyatga oid zamonaviy fanlar o‘qitildi . Bu esa yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirishga xizmat qildi.Jadidlarning ilmiy faoliyatlari, shuningdek, matbuot sohasida ham

o‘z ifodasini topdi. "Taraqqiy", "Shuhrat", "Osiyo" kabi gazeta va jurnallarni nashr etish orqali ular xalqni ma’rifatga chaqirish, ilm-fan va madaniyatni targ‘ib qilishga intildilar. Ushbu nashrlar, nafaqat ta’lim sohasidagi yangiliklarni, balki ijtimoiy-siyosiy masalalarni ham yoritib, xalqni ongli ravishda uyg‘onishga undadi. Jadidlarning ayollar ta’limiga bo‘lgan e’tibori ham alohida ta’kidga molikdir. Ular, ayollarning ham dunyoviy bilimlarni egallashlari zarurligini ta’kidlab, qizlar uchun ham yangi usul maktablarini tashkil etdilar. Masalan, Toshkentda Abdulla Avloniy maktabida qizlar ham o‘qitilgan bo‘lsa, Qo‘qon shahrida Muhammadjon Xoliqiy tomonidan tashkil etilgan maktabda ham qizlar ta’lim olgan. Bu esa jamiyatda ayollarning o‘rni va ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.Jadidlarning ilmiy va ma’rifiy faoliyatlari, nafaqat ta’lim tizimining yangilanishiga, balki milliy g‘oyaning shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ular, milliy o‘zlikni anglash, mustaqillik va erkinlik g‘oyalarini ilgari surib, xalqni ma’naviy jihatdan uyg‘otishga harakat qilishdi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy tiklanishning g‘oyaviy asosini yaratdi. Shu bilan birga, jadidlarning ilmiy va ma’rifiy faoliyatlari, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning g‘oyalari, pedagogik qarashlari va islohotlari, zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, milliy tiklanishning davomiyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.Jadidchilik harakati turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan ma'rifatparvarlik va islohotlar harakati bo'lib, uning asosiy maqsadi milliy uyg'onish, ta'limni isloh qilish va jamiyatni modernizatsiyalash edi.

Ismoil G'aspirali tomonidan asos solingan "usuli jadid" ta'lim usuli, o'zbek maktablarida o'quvchilarga fonetik o'qish tizimini joriy etib, an'anaviy maktab tizimidan farqli ravishda ilm-fan, tarix, geografiya kabi fanlarni ham o'rgatishga alohida e'tibor qaratdilar.Jadidlarning adabiyotga qo'shgan hissasi ham katta bo'lib, ular o'z asarlarida milliy tafakkur, vatanparvarlik va ijtimoiy adolat kabi g'oyalarni ilgari surdilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi adiblar o'z asarlarida jamiyatdagi adolatsizliklarni fosh etib, xalqni uyg'otishga harakat qildilar.

Modernizm — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbda yuzaga kelgan adabiy va san'at yo'nalishi bo'lib, an'anaviy shakl va uslublardan voz kechib, yangi ifoda vositalarini izlashga qaratilgan edi. O'zbek adabiyotida modernizm unsurlari XX asr boshlarida jadidchilik harakati bilan birgalikda rivojlandi. Dilnoza Yuldasheva o'zining maqolasida o'zbek adabiyotida modernizm va postmodernizm unsurlarini o'rganib, ularning estetik yo'nalishlar va dunyoqarashdagi o'zgarishlarga ta'sirini tahlil qilgan. Modernizmning o'ziga xos xususiyatlari orasida an'anaviy janr va uslublardan voz kechish, individualizm va

sub'ektivlikni ilgari surish, va real hayotni yangi shakllarda aks ettirish kabi jihatlar mavjud.

O'zbek adabiyotida bu xususiyatlar jadidchilik harakati bilan uyg'unlashib, milliy adabiyotning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Jadidchilik harakati va modernizmning o'ziga xos shakllari o'zbek jamiyatida milliy uyg'onish va yuksalishga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular ta'lim tizimini isloh qilish, adabiyot va san'atni rivojlantirishda, va ijtimoiy-siyosiy ongni yuksaltirish orqali xalqni yangi davrga tayyorladilar. Jadidlarning g'oyalari va modernizmning estetik yo'nalishlari o'zbek adabiyotining shakllanishida muhim rol o'ynadi va milliy tafakkur va madaniyatning rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekistonda ta'lim va ma'rifatni yangilashga katta hissa qo'shgan. Jadidlarning asosiy maqsadi – o'zbek xalqini ilg'or g'oyalar bilan tarbiyalash, an'anaviy ta'lim tizimidan voz kechib, yangi metodlarni joriy qilish edi. Ular ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish uchun zaruriy shartlarni yaratishga harakat qildilar. G'aspirali, Behbudiy, Fitrat kabi yetakchi jadidlar o'z asarlarida ta'limni isloh qilish, yoshlarni ilmga, ijtimoiy ongni o'zgartirishga chaqirdilar. Ular milliy tafakkur va o'zlikni saqlash bilan birga, xalqni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirishni ham maqsad qilishdi.

Bugungi kunda, jadidlarning g'oyalarini yangi avlodga yetkazish juda muhimdir. Chunki bu g'oyalar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta'lim va jamiyatda yangi avlodni tarbiyalashda asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Ta'lim tizimi, ayniqsa, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan tarbiyalashda jadidlarning ilmiy yondashuvlaridan foydalanish zarur.O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ta'lim va madaniyat sohasida katta o'zgarishlar yuz berdi. Birinchi navbatda, ta'lim tizimining isloh qilinishi, yangi dasturlar va o'quv metodlarini qo'llash, xalqaro standartlarga moslashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarda jadidlarning ta'limni yangilash haqidagi g'oyalari o'z aksini topmoqda. Masalan, jadidlar xalqni yangi bilimlar va ilg'or texnologiyalar bilan tanishtirishni maqsad qilgan bo'lsalar, hozirgi kunda ham bu yo'nalishlar davom ettirilmoqda. Yangi ta'lim dasturlari, shuningdek, axborot texnologiyalarining integratsiyasi orqali talabalar zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lishmoqda.Bundan tashqari, madaniyat sohasida ham ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi. Jadidlar milliy madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor berishgan, ular xalqning madaniy va adabiy merosini saqlash bilan birga, yangi zamonaga moslashtirishni ham o'ylashgan.

Hozirgi kunda, O'zbekistonda madaniyatni rivojlantirishda yosh avlodga milliy an'analarni o'rgatish, global madaniyat bilan uyg'unlashish zarurati muhim rol o'ynaydi.Jadidlarning ilmiy yondashuvlari va ta'limdagi islohotlari O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishida asosiy yo'nalishlarni belgilab berdi. Ularning g'oyalari bugungi kunda ta'limda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan metodlarning qo'llanilishini ta'minlashga yordam bermoqda. Jadidlarning "ilmga asoslangan ta'lim" tamoyili, bugun O'zbekistonda talabalar

va o'qituvchilar o'rtasida ilmiy va madaniy almashinuvlarni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, jadidlarning jamiyatni o'zgartirishdagi roli, ya'ni ijtimoiy ongni yuksaltirish, bugungi kunda yoshlarni tarbiyalashda ham o'z aksini topmoqda. Bugungi kunda jadidlarning ilmiy-ma'rifiy merosi nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ular tomonidan belgilangan yo'nalishlar va qadriyatlar mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun nafaqat tarixiy yodgorlik, balki milliy tiklanish va yuksalishning ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

Milliy taraqqiyotning ushbu jarayonida, jadidlarning g'oyalari va ilmiy merosi nafaqat madaniy, balki ijtimoiy va siyosiy sohalarda ham yangilanishga turtki bo'lgan. Shuning uchun, bugungi jamiyatda jadidlarning ilmiy-ma'rifiy merosiga e'tibor berish va uni zamonaviy o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish juda muhimdir. Jadidlarning ilmiy-ma'rifiy merosi milliy tiklanish va yuksalishning asosi bo'lib, uning ta'siri nafaqat o'zbek xalqining tarixiy merosiga, balki hozirgi zamon talablariga javob beradigan rivojlanish modelini yaratishga xizmat qilmoqda. Ularning g'oyalari va amaliy faoliyati milliy ongni shakllantirishda, ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda, shuningdek, mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlashda o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Hinduism approaches the concept of the self through a monistic metaphysical framework, particularly within the Vedanta tradition. Similar to Buddhism, Hinduism recognizes that human suffering arises from a misunderstanding of the true nature of the self. However, rather than denying the existence of the self altogether, Hinduism distinguishes between the false self–which is temporary, ever-changing, and tied to ego and sensory experience–and the true self, which is eternal, unchanging, and beyond physical existence. This higher self is often referred to as the "Self-as-Witness" (Atman), a pure, observing consciousness that exists beyond the fluctuations of thought and emotion. It is not something that can be described in ordinary terms but must be directly experienced through deep introspection and meditation. The Upanishads speak of a transcendent state in which the "Self-as-Knower" merges with the "Self-as-Witness," entering a realm beyond cognition–what some scholars refer to as a pure field of consciousness or a universal matrix of awareness. For instance, a person who detaches from material illusions and contemplates deeply through practices like yoga and meditation may begin to realize this unchanging inner self, moving closer to spiritual liberation (moksha). (2)

*3. The Role of Eastern Philosophy in Social Development.* In an age where modern societies search for meaning amidst rapid change, Eastern philosophy stands not as a relic of the past, but as a living force capable of shaping a more humane and harmonious world. Its greatest contribution lies in how it redefines social development–not merely as economic or technological progress, but as the cultivation of ethical citizens and just communities. Confucianism instilled a vision of society where harmony begins with the individual's moral duty to

family and state, laying the groundwork for stable governance and social cohesion. Daoism reminded humanity that true order emerges not from control, but from flowing with the rhythms of nature and embracing simplicity–a lesson increasingly vital in today’s climate-challenged world. Buddhism's teaching of anatta, or no-self, dismantled the illusion of ego, promoting compassion and emotional resilience–qualities essential for conflict resolution and collective healing. Meanwhile, Hinduism’s pursuit of self-realization through the eternal Atman emphasized the inner foundations of peace, tolerance, and wisdom that sustain any lasting civilization. These ancient philosophies prove that real progress begins within: by cultivating virtue, empathy, and balance, societies don’t just grow–they evolve. In this light, Eastern philosophy is not only a guide to the soul, but a roadmap to a just and awakened society.(2)

4. Conclusion. Eastern philosophy is more than ancient wisdom–it is a living legacy that teaches us how to build not just stronger economies, but stronger hearts, wiser leaders, and more compassionate societies. In a world hungry for meaning and unity, its timeless truths offer the keys to true human development.(3)

## REFERENCE:

1. Le Anh Dungi. The perspective on humans in eastern philosophy. (2021). European Journal of Social Sciences Studies. 128-bet. ( Introduction).

2. Petar Radoev Dimkov. The Concept of Self in Eastern and Western Philosophy. (2020). 5th International e-Conference on Studies in Humanities and Social Sciences (197-204). 200- bet. ( Body).

3. D.A. Po'latova, M.Q. Qodirov, J. B. Sulaymonova. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018. (Body).

4. O’rozov Sh. Nematullayev Munirjon. Nuranova Saodat. O’rta asr sharq falsafasi va uyg’onish davri xususiyatlari. Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor. (body).

# JADID ADABIYOTI VA ABDURAUF FITRATNING UNDAGI O ‘RNI

***Raxmatova Go‘zal Akmalovna***
*O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti*
*sotsiologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola XX asrda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va namoyondalari haqida qisqacha ma’lumot beradi. Shuningdek, Abdurauf Fitratning jadidchilikning asoschilaridan biri sifatidagi faoliyati, hayoti

va ijodi haqida bayon qiladi. Fitratning uzoq yillik ish faoliyati, xalqini ma'rifatli bo'lishi uchun qilgan sa'y-harakatlari, yaratgan ilmiy-adabiy asarlari va boy madaniy-ma'naviy merosi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jadid, jadidchilik, ma'rifatparvar, dorilfunun, nizomnoma, islomchilik, turkchilik, usmonchilik, mafkurachi, Mijmar, Fitrat, professorlik, fitratshunoslik, millatchi, bosmachi, josus, inqilobchi turk yoshlar

XX asr butun dunyo uchun, xususan o'zbek xalqi uchun qiyinchilik va mashaqqatlarga to'la bir asr bo 'ldi. Bu davrdagi alg'ov-dalg'ovliklar misli ko'rilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shu bilan bir qatorda, axborot almashinuvining tezlashganligi va texnika yutuqlari insonlar fikrida yangi o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Uyquda yotgan o'zbek milliy adabiyoti milliy hayot tarzidan orta qolib kelayotgan davrlarni bosib o'tib, ularni uyg'unlashtirishga intiluvchi xalq ma'rifatparvarlari yuzaga chiqa boshladi. Adabiyotni hayotga yaqinlashtirish va hayot tarzini zamonga mos ravishta o'zgartirish xalqimiz uchun muhim bir qadam bo'ldi. Chunki, Rossiya bosqini va mustamlakachilik siyosati, ungacha ham bo'lgan og'ir ijtimoiy turmush tarzi, ijtimoiy adolatning yo'qligi, o 'z huquqlarini himoya qila olmayotgan mehnatdan tolgan xalq tobora bosqinchilarning nafsi yo'lida qurbon bo'layotgan edi.

XX asr boshlarida Turkistonda boshlangan uyg'onish harakatlari xalqni yomon illatlarga og'ib ketishdan saqlashga, ularga bilim va ma'rifat berishga, yangi fan texnologiyalarni o'rgatish uchun yangi o'quv usullarini yaratishga intilib kelgan. Ushbu ma'rifatchilik qarashlari keyinchalik, jadidchilik harakatlari vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ular xalqni ma'rifiy savyasini oshirish orqali Turkistonni ozod va obod yurtga aylantirishni maqsad qilishgan. Ayni shu davrda rivojlanib kelayotgan ommaviy axborot vositalari va xalqaro aloqalarning takomillashuvi, xalqimizni dunyoning boshqa taraqqiy etayotgan xalqlari bilan solishtirish imkonini bergan.

Yuzaga kelgan qulay vaziyat ma'rifatparvarlarimiz uchun qanot bo'lgan. Xalqni uyg'otishga, taraqqiyot sari intilishga undovchi bir qator gazeta, jurnallar chop etilagan va ko'plab yangi yo'nalishlardagi adabiyotning yetuk namunalarini yaratilgan. Misol tariqasida: M.Behbudiyning "Padarkush", A.Avloniyning "Advokatlik osonmi", "Pinak", A.Fitratning "Munozara", "Yurt qayg 'usi", Hamzaning "Uyg 'on, Vatan!", "Yig'la Turkiston", Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga", "Kecha va Kunduz" va boshqa ko'plab ijod namunalarini aytishimiz mumkin. Ushbu asarlar bugungi kungacha ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Chunki, jadid adiblarining asarlari insoniy taqdirlar, qismat fojialari, millat ozodligi, inson erki, vatan buyukligi, tarixiy adolat, siyosiy tenglik va xalqni g'aflatdan uyg'otishga qaratilgan ijtimoiy muammolarni aks ettirgan.

Xalqning jonkuyarlari orasida o'zining serqirra ijodi bilan ajralib turuvchi jadidlardan biri Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Otasi Abdurahimboy o 'z zamonasing ziyoli boylaridan bo'lgan, onasi

Mustafbibi ham o'qimishli va farzandlarining ta'lim tarbiyasiga e'tiborli, nozik hilqatli ayol bo'lgan. Onasining ta'siri ostida yoshlik chog'laridan she'riyatga qiziqish uyg'ongan. Ilk g'azallarida "Mijmar" ("Cho'g'don, Xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish"), keyinchalik "Fitrat" ("Yaratmoq") taxallusi bilan o'z ijodining beqiyos namunalarini yaratgan. Talabalik yillaridanoq jadidlar harakatining faol a'zosi sifatida ko'zga ko'rinadi. Buning isboti sifatida zamondoshi adib va olim sifatida tanilgan Sadriddin Ayniy quyidagi fikrlarni bildiradi: "Bu davrda hur fikrli yoshlardan biri Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari orasida eng zukko va fozillardan bo'lib, Abduqodir Mahmud vositasi bilan "Sirotu-1-mustaqim" majallasini mutolaa qilib, xorijdagi tahsilga tayyor bo'lib qolgan edi". [1]

Keyingi yillarda Fitrat ta'limini Istanbulda davom ettirgani haqida turli manbalar mavjud. Ma'lum bo'lishicha, Fitrat Istanbul dorilfununida o'qigani (Temur Xo'ja o'g'li), "muallimlar gimnaziyasida" tahsil olgani (Boymirza Hayit) va "Voizon" madrasasida ham bilim olib, ham mustaqil ma'ruzalar o'qigani (Zaki Validi To'g'on) haqida bayon qilingan. [2] Istanbul dorilfununida tahsil olayotgan vaqtlarda o'z safdoshlari bilan birgalikda Turkiyada o'qiyotgan vatandoshlariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko'paytirish va uzliksiz davom ettirish maqsadida jamiyat tuzishadi. Shu bilan birga Fitrat jamiyatning Nizomnomasini ham ishlab chiqadi.

Fitratning ozodlik harakatlarida ishtirok etishida faolligiga ta'sir qilgan omillardan biri Turkiyada o'qish davrining inqilobchi turk yoshlar harakati davriga to'g'ri kelganligi va uning tashabbuskorlari bilan bevosita hamsuhbat bo'lganligidir. Inqilobiy Turkiya "Ittihod va taraqqiy" partiyasi bilan munosabatlar, usmonli turklarning inqilobiy-demokratik tafakkurida muhim zamin bo'lib xizmat qilgan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g 'oyalari Fitratning ham ijodkor, ham siyosiy arbob sifatida shakillanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Turkiya safaridan keyin Buxoroda faoliyatini davom ettiragan. Qarshi va Buxoro shaharlarida jadid maktablarini tashkil etish va o'quvchilarga dars berish bilan shug'ullangan. 1917-yildan boshlab "Yosh buxoroliklar" firqasining mafkurachisi va g'oyaviy rahbarlaridan biri sifatida faoliyatini davom ettirgan. Ammo shu yili jadidlar Buxoro amiri Olimxonning taziqi ostida Samarqandga chiqib ketishga majbur bo'lishgan. Fitrat Samarqandda "Hurriyat" gazetasida muharrirlik qilgan. Shu davrda "Itthodi taraqqiy" tashkiloti Eski Buxoro bo'limining raisi sifatida ishlagan degan manbalar ham mavjud. Shuningdek, jadidlarning qayta qayta taqiqqa uchrashi oqibatida Samarqanddan Toshkentga yo'l oladi va u yerda Xadra maktablarining birida muallimlik qiladi. Keying

yillarda Toshkentdagi Afg‘oniston elchixonasida tarjimonlik ham qiladi. Toshkentdagi faoliyatining eng ko‘zga ko‘ringan jihati “Chig‘atoy gurungi”ni tashkil etganidir. Ilmiy izlanishlari davomida “Til va imlo to‘dasi”, “Adabiyot to‘dasi”, “San’at va teatr to‘dasi” singari bo ‘limlari tuzilgan. Ona yurtidagi og‘ir vaziyat, qayta qayta ta’ziqqa uchrash Fitratning xalq manfaatlarini ko‘zlab, g‘aflatdan uyg‘otishga bo‘lgan harakatlariga to‘siq bo‘lolmaydi. Keyingi faoliyati yana Buxoroda bir qancha yuqori lavozimda davom etadi va nozirlik faoliyati davomida asossiz ayblovlar bilan Buxorodan badarg ‘a qilinadi. Albatta, Sho‘ro hukumatiga Fitrat singari xalqchil, hur fikrli va fozil insonlar xavf tug‘dirardi, ayni shu sababdan doimo ularning faoliyatida kamchiliklar izlab, xalqning ko‘zini ochishlaridan qo ‘rqib kelishgan. Ammo, ular qo‘ygan hech bir to‘siq o‘zbek jadidchilik namoyondalarini so‘ngi nafasgacha yurtining ozodligi, xalqning faravon hayotiga erishishdagi harakatlariga mo’ne bo‘lolmagan. Fitrat Buxorodan ketgach, Moskvada Sharqshunoslik institutida faoliyat olib boradi va shu yerda professorlik unvoniga erishadi. Keyingi yillarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanadi.

Umrini xalqiga va ilm fanga bahshida etgan Fitratning boy ilmiy-adabiy merosi ozodlikka intilganlar uchun sarchashma misoli namoyon bo‘ladi. Xalqni istiqlol uchun kurashishga undovchi she’rlari va asarlari o‘zbek adabiyotini boyitgan. Uning: “Yurt qayg‘usi”, “Mirrix yulduziga”, “Sharq”, “Shoir” kabi she’rlari, “Sayha”, “Munozara”, “Hind sayyohi qissasi”, “Hind ixtilofchilari”, “Chin sevish” singari asarlari, “Begijon”, “Qon”, “Abu Muslim”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon” kabi drammalari bolsheviklarga qarshi nafrat tuyg‘usini ifodalash bilan birga, ularning dinimizni toptashga qaratilgan faoliyatlariga qarshilik, mustaqillikka erishishga intilish ruhida bo‘lgan.

Bundan tashqari, jamiyatdagi muammolarga yechim topishga qaratilgan va islom dining hech qachon ahamiyatini yo‘qotmaydigan, qadriyatlarini tushuntirib bergan bir qator asarlari mavjud: “Rahbari najot”, “Oila”, “Mavludi sharif yoki Mur’oti xayr ulbashar”, “O‘quv”, “Sharq siyosati”, “Yig‘la islom”, “Muxtasar islom tarixi” kabilar shular jumlasidandir. Fitratning boy ilmiy va adabiy merosi, jadidchilik harakatidagi jonbozligi va hayoti davomidagi barcha ezgu amallarining nihoyasi yo‘q va nazarimda ularni sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi. Ularning ahamiyati, bugungi tinch va ozod yurtda yashab kelayotgan yoshlarga nafaqat o‘rnak, balki dasturul amal ham bo‘lib kelmoqda. Albatta, o‘zbek adabiyotida fitratshunoshlik yo‘nalishining shakillaganligi bejiz emas. Fitratning hayoti, ijodini o‘rganish va undan o‘rnak olishning mohiyati, nechog ‘lik katta ahamiyat kasb etishini, nafaqat o‘zbek xalqi, balki, qardosh xalqlar

ham anglab yetdi. Umrining so‘ngi yillarida millatchi, bosmachi, josus va xalq dushmani singari asossiz ayblovlar bilan qamoqqa olingan va 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan. Mustaqillikning ilk yillarida Abdurauf fitrat va boshqa ko‘plab jadidlarning nomlari oqlanib, ko‘rsatgan xizmatlari evaziga nomlari ulug‘lanib kelinmoqda. Misol tariqasida, 1996-yilda Fitrat tavalludining 110 yilligi yubileyi keng nishonlanganligi, Buxoro shahrida Fitrat bog‘i va uy-muzeyining tashkil etilganligini va haykali o‘rnatilganligini aytib o‘tishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda 2000-2010 yillar oralig‘ida Fitratning “Tanlangan asarlar” to‘plami va boshqa turli asarlari nashr qilindi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatida tutgan o‘rni va milliy uyg ‘onish jarayonida qo‘shgan hissasi katta ahamiyatga ega. Uning qarashlarida jamiyatni rivojlantirishda ma’rifat, ta’lim va adabiyot eng zarur manba sifatida ko‘rinadi. Shu bilan bir qatorda, Fitratning ijodiy faoliyati, amalga oshirgan islohotlari jadidchilik harakatining yo’nalishlarini belgilab bergan. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo’shgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YXATI:**


1. Hamidulla Boltaboyev, Jadid adabiyoti namoyondalari Adurauf Fitrat. ”Zabarjadmedia”,2024. -b.4.
2. Hamidulla Boltaboyev, Jadid adabiyoti namoyondalari Abdurauf Fitrat. ”Zabarjadmedia”,2024. -b.5.
3. Abdurauf Fitrat. https://jadid.uz/jadids/abdurauf-fitrat.


## XIX-XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING PAYDO BO‘LISHI


***Namozova Diyora Shuhrat qizi,***

*O‘zDJTU Siyosatshunoslik yo‘nalishi 2-kurs talabasi*



**Annotatsiya:** Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati, uning asosiy g‘oyalari va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Yangi usul maktablari, matbuot, adabiyot va madaniyatdagi islohotlar tahlil qilinib, jadidlarning milliy uyg‘onish va ma'rifatparvarlikdagi roli ko‘rsatiladi.



**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, Turkiston, yangi usul maktablari, ma'rifatparvarlik, islohot, milliy uyg‘onish, matbuot, madaniyat, XIX–XX asr, jadidlar.

**Kirish.** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi. Bu davrda ilgʻor fikrli ziyolilar tomonidan yangi dunyoqarash, zamonaviy ilm-fan va taʼlim tizimlarini joriy etish harakatlari kuchaydi. Ushbu harakat "jadidchilik" deb atalib, u nafaqat maʼrifiy islohotlar, balki milliy uygʻonish harakatining asosiy tayanchi boʻldi. Jadid arabcha yangi degan maʻnoni anglatadi. Jadidchilik harakati orqali Turkiston ziyolilari oʻz xalqini jahondagi ilgʻor xalqlar qatoriga olib chiqishni maqsad qilgan edilar. Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining paydo boʻlishi, asosiy gʻoyalari, yetakchilari va jamiyat hayotiga koʻrsatgan taʼsiri tahlil qilinadi.

Turkistonda jadidchilik harakatining paydo boʻlishi haqida gapiradigan boʻlsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibida boʻlgan Turkiston hududida eskirgan taʼlim tizimi, savodsizlik, siyosiy mustamlakachilik va iqtisodiy qoloqlik jiddiy muammolar edi. Ana shunday sharoitda zamonaviy bilimlar asosida xalqni uygʻotish zarurati paydo boʻldi. Yevropada va Rossiyada sodir boʻlayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jumladan, konstitutsiyaviy tuzum va yangi maktab tizimlari jadidlar ongiga kuchli taʼsir koʻrsatdi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar oʻz xalqlarini maʻrifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini koʻtarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar.[1]

Jadidlar oʻz harakatlarini “taraqqiyot, maʼrifat va milliy uygʻonish” gʻoyalari atrofida yoʻnaltirdilar. Ular anʼanaviy maktab – maktablar (eski usulda) bilan bir qatorda yangi usuldagi maktablar – “usuli jadid” maktablarini ochdilar. Bu maktablarda tabiiy fanlar, matematika, tarix, geografiya, adabiyot va boshqa zamonaviy fanlar oʻqitildi. Jadidlar diniy taʼlimni rad etmagan holda, unga zamonaviy yondashuvni qoʻshishga intildilar. Ularning fikricha, islom dini taraqqiyotga toʻsqinlik qilmasdan, aksincha, uni ragʻbatlantirishi kerak edi. Ilgʻor milliy ziyolilar faoliyatining muhim yoʻnalishi yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish edi. Bu maktablar tez va oson savodxon boʻlishlarini taʻminlabgina qolmay, baʻlki ularda fanatizm va konservatizmdan xoli boʻlgan yangi dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qilar edi.

Turkistonda jadidchilik harakati koʻplab ziyolilarni yetishtirdi. Qrim – tatar maʻrifatparvari boʻlgan Ismoil Gʻaspirali (1851-1941) butun turkiy xalqlar oʻrtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini oʻrgangan edi. Oʻzi egallagan bilimlar asosida Sharq va Gʻarb dunyosini taqqoslab, turkiy

xalqlarning taraqqiyotga erishish yo‘llarini izlaydi. Ismoil G‘aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi. U o‘zi tuzgan ta’lim dasturi asosida darslik tayyorladi. Shu dastur bo‘yicha 40 kunda 12 ta o‘quvchining savodi chiqarildi. Bu usul «usuli savtiya» – harf tovushi usuli, ya’ni «usuli jadid» nomi bilan keng tarqaldi. Uning 1888-yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh» kitobi chop etildi.[2] Unda yangi usul maktablarining ta’lim tizimi, dars o‘tish va uning tashkil qilinishi, o‘quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta’tillar, imtihonlar bayon etilgan

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo‘ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko‘tarildi. Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo‘lboshchisi edi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o‘z otasi sharafiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) – Turkiston o‘lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma’rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri. 1904- yildan boshlab o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ‘ibotchisi bo‘lgan. Munavvarqori maktablar uchun «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» kabi darsliklarni yaratdi. Dastlabki paytlarda madaniy-ma’rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug‘ildi. U maktab va madrasada ta’lim olib, o‘z zamonining ma’rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o‘lkada ta’lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, 1907-yil «Shuhrat» gazetasiga asos soldi. O‘zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklarni yaratdi [3].

Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma’rifatparvar kishilar edi. Ma’rifatparvarlar keng ma’noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma’noda ma’rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma’rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etdilar. Ular

podsho yakkahukmronligi (absolyutizm)ga qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda kechdi. Birinchi bosqichda ma‘rifatparvarlikdan boshlangan harakat 1917-yilga kelib siyosiy ko‘rinishdagi harakatga aylandi.

Jadidlar Turkiston jamiyatining turli qatlamlariga chuqur ta’sir ko‘rsatdilar. Ularning faoliyati natijasida milliy o‘zlikni anglash kuchaydi, matbuot rivojlandi, siyosiy ong va madaniy saviya oshdi. 1917-yilgi Fevral inqilobidan keyin ular qisqa vaqt ichida siyosiy partiyalar, gazeta-jurnallar va jamiyatlar tashkil etish imkoniga ega bo‘ldilar[4]. Biroq Sovet hokimiyatining qaror topishi bilan jadidlar tazyiqqa uchradi, ko‘pchiligi qatag‘on qilindi. Jadidchilik go‘yalarini ommaga keng yoyishda «Tarjimon» gazetasi alohida o‘rin tutadi.

Turkistonda jadidchilik harakati hududiy xususiyatiga ko‘ra uch turga bo‘lingan. Bular: Turkiston, Buxoro, va Xiva jadidlariga bo‘lingan.

Turkistonda sovet hokimiyati zo‘ravonlik yo‘li bilan o‘rnatilgach, jadidlarning bir qismi faol siyosiy hayotdan chetlashib, faqat badiiy ijod bilan shug‘ullandi (Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy va boshqalar). Ayrim jadidlar sovet idoralari madaniy-ma’rifiy shohobchalarida mehnat qilishdi (Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Munavvarqori, Hamza, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov va boshqalar). Ba’zi jadidlar „mahalliy kommunistlar“ sifatida yuqori davlat va hukumat lavozimlarida ishlashni davom ettirdi (Fayzulla Xo‘jayev, Abdulqodir Muhiddinov, Nizomiddin Xo‘jayev va boshqalar). Ayrim jadidlar bo‘lsa, Turkistondagi istiqlolchilik harakati saflariga borib qo‘shildi va xorijga muhojirlikka jo‘nab ketdi (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Sadriddinxon Sharifxo‘jayev, Abdulhamid Oripov va boshqalar) [5].

Jadidchilik harakatining barcha taniqli namoyandalari (Sadriddin Ayniydan tashqari) 30-yillarda sovet mustabid rejimi tomonidan amalga oshirilgan qirg‘in natijasida halok bo‘ldi. Jadidchilik harakatiga sovet davrida „millatchilik“, panturkizm, panislamizm tamg‘alari bosilib, qoralandi. Jadid adabiyotini o‘qish taqiqlandi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib qilsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin haytoning qadrini shuncha ko‘p anglab yetadi. [6]

**Xulosa.** Turkistonda jadidchilik harakati zamonaviy tafakkur, ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish yo‘lida muhim tarixiy bosqich bo‘ldi. Jadidlar orzusi – taraqqiy etgan, ilmli, o‘zlikni anglagan xalq yaratish edi. Bugungi kunda ularning merosi O‘zbekiston mustaqilligi va yangi jamiyat qurilishida bebaho qadriyat sifatida e’tirof etilmoqda. Ularning mardlik bilan olib borgan kurashlari yosh avlod uchun ibrat manbai bo‘lib qolmoqda. Jadidlarning g‘oyalari va faoliyati bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ularning merosi mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Soyibjon Tillaboyev, Akbar Zamonov, O‘zbekiston tarixi, 9-sinf darslik, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati. -T.: 2019, 91-bet.
2. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. "Jadidchilik". Ensiklopedik lug‘at. 1. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. 271-bet.
4. Rajabov Qahramon. "1924 Turkistoning parchalanishi". -T.: 2024. “Fan nashiryoti”, 42-bet.
5. G‘ayrat Ziyayev “XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida xalq maorifini rivojlantirish” kurs ishi, 13-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi -2021 yil.

# MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING DAVRIY NASHRLARDAGI TANQIDIY MAQOLALARI: JAMIYATDAGI ILLATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

***Jorabekova Alima Asqar qizi,***
*O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti*
*Siyosatshunoslik yo‘nalishi ST-2401 talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezis Mahmudxo‘ja Behbudiyning davriy nashrlarda e’lon qilingan tanqidiy maqolalarini tahlil etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Behbudiy asarlarida jamiyatdagi illatlar (jaholat, bid’at, ma’rifatsizlik, ijtimoiy adolatsizlik va boshqalar)ning qanday aks etgani va ularni bartaraf etish yo‘llari masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Behbudiyning merosini o‘rganish va ommalashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jamiyat illatlari, davriy nashrlar, tanqidiy maqolalar,oyna jurnali, Samarqand gazetasi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo qoloqlik botqog'iga botib qolgan, eskicha ta'lim ustuvor bo'lib, zamonaviy bilimlar yetarlicha o'qitilmagan. Bu holatni o'zgartirish uchun jadidchilik harakati paydo bo'ldi. Jadidchilar G'arb tajribasini o'rganib, zamonaviy fan va texnologiyalarni o'z milliy qadriyatlari bilan uyg'unlashtirishga intilganlar. O'zbekiston tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan[4].

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, mamlakatda birinchilar qatorida ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar qurish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Mohir publitsist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, "Samarqand" gazetasi hamda "Oyina" jurnaliga asos soldi. 1914-yilda "Turon" teatrida sahnalashtirilgan "Padarkush" pyesasi orqali hududda teatr san'atining tamal toshini qo'ydi[5].

Behbudiyning davriy matbuotga qo'shgan hissasi juda muhim ahamiyat kasb etgan holda undagi maqolalar o'zbek xalqining o'sha davr ahvoli, ijtimoiy hayoti, ilm-fanda qilinishi kerak bo'lga islohotlar, ma'rifatsizlik haqida fikr yuritadi. U 1914-yilda "Oyina" jurnalida "Zo'raki boy" sarlavhasi ostida chiqqan maqolada boy insonning mulki, bog'lari bor bo'lib, undan to'g'ri foydalansa yaxshigina manfaatli bo'lishi haqida fikr yuritadi, lekin jamiyatimizdagi turli marosimlar: to'ylar, sunnat to'yi, bazmlar, azalar hammasi juda katta dabdabali tarzda tashkil qilinishi, bu esa boy insonni ham kambag'al inson, ma'naviy kambag'al insonga aylantirishi haqida fikr yuritadi. "Oxirgi vaqtlarda biz – turkistonliklar tijorat, xatto, ziroat va do'kondorlik ishlarida na uchun sinarmiz, ya'ni iflos etarmiz. Muning eng birinchi sababi ilmsizlik, to'g'risi aqlsizligimizdur. Bilib turub o'z zararini qilmoq aqlsizlikdur" [1: 270-272-betlar]. Ushbu jumlalardan bilinib turibdiki, Behbudiyning asosiy maqsadi xalqni ilmli qilish va jamiyat uchun foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Maqola isrofgarchilik, ortiqcha dabdabalik, ilmsizlikni targ'ib qilgan xitobga o'xshaydi. Adib maqolaning yakunida "Alloh taolo isrof qilguvchilarni do'st tutmaydur" degan jumlalar bilan yakunlagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zing "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" deb nomlangan maqolasi, 1913-yil, 30-iyul sanasida Samarqand gazetasida nashrdan chiqqan. Bunda adib millatlarning taraqqiyotga erishining sabablarini aytib o'tadi: "Millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lub, tub sababi ulamo ila ag'niyoning hamiyat va g'ayratlaridur. Taraqqiy qilg'on va yo endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvolig'a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o'z millatlarig'a so'z va oqcha ila xidmat etganlari favran zohir bo'lur".

Shuningdek, rus, arman, yahudiy va boshqa Rossiyadagi vatandoshlarimizning boylari doimo o'z millatlari uchun kata xayr va ehsonlar qilishi, chunonchi, Kavkaz, Qrim, Qozondagi musulmon boylarini saxiy va ilm-fanga homiylik qilishi haqida kuyunib aytadi. Shu bilan bir qatorda Turkistonni ham solishtirib, o'lkada avomlik, beilmlik naqadar ko'paygani haqida fikr yuritgan.

Bundan tashqari, "Biz musulmonmiz. Musulmonlikg'a ilm lozim, amal lozim. O'qumoq kerak, nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q?" fikrlarni achinish, qattiq iztirob chekish bilan yozgan edi. Shuningdek, boshqa millat va turkistonlik yoshlarni solishtirib, "Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda" deb aytib o'tgan[2].

1913-yil 12-iyul sanasi Samarqand gazetasida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Ehtiyoji millat" nomi ostida maqolasi chiqdi. Ushbu maqolada asosiy e'tibor, millat uchun zarur bo'lgan kadrlarning yo'qligini kuchli nadomat ila aytib o'tadi. Adib "Imorat qilmoqchi bo'lsak, plon-loyihasi lozimki, injenerga muhtoj bo'larmiz. Ammo biz hanuz "muhandis" ismini bilmaymiz". Adib xulosa qilib shuni aytadiki, "do'konimiz, korxonamiz, madrasamiz va har nimarsamizni zamoncha islohi lozimdur. Valloh, har nimarsa qo'ldan ketar, bizda muzdurlikdan boshqa hech ish qolmas"[3].

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Mahmudxo'ja Behbudiyning maqolalaridagi asosiy g'oyalar eng avvalo, xalqni ma'rifatli qilish, yosh avlodni yangi dunyoqarash bilan shakllantirish, isrofgarchilik, boylar pullarini keraksiz to'yu hashamlarga emas, ilmga, zakovatga bag'ishlashi, kambag'al ilmli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga chaqiradi. Shu sababli ham jadidchilik deganda albatta ko'z o'ngimizda yangilanish, Turkiston o'lkasini yangi dunyoqarash asosida shakllanishi nazarda tutilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Zo'raki boy // Oyna jurnali. 1914-yil, 16-son. 270-272-betlar.

2. Mahmudxo’ja Behbudiy. Millatlar qanday taraqqiy etarlar? // Samarqand gazetasi. 1913-yil, 30-iyul.
3. Mahmudxo’ja Behbudiy. Ehtiyoji millat // Samarqand gazetasi. 1913-yil, 12-iyul.
4. Mahmudxo’ja Behbudiy. A’molimiz yoinki murodimiz // Oyna jurnali. 1913-yil, 6-son, 130-132 betlar.
4. https://oliymahad.uz/43832 Behbudiyning ta’lim va ijtimoiy faoliyati.
5. https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/03/mahkmudkhodja-behbudiy.

## JADIDCHILIK FAOLIYATINING HOZIRGI YANGI O‘ZBEKISTON MADANIY VA MA’RIFIY RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

***Ahmadqulova Vaziraxon Solijon qizi,***
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*
*Siyosatshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari, uning asosiy g‘oyalari va hozirgi Yangi O‘zbekiston sharoitidagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan islohotchi qarashlar, ma’rifiy yondashuvlar va madaniy o‘zgarishlar bugungi taraqqiyot yo‘lida qanday yangicha mazmun kasb etayotgani ilmiy asosda yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, Yangi O‘zbekiston, islohot, ma’rifat, madaniyat, milliy uyg‘onish, tarixiy meros.

Jamiyatning yuksalishi, uning yanada taraqqiy etishi, xalqaro siyosiy maydondagi o‘rni, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan raqobat qila olishi o‘z navbatida mamlakatning ma’naviyat va ma’rifat sohasi bilan bog‘liq. Bugungi globallashuv davrida har bir mamalakat uchun ilm-fanning rivoji taraqqiyotning asosini belgilab beradi. Chunki axborot texnologiyalari, kommunikatsiya jadallashayotgan bir paytda zamonaviy salohiyatga ega intellektual yosh avlodni tarbiyalash ustuvor maqsadga aylandi deyish mumkin. Zero, Prezidentimiz aytganidek, najot – ta’limda, mamlakatimiz va xalqimiz taqdiri esa bilimli, zakovatli, ijodkor va bunyodkor yoshlar qo‘lidadir”. Ayniqsa, bugungi kunda o‘z kasbining ustasi, zamonaviy intellektual salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarga jahon miqyosida ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Hozirda yoshlarga sifatli va zamonaviy ta’lim berish, ularni yanada qiziqishlarini orttirish va kasb-hunarga yo‘naltirish asosiy vazifalardan biridir.

“Odamzot naslining ulug‘ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. Uquv-idrok va bilim egasi bo‘lgan har qanday odam sharaflidir.

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,
Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq”. [3, 15]

Darhaqiqat, bilimli odam har qanday muammoni tezda aql bilan hal etadi. Bilimli insonni xalq orasida ham martabasi yuksak bo‘ladi. Tarixdan bizga ma’lumki, barcha ota-bobolarimiz ilmni qadrlashgan. Qanchadan-qancha daholar yetishib chiqmadi bu eldan? Ko‘p emas, bir asrlar oldingi vaqtga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jadid bobolarimizning yuksak jasoratlariga amin bo‘lamiz. Ayniqsa, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida chor hukumati mustamlakachiligi siyosati tufayli ro‘y bergan fojiali voqea-hodisalarga qarama-qarshi ravishda vujudga kelgan jadidchilik harakati barcha ziyolilarni bir maqsad yo‘lida birlashtirdi. Ularning sa’y-harakatlari, barcha urinishlari zamirida xalqni ma’rifatga chorlash vazifasi ustuvor edi. Bular Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Xamza, Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy singari xalqimizning o‘nlab fidoyi farzandlari, shoir-u adiblari, davlat va siyosat arboblari edilar. Ma’rifatparvarlarning barcha qarashlari, g‘oyalari va ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma’naviy fikrlari mana shunday murakkab davrda shakllandi va rivojlandi. Jadidchilik harakatining faoliyati maktabdan, maorifdan boshlangan, so‘ng matbuot, san’at va asta-sekinlik bilan siyosatga o‘tgan. “Tarixiy tajribaning ko‘rsatishicha, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga muhim turtki bo‘lgan va milliy ozodlik g‘oyasini shakllantirib, o‘z faoliyati bilan uni amalga oshirishga uringan kuchli progressiv harakat – jadidchilik bo‘lgan”. [1, 35]

XX asr o‘zbek maorifi va madaniyati, qolaversa bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar sabablidir. Ular birinchi bo‘lib zamonaviy maktab g‘oyasini ilgari surdilar, o‘nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan qancha yoshlarni taraqqiy etgan Yevropa mamlakatlariga o‘qishga yuborishga muvaffaq bo‘ldilar. O‘zbek teatrining birinchi g‘ishtini qo‘ygan, nashr-u matbuotini boshlab bergan ham shulardir. Jadidlar o‘z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she’r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urindilar. Davr qanchalik og‘ir bo‘lishiga qaramay, ularni to‘xtatishga qodir kuch topilmadi, oliy maqsadlari yo‘lida bir qadam ham ortga chekinishmadi.

Mana shunday jadid bobolarimizdan biri, “Turkiston jadidlarining otasi” degan ulug‘ nomga sazovor bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham xizmatlari beqiyos. U o‘z uyida tashkil qilgan “usuli jadid” maktabining barcha moddiy ta’minotlarini o‘z gardaniga oladi. “Padarkush”ning sahnaga qo‘yilishidan

kelgan asosiy daromadni Samarqand, Qo‘qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlardagi “usuli jadid” maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun qator darsliklar yaratdi va o‘z mablag‘iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo‘llanmalarni tekinga bosib tarqatdi. Samarqanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag‘i ham uning hisobidan chiqqan edi. Behbudiyning “Padarkush” dramasi o‘zbek adabiyoti tarixidagi ilk sahna asari edi. Unda jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma’rifat ulug‘lanadi. “Iloho xudoyo! Ummati islomiyaga, xususan, biz turkistonliklarga rahming kelsun!...”(ro‘moli ila ko‘z yoshini artib, chiqib ketar). [4, 7] Ziyolining tilidan aytilgan bu so‘zlar naqadar achinarli albatta. “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” [4, 5] Yana ziyoli tilidan aytilgan ushbu gaplar: “Bizlarni xonavayron… bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar… hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir…” [3, 12] Ha, chindan ham ushbu dramaning yakuni bizga saboq bo‘ladi. Behbudiyning bundan yuz yil oldin ilgari surgan g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Chunki hozir ham ilmsizlik oqibatida turli yolg‘onlarga chuv tushib aldanayotgan yoshlar yo‘q emas, albatta. Mana shu muammolarning birdan bir yechimi o‘qib-o‘rganish, bilim olishdir. Behbudiy bu pyesasi orqali har qanday zamonda ham o‘qimagan, ilmsiz odamning taqdiri ayanchli kechishini yorqin aks ettirib bergan.

Ilm-ma’rifatni rivojlantirish har qaysi zamondagi davr talabi bo‘lgani sababli, hayot davom etar ekan, ta’limda ham islohotlar qilish, yangiliklar kiritishga ehtiyoj yuqori. Bugungi kunda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi masalasi haqida gap ketganda hech kim chetda qolmasligi kerak. Negaki, hozirda innovatsion texnologiyalar davri boshlandi. Xo‘sh, yangi davr bilan hamnafas bo‘lish uchun nimalar qilish zarur? Ta’lim davlat siyosatiga ko‘tarilgan bir paytda, O‘zbekistonni tom ma’noda raqobatbardosh mamlakatga aylantirish maqsadida qanday islohotlarni amalga oshirilmog‘imiz lozim? “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” kabi tushunchalarni ham ilm-fan rivojidagi dastlabki qadamlar deyish mumkin. Yangi davr bo‘sag‘asida turar ekanmiz, bizga, albatta, jadid bobolarimizning ibratli hayot yo‘llari o‘rnak bo‘la oladi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Uchinchi Renessans g‘oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog‘i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, reja-yu istiqbol dasturlarimiz, ta’lim-tarbiya va kadrlar siyosati investitsion siyosat – barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog‘i

lozim”. “Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Ushbu atama o‘zbek tiliga “Uyg‘onish davri” deb o‘girilgan. Biz ikki Renessansni boshdan kechirdik. Har ikki Renessans davrida ham bizning diyorimizdan qanchadan-qancha allomalar yetishib chiqdi. Agar yana mana shunday natijalarga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz lozim. Bugun Prezidentimiz o‘rtaga Uchinchi Renessans masalasini qo‘ydilar. Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanmog‘i kerak deya, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni barpo qildilar. Zero, ushbu ta’lim maskanlarida tahsil olayotgan yosh avlod O‘zbekistonimizning buyuk kelajagiga zamin yaratadi. “Mamlakatimizda ilm-fanni dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagan darajada rivojlantirish uchun sizlarga va barcha olimlar, ilmiy jamoalarga zamonaviy shart-sharoitlarni yaratib berish biz uchun ham qarz, ham farzdir”. [6, 178] “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma’naviyat”.

Ta’lim tadqiqotchisi, o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha xalqaro PISA tadqiqoti asoschisi Andreas Shlyayxerning “Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak?” nomli noyob asarining so‘zboshi mana bunday boshlanadi: “O‘z hayotini kelajak avlodlar tarbiyasiga bag‘ishlaydigan, orzularini ro‘yobga chiqarishda ularga yordam beradigan va barcha qiyinchiliklarga qaramay, ko‘pincha o‘zlari chinakamiga loyiq bo‘lgan e’tiroflarga sazovor bo‘lmay, kelajagimizni belgilab beradigan kishilar – butun dunyo o‘qituvchilariga.” U ushbu asarda ta’limga oid bir qancha kamchiliklarni ochib beradi. Andreas Shlyayxer yana shuni ham ta’kidlab o‘tadiki, “Ta’lim siyosatini belgilovchi shaxslar oldida turgan eng katta qiyinchiliklardan biri bilimga asoslangan hozirgi zamon jamiyatida o‘qitish sifatini ta’minlash va o‘qituvchilar malakasini oshirishdadir”. [2, 255]

Hozirda xalqaro tajribalarni o‘rganish, ulardan foydalanish, shuningdek, o‘z navbatida o‘qituvchi pedagoglarning malakasini yanada oshirish uchun bir qancha davlatlar bilan keng aloqalar yo‘lga qo‘yilgan

Xulosa qilib aytganda, jadid bobolarimiz bosib o‘tgan har bir yo‘l biz uchun ibratdir. O‘tmishdan faqatgina yaxshi xulosalar chiqarish va tarix xatolarini qayta takrorlamaslik orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Jadidlar tarixning murakkab, mas’uliyatli davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan

ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmasiga oldilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini shuncha ko‘p anglab yetadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T., Universitet nashriyoti. 1999. –B. 35.
2. Shlyayxer A. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak_. Toshkent. Zamin Nashr nashriyoti. 2022. –B. 255.
3. Yusuf Xos Hojib. Saodatga eltuvchi bilim. –T., Cho‘lpon nashriyoti. 2007. –B. 15.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy: Padarkush. –B. 7.
5. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent; 2021. –B. 5.
6. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent. 2017. –B. 178.


## O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MILLIY MANFAATLARNING USTUVORLIGI


***Aliyeva Ozoda,***

*ISFT – Xalqaro moliyaviy texnologiyalar instiuti talabasi*


Yurtimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, CCCP (Sobiq ROssiya Sovet Ittifoqi) davrida yurtimiz tarixi o’rganilmagan. O’zligini unutish, o’z milliyligi va kelib chiqishini unutish kabi holatlar bo’lgani hech birimiz uchun sir emas.Inson dunyoga kelib, o’z onasi qo’lida o’sib-ulg’ayadi va shu orqali insonlarga va yaqin insonlarga nisbatan mehr ko’rsatishni o’rganadi. Insonlarda Vatanga muhabbat yaqinlariga nisbatan paydo bo’lgan mehr kabi vujudga keladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng,ko’plab islohotlar amalga oshirildi. Yo’qolib ketish arafasida bo’lgan qadimiy yodgorliklar, joylar, kitoblar va shular bilan birga milliy qadriyatlar va an’analarni ham saqlab qolgan. Yurtboshimiz mustaqillik yillarida saqlab qolgan ko’plab milliy qadriyatlarimiz va an’analarimiz hozirgi kungacha tub aholi tomonidan ardoqlab keying avlodga meros qoldirilsa, chet elliklarni qiziqtirgan ekspananantlar muzeylarda chet ellik

mehmonlar uchun taqdim qilinadi.Bugungi kunga kelib yurtimizda qadriyatlarni saqlab qolish uchun yurtboshimiz tomonidan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida yurtimizning koplab hududlarida (Surhondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm) kabi joylarda qadriyatlarimizni o'zida namoyon qilgan muzeylar,qadimiy qadamjolar,binolar va shu kabilar yurtimizda kopaytirilmoqda. Hammmamizga ma'lumki,yurtimiz turfa xil milliy qadriyatlarga,milliy an'analarga va shu kabi qadimdan mavjud bo'lgan million urf-odatlarimiz hozirgi kundan-kunga rivojlaniyotgan dunyoda bizning yurtimizda saqlab qolingani ba'zi javhalarda qiziq. Davlatimiz rahbari yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlarning hammasi samarali bo'lishi bilan birga milliyligini saqlab qolishini ham inobatga olgan holda yangi qarorlar majmualarini qabul qiladi. Davlatning milliyligini saqlab qolish,milliyligini boshqa bir davlat oldida ko'rsatib,uni targ'ib qila olish ham katta bir muvaffaqiyatga olib boruvchi yo'l boshlanishi deyishimiz mumkin.

Mamlakatimiz hududida milliylikni targ'ib qilish uchun tadbirlar o'tkazilayotgani haqida yuqorida ta'kidlaganimizdek, haftaning har juma kuni yurtimizda "MILLIY LIBOSLAR" haftaligi deb e'lon qilingan. Mlliy liboslar ham madaniyatni targ'ib qilishning bir ko'rinishi. Xalqaro miqyosdagi bayram va tadbirlarda ham O'zbekiston o'z milliy qadriyatlarini namoyish qilgan holda faol ishtirok etadi.

Bugungi kunda xalqaro darajadagi tadbirlar, konferensiya va referendmklarni o'tkazishdan asosiy maqsad-davlatning urf-odatlarini targ'ib qilgan holda uni hozirgi vaqtga qadar saqlab qolinganini ko'rsatish, o'tmishda ota-ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan muhim qadriyatlarning yo'qolmaganligini ko'rsatib bera olish. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng,ko'plab davlatlar bilan do'stlik shartnomalarni imzoladi.

Shu bilan birga, do'slik aloqalari o'rnatilgan har bir davlar madaniyati bizning yurtimizda ham keng targi'ib qilindi va omma e'tiboriga tusha oldi. Bularga misol tariqasida turk madaniyati, Yevropa mamlakati madaniyati kirib kelishi kishilar uchun yangilik bola oldi. Yurtimiz madaniyatiga qiziquvchilar ko'p bo'lganligi tufayli har yili yurtimizga mingga yaqin turistlar tashrif buyuradi.Turistlar uchun qiziq bo'lgan javhalar:qadimgi qadamjolar,qadimiy binolar,milliy liboslar va milliy urf-odatlar. Tashrif buyurovchi har bir davlat mehmonlari alohida e'tiboir kutib olinadi. Tashrif buyurganlar yurtimizda ko'p hollarda ushbu grafik kabi sayohat qilishadi:

1. Shaharning eng zamonaviy joylarida bo'lish.
2. Eng mazali milliy taomlar tayyorlanadigan joylarga borish.

3. Milliylikni targ'ib qiladigan tadbir yoki marosimda ishtirok etish.

Yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi davlatning ichida milliylikni chet elga targ'ib qilish hisoblansa, Tashqi siyosatda ya'ni Xalqaro mnosabatlarda milliylikni targ'ib qilish insonning o'ziga bog'liq taraflari bor.Misol uchun diplomatic uchrashuvlarda diplomat va ikki davlat vakillari o'rtasidagi madaniyat almashinuvi quyidagicha bo'ladi:

1. Davlat vakillarining salomlashuvlari.
2. Muloqot davomidagi suhbatlar.
3. Kiyinish odobi.

Ushbu sanab o'tilgan muloqot turlarida davlat rahbarlari o'z madaniyatlarini ko'rsatishadi. Xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlar ustuvorligi, ularni targ'ib qila olish har bir vatanini sevuvchi insonning burchi. Davlatlar o'rtasida milliylikni oshirish, qadriyatlarni saqlab ularni kelasi avlodlarga ham o'rnak qilib ko'rsata oladigan darajada saqlab qolishj. Hozirgi davrda mamlakatlar o'rtasida muloqot qilish ancha qulay.Kundan-kunga rivojlanib borayotgan dunyoda milliyligini yo'qotgan, o'z an'analarini saqlab qolgan davlatlar ancha kam. Kam sonli davlatlar qatoriga O'zbekistonning kirgani bizning yutug'imizdir. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan an'ana va qadriyatlarga tayangan holda, qonnlar qabul qilish, ularni kelasi avlodlarga o'z holicha qoldirish uchun qilinayotgan harakatlar o'z natijasini ko'rsatishni boshlagan.Insonlar moddiyat tomonlama o'zlarini ta'minlashadi va shu bilan hayotlarini o'z izida ketishini ta'minlashadi. Ma'naviy tomonlama inson ongida shakllanishi kerak bo'lgan ba'zi narsalar insonlarda ba'zi hollarda shakllanmagan boladi.Jamiyatimizda qadriyatlarga sodiq qolish, ularga amal qilishga katta e'tibor beriladi.

O'bekistonning tashqi siyosati milliy manfaatlartni himoya qilish va mstahkamlashga yo'naltirilgan. Bu siyosat suverenitetni mustahkamlash, mintaqaviy hamkorlikni ta'minlash va xalqaroi maydonda mamlakatning nufuzini oshirishga qaratilgan. Bundan tashqari, pragmatic va ko'p vektorli yondashuv O'zbekistonga tashqi siyosatda muvozanatni saqlash va milliy manfaatlarni himoya qilish imkonini beradi. O'zbekiston o'zi hamkorlik qiladigan har bir davlat bilan birga olib boradigan hamkorlikdagi ishlari davlat milliyligi yo'qolmagan holda olib borilishi har doim kafolatlanadi. Davlatlar milliyligi har bir millatning o'zi uchun qadrli bo'lisi shubxasiz va har qanday xalq ham o'z madaniyatini saqlab qolishni xohlaydi. Yillar davomida rivojlanib kelgan madaniyatlar boshqa xalq tomonidan o'rganilishi har doim qiziq bo'lgan va uni o'rganishga ba'zi insonlarda xohish juda yuqori bo'lgan. Bugungi kun

yoshlari madaniyatimiz targ’ibchilari hisoblanadi. Shu sabadan yosh kelajak avlodga o’zimizdan yaxshi va o’rnak bo’ladigan milliyligimizni targ’ib qiladigan xotira qoldirishimiz kerak.

Milliy manfaatlar deganda nafaqat bizning qadriyatlarimiz, o’tmishdan mavjud bo’lib,hozirda ham unutilmagan qadriyatlar bilan birga bizning hozirgi kunimiz ham tushuniladi. Shunday ekan, kelajak avlodga o’rnak bo’la oladigan inson bo’lishimiz kerak.

## TURON ZAMINIDA JADIDCHILIK HARAKATI

***Axtamova Aziza Otabek qizi***
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*
*Koreys filologiya yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri –XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining maqsadlari,asosiy vakillari va ularning O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni tahlil etiladi.Shuningdek,bugungi yoshlarning jadidlar merosini davom ettirishi,ilm-ma’rifat yo‘lida tutgan o’rni misolida muallif o’z nuqtayi nazariyasini bayon qiladi.Jadidlar faoliyatining dolzarbligi va hozirgi davrdagi ahamiyati yoritilib beriladi.Jadidlar faoliyatining dolzarbligi va hozirgi davrdagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, Mahmudxo‘ja behbudiy, Abdulla Avloniy ma’rifat, islohot, yoshlar, tarix, milliy uyg’onish.

Jadidchilik – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi. Aslida «jadid» so‘zining ma’nosi «yangi» demakdir. Lekin u shunchaki «yangi», «yangiliktarafdori» degani emas, balki «yangi tafakkur», «yangi inson, «yangi avlod»singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan.

Jadidchilik – davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etishvamillatnirivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan hamda aniq amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan g‘oyalar tizimi. Bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta ro‘l o‘ynagan Turkistondek bir tarixiy o‘lkada sharqona hayot tarzini saqlagan holda uni G‘arb va Yevropa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko‘zlagan.

Jadidchilik harakati siyosiy ma’rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko‘tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a’zolari o‘z faoliyati va

dasturiga ko‘ra, sho‘ro adabiyotlarida aytilganidek, „bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari“ emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o‘ylab ish ko‘rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi.

Jadid adabiyoti nomi bilan tarixda qolgan, mavzu mundarijasi, g‘oyaviy-badiiy mazmuni, badiiy-estetik jihatdan yuksak asarlar XX asr milliy so‘z san’ati taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr adabiyoti xalqni ma’rifatli qilish, tengsizlik va adolatsizlik hukmron tuzumdan xalos bo‘lib, mustaqillikni qo‘lga kiritish, o‘zligini qadim turkiy xalqlar taqdiridan ajratmagan holda anglash kabi buyuk g‘oyalar asosiga qurilgan edi.

Jadid adabiyoti mavzu-mundarijasida dastlab ma’rifat g‘oyalari yetakchilik qilgan bo‘lsa, keyinchalik bu mavzular o‘rnini mustamlakachilikka qarshi kurash, ozodlik g‘oyalari egalladi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Cho‘lponning “Do‘xtir Muhammadiyor” kabi qator asarlarda o‘lkadagi savodsizlik, ma’rifatga loqaydlikning mudhish oqibatlari haqida so‘z borsa, “Hind ixtilolchilari”, “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz” kabi asarlarida erk va ozodlik g‘oyalari anchayin keskin va oshkora tarzda badiiy talqin etilganini ko‘rish mumkin. Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo‘lib, “Taraqqiy” gazetasi asoschisi, birinchi o‘zbek dramaturgi sifatida tanilgan. Uning asarlari orqali xalqni ijtimoiy muammolar ustida fikrlashga undagan.

Abdulla Avloniy – pedagog, ma’rifatchi va adib. U “Turkiy guliston yoxud axloq” asari orqali yosh avlodni tarbiyalashda axloqiy-ruhiy qadriyatlarni targ‘ib qilgan.Munavvarqori Abdurashidxonov – ilm-ma’rifat targ‘ibotchisi, o‘zbek tilida darsliklar yozgan, yangi usuldagi maktablarni tashkil etgan. Adabiy tildagi turli islohotlar, ular bilan bog‘liq muammo va takliflarni jadidlar matbuoti yoritib bordi. «Chig‘atoy gurungi» o‘z qarashlarini Fitrat boshchiligida nashr bo‘lgan «Tong» jurnalida e’lon qildi. «Miya o‘zgarmaguncha boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas» degan gap ularning shiori edi. Zamonaviy adabiy til uchun qoidalar ishlab chiqildi.

Mustaqillik yillarida jadidlar merosi qayta tiklandi, ular yozgan asarlar nashr qilina boshladi, ularning ismlari ko‘chalarga, maktablarga berildi. Hozirgi kunda ular ilgari surgan ma’rifatparvarlik, ijtimoiy uyg‘onish, milliy o‘zlikni anglash kabi g‘oyalar zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, taraqqiyot strategiyalari ham aslida jadidlarning orzulariga muvofiq – zamonaviy, ilm-fanli, o‘z tarixiy ildizlarini anglagan va kelajakka intiluvchi jamiyat barpo etish bilan bog‘liq. Bugungi ta’lim islohotlari, yoshlar siyosati, milliy o‘zlik va ma’naviyatga berilayotgan e’tibor aslida jadidlarning orzulari amalga oshayotganidan dalolatdir. Jadidlar shunchaki tarixiy harakat emas – ular bugungi kunning ildizi, zamonaviylikning poydevori, kelajak sari intilayotgan avlodlar uchun namuna bo‘la oladigan buyuk merosdir.

Jadidlar ilgari surgan asosiy g‘oyalar uch yo‘nalishda jamlanadi: ta’limni isloh qilish, milliy o‘zlikni tiklash va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish. Ularning fikricha, bu uch asosiy yo‘nalish orqali jamiyat jaholatdan xalos bo‘lishi mumkin. Behbudiy “Ravshanlikka olib boruvchi yo‘l – ilm va ma’rifatdir” degan edi. Ularning faoliyati orqali o‘zbek, tojik, tatar va boshqa musulmon xalqlari o‘z tarixini, madaniyatini, tilini qayta anglay boshladilar.

Yangi usul maktablari – jadidchilikning amaliy ko‘rinishi ta’lim sohasida jadidlar tub burilish yasadilar. Ular maktablar ochib, bolalarga faqatgina diniy emas, balki dunyoviy fanlarni ham o‘rgatdilar. Matematika, geografiya, tarix, jismoniy tarbiya, hatto biologiya kabi fanlar o‘qitila boshladi. Bunday maktablar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bolalarning erkin fikrlashi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan. Munavvar qori Abdurashidxonovning Toshkentdagi yangi usul maktabi bu borada muhim qadam bo‘lgan.

Yangi usul maktablarining ochilishi ko‘plab musulmon jamiyatlarida qarshiliklarga duch kelgan bo‘lsa-da, bu maktablar tez orada keng omma orasida mashhurlikka erishdi. Ayniqsa, o‘quvchilar orasida qizlar sonining ortishi jadidlarning jamiyatda ayolning o‘rnini ko‘tarishga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Ular ayollar taqdirini ham muhokama qilib, ularni ham bilim olishga da’vat etgan.

Jadidlar milliy matbuotni jamiyat ongini uyg‘otishdagi kuchli vosita deb bildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1912-yilda “Oyna” jurnalini nashr qilishni boshladi. Bu jurnal nafaqat ilm-fan, ma’rifat, madaniyat haqida, balki siyosiy holat, xalq muammolari, milliy o‘zlik haqida ham maqolalar chop etardi. Shuningdek, Fitrat, Cho‘lpon, Abdurauf Munzim kabi ziyolilar she’riy va publitsistik asarlar orqali xalqni hushyorlikka, ogohlikka, o‘zligini tiklashga undashdi. Cho‘lponning “Bodomzor”, Fitratning “Sayha” asarlarida millatning azoblari, erksizlik va qoloqlik muammosi o‘tkir til bilan bayon qilingan. Bunday asarlar xalqning milliy ongini uyg‘otdi, ozodlikka bo‘lgan intilishini kuchaytirdi.

Jadid adabiyoti ilk bor badiiy ijod orqali siyosiy va ijtimoiy tanqidni yurita boshladi. Jadidlar faqat ma’rifat bilan emas, siyosiy ongni uyg‘otish bilan ham shug‘ullandilar. Ular xalqni mustamlakachilik siyosatiga qarshi ruhlantirish, siyosiy erkinlik, mustaqil fikr va jamiyatda adolatli tizim uchun kurashishga chaqirdilar.

Fitrat o‘z asarlarida musulmon xalqining siyosiy huquqlari haqida fikr bildirgan, taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni ochiq aytgan. Buxoro, Xiva va Qo‘qon kabi tarixiy hududlarda jadidlarning faoliyati natijasida islohotchilar va mustamlaka ma’muriyati o‘rtasida keskin qarama-qarshilik yuzaga kelgan. Buxoroda jadidlar Eski Buxoro amirligi tartiblariga qarshi turib, yangi ijtimoiy tizimni joriy etmoqchi bo‘ldilar. Afsuski, bu islohotlar kuch bilan bostirildi.

**Xulosa:** Zamonaviy yoshlar, xususan, til o‘rganish, ilmiy izlanishlar olib borish, madaniy merosni o‘rganish orqali jadidlarning orzularini davom ettirmoqda. Bu esa Turon zaminidagi jadidchilik harakati yashayotganining isbotidir.Jadidchilik harakati – tarixiy Turon zaminida milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilgan, ilm-ma’rifatni asosiy vosita deb bilgan harakatdir. Bu harakatning ildizlari chuqur, ta’siri esa keng qamrovli bo‘lgan. Bugungi kunda jadidlar merosi biz uchun nafaqat tarixiy tajriba, balki istiqbolga yo‘l ko‘rsatuvchi manbadir. Turon zamirida boshlangan bu harakat bugungi avlod tafakkurida davom etayotgani quvonarlidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xo‘jamberdiyeva m. Jadidchilik va jadidlarning ma’rifatparvarlik g ‘oyalari //Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Т. 10. – №. 1. – С. 207-211.
2. Haydarovna S. R. Jadidchilik harakatlarining hozirgi davr adabiyoti rivojidagi o’rni va ahamiyati //interdiscipline innovation and scientific research conference. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 101-104.
3. Kuchqarova, Rahimahon. "Jadidchilik harakati va uning o ‘rta osiyo tarixidagi o ‘rni." transforming education through scientific discovery 1.1 (2025): 1256-1262.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik.
5. Qayum Ramazon. Jadidchilik-milliy uyg‘onish harakati. -T.: “Fan”, 2010.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING AHAMIYATI

***Abduxalilova Moxro'yo***
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*
***Ilmiy rahbar Jaxongir Turobov***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarixiy meros, zamonaviy siyosiy strategiyalar va yoshlar tarbiyasida bu g‘oyalar qanday qo‘llanilayotgani ochib beriladi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti bevosita fuqarolarning ma’naviy yetukligi, yuksak axloqiy madaniyatga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar faqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda emas, balki inson qalbi, ongi va tafakkurini yuksaltirishga ham qaratilmoqda. Ayniqsa, qadimdan o‘zbek jamiyatida muhim o‘rin tutgan ma’rifatparvarlik g‘oyalarining qayta jonlanishi bu borada muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi[3]. Yangi O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi islohotlar chuqur va izchil olib borilmoqda[1]. Ayniqsa, o‘zbek ma’rifatparvarlari – Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlarning boy merosi davlat siyosatining ma’naviy asosiga aylanmoqda[8]. Ularning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, ilm-fan, axloq-odob, vatanparvarlik g‘oyalari hozirgi kunda yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutmoqda[2].

Birinchidan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va farovonlik yo‘li” konsepsiyasida inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarni ma’rifat ruhida tarbiyalash asosiy maqsad etib belgilangan[1]. Shu bois bugungi kunda maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy darslar soni ko‘paytirilmoqda, o‘quv dasturlari zamonaviy talablarga mos ravishda yangilanmoqda.

Ikkinchidan, yoshlar bilan ishlashda ma’rifatparvarlik g‘oyalariga asoslangan yondashuv kuchaymoqda. Yoshlar agentligi, Yoshlar ittifoqi, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, kitobxonlik haftaliklari, ilmiy-ijodiy tanlovlar o‘tkazilmoqda[4]. Bunda

ma’rifatparvarlarning asarlari targ‘ib qilinayotgani, ularning hayoti va faoliyati asosida videofilmlar, teatr sahnalari yaratilayotgani alohida e’tiborga loyiqdir.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni keng qamrovli tarzda olib borish imkoniyati yaratildi. “Ma’naviyat va ma’rifat” platformalari, elektron kutubxonalar, ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot ishlari ma’rifat g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishda muhim vositaga aylandi[6]. Jumladan, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik portallar, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan taqdim etilayotgan “ma’naviy saboqlar” onlayn darslari bunga misoldir[2].

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba va hamkorlik asosida o‘zbek ma’rifatparvarligining universal qadriyatlari targ‘ib qilinmoqda. UNESCO, ISESCO kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan loyihalarda O‘zbekistonning ma’naviy merosi, jumladan, jadidchilik harakati keng yoritilmoqda. Bu esa nafaqat milliy, balki global miqyosda ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarning e’tirof etilishiga xizmat qilmoqda[7].

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvarlik g‘oyalari nafaqat tarixiy meros sifatida, balki amaliy hayotiy zarurat sifatida qadrlanmoqda. Ular asosida shakllanayotgan yangi avlod – intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi. Bu esa mamlakat kelajagini porloq qilishda muhim omildir. Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish – bu nafaqat davlat siyosati, balki har bir fuqaroning ijtimoiy mas’uliyatiga aylanishi kerak bo‘lgan jarayondir. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari bu yo‘lda ishonchli tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular nafaqat o‘zbek xalqining tarixiy identitetini, balki kelajak avlodning dunyoqarashini ham shakllantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va farovonlik yo‘li. –T., 2021.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –T., 1992.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Ziyokov B. Ma’naviyat asoslari. –T., 2019.
5. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi.
6. www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.
7. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.
8. Qayumov S. Jadidlar merosi va zamonaviylik. – T.: Fan, 2020.

# JADIDCHILIK TARIXI VA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY ROLI

***Jo'rayeva Zulayxo***
O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs bakalavrianti
**Ilmiy maslahatchi: Xushmatova Gulnoza**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari, asosiy g‘oyalari va ijtimoiy hayotga ko‘rsatgan ta’siri tahlil etiladi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan islohotlar – xususan, ta’lim tizimining yangilanishi, matbuot va sahna san’ati orqali jamiyat ongini o‘zgartirishga bo‘lgan urinishlar yoritiladi. Maqolada jadidlar faoliyatining Turkiston jamiyatida milliy ong, ma’rifat va zamonaviy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi, hamda ularning merosining bugungi O‘zbekiston hayotidagi dolzarbligi tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, O‘zbekiston, islohot, ta’lim, ma’rifatparvarlik, ijtimoiy hayot, milliy uyg‘onish, jadid maktablari, matbuot, madaniyat, tarixiy meros.

Jadidchilik harakatining O‘zbekistonda shakllanishiga turtki bo‘lgan muhim voqea – 1884-yilda Qrimda Ismoil G‘aspirali tomonidan tashkil etilgan birinchi jadid maktabining ochilishidir. Ushbu maktab orqali yangi usulda ta’lim berish g‘oyasi yoyila boshladi va bu Turkiston hududidagi ma’rifatparvar ziyolilar orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Ismoil G‘aspirali ilgari surgan “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori Turkiston jadidlari faoliyatiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Aynan shu davrdan boshlab, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi ilg‘or fikrli ziyolilar yangi usuldagi maktablar tashkil etib, diniy-ma’rifiy islohotlarga kirisha boshladilar. Ular ta’limni dunyoviy fanlar bilan boyitish, milliy ongni uyg‘otish va xalqni jaholatdan chiqarishni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘ygan edilar. [1]

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha - yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda paydo bo'lgan bo'lsa, XIX asrning 90-yillaridan esa O'rta Osiyoda tarqala boshladi. [2]

Jadidchilik harakati o'z o'rnida , O‘rta Osiyoda, xususan, Turkistonda ta’lim tizimining istiqbolli yuksalishiga olib keldi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi bosqini ostida yashayotgan musulmon xalqlarning o‘zligini saqlab

qolish, ilm-fan va zamonaviy ta’lim orqali rivojlanishga intilishi ham jadidchilik harakatining bosqichma-bosqich ommalashishiga olib keldi.

Turli xil ijtimoiy va siyosiy omillar, jumladan, ta’lim va madaniyatga ta’sir etuvchi yangiliklar, jadidlar harakatining shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

Jadidlar harakati bilan bog‘liq adabiyotlar nihoyatda ko‘p va mazmun jihatdan xilma-xil bo‘lib, bu harakatning ijtimoiy, madaniy va dini hayotga ta’sirini keng qamrab oladi. Ushbu adabiyotlarda jadidlar faoliyatining tarixiy kontekstdagi o‘rni, ularning zamon ruhi bilan uyg‘unligi hamda jamiyatga ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar jadidlar ta’limi, madaniyati va dini qarashlarini tahlil qilish orqali ulardagi milliy ongni uyg‘otish, modernizm g‘oyalarini tarqatish va jamiyatda yangi fikrlash tarzini shakllantirishdagi o‘rnini ochib bermoqdalar.

Jadidlar Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik, jaholat va diniy xurofotlardan xalos etishni o‘zlarining asosiy maqsadi deb bildilar. Ular diniy ta’limot va shariatni zamonaviy tafakkur asosida isloh qilish, uni hayotiy ehtiyojlarga moslashtirish tarafdori edilar. Jadidlar, ayniqsa, xalq orasida savodsizlikni bartaraf etish va ma’rifat targ‘iboti orqali ilm ahli orasida uyg‘onish harakatini kuchaytirishga harakat qildilar.

Bu yo‘lda ular yangi usuldagi maktablar ochish, darsliklar yaratish, matbuotni rivojlantirish va teatr orqali xalq ongini uyg‘otishga katta hissa qo‘shdilar. Ayniqsa, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo’latbek Norbo’tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo’jayev Usmonxo’ja Po’latxo’jayev, Sadriddin Ayniy,, Abduqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho’lpon Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So’fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O’sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) va boshqa jadidlar milliy mustaqillik g‘oyalarini ilgari surdilar.

Jadidlar Turkistonda siyosiy mustaqillikka erishish yo‘lida ham faol harakat qildilar. 1917-yilgi Fevral inqilobidan so‘ng ular Turkiston Muxtoriyatini e’lon qilib, o‘z hukumatini barpo etishga urindilar. Muxtoriyat g‘oyasi orqali ular demokratiya, erkinlik, matbuot va ta’lim erkinligini ta’minlash, milliy armiya tashkil etish va barqaror iqtisodiy siyosat olib borishni maqsad qilgan edilar. Shuningdek, Buxoro va Xiva xonliklarida konstitutsiyaviy monarxiya asosida islohotlar o‘tkazish, keyinchalik esa bu hududlarda demokratik respublika tuzumi joriy qilish orqali ozod, adolatli va farovon jamiyat qurish niyatida

bo‘ldilar. Ular barqaror milliy valyutani joriy qilish, moliyaviy mustaqillikni ta’minlash va zamonaviy harbiy tizim asosida milliy qo‘shin tuzish tarafdori edilar. [3]

1908-yil Turkiyada bo‘lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari bilan cheklanib qolmasdan turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaraglarida ham to‘planishar edi. Ularning ko‘pchiligi shu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari shoir-u yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-yillardayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga „millat“ va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga rag‘bat kuchaydi.

Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publististika va realistic proza kabi tushunchalarning kirib kelishiga va bu oqimlarning rivojlanishiga olib keldi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O’zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti deb davrlashtirildi. 1919-yilda Toshkentning Eski shahar qismi (hozirgi „Turon“ kutubxonasi yonidagi binoda) jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo‘limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san’at vositasi bilan millat qadrini ko‘tarish, san’atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. „O‘zbekiston Respublikasi“ maxsus jildining tegishli bo‘limlariga – adabiyoti teatri, musiqasiga jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasini kun tartibiga qo‘ydilar.[4]

Yuqoridagi sanalgan sohalar bilan birgalikda, jadidlar matbuotda ham ustunlikka erishgan edilar. Xususan, Jadidlar tomonidan Toshkentda 1905–1906-yillarda “Taraqqiy” (muharriri – Ismoil Obiliy), “Xurshid” (muharriri – Munavvarqori), 1907–1908-yillarda “Shuhrat” (muharriri – abdulla Avloniy), “Osiyo” (muharriri – Ahmadjon Bektemirov), „Turon“ (muharriri – G’iyos maxsum Husayniy), Toshkentda “Sadoyi Turkiston” (muharriri – Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev), Qo’qonda “Sadoyi Farg‘ona” (muharriri – Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913–1915-yillarda “Oyina” (muharriri – Mahmudxo‘ja Behbudiy) va boshqa shu kabi jurnallar nashr qilindi. [6]

**Xulosa.** Jadidlar bo‘lmaganida nimalar bo‘lgan bo‘lishi mumkin edi? Agar jadidlar harakati paydo bo‘lmaganida, O‘zbekiston zamini hali ham XIX asr tafakkur qoloqligi doirasida qolishi mumkin edi. Umumxalq savodsizlik darajasi uzoq yillarga cho‘zilar, milliy uyg‘onish harakati kechikardi.

Shuningdek, milliy o‘zlikni anglash, milliy adabiyot, matbuot, san’at va teatr kabi sohalar shakllanmay qolishi mumkin edi.

Milliy matbuot, maktablar, o‘zbek tilida ilm-fan bilan bog‘liq terminlarning yaratilishi – bular jadidlar orqali boshlangan va keyinchalik mustaqil O‘zbekiston madaniyatining ildiziga aylangan omillardir. Ular bo‘lmaganda, milliy tafakkur va siyosiy ong hali uzoq vaqt mustamlaka yuki ostida qolib ketishi mumkin edi.

1. O‘qituvchilikning milliy modelini yaratishgan. Jadidlar maktabda faqat dars bermas, balki shaxs tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, vatanga muhabbat, zamonaviy fanlarga ochiqlik kabi tamoyillarni bir butun holda targ‘ib qilishgan. Bugungi pedagogika – bu tamoyillarning zamonaviy davomidir.

2. O‘zbek tilini ilm tili sifatida shakllantirishgan. Jadidlar fizika, matematika, geografiya kabi fanlar uchun ilk bor o‘zbek tilida atamalar yaratganlar. Bu – o‘zbek tilining ilmiy tilga aylanishida tarixiy burilish bo‘lgan.

3. Ilmiy mustaqillik g‘oyasi. Ular rus mustamlakasiga qaram bo‘lmasdan, musulmon jamiyatining o‘z yo‘lidan borishi, o‘z ijtimoiy-ilmiy maktabini yaratishi kerakligini ilgari surganlar. Bu mustaqillik fikri keyinchalik siyosiy mustaqillik asosiga aylandi.

Bugungi kun bilan bog‘liqligi:

Bugun “jadidlik” so‘zi faqat tarixiy harakat emas, balki zamonaviy tafakkurning sinonimiga aylanmoqda. Yangi avlod jadidlaridek: tanqidiy fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas, milliy g‘ururga ega, lekin dunyoqarashi keng insonlar bo‘lishi kerak.

Shu sababli, mustaqil O‘zbekistonda jadidchilik harakatini faqatgina o‘tmish uchun emas, balki kelajak sari yo‘l ko‘rsatadigan ma’naviy nur desak mubolag’a bo’lmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:


1. Rasulov, Habibulla. Jadidchilik tarixidan lavhalar. – T.: O‘zbekiston, 1993.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik# S.Ahmedov, Q.Rajabov (2000-2005). "Jadidchilik". O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. A.Mamadjanov. Turkiston jadidchiligi va uning taqdiri. –T.: Sharq, 2000.
4. Ziyo.net maqolalari:
5. Yusufbek Haji. Jadidlar va ularning tarixiy merosi. –T.: Ma’naviyat, 2010.
6. Bekmirzayev, U. O‘zbek matbuoti tarixi. – T.: Universitet, 2005.

# ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ASARIDA MARIFATPARVARLIK G’OYALARI

***Fayzullayeva Sevinch Rayimjon qizi***
*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*
***Xushmatova Gulnoza Norkulovna***
*Ilmiy maslahatchi*

**Annotatsiya.** Abdulla Qodiriy va uning “O‘tkan kunlar” asari o‘zbek adabiyotida yangi davrni boshlab bergan muhim yutuqdir. Bu roman nafaqat o‘tmishdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni, eski urf-odatlarni, insoniy munosabatlarni realistik tarzda yoritib beradi, balki milliy uyg‘onish, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini ham targ‘ib qiladi. “O‘tkan kunlar” orqali muallif jamiyatdagi nohaqlik va nodonliklarga qarshi turish, shaxsiy erkinlikni qo‘llab-quvvatlash, ayollar huquqlarini himoya qilish kabi muhim mavzularni ko‘targan. Shu sababli, ushbu asar nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunning ham dolzarb muammolarini yorituvchi milliy adabiyotimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Abdulla Qodiriy ijodi va “O‘tkan kunlar” asari milliy o‘zlikni saqlash, tarixiy xotirani anglash va madaniy rivojlanishga xizmat qiladi.
**Kalit so’zlar:** O’zbek adabiyoti, realizm, jadidchilik, ma’rifat, milliy uyg’onish.

**Kirish.** Abdulla Qodiriy (1894-1938) – o‘zbek adabiyotida realism asoschisi, milliy roman janrining yaratuvchisi, jadidchilik harakatining faol targ‘ibotchisi sifatida tanilgan. Uning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotining ilk realistik romani bo‘lib, XIX asr oxiri Turkistonining ijtimoiy-siyosiy hayotini, urf-odatlarini, insoniy munosabatlarini chuqur badiiy tahlil qiladi. Asar orqali muallif jadidchilik g‘oyalarini – ma’rifat, taraqqiyot, erkinlik va adolatni targ‘ib etadi.

*Abdulla Qodiriy haqida qisqacha ma’lumot.* Abdulla Qodiriy 1894 yilda Toshkentda tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni mahalliy maktabda, so‘ngra rus-tuzem maktabida olgan. Yoshligidan adabiyotga qiziqib, she’r va hikoyalar yozishni boshlagan. 1910–1920-yillarda jadidchilik harakati bilan tanishib, o‘z asarlarida bu g‘oyalarni ifoda etgan. “O‘tkan kunlar” romani 1922-1925-yillarda “Inqilob” jurnalida bo‘limlar holida e’lon qilingan, 1926-yilda esa alohida kitob sifatida nashr etilgan. 1937-yilda “xalq dushmani” sifatida hibsga olinib, 1938-yilda qatl etilgan. [1]

*Asarning tarixi va yaratilish sharoiti.* Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini 1922–1925-yillar oralig‘ida yozgan. Asar dastlab 1922-yilda “Inqilob”

jurnalida bo‘limlar holida e’lon qilingan va bu kitobxonlar tomonidan qizg’in kutib olingan. 1926-yilda esa alohida kitob sifatida nashr etilgan. Bu roman o‘zbek adabiyotidagi birinchi realistik roman hisoblanadi. Qodiriy o‘zining yozuvchilik niyatini mana shunday qisqacha izohlaydi: “Yozmoqqa niyatlanganim ushbu – ‘O‘tkan kunlar’, yangi zamon ro‘monchiligi bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havasdir.” [2]

Qodiriy bu asarni yozish orqali faqat sevgi-muhabbatni emas, balki o’sha paytdagi siyosiy jarayonlarni ochib berishga harakat qilgan. Og’ir siyosiy jarayonlar hamda mustamlakachilik muammolar haqida ochiq aytish imkonini bermas edi. “O’tkan kunlar” asarida ma’rifat va taraqqiyot, jamiyatdagi adolatsizliklar hamda muhabbat va erkinlik kabi mavzularni o’z o’rnida qo’llanilib ajoyib bir asar vujudga kelgan.

*Jadidchilik g‘oyalari bilan bog‘liqlik.* “O‘tkan kunlar” romani jadidchilik harakatining badiiy ifodasi bo‘lib, bir necha g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi, masalan:

Milliy ong va o‘zlik: Asarda milliy qadriyatlar, til, madaniyat va tarixiy xotira muhim o‘rin tutgan. Har bir Vataniga sodiq inson har qanday vaziyatda ham o’z tilini, dinini, Vatanini himoya qila oladi va bu jadidchilikning bir ko’rinishi hisoblanadi.

Ta’lim va ma’rifat: Jadidlar singari, Qodiriy ham ta’limni taraqqiyot poydevori sifatida ko‘rsatadi. Otabek kabi qahramonlar yangi maktablar ochish, zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilishni maqsad qiladi.

Ayollarning o‘rni: Kumush – aqlli, bilimli, mustaqil fikrli ayol obrazidir. Bu orqali muallif ayollar huquqlari va jamiyatdagi o‘rnini yuksaltirish g‘oyasini ilgari suradi.

*Asarning bugungi kundagi ahamiyati.* “O‘tkan kunlar” romani bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Milliy adabiyot rivojiga katta hissa qo’shilgan. Qodiriy o‘zbek adabiyotida roman janrini joriy etib, yangi yo‘nalish ochdi. Bu bugungi yozuvchilar uchun ilhom manbaidir. Asar inson erkinligi, adolat, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Bu g‘oyalar hozirgi jamiyatimizda ham muhim o‘rin tutadi.

*Tarixiy xotira: o‘tmishni anglash va saboq chiqarish.* “O‘tkan kunlar” romani XIX asrning ikkinchi yarmidagi Turkiston voqealarini tasvirlaydi. Asarda Otabek va Kumushning muhabbati asosiy syujet bo‘lsa-da, muallif bu orqali o‘sha davr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritadi. Qodiriy o‘z asarida o‘tmishdagi ijtimoiy adolatsizliklar, nodonlik, urf-odatlar va siyosiy

beqarorlikni tanqid qiladi. Bu orqali u o‘quvchini tarixiy xotirani anglashga va undan saboq olishga undaydi . [3]

*Ma’naviy uyg‘onish: milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotga intilish.* Roman jadidchilik harakati g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Otabek obrazi orqali muallif ma’rifat, taraqqiyot, ayollar huquqlari va jamiyatdagi islohotlar zarurligini ko‘rsatadi. Kumush obrazida esa o‘zbek ayolining erkinlikka, bilimga intilishi aks ettirilgan. Bu orqali Qodiriy o‘zbek jamiyatining ma’naviy uyg‘onishiga hissa qo‘shgan. “O‘tkan kunlar” romani orqali Qodiriy o‘quvchini o‘tmishni anglashga, undan saboq olishga va jamiyatni isloh qilishga undaydi. Bu roman o‘zbek adabiyotining durdonasi bo‘lib, bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

*Xulosa.* Abdulla Qodiriy – o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi, milliy ong va madaniyatni uyg‘otishga xizmat qilgan ijodkor. Uning “O‘tkan kunlar” asari jadidchilik g‘oyalarini badiiy tasvirlashda muhim o‘rin tutadi. Bu asar adabiy merosimiz, ma’naviy kamol va milliy uyg‘onish uchun muhim yo‘llanma sifatida ahamiyatga egadir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi. https://oz.sputniknews.uz/20190410/abdulla-qodiriy-hayoti-va-ijodi-22340395.html.
2. Qodiriy, Abdulla. “O‘tkan kunlar.” -T., 1926.
3. “O‘tkan kunlar” romani haqida. https://uzbekistan.travel/uz/o/otkan-kunlar-romani.
4. Is’hoqov, A. Jadidchilik va adabiyot. -T.: Ma’naviyat, 2008.

# JADIDCHILIK G‘OYALARI VA MILLIY TARBIYA TIZIMI

***Hayitmurodova Gulinur Zafarovna***
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*
*Ingliz filologiyasi fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jadid ma’rifatparvarlari g‘oyalarining zamonaviy milliy tarbiya tizimidagi ahamiyati, ulardan qolgan ma’naviy merosning bugungi kun ta’lim tizimiga qo‘shayotgan hissasi haqida so‘zlaydi. Shuningdek, maqolada jadidlarning tarbiya borasidagi qarashlari hozirgi O‘zbekiston ta’lim va tarbiya tizimidagi milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan solishtirilib, ularning uyg‘unligi ko‘rsatib beriladi. Ma’naviy immunitetini shakllantirish va milliy tarbiya tizimini rivojlantirishda jadidlar qoldirgan adabiyotlardan samarali foydalanish zarurligini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** jadid, ma’naviyat, tarbiya, ta’lim tizimi, madaniyat, milliylik, qadriyatlar, jamiyat, adabiyotlar.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayoni turli sohalarda o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda, jumladan, axloqiy va madaniy sohalarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatayotgani hech birimizga sir emas. Aynan shunday bir holatda, muhitda o‘zbek xalqi tarixida chuqur joy egallagan jadid ma’rifatparvarlarining ma’naviy merosi, ular qoldirgan adabiyotlar o‘zlikni saqlash, qadriyatlarni unutmaslik, axloq va ma’rifat tushunchalarining yonma-yon turishini haqiqiy hayotiy misollar, uzoq izlanishlar orqali sharhlab berishadi. Shuning uchun ham orqadan salkam bir asr o‘tishiga qaramasdan, ta’lim va tarbiya tizimida ularning g‘oyalaridan foydalanish jamiyat hayotida milliy an’analarning qadrlnashida muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlar nafaqat ta’lim sohasini isloh qilish, balki xalq ongini yangilash, ma’naviy uyg‘onishga erishish, milliy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlash yo‘lida izchil harakat qilganlar. Ularning tarbiya, axloq, vatanparvarlik va din borasidagi ilg‘or qarashlari zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida ham o‘z aksini topmoqda. Jadidchilikning tariximizda tutgan ahamiyati shundaki, birinchi bo‘lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos solinadi, g‘aflat uyqusida yotgan mazlum Sharqni uyg‘otadi va ko‘zini ochdi, ozodlik, erk, milliy g‘urur va sha’n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to‘g‘risida jar soldi, ovoza qildi. Jadidlarning buyuk tarixiy xizmatlari shundan iboratki, ular yetilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda evolyutsion islohot yo‘li asosida ishlab chiqdilar, ijtimoiy-davriy tuzum o‘zgarishlarining eng samarali yo‘lini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yo‘q qilishga urunadilar [1].

**Asosiy qism.** Jadidlar olib borgan ta’lim siyosatidan ko‘plab narsalarni o‘rganish va ulardan andoza sifatida foydalanish mumkin. Jumladan, ular ochgan maktab nafaqat ilmni, balki milliylikni, asrlar davomida shakllangan an’ana va qadriyatlarni ham targ‘ib qilishda yetakchi bo‘lishgan. Sababi, qachonki millat uyg‘onadi, qachonki unga zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda xalqning tarixi, o‘tmishi, tili va eng asosiysi, qadriyatlarli haqida tushunchalar berilsa. Modomiki, yoshlar o‘z vatani, ajdodlari tarixi, ular ilgari surgan g‘oya va qarashlar, amal qilgan an’analardan xabardor bo‘lmas ekan, modomiki, ular faqat zamonaviy ilmglarni o‘rganishga jalb qilinar ekan, u davlatning rivojlanishi va boshqa rivojlangan mamlakatlar orasidan joy egallashi ehtimoldan ancha yiroq holga aylanadi. Faqatgina bilim olishning o‘zi insonni ma’naviy yetuk qilib qo‘ymaydi, balki milliy an’analarga sodiq qolish, millat hayotiga, tarixiga e’tiborsiz bo‘lmaslik, odamni anchagina yuksak cho‘qqilarga

olib chiqa oladi. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari aloxida e’tiborga molikdir. Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.
3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish [2].

Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

**Xulosa.** Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlar jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir [3]. Jadidchilik harakati xalqning o‘zligini anglash, milliy madaniyat va qadriyatlarni asrash hamda yosh avlodni sog‘lom, vatanparvar, iymonli etib tarbiyalash yo‘lida muhim poydevor yaratdi. Bugun ushbu g‘oyalarni chuqur o‘rganish, ularni zamonaviy tarbiya tizimiga tatbiq etish orqali nafaqat ma’naviy uyg‘onish, balki sog‘lom jamiyat qurishga erishish mumkin.

Shunday ekan, jadidlar merosini o‘rganish – bu tarixga murojaat emas, balki kelajak sari dadil qadamdir. Ularning g‘oyalarini bugungi tarbiya tizimi bilan uyg‘unlashtirish orqali biz globallashuvning salbiy ta’sirlariga qarshi milliy ruh va ma’naviyat asosida mustahkam tura olamiz.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Poziljonov, J. (2021) "*Jadidchilik va milliy uyg‘onishda g‘oyaviy qarashlar hamda tarrg‘ibot usullari*". International conference on teaching, education and new learning technologies.
2. Achilov, B. (2019) *"Jadidlarning maqsadi, haqiqiy yutuqlari va zamonaviylik"*. Tarjumon.uz.
3. https://xs.uz.

# MA'RIFATCHILIK G'OYALARI - YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH OMILI

***Ismatova Sevara Jasur qizi***
*O‘zDJTU, Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** So‘nggi yillarda O‘zbekiston jadal rivojlanish yo‘liga o‘tdi. Turli sohalarda chuqur islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar jamiyat hayotini yaxshilash, fuqarolarning huquqlarini ta'minlash va zamonaviy davlat qurish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Ammo shuni unutmasligimiz lozimki, mana shu tinch hayotimizgacha ko’plab jadid bobokalonlarimiz mashaqqatlar chekkan, hatto o’z jonlarini ham berishgan. Ular sababli davlatimiz yangi , zamonaviy ta’limga qadam tashladi. Bu esa kelajakda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishimizni ta’minlab beradi.

**Kalit so’zlar.** Jadidchilik, ma’naviyat, Uchinchi Rennesans, islohotlar.

**Kirish.** Ma'rifatchilik – bu xalqni ilmga, tafakkurga, o'zligini anglashga undovchi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim g'oyalardan biridir. O'zbek xalqining tarixida bu g'oyaning shakllanishi, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kuchli namoyon bo'ldi. Ayniqsa, jadidlar deb atalgan ma'rifatparvarlar harakati orqali bu g'oyalar o'zining chinakam ijtimoiy ta'siriga ega bo'ldi. Bugungi Yangi O'zbekistonda ham ma'rifatchilik g'oyalari davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

**Asosiy qism.** Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan bo'lib, uning asosiy maqsadi xalqni johillikdan chiqarish, ilm-fan, texnika, zamonaviy ta'lim orqali taraqqiyotga yetaklash edi. Ismoil G'aspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi siymolar bu harakatning etakchilari sifatida namoyon bo'lishdi [1]. Jadidlar eski usuldagi maktablar o'rniga yangi usuldagi maktablar tashkil qilishdi, o'quv dasturlariga fan, matematika, geografiya, tabiatshunoslik, tarix kabi darslarni kiritdilar. Ular gazeta va jurnallar chop etish orqali xalqni ma'rifatli qilishga intilishdi. Masalan, "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoi Turkiston" kabi nashrlar bu yo'nalishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, jadidlar ayollar ta'limiga alohida e'tibor qaratishdi. Munavvarqori ilk marta qizlar uchun maktab ochgan, Behbudiy esa "Padarkush" kabi asarlar orqali jamiyatdagi illatlarni fosh qilgan. Shunday xalqi uchun ko’plab qiyinchiliklarga, azoblarga chidagan , qiynoqlarga duchor qilingan bo’lsa-da, umuman sinmagan, qaytadan yana turishga jur’at topa olgan haqiqiy Tukiston farzandlarining nomini qanday qilib ulug’lamaslik mumkin?! Yo’q, mumkin emas. Aksincha, ularning

g’oyalarini yanada mukkamallashtirib xalqqa taqdim etishimiz, millatni jaholatdan chiqarishimiz lozim.

Mustaqillikdan so'ng, xususan, so'nggi yillarda O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy sohani takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Uchinchi Renessans" g'oyasi bu borada asosiy yo'nalishlardan biridir. Yoshlar ma'naviyatini oshirish, ularni ilmga, kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida "Yangi O'zbekiston" universitetlari, Prezident maktablari, ijod maktablari tashkil etildi. 2020-yilda tashkil etilgan Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ma'naviyat soati" kabi loyihalar orqali aholining keng qatlamlarini qamrab olishga harakat qilinmoqda. Shuningdek, "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyati, O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha milliy konsepsiya, maktab darsliklarining yangilanishi, ta'limda STEAM tizimining joriy qilinishi - bularning barchasi zamonaviy ma'rifatchilik g'oyalarining amaliy ifodasidir. [2]

Jadidlarning asosiy tamoyillari - ilm, tafakkur, ma'rifat orqali taraqqiyotga erishish bugungi islohotlarda o'z aksini topmoqda. Ularning "Millatni saodatga eltuvchi yo'l - bu ilm va ma'rifat" degan shiori Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining tamal toshiga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlari bunga dalildir: "Biz Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun, avvalo, ma'rifat, ta'lim va tarbiyani birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak" (2021-yil, Xalq ta'limi tizimidagi islohotlar yig'ilishi). Shuningdek, bugungi kunda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativ tafakkur, milliy qadriyatlar asosida zamonaviy bilimlar berish orqali jadidlar orzu qilgan jamiyatga yaqinlashmoqda.

**Xulosa.** Ma'rifatchilik g'oyalari – bu o'tmishdan kelayotgan, bugun yangilanayotgan va ertangi kunga zamin yaratadigan tamoyillardir. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida bu g'oyalarning o'rni beqiyos. Jadidlar merosi esa zamonaviy islohotlar uchun ilhom manbai, ma'naviy tayanchdir. Ularni chuqur o'rganish, yosh avlodga yetkazish va amaliyotga joriy etish orqaligina biz Uchinchi Renessans sari dadil qadam qo'yamiz. Aytishadi-ku, uyg’onganlarning vazifasi uxlayotganlarni uyg’otishdir. Biz nafaqat o’zimizni uyg’otishimiz, balki kelajak avlodning ham ma’naviyatini uyg’otishga jadid bobolarimiz kabi harakat qilishimiz darkor.

**FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. Karimov, T. (2020). Jadidlar ma’rifatparvarlik merosi. -T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

2. Mirziyoyev, Sh. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -T.: "O‘zbekiston" nashriyoti.

3. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston – yangi imkoniyatlar mamlakati" – T.: O'zbekiston, 2021.

## TARIXIY DRAMALARDA MISTIK OBRAZ TALQINI

***Zaripova Aziza Marif qizi***
*O'zDJTU Ingliz Filologiyasi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarixiy dramalarda qo'llangan "mistik" obrazlar tahlilga tortiladi. Ularning asardagi ma'nosiga ham e'tibor qaratiladi.
**Kalit so'zlar:** obraz, tarixiy drama, mistik obraz, to'qima obraz, drama syujeti, kulminatsiya.

Hozirgi paytda yozilayotgan tarixiy dramalarning deyarli barchasida tush, arvoh yoki ruh kabi "mistik" obrazlar faol qatnashadi. Albatta, tarixiy dramalardagi bu "mistik" obrazlarda katta ma'no bor. Bular - xulosa, qissadan hissa, o'limga ishora, ogohlantirish kabi ma'nolarini bildirib keladi.

Usmon Qo'chqorning "Imom Buxoriy" she'riy dramasida "mistik" obrazdan mohirona foydalangan. Dramaning beshinchi parda oxirida tuhmatlarga, malomatlarga qolgan Imom Buxoriyning ko'ziga tush va hush orasida Ona ko'rinadi. Ona unga ruhiy dalda beradi. O'g'liga qarata shunday gaplarni aytadi:

**Ona**

*Bu dunyoda xor vujudning g'amini yema.*
*Ko'p ajoyib sirlar borkim,anglarsan hali,*
*Mezon- inson vujudimas, ilmu amali.*
*Ko'pi ketib, ozi qoldi, chekmagin alam.*
*Yana biro z sabr et... sabr et... sabr etgil, bolam...*[1]

Bunda ona o'z o'g'liga hayoti oz qolganini, bu dunyodagi xo'rliklarga biroz chidashi lozimligini uqtiradi. Chin dunyoga ketish fursati oz qolganligini ta'kidlayabdi. Bu bilan dramaturg Imom Buxoriyning o'limiga ishora qilyabdi. Aynan mana shu motiv va jarayon boshqa dramalarga ko'chgan, bu dramadan na'muna sifatida foydalangan. Masalan: Usmon Nosirga bag'ishlangan tarixiy dramalarda shu – "ona" "mistik" obrazi qo'llaniladi.

Nazar Eshonqulning "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramasida ham tush motivi qo'llaniladi. Dramaning beshinchi ko'rinishida Sulton Muhammad taxt

[1] Qo'chqor U. Imom Buxoriy. – Toshkent: O'zbekiston, 2020 . - B. 99.

vorisi qilib Jaloliddinni tayinlaydi. Bundan oldin esa tush ko'radi. Sulton Muhammadning tushi: "Birinchi qurolsiz Jaloliddin paydo bo'ladi. So'ngra qo'lida oy bolta ko'targan Chingizxon ko'rinadi. Bu ikkalasiga qarab turgan Sulton Takeshning ruhi tepada paydo bo'ladi. Ular qanaqadir tushunarsiz tilda gaplashadi. Sulton Muhammad vahima bilan cho'chib uyg'onadi. U terlab ketgan. Hansiraydi"[2]. Yovuz g'anim bo'lgan Chingizxonga faqat Jaloliddingina qarshi kurasha olishiga ishora qiladi. Bu tushni qayta va qayta ko'rgandan so'ng mashvarat chaqirib, aynan uni taxt vorisi qilib tayinlaydi.

A.Oripovning "Sohibqiron" asarining beshinchi sahnasida mistik obrazlar qatnashadi. Amir Temur Xitoyga qarshi yurish qilar ekan, yo'lda Turkistonda Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarisiga kirib o'tadi. U yerda duo qiladi. Darvish, Hazrati Xizr, Yassaviy qiyofalarini ko'radi. Aslida u Hazrati Xizr bo'lib, avval Darvesh qiyofasida ko'rinadi. So'ngra xayrlashib ketar ekan, sohibqiron uni barmog'idan tanib qoladi. Jangga otlangan sohibqironga Yassaviy ortga qaytishni tavsiya qiladi. Amir Temurga fotiha berib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Sohibqiron tush yoki xush ekanligini bilmasdan hayron qoladi:

*O'ngimmi buy o isitma alangasimi?*

*Avval Darvesh, keyin Xizr, so'ngra Yassaviy…*

*Biz bilmagan sir-sinoat ko'pdir olamda.*

*Gohi-gohi aytar edi rahmatlik otam,*

*Mening fotih bo'lishimni tushda ko'rganin.*

*Ko'p g'alati suhbat qurdi anavi zotlar*

*Balki, ular rostdan keldi, balki, xayoldir…*

*Ne bo'lsa ham Inson zoti yolg'iz qolmasin,*

*Hech bo'lmasa gaplashsin u o'z-o'zi bilan*[3].

O.Yoqubovning "Avlodlarga vasiyat" dramasida ham mistik obrazlar mavjud bo'lib, sohibqiron ko'ziga vafot etgan sevgilisi Suluvko'z ko'rinadi. Bu ko'rinish tarixiy dramani boshi va yakunida sodir bo'ladi. Bundan tashqari sohibqironning ko'ziga yovuz g'animlari sarkardalar Chingizxon, To'xtamishxon va Sulton Boyazidlar ko'rinadi. Sohibqiron Amir Temur tushida ularni ko'rak ekan, dahanaki jang qiladi. Chingizxon bilan savol-javob qilar ekan, nimaga yurtini vayron qilganini so'raydi. O'rnidan turib Chingizxonga

---

[2] Eshonqul N Jaloliddin Manguberdi . Tarixiy drama. Qo'lyozma. –B. 15

[3] Oripov A. Sohibqiron. (She'riy drama). Pir nashriyoti. – T.: 2022. – B . 103.

tashlanmoqchi bo'ladi. "Amir Barlos. Ne bo'ldi? Tinchib uyquga ketdilarmu? Qalqonbek. Bilmam, Amirim. Hanuz alahsiraydur, ko'ziga birda To'xtamishxon, birda Sulton Boyazid, birda Chingizxon keladur. Xalil Sulton. (Hakimga). Bir chorasini qilg'aysiz, janob Hakimi a'zam. Dori-darmon qiling! Hakimi A'zam. Hazratlarning es-hushlari joyidadur, faqat ruhi bezovdadur, xolos. Inshoollo o'ziga kelib qolur"[4].

Demak, hakimning fikricha sohibqironning es-hushi joyida bo'lib, uning faqat ruhiyati bezovda bo'layabdi. Asar yakunida tush va hush orasida Suluvko'z yana ko'ziga ko'rinadi. U bilan suhbat quradi. Suluvko'z bu tomonga kelishga shoshilmaslikni aytadi. Tarixiy drama shunday yakun topadi: "Sohibqiron. Bibim! Bibijonim! Izlay-izlay keksayganda topgan duru-gavharim! (Yostiqqa bosh qo'yadi. Tashqaridan hamma yopirilib kirib, to'shak atrofiga tiz cho'kadilar. Shamlar so'nadi. Qorong'uda "Yo rab, yo rab! Olloi taolo rahmat qilg'ay" degan xitoblar eshitiladi. Yiroqdan boshlangan navo sadosi asta-sekin kuchayib, avjiga chiqadi)"[5]. Sohibqiron o'limi oldidan sevgilisi Suluvko'zni ko'radi. Tarixiy dramada dramaturg muhabbat mavzusini estetik ideal qilib olgan. Asarda Sohibqiron Amir Temurdek inson ham muhabbat oldida ojiz degan xulosaga keladi.

U.Azimning "Amir Temur. Adolat fasli" tarixiy dramasida ham mistik obraz qo'llanilgan. Dramaning birinchi ko'rinishida tush va hush orasida Amir Temurning ko'ziga piri –Zayniddin Abubakr Taybodiy ko'rinadi. Ular o'rtasida suhbat bo'lib o'tadi. Amir Temurga "adolatning etagidan mahkam" ushla deb maslahat beradi. Har qanday sharoitda ham o'zining tuzgan amallarga amal qilishini ta'kidlaydi. Ustoz shogirdiga har tomonlama mukammal nasihatlar qiladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarixiy dramalarda faol qo'llangan "mistik" obrazlar asar uchun katta ahamiyatga ega. Ular ma'lum bir ma'noni anglatib keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 2000.
2. Oripov A. Sohibqiron she'riy dramasi. PIR nashriyoti., –T.: 2022. -112 b.
3. Ёқубов О. Қайдасан Морико. Шарқ. –Т.: 2002. –432 б.
4. Усмон А. Амир Темур. Адолат фасли. Тарихий драма // Театр, 2018 йил, № 2–3.


[4] Ёқубов О. Қайдасан Морико. Шарқ. – Т.: 2002. – Б. 260-261.
[5] Ёқубов О. Қайдасан Морико. Шарқ. – Т.: 2002. Б. - 267-268

# ‘’MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI” G’OYASI AMALGA OSHIRISHDA JADIDLAR ILMIY-MA’RIFIY MEROSINING AHAMIYATI

***Isroilova Moxizar Olimjon qizi***
*O‘zDJTU, Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ezgu g‘oyani amalga oshirishda jadidlar harakati va ularning ilmiy-ma’rifiy merosining o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Jadidlarning islohotchilik faoliyati, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotga erishish yo‘lida olib borgan kurashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning ilg‘or g‘oyalari zamonaviy islohotlar bilan uyg‘unlashib, yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga zamin yaratmoqda.

**Kalit so‘zlar:**Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy tiklanish, yuksalish, islohot, ilm-fan, ma’naviyat, o‘zlikni anglash.

**Kirish.** Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ushbu g‘oyaning shakllanishi va mazmunan boyib borishida XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan jadidlar harakatining o‘rni beqiyosdir. Jadidlar – o‘z davrining ma’rifatparvar va ilg‘or fikrli vakillari bo‘lib, xalqni ilmga, tafakkurga, o‘zligini anglashga da’vat etgan. Ularning boy ilmiy-ma’rifiy merosi hozirgi islohotlar davrida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

**Asosiy qism**: Jadidchilik harakati va uning mohiyati Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon Sharqida, xususan, Turkiston o‘lkasida paydo bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy oqimdir. Uning asosiy maqsadi xalqni johillikdan, savodsizlikdan chiqarish, ilm-ma’rifat bilan jamiyatni yuksaltirish edi. Jadidlar Yevropa taraqqiyotini o‘rganib, o‘z yurtining ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ilg‘or g‘oyalarni olib kirishga harakat qilgan.

Jadidlar, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov singari ziyolilar yangi usuldagi maktablar ochdi, darsliklar yaratdi, teatr va matbuot orqali xalqni uyg‘otishga intildi. Ularning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir”, degan chaqiriqlari bugungi ta’lim-tarbiya islohotlariga hamohangdir.

Jadidlar o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosini tiklash, milliy o‘zlikni saqlash va mustahkamlash yo‘lida faol harakat qildilar. Ular milliy til,

adabiyot, san’at va urf-odatlarni qadrlashga da’vat etgan. Bu esa “Milliy tiklanish” g‘oyasining tub mohiyatini tashkil etadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar – ta’lim tizimini isloh qilish, yoshlarni ilm-fanga yo‘naltirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash kabi tashabbuslar jadidlarning orzu-umidlariga uyg‘undir. Bu g‘oyalarni chuqur o‘rganish va amalda qo‘llash “milliy yuksalish” sari dadil qadam tashlashga xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar – ta’limda sifatni oshirish, yosh avlodni ilm-fan, kasb-hunar va innovatsiyaga yo‘naltirish, tarixiy merosni asrash va uni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish – bularning barchasi jadidlarning ilg‘or qarashlari bilan uyg‘undir. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston – yangi ma’rifat va taraqqiyot makonidir” degan chaqiriq bevosita jadidlar maqsadining davomi sifatida talqin etilishi mumkin.

**Xulosa.** Jadidlarning ilmiy-ma’rifiy merosi – bu xalqimizning ma’naviy boyligi, milliy tiklanish harakatining asosi va yuksalish yo‘lidagi yo‘lchi yulduzidir. Bugungi kunda ularning boy merosini chuqur o‘rganish, zamonaviy talablarga mos holda targ‘ib qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini to‘la amalga oshirish uchun jadidlar merosidan ilhom olish va uni amaliyotga joriy etish zarur.

**FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. Behbudiy M. “Padarkush”, “Hind ixtilolchilari” –T.: “Adabiyot”, 1991.
2. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq” – T.: “O‘qituvchi”, 1992.
3. Qodirov B. “Jadidlar harakati tarixi” – T.: “Ma’naviyat”, 2005.
4. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’ruzalaridan.
6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

## NEYROLINGVISTIKA VA PSIXOLINGVISTIKA

***Keldiyorova Mohichehra Otabek qizi***
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada neyrolingvistika va psixolingvistika fanlarining mohiyati, ularning lingvistik va psixologik asoslari hamda zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni keng qamrovda yoritilgan. Neyrolingvistika til va miya faoliyati o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni o‘rganadi, psixolingvistika esa tafakkur va til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur tahlil qiladi. Maqolada bu

fanlarning kelib chiqish tarixi, asosiy ilmiy yondashuvlari va amaliy ahamiyati batafsil ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** neyrolingvistika, psixolingvistika, tilshunoslik, tafakkur, miyaning faoliyati, til o‘rganish.

**Kirish:** Til inson tafakkuri va ijtimoiy faoliyatining ajralmas qismidir. Lingvistikaning turli sohalari orasida neyrolingvistika va psixolingvistika tilning inson miyasi va psixologiyasi bilan bog‘liqligini chuqur o‘rganadi. Ushbu maqolada neyrolingvistika va psixolingvistikaga oid asosiy tushunchalar, ularning til o‘rganishdagi roli, tarixiy taraqqiyoti va tadqiqot metodlari yoritiladi. Neyrolingvistika – til va miyaning o‘zaro bog‘liqligini chuqur o‘rganadigan ilmiy soha bo‘lib, nevrologiya, psixologiya va tilshunoslik bilimlarini birlashtiradi. Neyrolingvistika asosan miya qismlarining tilni qanday qayta ishlashini, til buzilishlarining sabablari va ularni davolash usullarini tadqiq etadi. Til funksiyalarini boshqaruvchi asosiy markazlar sifatida Broka va Vernike markazlari tan olinad[1].

Psixolingvistika esa til va psixika o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qiladi. Ushbu ilmiy soha doirasida insonning so‘zlarni qabul qilishi, idrok etishi, xotirada saqlashi va nutq orqali ifodalashi kabi jarayonlar o‘rganiladi[2].

Psixolingvistik tadqiqotlar asosida til o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqish, nutq buzilishlarini aniqlash va tuzatish imkoniyatlari yaratiladi. Neyrova psixolingvistik tadqiqotlar orqali tillarni o‘rganish, ikkinchi tilni o‘zlashtirish, bolalar va kattalardagi til rivojlanishini, shuningdek, til bilan bog‘liq kasalliklarni chuqur o‘rganish imkoniyati mavjud[3].

Neyropsixologiya esa inson miyasining xatti-harakatlari va ruhiy holatlari bilan til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq etadi. Ushbu soha, til orqali ifodalangan fikrlarning ruhiy jarayonlarga ta’sirini va shuningdek, ruhiy holatlarning tilni ishlatishda qanday aks etishini o‘rganadi.

Til va xatti-harakat munosabatlari o‘rganilganda, inson psixikasida tilning o‘rni va ahamiyati yanada oydinlashadi. Bu esa dominatsiya, o‘zaro faoliyat va ijtimoiy aloqalar kabi tushunchalarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, tilning ijtimoiy kontekstdagi roli ham muhim ahamiyatga ega[4].

Tilshunoslik, nevrologiya va psixologiyaning interdisiplinar tadqiqotlari orqali tilni o‘rganish jarayonidagi takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi va hamkorlik asosida rivojlantiriladi[5].

Hozirgi kunda neyrolingvistika va psixolingvistika sohalari bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda, bu esa til va mintaqalar o‘rtasidagi

aloqa va murakkab o‘zaro bog‘liqliklarni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tilning rivojlanishi va evolyutsiyasi insoniyat tarixidagi madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan aloqador, shuningdek, milliy identitet va tushunchalarning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi[6].

Shu bilan birga, til va axborot texnologiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tilni ishlatish usullari va madaniy kontekstlarning o‘zgarishi o‘z navbatida, tilshunoslar va psixologlar uchun yangi tadqiqot yo‘nalishlarini taqdim etadi. Misol uchun, onlayn til o‘rganish platformalari va mobil ilovalar orqali til o‘rganish jarayoni, talabalarning xotira va e'tibor jarayonlariga qanday ta'sir qilishi o‘z tadqiqot obyekti bo‘ladi. Yana bir muhim jihat, til va insonlarning ijtimoiy identitetlari o‘rtasidagi munosabatlardir. Tilni tanlash va kommunikatsiya usullari, insonlarning ijtimoiy maqomi, guruhga oidligi va madaniy merosi bilan chambarchas bog‘liq. Jumladan, majburiy bilingvizm va ko‘p tillilikning inson psixologiyasiga ta'siri, shuningdek, shaxsning ijtimoiy integratsiyasi uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida ham o‘rganish lozim[7.]

Kelajakdagi tadqiqotlar, yangi texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi va inson psixikasidagi tilning o‘rni haqida chuqurroq bilim olish uchun ko‘plab yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa faqat zamonaviy tilshunoslik va psixolingvistika sohalariga emas, balki ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga, madaniyatlararo anglashuvni kuchaytirishga va bilim almashish jarayonini boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, neyrolingvistika va psixolingvistika sohalari zamonaviy tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ularning yordamida insonning til faoliyati, til o‘rganish va ifodalanish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Bu fanlar orqali til va tafakkur, miyaning faoliyati hamda til o‘rganishdagi murakkab jarayonlar to‘g‘risida ilmiy asoslangan tasavvur shakllanishi mumkin.

Shuningdek, bu sohalar insonlarning til orqali muloqot qilish usullarini va bu jarayondagi kognitiv jarayonlarni ham o‘rganadi. Neyrolingvistikaning asosiy maqsadi tilni inson miyasi qanday qabul qiladi va qayta ishlaydi, shuningdek, buni qanday qilib samarali o‘rganish va o‘rgatishda qo‘llash mumkinligini aniqlashdir. Psixolingvistika esa tilning psixologik aspektlariga e'tibor qaratadi, ya'ni tilni tushunish va ifodalash jarayonida mavjud bo‘lgan psixologik omillarni chuqur o‘rganadi.

Bu fanlar, shuningdek, turli tillarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning inson tafakkuriga ta'siri haqida bilim berish orqali, til o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Masalan, tilni o‘rganishda individual farqlar va motivatsiya darajasi, o‘rganish texnikalari hamda madaniy kontekstning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Neyrolingvistika va psixolingvistika, shuningdek, ta'lim jarayonlarida til o‘rganish metodlarini takomillashtirishga yordam berish, innovatsion yondashuvlarni kiritish bilan birga, umumiy bilim va tafakkurni rivojlantirishga ham zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:


1. Friederici, 2011: https://doi.org/10.1152/physrev.00006.2011.
2. Aitchison, 2003: https://www.routledge.com/The-Articulate-Mammal-An-Introduction-to-Psycholinguistics/Aitchison/p/book/9781138163804.
3. Gazzaniga et al., 2018: https://wwnorton.com/books/9780393603170.
4. https://www.hup.harvard.edu/catalog.php? isbn=9780674017641.
5. Kaan, 2014: https://doi.org/10.1075/lab.4.2.05kaa.
6. Pinker, 1994: https://www.harpercollins.com/products/the-language-instinct-steven-pinker.
7. Vygotsky, 1986: https://mitpress.mit.edu/9780262517713/thought-and-language.


# ABDULLA AVLONIYNING MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATI TARIXIGA DOIR


***Zaripova Aziza Marif qizi***
*O’zDJTU Ingliz Filologiyasi 1-kurs talabasi*


***So‘zda — she’r,***
***yurakda — xalq,***
***qalbda — Vatan!***


**Annotatsiya:** Mazkur maqola o‘zbek xalqining ulug‘ ma’rifatchisi, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri – Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarlik faoliyati tarixiga bag‘ishlanadi. Uning jadidchilikdagi o‘rni, ochgan maktablari, yozgan asarlari hamda xalqni ilm va ozodlik sari yetaklovchi g‘oyalari manbalar asosida yoritiladi. Maqola yosh avlodga milliy g‘urur, fidoyilik va ma’naviy uyg‘onish ruhini singdirishda muhim ahamiyatga ega**.**



**Kalit so’zlar:** muallim, milliy o‘zlik, advokat, drama, teatr, gazeta, fel’eton.

O‘tgan XX asr – uyg‘onish asri edi. Uyg‘onishga esa qalblarni junbushga keltiradigan fidoiy, vatanparvarlar kerak edi. Abdulla Avloniy ana shunday uyg‘otuvchilardan biri bo‘ldi. U o‘z zamonining og‘rig‘ini qalbida his etgan, xalqiga najot so‘qmog‘ini ilm-ma’rifatda ko‘rgan, so‘z bilan ma’rifat, ma’rifat bilan millatni uyg‘otmoqchi bo‘lgan siymolardan biridir. Uning hayoti faqat bir iqtidorli shoir yoki fidoyi muallim emas, balki butun xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan haqiqiy vatanparvar sifatida tarixda qoldi [2,3,4].

U 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida kosib oilasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon mayda hunarmandchilik, to‘quvchilik bilan shug‘ullangan, bozorda bo‘z va chit bilan savdo qilgan.

Abdulla Avloniy yetti yoshdan O‘qchidagi eski maktabda ta’lim olgan. U tarjimai holida bu haqda shunday yozgan: “12 yoshimdan O‘qchi mahallasidagi madrasada dars o‘qir edim. 14 yoshimdan boshlab o‘sha zamonga muvofiq har xil she’rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda “Tarjumon” gazetasini o‘qib, zamondan xabardor bo‘ldim”.

Abdulla Avloniy maktablar uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912), «Tarix», «Turkiy guliston va axloq» (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo’lgan darsliklarni yozgan.[1] 1895 yillardan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy «Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she’r, hikoya, fel’eton va kichik hajmli dramatik asarlar (1900—1917) yaratdi.[2] Shoir o’z she’rlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tandid qilar va kishilarni bilimga, ma’rifatga chaqirar edi. Abdulla Avloniy 1917 yilgacha mahalliy xalq vakillarndan yetishib chiqqan yirik jurnalist sifatida Toshkentda «Shuhrat», «Osiyo» kabi gazetalarni tashkil etadi. U «Advokatlik osonmi?», «Ikki muhabbat», «To’y», «S’ezd», «Laylo va Majnun», «O’liklar» kabi dramatik asarlarida jaholat, bid’at, bilimsizlikning fojeali oqibatlarini, qo’pol va yaramas urf-odatlarni fosh etadi [2,3].

***Shoir: yurakka yetgan satrlar egasi***

Abdulla Avloniyning she’riyatida biz bayramona ohang emas, balki xalq dardi, xalq yig‘isi va xalq istagiga aylangan intilishlarni ko‘ramiz. “Kimki millatga xizmat qilsa, abadiy yashar,” — deb yozgan.[5] Bu so‘zlar uning hayotiy shiori bo‘ldi. Shoir sifatida u qalamni ko‘ngilni yayratish uchun emas, balki ruhni uyg‘otish, ongni o‘zgartirish uchun ishlatdi. U she’r orqali millatni ilmga, insofga, birlikka chaqirdi.

Uning she’rlari oddiy emas — ular har bir satrda kuchli ijtimoiy chaqiriq, axloqiy tarbiya va milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan. Bugun ham o‘quvchi Avloniyni

o‘qir ekan, satrlaridan zamon ovozini, o‘zgartirish istagini, ma’naviy ko‘tarilishni his qiladi.

***Vatan***

*Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,*
*Har kim sening qadring bilmas — aqli pastdur.*
*Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur,*
*Sening darding boshqa dardni tortib olur.[5]*

Shoir Vatanni muqaddas, ya’ni eng ulug‘ tushuncha sifatida tasvirlaydi. Kimki uning qadriga yetmasa, demak u aql va ongdan yiroq odamdir, degan fikr ilgari suriladi. Bu — vatanparvarlikni iymon, aql va tarbiyaning ajralmas qismi deb e’tirof etishdir. Vatanga bo‘lgan sevgi yuraklarga savdo soladi, ya’ni yurakni to‘lqinlantiradi, sog‘inch uyg‘otadi. Shoir buni chuqur his qilgan — Vatanning dardi hatto boshqa dardlarni unutdiradigan darajada kuchli hissiyot uyg‘otadi, deya ifoda beradi.

***Muallim: har harfi ibratga to‘la inson***

Abdulla Avloniy uchun muallimlik oddiy kasb emas, balki jamiyatni o‘zgartirishga qodir qudratli kuch edi. U o‘z maktablarini zamonaviy uslubda ochdi, yangi darsliklar tuzdi. *"Turkiy Guliston yoxud axloq"* asari bu boradagi eng yirik xizmatlaridan biridir. Unda faqat axloq emas, balki yurt, inson va kelajak haqidagi qarashlar, xalqni tarbiyalashga bo‘lgan mas’uliyat aks etgan [1,2].

Abdulla Avloniy aytgan edi: “Muallim – millatning ruhidir.” Bugun ham bu jumla har bir pedagog yuragida yashin bo‘lib chaqnashi kerak [1].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri sifatida o‘zini siyosiy va ijtimoiy maydonda ham ko‘rsatdi. U teatr, gazeta, ilmiy faoliyat orqali xalq tafakkurini uyg‘otdi. *“Taraqqiyot — bu erkin fikrda, bilimda, birlikda*”, deb ishongan Abdulla Avloniy hayotini aynan shunga bag‘ishladi. Uning faoliyati tufayli o‘zbek xalqida yangi tafakkur, milliy o‘zlikni anglash, ozodlikka intilish g‘oyalari shakllandi. Bu harakatlar esa XX asr o‘rtalarida xalqimizni mustaqillik sari yetaklagan eng muhim omillardan biri bo‘ldi.

Abdulla Avloniyni faqat adabiyot yoki tarix darsliklarida emas, balki har bir yosh yurakda saqlashi kerak, u bizga shunchaki she’rlar yoki darsliklar emas, balki xalqni sevish, vatan uchun fidoyilik, va hayotni ma’no bilan yashash sabog‘ini qoldirdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Turkiy Guliston yoxud axloq” A. Avloniy. –T.: Shams matbaasi, 1913.
2. “Abdulla Avloniy: hayoti va ijodi” M. Qodirov. –T.: Fan nashriyoti, 2006.
3. “Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati” A. Rahmonov. –T.: O‘zMU Ilmiy axboroti, №2, 2014.
4. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” I.A. Karimov. –T.: 2008.
5. “Avloniy she’riyati va vatanparvarlik g‘oyalari” M. Islomov. –T.: Til va adabiyot ta’limi, №4. 2017.

## JADIDLAR MEROSI: MILLIY TIKLANISH VA YUKSALISH YO'LIDAGI ASOSIY QADRIYATLAR

***Bozorboyev Eldorbek Husniddin o‘g‘li***
***Shoymardonov Ilyosbek To‘ra o‘g‘li***
*O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti*
*siyosatshunoslik yo‘nalishi 3 kurs talabasi*

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan jadidchilik harakati, uning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, milliy uyg‘onish jarayoniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Jadidlarning asosiy g‘oyalari – ta’lim-tarbiya, ilm-fan, milliy o‘zlikni anglash, islohotlar yo‘lidagi jasoratli tashabbuslari, ularning xalq ongini uyg‘otishdagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada jadidlar tomonidan ilgari surilgan milliy qadriyatlar: dunyoviy ta’lim, ona tiliga e’tibor, islohotchilik g‘oyalari, milliy mustaqillikka intilish, zamonaviy tafakkur va uyg‘onish ruhiyatining shakllanishiga asos bo‘lgan jihatlar ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, jadidchilik harakati O‘zbekiston mustaqilligi davridagi milliy tiklanish siyosati bilan uyg‘un jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy izlanishlarga tayangan holda jadidlar merosining hozirgi zamondagi dolzarbligi, yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni haqida xulosa beriladi.
**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, milliy uyg‘onish, ma’rifatchilik, ta’lim islohoti, Turkiston, milliy o‘zlik, tarixiy meros, zamonaviy tafakkur, ma’naviyat, milliy qadriyatlar.

**Kirish**. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, ma’naviy qadriyatlarni qayta baholash jarayoni jadallashdi. Ayniqsa, o‘tgan asr boshlarida yashab o‘tgan jadidlar harakati vakillarining merosini qayta o‘rganish, ularning g‘oyaviy-ma’rifiy qarashlarini chuqur tahlil qilish zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat

qilmoqda. Jadidlar – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ilm-fan, madaniyat va ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar qilishga intilgan ilg‘or fikrli ziyolilar qatlamidir. Ular milliy uyg‘onish, mustaqillik va zamonaviylik g‘oyalarini o‘zlarining bosh maqsadlari sifatida ilgari surganlar. Jadidchilik harakati Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitni yangilash, millatni jaholatdan, diniy mutaassiblikdan chiqarish, jahon taraqqiyotiga uyg‘un yo‘l bilan yetaklashga qaratilgan edi. Bu harakat vakillari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlar xalq ongini uyg‘otishga, milliy mustaqillik uchun zamin yaratishga xizmat qildilar. Ularning asarlari, nutqlari, ijtimoiy faoliyati bugungi yosh avlod tarbiyasida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidlarning asosiy qadriyatlari orasida ilm-fanni rivojlantirish, zamonaviy ta’lim tizimini yaratish, ona tilini asrash, milliy madaniyat va tarixga hurmat, ayollar huquqini tan olish, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surish kabilar alohida o‘rin tutadi. Ular o‘z davrining ilg‘or fikrli islohotchilari sifatida, milliy tiklanish va yuksalishga zamin yaratgan harakatning bosh vakillariga aylandilar. Shuning uchun ham jadidlar merosini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki bugungi kun ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti uchun ham nihoyatda dolzarb masaladir.

Bugungi globallashuv sharoitida, aholining ayniqsa, yoshlar qatlamida milliy g‘urur, tarixiy xotira, madaniy o‘zlikni saqlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatdan jadidlarning ibratli hayoti va faoliyati, ular ilgari surgan qadriyatlar zamonaviy taraqqiyotimizda yo‘lchi yulduz vazifasini bajaradi. Shu bois ushbu maqolada jadidlar harakati tarixiy jihatdan tahlil qilinib, ularning merosi bugungi milliy tiklanish va yuksalish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jadidlar harakati Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onishiga kuchli turtki bergan ma’rifiy va islohotchi harakat bo‘lgan. Ularning ilgari surgan asosiy qadriyatlari – zamonaviy ta’lim, milliy o‘zlikni anglash, ilm-fanga asoslangan taraqqiyot, madaniy merosga hurmat, ayollar huquqini tan olish va erkin fikr yuritish tamoyillari – bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Jadidlar faoliyati O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi davrda amalga oshirilayotgan milliy tiklanish siyosatiga g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning boy merosi zamonaviy yosh avlod tarbiyasida, ta’lim tizimida va ma’naviy hayotda muhim o‘rin tutmoqda.

Milliy uyg‘onish jarayonlarida jadidlar harakatining tutgan o‘rni beqiyos. Ular XX asr boshlarida jaholat zulmatida qolgan xalqni ilm nuri bilan yoritishga, uni zamonaviy taraqqiyot sari yetaklashga harakat qilgan ziyolilar guruhi bo‘lib

tarixga kirdi. Ularning faoliyati har bir sohada – ta’lim, matbuot, siyosiy ong, adabiyot va teatrda o‘z aksini topgan. Aynan jadidlar harakati orqali xalq o‘zining tarixiy o‘zligini anglay boshladi. Jadidlarning asosiy maqsadi – millatni jaholatdan xalos qilish, zamonaviy ilm-fan asosida tarbiyalangan, tafakkuri ochiq, o‘z fikriga ega avlodni voyaga yetkazish edi. 1906-yilda Toshkentda “Shuhrat” gazetasining nashri bilan boshlangan yangi matbuot an’analari xalq ongini uyg‘otishda muhim rol o‘ynadi. Matbuot orqali jadidlar o‘z g‘oyalarini keng ommaga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda “Padarkush” dramasini yozganida, u faqat adabiy ijod bilan emas, balki teatr orqali ham ijtimoiy ongni shakllantirishni maqsad qilgan edi. Bu drama orqali u mustamlakachilik siyosatini fosh etdi, zamonaviylik va milliy birlik g‘oyasini ilgari surdi. Shu bilan birga, u “Oyna” jurnalini tashkil etib, ayollar masalasi va milliy o‘zlikni saqlashga oid ko‘plab maqolalar chop ettirdi. Jadidlar ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga intildilar. An’anaviy maktablar o‘rniga yangi usulda dars beriladigan maktablar (usuli jadid maktablari) tashkil qilindi. Bu maktablarda tabiatshunoslik, tarix, geografiya, hisob, adabiyot va boshqa dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. 1914-yilda Turkistonda 1 mingdan ortiq jadid maktablari faoliyat yuritganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Abdulla Avloniy 1915-yilda yozgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari orqali axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni ilgari surdi. Uning qarashlari bugungi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarimizda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Avloniy: “Ma’rifat – najot yo‘lidir”, – deya bejiz aytmagan. Jadidlar o‘z asarlarida nafaqat milliy qadriyatlarni, balki o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini, mustaqillik sari intilishlarini ham ifodalaganlar. Fitratning “Hind sayohati” asari, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani, Munavvarqori Abdurashidxonovning ma’rifiy maqolalari bu jihatdan yuksak tarixiy va adabiy ahamiyatga ega.

Jadidchilik harakati nafaqat erk va taraqqiyot yo‘lidagi intilish edi, balki bu – jamiyatni uyg‘otish, millatni yangilash, o‘zligini tiklash harakati ham edi. Ularning g‘oyalari 1991-yil mustaqillik e’lon qilinganidan keyin yana bir bor jonlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu g‘oyalarning dolzarbligini ko‘p marotaba ta’kidlab o‘tgan. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar – bizning g‘ururimiz, ularning merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish barchamizning sharafli vazifamizdir” degan so‘zlari bu harakatga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Bugungi kunda O‘zbekiston bo‘ylab faoliyat yuritayotgan 3 mingdan ortiq maktab, litsey va kollejlarning darsliklarida jadidlarning hayoti va ijodiga

oid ma'lumotlar kiritilgan. Bu esa jadidchilik g'oyalarining bugungi yoshlar ongiga singdirilayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'limda milliy o'zlikni shakllantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash, yurtga sadoqat ruhida tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, jadidlarning pedagogik qarashlari, o'qitish metodikasi, darslik yozishdagi yondashuvlari qimmatli ilmiy-tarixiy merosdir.

Ayni paytda jahonda axborot xurujlari kuchaygan bir davrda, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda milliylikdan yiroqlashuvi kuzatilayotgan bir paytda, jadidlar ilgari surgan ma'naviy qadriyatlar – o'z millatiga sadoqat, ilmga rag'bat, adolatga intilish – yoshlarga yo'l ko'rsatuvchi mezon bo'lib xizmat qilishi kerak. Fitratning: "Millat taraqqiyoti ta'limga bog'liq. Ilm yo'qsiz millat – nobud millat", – degan so'zlari bugungi ta'lim strategiyalarimizning g'oyaviy asosiga aylanmoqda. Xalq ta'limi, oliy ta'lim, kasb-hunar tizimi aynan shu mezon asosida isloh qilinmoqda. Jadidlar qoldirgan adabiy, pedagogik va ijtimoiy-siyosiy merosni chuqur o'rganish, uni zamonaviy talqin qilish milliy g'oya asoslaridan biri hisoblanadi. Hozirgi islohotlar davrida bu merosni keng ommaga yetkazish – nafaqat tarixiy burch, balki kelajak avlod oldidagi mas'uliyatdir. Jadidlarning ayollar erkinligi, ularning ta'lim olish huquqiga bo'lgan yondashuvlari ham bugungi gender siyosatimizda aks etmoqda. Masalan, 1920-yillarda Behbudiy "Ayol – tarbiyaning boshlanish nuqtasi" deya ta'lim tizimida ayollarning ishtirokini targ'ib qilgan edi. Bugun esa O'zbekiston Respublikasida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi 42 foizga yetdi, bu esa jadidlar orzu qilgan tenglik g'oyasining hayotga tatbiq etilayotganini anglatadi. Shuningdek, ayollarga oid qonunchilikni takomillashtirish borasida ham muhim ishlar qilinmoqda.Jadidlar tomonidan ochilgan bosmaxonalar, maktablar, teatrlar va matbuot nashrlari xalq ongini uyg'otishda beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning har biri xalqni milliy uyg'onishga chaqirgan, mustaqillik g'oyasini anglatgan bevosita harakat edi. Bu harakat 1930-yillarda qatag'onlar tufayli to'xtatildi. Yuzlab jadid ziyolilari nohaq ravishda "xalq dushmani" deb e'lon qilinib, otib tashlangan yoki surgunga yuborilgan. Biroq ularning g'oyalari yo'qolmadi, balki mustaqillik davrida yana jonlandi, millat ongiga qaytadan singdi. Shunday qilib, jadidlarning milliy o'zlikni tiklash, o'z xalqini jaholatdan olib chiqib, ma'rifat sari yetaklash yo'lidagi fidoyiligi O'zbekiston tarixida, hozirgi islohotlarda, va kelajak taraqqiyotida eng muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Bu merosni asrash, o'rganish va keng targ'ib qilish har birimizning ma'naviy burchimizdir.

**Xulosa.** Jadidlar harakati XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasining tarixiy taraqqiyotida muhim bosqich boʻlib, u milliy uygʻonish, maʼnaviy yuksalish va mustaqillik sari yetaklagan ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakat sifatida tarixda oʻz oʻrnini mustahkam egalladi. Ular oʻz davrining eng dolzarb muammolarini ilgʻab, ilm-fan, taʼlim, matbuot, teatr va siyosiy faoliyat orqali xalqqa yangicha tafakkurni singdirishga intildilar. Jadidlarning asosiy qadriyatlari – erkin fikrlash, ilm olish, zamonaviy bilimlar egallash, vatanparvarlik, ayollar huquqini tan olish va milliy oʻzlikni anglash bugungi Oʻzbekiston taraqqiyotida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maqolada tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida jadidchilik harakatining maʼnaviy-maʼrifiy asoslari chuqur tahlil qilindi. Ularning ilgʻor gʻoyalari bugungi mustaqil Oʻzbekistonning davlat siyosati, taʼlim tizimi, yoshlar tarbiyasi, gender tengligi va maʼnaviy yuksalishiga asos boʻlib xizmat qilayotgani koʻrsatib oʻtildi. Shuningdek, jadidlar merosini chuqur oʻrganish, uni targʻib qilish va hayotga tadbiq etish zamonaviy jamiyatimiz uchun strategik vazifa sifatida namoyon boʻlmoqda.

Shu bois, jadidchilik gʻoyalari nafaqat oʻtmish merosi, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun yoʻl koʻrsatuvchi maʼnaviy chiroqdir. Ularning asarlarini qayta nashr etish, maktab va oliy taʼlim tizimiga tatbiq etish, ularning ismlarini abadiylashtirish va ilmiy tadqiqotlarga asos qilib olish – milliy tiklanish yoʻlida muhim qadamlardir.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI:


1. Behbudiy, M. Padarkush. – Samarqand: Maʼrifat, 1911.
2. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Maorif, 1915.
3. Fitrat, A.R. Hind sayohati. – T.: Fan, 1990.
4. Choʻlpon, A. Kecha va kunduz. – T.: Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 1992.

**MUNDARIJA:**


***Vahob Kuchkarov,*** Historical significance of Abdurauf Fitrat's concept of national self-consciousness in education of youth................................. 3

***Zokir Zamonov,*** XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi ma’naviy-axloqiy jamiyatlar ........................................................................... 11

***Ilhom Dilmurodov,*** Behbudiy falsafasida milliy o‘zlikni anglash va ma’rifatparvarlik........................................................................... 15

***Muxammad Isomov,*** Yangi o‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyotni ta’minlashda jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ahamiyati ........................................................................ 20

***Bekzod Rasulov,*** Ma‘rifatchilik g‘oyalarining O‘zbekiston fuqarolari siyosiy madaniyatidagi kognitiv stereotiplar va qadriyatlar taraqqiyotiga ta’siri........................................................................................ 29

***Дилором Согукпинар,*** Роль джадидов в формировании национального самосознани........................................................................................ 33

***Махбуба Баратова,*** Философские аспекты джадидского движения в Средней Азии.............................................................................. 37

***Елена Эмирова,*** Интернет и образование: за и против......................... 40

***Zokhidbek Nishonov,*** What are the legal foundations of public control in Uzbekistan?........................................................................................ 44

***Dilshodbek Salayev, Doniyor Bekchanov,*** Avaz O‘tar ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jadidchilik g‘oyalari................................................................ 49

***Dilfuza Inomova,*** Mustafo Cho‘qay, “Sovetlar hukmronligida Turkiston” asari va jadidchilik g‘oyalari....................................................................... 53

***Sabohat Yusupova,*** Jadidlar va demokratik davlatchilik g‘oyalari............. 56

***Ismoiljon Ikromov,*** Mahmudxo‘ja Behbudiyning gazetachilik faoliyati xususida........................................................................................ 59

***Iqbol Pardayeva,*** Jadid matbuoti va “Til masalasi”: Behbudiy merosining zamonaviy talqini........................................................................... 63

***Sevara Raximova,*** Yangi O‘zbekistonda ma’naviy tarbiyani amalga oshirishning asosiy mexanizmlari va omillari........................................... 66

***Dilshodbek Salayev, Doniyor Bekchanov,*** Behbudiy qarashlarida ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot masalalari.................................................................... 71

***Ilhom Dilmurodov,*** Jadidlar falsafasida bilish nazariyasi va madaniy meros 74

***Шахризода Ахмедова,*** Современное осмысление просветительских

идей в контексте духовного развития Узбекистана................................. 78

***Dilafro‘z Eshankulova, Charos Abduraimova,*** Ma’rifatchilik g‘oyalari – Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish omili.... 82

***Gulnoza Xushmatova,*** Jadid adabiyoti orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ........................................................................................ 86

***Humoyiddin Yoqubov,*** Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi, uning ilmiy-siyosiy faoliyati........................................................................................ 90

***Shodiya Turdiyeva***, Sakkokiy g‘azaliyotida sham’ va parvona obrazi........ 94

***Aziza Xayrullayeva,*** Jadidlarning milliy yuksalish yo‘lida olib borgan sa’y-harakatlari va uning bugungi globallashuv davridagi ahamiyati............... 97

***Oygul Dulanbayeva,*** Mutolaa madaniyatini shakillantirishda ijtimoiy institutlarning o‘rni........................................................................................ 99

***Shodiya Turdiyeva,*** Sham’ va parvona timsollari Tavallo baytlarida............ 105

***Komiljon Payziyev,*** Abdulla Oripov publitsistikada ma’naviyat masalasi..... 107

***Shirin Toshpolatova,*** Davlat xizmatchisi kasb axloqining falsafiy tahlili..... 112

***Ren Ruyi,*** Reconstructing jadid heritage: Shaping national values in new Uzbekistan in the age of globalization........................................................ 115

***Sevinchbonu Axmadalieva,*** Ijtimoiy sheriklikning ta’lim va madaniy sohada namoyon bo‘lish shakllari.................................................................. 119

***Guljahon Aliyeva,*** Abdug‘ani Abduvaliyevning obraz yaratish mahorati 122

***Abrorbek Urazov,*** O‘zbekıstonda fuqarolık jamıyatı ınstıtutları faolıyatınıng konstıtutsıyavıy-huquqıy asoslarını tadqıq etılıshı.................. 125

***Asal Jumanazarova,*** Turkiston ma’rifatparvarlarining oila haqidagi qarashlari........................................................................................................ 129

***Durdona Muxtorjonova,*** Abdulla Qodiriyning asarlari soyasida yangragan jadid nidosi........................................................................................................ 133

***Zilola Erkinboyeva,*** “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini amalga oshirishda jadidlar ilmiy-ma’rifiy merosining ahamiyati................. 136

***Dilnoza Akbaraliyeva,*** The importance of enlightenment ideas in the process of improving spiritual and educational activities in New Uzbekistan 141

***Amina Barnayeva,*** Jadidlarning ma’rifatparlik g‘oyalari: milliy uyg‘onishning ma’naviy poydevori........................................................... 144

***Ruxshona Nabiyeva,*** Ma’rifatchilik g‘oyalari – Yangi O‘zbekistonbda m’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish omili........................................ 147

***Mubina Shokirova,*** Die sozialpolitischen und pädagogischen ansichten der intellektuellen in der ersten hälfte des 20. jahrhunderts in Turkestan............ 152
***Nilufar Shermatova,*** The essence of eastern philosophy and its role in the development of society.......................................................................................... 156
***Go'zal Raxmatova,*** Jadid adabiyoti va Abdurauf Fitratning undagi o 'rni..... 159
***Diyora Namozova,*** XIX-XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi......................................................................... 163
***Alima Jorabekova,*** Mahmudxo'ja Behbudiyning davriy nashrlardagi maqolalari: jamiyatdagi illatlar va ularni bartaraf etish yo'llari................... 167
***Vaziraxon Ahmadqulova,*** Jadidchilik faoliyatining hozirgi Yangi O'zbekiston madaniy va ma'rifiy rivojlanishidagi o'rni................................ 170
***Ozoda Aliyeva,*** O'zbekiston tashqi siyosatida milliy manfaatlarning ustuvorligi............................................................................................... 174
***Aziza Axtamova,*** Turon zaminida jadidchilik harakati.................................. 177
***Moxro'yo Abduxalilova,*** Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish jarayonida ma'rifatparvarlik g'oyalarining ahamiyati........ 181
***Zulayxo Jo'rayeva,*** Jadidchilik tarixi va O'zbekistondagi ijtimoiy roli........ 183
***Sevinch Fayzullayeva,*** Abdulla Qodiriy*ning* "O'tkan kunlar" asarida marifatparvarlik g'oyalari.......................................................................... 187
***Gulinur Hayitmurodova,*** Jadidchilik g'oyalari va milliy tarbiya tizimi........ 189
***Sevara Ismatova,*** Ma'rifatchilik g'oyalari - Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish omili...................................................... 192
***Aziza Zaripova,*** Tarixiy dramalarda mistik obraz talqini............................... 194
***Moxizar Isroilova,*** "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi amalga oshirishda jadidlar ilmiy-ma'rifiy merosining ahamiyati................... 197
***Mohichehra Keldiyorova,*** Neyrolingvistika va psixolingvistika................ 198
***Aziza Zaripova,*** Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik faoliyati tarixiga doir.............................................................................................................. 201
***Eldorbek Bozorboyev, Ilyosbek Shoymardonov,*** Jadidlar merosi: milliy tiklanish va yuksalish yo'lidagi asosiy qadriyatlar......................................... 204

# “YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA MA’RIFATPARVARLIK G’OYALARINING AHAMIYATI”

**mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to’plami**

***(2025-yil 22-may)***

Bosishga ruxsat etildi.28.05.2025 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 10.5, Adadi 100. Buyurtma № 58
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko’chasi, Segizbayeva 10a